



**Feruza ABDUJABBAROVA,**

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

*E-mail: feruzaabdujabbarova@yandex.com*

#### TURKIY TIL MANBALARI TILIDA "SAXOVAT" KONSEPTI TAHLILI

Annotatsiya

Saxiylik barcha madaniyatlarda ijobiy xususiyat sifatida qabul qilinadi. Saxiylik tushunchasidagi so'zlar, matal va maqollar, iboralar bu aql-idrokning hamda madaniyatning aksidir. Mazkur maqolada dunyo lingvomadaniyatida saxiylik konseptini o'rganish uchun qaysi so'z va iboralar ishlatilishini aniqlashga va ularni semantikasini tasniflashga qaratilgan. Jahonning ilm olamida, shu jumladan, tilshunoslik sohasida "Saxovat" konsepti yuzasidan ilmiy qarashlar tadqiqi yuzasidan bir qancha izlanishlardan ba'zilar tahlilga tortildi. Shu bilan birga, Turkiy til manbalari "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'atit turk", "Hibatul haqoyiq" tilida qo'llanilgan "saxovat" konseptiga doir leksema va birikmalar: aqi, axiliq, aqi, aqiliq, keng elig, elgi keng, elgi aqi kabilarning tahlili berildi.

**Kalit so'zlar:** Saxovat, konsept, nazariya, leksema, qadriyat, individual va ijtimoiy farovonlik, xususiyat.

#### АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ "ЩЕДРОСТЬ" НА ЯЗЫКЕ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВЫХ ИСТОЧНИКОВ

Аннотация

Щедрость воспринимается как позитивная черта во всех культурах. Слова, пословицы и поговорки в понимании щедрости являются отражением интеллекта и культуры. В данной статье рассматривается концепция щедрости в мировой лингвокультуре, с целью выявления и классификации семантики слов и выражений, связанных с этим понятием. В научном мире, в частности в области лингвистики, концепция "щедрости" изучается с различных научных точек зрения, проведены исследования и их результаты подвергнуты анализу. Кроме того, в тюркских языковых памятниках, таких как "Кутадгу билиг", "Девону лугатит турк", "Хибатул хакийок", были зафиксированы лексемы и выражения, относящиеся к концепции "щедрости": aqi, axiliq, aqi, aqiliq, keng elig, elgi keng, elgi aqi – проведен их анализ.

**Ключевые слова:** Щедрость, концепт, теория, лексема, ценность, индивидуальное и социальное благополучие, характеристика.

#### ANALYSIS OF THE CONCEPT OF "GENEROSITY" IN THE LANGUAGE OF TURKIC LINGUISTIC SOURCES

Annotation

Generosity is perceived as a positive trait in all cultures. Words, proverbs, and sayings in the understanding of generosity reflect intelligence and culture. This article examines the concept of generosity in global linguoculture, aiming to identify and classify the semantics of words and expressions related to this concept. In the scientific world, particularly in the field of linguistics, the concept of "generosity" has been studied from various scientific perspectives, and research results have been analyzed. Furthermore, in Turkic linguistic sources such as "Qutadgu Bilig", "Devonu Lug'atit Turk", and "Hibatul-Haqayiq", lexemes and expressions related to the concept of generosity have been recorded: aqi, axiliq, aqi, aqiliq, keng elig, elgi keng, elgi aqi – and their analysis has been conducted.

**Keywords:** Generosity, concept, theory, lexeme, value, individual and social well-being, characteristic.

**Kirish.** Insonning ma'naviy olamida saxovatlik eng qadrlanadigan xususiyatlardan biri sanaladi. Saxovat so'zi arabcha "سخاوة" (sakhāvat) ildizidan kelib chiqqan bo'lib, ochiqko'ngillilik, saxiylik, mehribonlik ma'nolarini anglatadi. Bu tushuncha insonning boshqalarga yaxshilik qilishga, mol-dunyasini, bilimni yoki vaqtini boshqalar bilan baham ko'rishga tayyorligi bilan bog'liq.

O'zbek tilida "saxovatli inson" deganda ehson qilishni yaxshi ko'radigan, odamlarga yordam berishga intiladigan, ochiq qo'lli inson tushuniladi. Saxovat faqat moddiy yordam bilan cheklanmaydi, balki yaxshi so'z, samimiy munosabat, bilim ulashish kabi ma'naviy jihatlarni ham o'z ichiga oladi.

Sharq donishmandlari saxovatni eng yuksak insoniy fazilatlar qatoriga qo'shib, uning axloqiy va diniy jihatdan muhimligini ta'kidlab kelganlar. Jumladan, buyuk mutafakkirlar saxovatning ijtimoiy ahamiyatini yuksak baholagan va "Saxovatli inson kambag'al bo'lsa ham, boy sanaladi" degan fikrlarni ilgari surishgan.

Saxiylik barcha madaniyatlarda ijobiy xususiyat sifatida qabul qilinadi. Saxiylik tushunchasidagi so'zlar, matal va maqollar, iboralar bu aql-idrokning hamda madaniyatning aksidir.

Mazkur maqolada dunyo lingvomadaniyatida saxiylik konseptini o'rganish uchun qaysi so'z va iboralar ishlatilishini aniqlashga va ularni semantikasini tasniflashga qaratilgan.

Jahonning ilm olamida, shu jumladan, tilshunoslik sohasida "Saxovat" konsepti yuzasidan ilmiy qarashlar tadqiqi yuzasidan bir qancha izlanishlar olib borilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** 2019- yilda Yoesoep Edhie Rachmad tomonidan "Saxiylik nazariyasi" ishlab chiqilgan [1].

Bu nazariya hayotning turli jabhalarida saxiylikni tushunish va targ'ib qilish zaruriyatidan kelib chiqqan. Yoesoep Edhie Rachmad "Saxiylik nazariyasi" kitobida dunyoda tobora ko'proq xarakterlanadigan materializm va raqobat, saxiylik qadriyatlari ko'pincha e'tibordan chetda qoladi deb ta'kidlaydi.. Ushbu nazariya jamiyatda saxiylikning shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashi va yaratishi mumkin bo'lgan asosiy qadriyat sifatida ahamiyatini tiklashga qaratilgan. Saxiylik nazariyasi saxiylikni zudlik bilan mukofot kutmasdan boshqalarga vaqt, kuch yoki mablag' berish harakati sifatida belgilaydi. Uning asosiy tushunchasi bu saxiylik nazariyasi nafaqat moddiy yordam berish, balki hissiy qo'llab – quvvatlashdir.

Rachmad "Saxiylik nazariyasi"ning asoslarini quyidagicha belgilaydi [1]:

1. ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydigan fazilat deb hisoblanadi va jamoaviy farovonlikni oshiradi.

2. saxiylik individual va ijtimoiy farovonlikka sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Saxiylik nazariyasining ishlash printsipi fidokorona berish va hamdardlikdir.

Saxiylik ko'rsatkichlariga berish yoki qo'llab-quvvatlash harakatlarining chastotasi va sifati kiradi.

Pelin Ekshining "Turk tilida semantik va morfologik saxiylik konseptsiya" nomli maqolasida saxiylik tushunchasini

turk tilida ifodalanishi tarixiy va zamonaviy yo'nalishda tadqiq etilgan[2].

Pelin Ekşi "saxiylik" konseptini O'rta turk tilida aki bol - (saxiy bo'lish uchun), aki yer, oqlik( ism saxiylik), oqilak, sehavet, kerim so'zlarini keltirgan va tahlil qilgan. U "Qutadgu Bilig" asarida ushbu tushuncha sohasida karim, aki, aki bol -, akilik, "Devon"da aki, akilamak, akilik so'zlari, bol-, aki, ar aki, akilik sozlari "Hibatul Haqoyiq"da, "Qisasul-anbiyo"da "saxiylik" ma'nosida aki, teri va sehavet bir marta ishlatilgani haqida aytgan[2].

"Saxovat" konsepti haqida so'z borganda avvalo "saxiy" so'zining izohini tushunib olish muhim. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'zga shunday izohlar keltirilgan [7]:

Saxiy [a. qo'li ochiq, saxovatli, himmatli, oliyhimmat]

Hech kimdan narsasini ayamaydigan: hotam, hotamtoy: tanti. Saxiy topsa bo'lib yer, baxil topsa, bosib yer Maqol.

Kishilardan o'z yordamini, xizmatini ayamaydigan, g'amxor, mehribon. Saxiy ustoz. Saxiy pedagog. Mehri opa tarbiyalagan yoshlarni respublikamizning hamma joyida bo'lishi mumkin. Gazetadan

Ko'chma. Tabiiy boyliklarga boy: to'kin, mo'l, mo'l-ko'l. Qoni qonji to'lib saxiy kuz keldi. G'. G'ulom.

Ko'chma. Nurini ayamay to'kuvchi, yuqori haroratli. Xazina yer, zilol suv, Yoz bo'yi saxiy quyosh. G'ayratiy Saxovat so'zining ta'rifi esa quyidagicha berilgan:

Saxovat- [a. Qo'li ochiqlik, oliyhimmatlik, saxovatlilik]

Ko'chma. Tabiiy boylik, mol hosil, to'kinlik, mo'llik [570-571]

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, "Saxovat" leksemasi konsept sifatida bir qadar kehg doirani egallaydi va bu doiralarning barchasini "beg'araz yordam" tushunchasi bir biri bilan bog'lab turadi. Chunki insoniyatga yaxshilik olib keluvchi barcha jabhada saxovatli kishilarning beg'araz yordamlariga ehtiyoj seziladi.

Beg'araz yordam tushunchasiga asoslangan "Saxovat" konsepti quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Moliyaviy sahovat

Ehtirom va muhabbat

Vaqt va mehnat

Ruhiiy sahovat

Ta'lim va ma'lumot berish

"Saxovat" konseptini faqat tilshunoslik sohasining obyekti deb baholash to'g'ri bo'lmaydi, u psixologiya, falsafa, sotsiologiya va insonning ma'naviy dunyosi bilan bog'liq jabhalarga ham oid bo'ladi.

Biz mazkur maqolada XI-XII asr turkiy til manbalari tilida uchaydigan "saxovat" konseptining ifodalanishini kuzatdik.

Saxovat inson ichki olamining ma'naviy yetukligini yaqqol ko'rsatuvchi xususiyatlar: baland himmat, saxiylik, hotamtoylik, qo'li ochiqlik, mardlik bilan belgilanadi.

**Tahlil va natijalar.** Turkiy til manbalarida "Saxovat" konsepti tahlili jarayonida quyidagilar aniqlandi: aqī- saxiy ma'nosida ilk marta "Sekiz yukmak" matnida qo'llanilgan [DTS, 48], uning axī varianti ham mavjud bo'lib, Ahmad Yugnakiy bu so'zni "Hibatul haqoyiq" asarida saxiy, axiliq leksemasini saxovat ma'nosida qo'llagan: "Axī bol axiliq sēni sevdūrūr" [YuG. A 260]

"Devonu lug'atut turk"da bu leksema aqī ko'rinishida kelib, unga "saxiy, qo'li ochiq" [I,116] deb izoh berilgan.

"Qutadgu u bilig" asarida aqī, aqiliq, keç elig, elgi keç, elgi aqy - saxiy, kishidan hech narsasini ayamaydigan, hotam, tanti, mard ma'nolarida qo'llanilgan.

Insonning ma'naviy yetukligini belgilovchi xususiyatlar ichida baland himmat, saxiylik, hotamtoylik, saxovat alohida qadrlanadi. "Kishidan hech narsasini ayamaydigan, hotam" sememasini ifodalashda Yusuf Xos Hojib bir necha ad'yektivlar xizmatidan foydalanadi. Xususan, aqy so'zi ilk bor "Sekiz yukmak" matnida qo'llanilgan [DTS, 48] bo'lib, asarda ancha faolliqi bilan karakterlanadi:

Aqyqa yumyur tilak arzu yer

"Saxiy (atrofi)ga to'planadi, tilak-orzuga erishadi" (2998).

"Devon"da "saxiy, qo'li ochiq" [I, 116] tarzida izohlangan ushbu leksik birlik "Hibatul-haqoyiq" [DTS, 71], XIV asr Xorazm obidalarlari [SUYA, I, 85] da axy, "Qisasi Rabg'uziy"

[158 r 14], "Tarjumon" [27 b 6] da aqy shaklida qo'llanishda bo'lgan. Navoiy asarlarida so'z axy(y) tarzida ishlatilgan [ANATIL, I, 147] [6].

Yusuf Xos Hojib elig "qo'l" va keç "keng; mo'l" so'zlari birikuvidan yuzaga chiqqan keç elig "ochiq qo'l" qo'shma sifatini ham tahlil etilayotgan sememani ifodalashga bo'ysundirgan:

Basa erdi Usman uvutlug' silig

Kishidā özyrmish aqy keç elig

"Keyingisi Usmon edi, andishali, muloyim (edi),

Kishilar orasida sarasi, saxiy, ochiq qo'l edi" (54).

Ushbu qo'shma so'zning elgi keç "qo'li ochiq" shakli ham poemadan o'rin olgan:

Ajunug' synag'ly aqy edgi keç

"Olamni sinagan, saxiy, qo'li ochiq (kishi)" (6254).

Modomiki, elig ishtirokidagi sifatlar haqida fikr bildirilayotgan ekan, dostonda elgi aqy birikmasining ham "saxiy, qo'li ochiq" ma'nosida ishlatilganiga e'tibor qaratamiz:

Özindā tegyrsā ey elgi aqy

O'z vaqtida yetkazsinlar, ey qo'li ochiq" (5464).

Ma'nodoshlik qatorida aqy "kitobiylik", keç elig, elgi keç esa "jonli so'zlashuvga oid"ligi bilan xoslangan, deyish o'rinli.

O'rganilayotgan ma'no ma'lum darajada "boriga qanoatlanadigan, qanoatli" sememasi bilan mos tushadi va dostonda közi toq qo'shma sifati bilan anglashiladi [6]:

Neky ter eshitgil közi toq kishi

Tuz etmāk idisi aqy er bashy

"O'zi to'q kishi nima deydi, eshitgin,

Tuz va non (ya'ni ne'mat) soxibi, saxiy kishilar sarvari"

(1177).

Shu o'rinda doston muallifi tomonidan iste'molga kiritilgan qo'shma sifatning hozirgi o'zbek jonli so'zlashuv tilida faol qo'llanishini eslab o'tish foydadan holi bo'lmasa kerak.

Tahlil etilayotgan ma'noni ifodalash uchun Yusuf Xos Hojib asarida, shuningdek, "ochko'zlik, hirs"ni ifodalovchi umdu so'zidan -suz qo'shimchasi bilan yasalgan umdusuz "tamasiz; xolis, beg'araz" ad'yektivini muomalaga kiritadi va uni qoltg'usuz (qol=++g'u "tilash, so'rash" + suz ) "tilamaydigan, tama qilmaydigan" yasamasi bilan mazmun jihatdan yaqinlashtiradi[6]:

Közi toq kerāk ham özi umdusuz

Bag'yrsaq kerāk chың özi qoltg'usuz

"O'zi ko'zi to'q ham tamasiz (bo'lishi) kerak,

O'zi sadoqatli, samimiy, tilamaydigan (bo'lish) kerak" (2681).

Keyingi sifat leksema ham faqat doston tilida mavjudligi bilan ajralib turadi.

Ko'rilgan sememaning ziddi, ya'ni "birovga hech narsani ravo ko'rmaydigan; qizg'anchiq; xasis, nokas" sememasi pandnomada, asosan, saran ad'yektiv bilan ochilgan:

Saran beg terār nān xazina urur

Aqy beg qylych birlē artlab alur

"Baxil beg mol - dunyo teradi, xazina uradi,

Saxiy beg (uning mol-dunyosini) qilich bilan savalab oladi" (3009).

Asarda ushbu sifat leksemaning (antonimi kabi) ot vazifasini o'tagan o'rinlar ham mavjud:

Sarandyn qachar barcha erdemylyg er

Aqyqa yumyur tilak arzu yer

"Barcha san'at - hunarli kishi baxildan qochadi,

Saxiy (atrofi)ga to'planadi, tilak - orzuga erishadi" (2998).

"Devon"da saran "baxil"ni anglatishi e'tirof etilgan (II, 291). XIII-XIV asr eski turkiy til obidalarida bu so'z ishlatilmagan. Zero uning o'rmini fors-tojik tili orqali o'zlashgan va ilk bor "Hibatul-haqoyiq"da qo'llangan arabcha baxil so'zi egallagan. Ma'lumki, tekshirilayotgan semema hozirgi o'zbek tilida ko'zi och qo'shma sifati bilan ham ifodalanadi (O'TIL, I, 410) "jonli so'zlashuv tiliga oid" belgisi ushbu sifat leksemaning aynan pandnomada birinchi bor qo'llangani diqqatga sazovordir:

Közi ach kishi ölsä achlyq qozur

“Ko‘z och odam o‘lsa, ochlik uni tark etadi”

Ayni payda ushbu sifatning kezi suq varianti “Qutadg‘u bilig”da nisbatan chastotaligi bilan diqqatni tortadi:

Kezi suq ey artuq uzun saqnur er

“Ey ko‘zi suq, ortiq (va) uzoq o‘ylovchi kishi” (5189).

Suq // soq so‘zi “baxillik” ma‘nosida dastlab “Xuastvanift”da qo‘llangan bo‘lib (DTS, 508: soq), uning “ochko‘z odam, suq” semasi Mahmud Koshg‘ariy lug‘ati: suq er (III, 143) hamda pandnomada voqelangan:

Kishi suqynga bermagil sen ishiq

“Kishilarning suqiga ishingni bermagin” (1364).

XIII-XIV asr eski turkiy til yodgorliklarda suq // soq na ot, na sifat kategoriyasida ko‘zga tashlanadi. Lekin “Tarjumon”da “hirs” ma‘nosida soqlıq // suqlıq so‘zi qayd etilgan (35 a 5).

Yusuf Xos Hojib suq so‘zini ko‘z substantivi bilan munosabatga kiritib, kezi suq qo‘shma sifatini yuzaga chiqaradi va uni ochko‘z arxisemali ach leksik birligi bilan ma‘nodoshlik qatorini vujudga keltiradi:

Aya ach kezi suq bu dunya qulı

Ölym suqlanur ko‘r seni tutg‘aly

“Ey och, ko‘zi suq, bu dunyoning quli,

Qo‘lim seni tutgani suqlanib turibdi, nazar sol” (6043).

Mazkur baytdagi “kimsa(o‘zga)ning ovqatiga olib yeyish istagi bilan tikiluvchi” sememali kezi suq “foniy dunyoga hirs qo‘ygan, boriga qanoat qilmaydigan, to‘ymas” ma‘nosini anglatib kelmoqda. Bir bo‘g‘inli leksik birlik hisoblanuvchi suq bugungi o‘zbek tilida “kimsaning og‘zidagi, qo‘lidagi, oldidagi ovqatiga

havas, suqlik bilan qarovchi; bironing dasturxoniga betakalluf suqiluvchi; ochko‘z” sememasini ifodalashda davom etmoqda (O‘TIL, II, 91).

“Devon” tilida “tilamchi, gadoy” ma‘nosini anglatgan (I, 15 a) umdunchı so‘zi didaktik asarda “baxil, qizg‘onchiq, xasis”ni ifodalagan va yuqorida ko‘rilgan umdusuz derivatining antonimi vazifasini o‘tagan:

Kishi umdunchı bolsa boldı bushun

“Kishi xasis bo‘lsa, narsaga qul bo‘ladi” (2683).

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, saxiylik barcha madaniyatlarda ijobiy xususiyat sifatida qabul qilinadi.

“Saxovat” konsepti o‘z ichida beg‘araz yordam tushunchasini asos sifatida belgilab oladi, bu asosdan bag‘rikenglik, mehr, xushmuomallik, moliyaviy yordam, vaqt ajratish, mehnati bilan yordam berish, ruhiy dalda bo‘lish, ta‘lim-tarbiya berish ham o‘z o‘rnida saxovatning ko‘rinishlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Turkiy til manbalarida “Saxovat” konsepti tahlili jarayonida quyidagilar aniqlandi: aqı- saxiy ma‘nosida ilk marta “Sekiz yukmak” matnida qo‘llanilgan.

Ahmad Yugnakiy bu so‘zni “Hibatul haqoyiq” asarida saxiy, axiliq leksemasini saxovat ma‘nosida qo‘llagan.

“Devonu lug‘atut turk”da bu leksema aqı ko‘rinishida kelib, unga “saxiy, qo‘li ochiq” deb izoh berilgan.

“Qutadg‘u bilig” asarida aqı, aqiliq, keñ elig, elgi keñ, elgi aqı - saxiy, kishidan hech narsasini ayamaydigan, hotam, tanti, mard ma‘nolarida qo‘llanilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Yoesoep Edhie Rachmad. Generosity Theory. Πάρος Διεθνής Έκδοση Βιβλίων Τόμος 9 αριθ 4 έτος 2019.
2. Pelin EKŞİ. Türkçede semantik ve morfolojik açıdan cömertlik kavramı. Prof.Dr. Mina Mengi Adina TÜRKOLJİ SEMPOZYUMU (20-22 Ekim 2011) BİLDİRİLERİ. Adana-2012. S-619-623
3. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Каримов Қ. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. –Тошкент: Бадий адабиёт, 1971. -158 б.
4. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ati-t- turk”. Qosimjon Sodiqov nashri. – Toshkent:G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2017.
5. Древнотюрский словарь Издательство « Наука» Ленинградский отделение –Ст.47. 71
6. Абдужаббарова Ф.А. “Қутадғу билиг”даги шахсга хос сифат лексемалар тадқиқи.Филол. фан. ном. ... дисс. –Тошкент, 2011. –Б.43.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. IV jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi 2023-yil. 570-571 betlar



UDK:811111

**Yulduz ABDUKODIROVA,**  
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: yulduzabdukodirova272@gmail.com

*O'zMU professori N.Abdurahmonova taqrizi asosida*

## THE UNIQUE ISOMORPH AND ALLOMORPH CHARACTERISTICS OF PROVERBS RELATED TO MONEY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article is devoted to issues related to the folk culture, values and psychology of proverbs related to currency in various English and Uzbek languages, as well as their isomorphic and allomorphic characteristics. Axiological study of proverbs related to monetary units in these languages provides an opportunity to analyze the culture and national values of these two languages in relation to economic aspects. The author analyzed the examples in both languages and revealed their meanings.

**Key words:** phraseology, proverbs, culture, ethics, moral views, honesty, thrift, economic stability.

## УНИКАЛЬНЫЕ ИЗОМОРФНЫЕ И АЛЛОМОРФНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОСЛОВИЙ, СВЯЗАННЫХ С ДЕНЬГАМИ, В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Данная статья посвящена аспектам, связанным с национальной культурой, значением и психологией пословиц, связанных с валютой, в различных английском и узбекском языках, а также вопросам, связанным с их изоморфными и алломорфными характеристиками. Аксиологическое исследование пословиц, связанных с денежными единицами в этих языках, дает возможность проанализировать культуру и национальные ценности этих языков применительно к экономическим аспектам. Автор проанализировал примеры на обоих языках и раскрыл их смысл.

**Ключевые слова:** фразеология, язык, культура, ценности, нравственные взгляды, честность, бережливость, экономическая стабильность.

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PUL BIRLIGIGA OID MAQOLLARNING O'ZIGA XOS ISOMORF VA ALLOMORF XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola turli ingliz va o'zbek tillarida pul birligiga oid maqollarning xalq madaniyati, qadriyatlar va psixologiyasi bilan bog'liq jihatlari hamda ularning o'zaro isomorf va allomorf xususiyatlari bilan bog'liq masalalarga bag'ishlanadi. Ushbu tillardagi pul birliklariga oid maqollarni aksiologik tadqiq qilish – bu ikki tildagi madaniyat va milliy qadriyatlarni iqtisodiy jihatlar bilan bog'liq tarzda tahlil qilish imkoniyatini beradi. Muallif har ikkala tilda misollarni tahlil qilib, ularning mazmunini ochib berdi.

**Kalit so'zlar:** frazeologiya, matallar, madaniyat, qadriyatlar, axloqiy qarashlar, halollik, tejamkorlik, iqtisodiy barqarorlik.

**Kirish.** Turli xalqlarning maqol va matallarini qiyoslash bu xalqlarning qanchalik umumiy tomonlari borligini ko'rsatadi, bu esa, o'z navbatida, ularni yanada yaxshiroq tushunish va ularga yaqinlashishga xizmat qiladi[1].

Maqol va matallarda xalqning boy tarixiy tajribasi, xalq mehnati, turmushi, madaniyati bilan bog'liq g'oyalar o'z ifodasini topgan. Maqol va matallardan to'g'ri va o'rinli foydalanish nutqqa o'ziga xoslik va ifodalilik beradi. Agar o'tgan asrda maqol va matallarni o'rganishdan asosiy maqsad "xalq ruhiyatini bilish" bo'lgan bo'lsa, hozir ko'pchilik sof lingvistik sohaga qiziqmoqda. Bu birliklarning xususiyatlari, badiiy nutqda qo'llanilishi, boshqa xalqlar folklor fondi bilan o'zaro aloqasi, boshqa tillarga tarjima muammolari haqida tadqiqotlar olib bormoqda[2].

Ingliz tili ming yillik tarixga ega. Bu vaqt ichida unda odamlar muvaffaqiyatli, aniq va chiroyli deb topilgan ko'plab iboralar paydo bo'lgan. Shunday qilib, tilning alohida qatlami - frazeologiya, mustaqil ma'noga ega bo'lgan barqaror iboralar to'plami paydo bo'ldi. Maqol va matallar xalq amaliy san'atining durdonalari bo'lib, asrlar davomida yuzlab, og'izdan og'izga, avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan tajribalarni o'zida aks ettiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maqollarning semantik-struktur, g'oyaviy va lingvokulturologik tadqiqi yuzasidan V.N. Teliya, V.V. Vinogradov, A.V. Kunin, V.P. Jukov, N.N. Amosova, E.V. Ivanova, J. Raymond, R.W. Ridout, W. Clifford, G.L. Apperson, W. Hazlitt kabi olimlar tadqiqot olib borgan. O'zbek tilshunosligida Y. Rahmatov, B. Jo'rayeva, R.U. Majidova, A.A. Nosirov, O.P. O'ralova, B.M. Jurayeva, A.E. Mamatov kabi olimlarning tadqiqotlarida maqollar yoritilib tadqiqotlar olib borilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ingliz va o'zbek tillaridagi pul birliklariga oid maqollarni aksiologik tadqiq qilish – bu ikki tildagi madaniyat va milliy qadriyatlarni iqtisodiy jihatlar bilan bog'liq tarzda tahlil qilishdir. Pul birliklari va boylik bilan bog'liq maqollar xalqning hayotiy qarashi, madaniyati, qadriyatlar, va psixologiyasini o'zida aks ettiradi. Quyida ingliz va o'zbek tillaridagi pulga oid maqollarni o'zaro taqqoslab, ular orqali aks etgan qadriyatlarni tahlil qilamiz:

Pulning qiymati va ahamiyati:

Inglizcha: "Money makes the world go round."

O'zbekcha: "Pul dunyoni aylantiradi."

Tahlil: Pulning inson hayotidagi kuchi va ahamiyati ham ingliz, ham o'zbek madaniyatida ta'kidlangan. Ikkala madaniyatda ham pul ijtimoiy aloqalarni va dunyodagi faoliyatni harakatga keltiruvchi vosita sifatida tan olinadi;

Inglizcha: "Money is the root of all evil."

O'zbekcha: "Pul balo-qazoning boshidir."

Tahlil: Har ikki madaniyatda ham pulning salbiy ta'siri borligi tan olingan, ammo u insonga zarar yetkazishi mumkinligi ma'lum bir kontekstda ifoda etiladi;

Inglizcha: "Money talks."

O'zbekcha: "Pulning gapini eshitmagan odam yo'q."

Tahlil: Har ikki madaniyatda pulning kuchi, ta'siri va imkoniyatlarni kengaytiruvchi vosita sifatida qabul qilinishi aks etadi. Inglizcha maqol pragmatik yondashuvni ifodalasa, o'zbekcha talqin ko'proq ijtimoiy munosabatlar va ta'sirchanlikni ko'rsatadi.

Vaqt va pul o'rtasidagi bog'liqlik:

Inglizcha: "Time is money."

O'zbekcha: "Vaqt bu – oltin."



Tahlil: Ikkala madaniyatda ham vaqtning iqtisodiy jihatdan qimmatli ekanligi ifoda etilgan.

Boylik va kambag'allik haqidagi maqollar:

Inglizcha: "Riches take wings and fly away."

O'zbekcha: "Boylik qo'rg'oshin qanot bilan uchadi."

Tahlil: Boylikning beqarorligi va vaqtinchalik ekanligi har ikkala tilda ham ta'kidlangan. Bu maqollar boylikka haddan tashqari ishonish insonni aldaydi degan falsafani o'zida aks ettiradi;

Inglizcha: "Poverty is no sin."

O'zbekcha: "Qashshoqlik gunoh emas."

Tahlil: Har ikkala madaniyatda ham kambag'allik inson axloqiy yoki ma'naviy kamchilikka ega ekanligini anglatmasligi, boylikdan ko'ra axloqiy poklik muhim ekanligi ifodalangan.

Pul va baxt munosabati:

Inglizcha: "Money can't buy love."

O'zbekcha: "Pul bilan muhabbatni sotib olib bo'lmaydi."

Tahlil: Ingliz va o'zbek madaniyatlari bir ovozdan boylikni insoniy his-tuyg'ularning o'rnini bosolmasligini tasdiqlaydi. Bu qadriyatlar ma'naviyatning moddiyatdan ustun ekanligini ko'rsatadi;

Inglizcha: "The best things in life are free."

O'zbekcha: "Eng yaxshi narsalar bepul bo'ladi."

Tahlil: Har ikkala madaniyatda ham haqiqiy baxt, muhabbat, do'stlik kabi qadriyatlar moddiy boylik bilan o'lchanmasligi tushuniladi;

Mehnat va halollik haqida maqollar

Inglizcha: "Hard work pays off."

O'zbekcha: "Mehnat qilgan – davlat topar."

Tahlil: Ikkala madaniyat ham mehnatning iqtisodiy barqarorlikka olib kelishini ta'kidlaydi. Shu bilan birgalikda, shaxsiy muvaffaqiyatni, davlat (yoki boylik)ga erishishni ijtimoiy ahamiyat bilan bog'laydi;

Inglizcha: "Honesty is the best policy."

O'zbekcha: "Halollik eng yaxshi siyosat."

Tahlil: Bu maqollar axloqiy qadriyatlarni tasdiqlaydi va pul topishda halollikning muhimligini ko'rsatadi.

Pulni tejash va boshqarish:

Inglizcha: "A penny saved is a penny earned."

O'zbekcha: "Topganingni tejab yegil."

Mazmun: Har ikki tilda mehnat qilish va tejamkorlikni qadrlash qadriyat sifatida ko'rsatilgan;

Inglizcha: "Waste not, want not."

O'zbekcha: "Bekorga sarflagan – muhtoj bo'ladi."

Tahlil: Har ikki tilda ham tejamkorlik madaniyati muhim ahamiyatga ega. O'zbekcha maqol ko'proq ogohlantiruvchi ohangga ega, inglizchasi esa ratsionallikka urg'u beradi;

Inglizcha: "Don't put all your eggs in one basket."

O'zbekcha: "Barcha tuxumingni bir savatga solma."

Tahlil: Har ikkala madaniyatda boylikni boshqarishda ehtiyotkorlik va risklarni taqsimlash muhimligi ta'kidlanadi.

**Tahlil va natijalar.** Ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan maqollarda to'plangan tushunchaning semantik yuki ham ijobiy, ham salbiy ma'nolar bilan tavsiflanadi[3].

Shuningdek, quyida ingliz va o'zbek tillaridagi pul birligiga oid maqollarning isomorf va allomorf xususiyatlarini ham ko'rishimiz mumkin:

Ikkala tilda ham boylikni ortiqcha qadrlashni rad etuvchi va axloqiy qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'yuvchi maqollar ko'p;

Ingliz madaniyatida iqtisodiy muvaffaqiyatga erishish pragmatik tarzda yondashilsa, o'zbek madaniyatida mehnat va halol daromad birlamchi ahamiyatga ega;

Ingliz tilidagi maqollar ko'proq shaxsiy muvaffaqiyat va individualizmni targ'ib qiladi, o'zbek tilida esa jamoaviy qadriyatlar va oilaviy barqarorlik ko'proq ifodalanadi;

Har ikkala madaniyatda pul, boylik va mehnatga oid ko'pgina qadriyatlar umumiydir. Halollik, tejamkorlik, boylikning beqarorligi, vaqtdan unumli foydalanish qadriyatlari har ikki tilda birdek muhimdir;

Moddiy va ma'naviy qadriyatlar: Ikkala madaniyat ham boylikning muhimligini tan oladi, lekin ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'yadi.

O'zbek tilida pulga oid barcha maqol va matallar xalqlarning chuqur tarixi, chuqur ma'no va axloqiy odatlarni ifodalaydi [4].

**Xulosa va takliflar.** Pul birliklarini qatnashgan maqol va matallarning ingliz va o'zbek tillaridagi tarjimai bir qator ilmiy ishlarda bevosita o'rganilgan, ayrim asarlarda boshqa voqealar bilan bog'liq holda tilga olingan. Tadqiqotchilar maqol va matallarni tarjima qilish bir necha bosqichda amalga oshirilganligini, har bir bosqichda bir qancha muammolar qo'shib, yechilganini qayd etadilar. Maqol va matallarni tarjima qilishdan maqsadimiz so'z va iboralar ketma-ketligini ikkinchi tilga o'girish emas, balki ularning yashirin ma'nosini anglash, ikki xalqning an'ana va madaniyatini o'rganishdir. Buni to'g'ri tushungan tarjimonlar tarjima jarayonida gaplar tuzilishini o'zgartirishdan, ba'zan esa asl nusxaning ma'nosini oydinlashtirish maqsadida so'zlarni tashlab qo'yishdan yoki qo'shishdan cho'chimaydilar.

Pulga oid maqollarni aksiologik tahlil qilish orqali, biz xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va axloqiy yondashuvlarni chuqurroq tushunamiz. Bu esa til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon etadi. Pul bilan bog'liq maqollarni tahlil qilish orqali o'zbek va ingliz xalqlarining madaniyati, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvori haqida ko'plab ma'lumot olish mumkin. Bu maqollar milliy o'ziga xoslik va dunyoqarashni tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Erdanova Z. Comparing Uzbek proverbs and English proverbs in literary. TJE - Tematics journal of Social Sciences. ISSN 2277-3010. Vol-7-Issue-1- January -2021. <http://thematicsjournals.in/index.php/tjss>. – B.49-50.
2. Mallaeva Z.M., Omarova Z.S., Khashtikhova Sh.Sh. Ethnocultural characteristics of proverbs. ISSN 1991-5497. Мир науки, культуры, образования. № 2 (75) 2019. – P.365.
3. Kurbonboevna C. I. The use of medical terms and their interpretation in english and uzbek languages in the views of famous people of the world. –2023. –P. 176.
4. Kurbonboevna C. I., Nasimjon o'g'li I. A. Comparative Analysis of Body Language in English and Uzbek Culture the Meaning of Hand Gestures //International Journal of Formal Education. –2023. –T. 2. –No. 6. –P.349-351.
5. Polina O. Cognitive Perspective of English Money Proverbs. Journal of Siberian Federal University. Humanities & Social Sciences. 2024 17(5): –P.882–891.
6. T.Mirzayev, A.Musoqulov. O'zbek xalq maqollari - Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2009.
7. Vorkachev,S.G. 2005. Linguoconceptology and intercultural communication: sources and goals. Philological Sciences 4: 76-83.



UDK:811.821 (045)

**Malokhat AYDARALIEVA,**  
EFL teacher, Institute of social and political sciences  
E-mail: aydaraliyeva17.20@gmail.com

Reviewer: M.Umarova, Associate professor of UzSWLU, (DSc)

## THE THEMES OF ALIENATION AND ISOLATION IN WILLIAM FALKNER'S SHORT STORIES

### Annotation

This article examines the multifaceted theme of alienation and isolation in William Faulkner's short stories, exploring how it intersects with race, class, and the historical and social context of the American South. Faulkner masterfully portrays characters grappling with feelings of disconnection due to factors such as racial prejudice, social ostracism, internal conflict, and the weight of the past. Through vivid imagery and psychological insights, he delves into the human condition, exploring the universal struggles for belonging and the enduring impact of isolation on the individual and society.

**Key words:** William Faulkner, social alienation, psychological isolation, grotesque stories, slavery, racism, new criticism, stream of consciousness, American history, "Dry September", "Barn Burning", "A Rose for Emily".

## ТЕМЫ ОТЧУЖДЕНИЯ И ИЗОЛЯЦИИ В РАССКАЗАХ УИЛЬЯМА ФОЛКНЕРА

### Аннотация

В данной статье исследуется разносторонняя тема отчуждения и изоляции в рассказах Уильяма Фолкнера, рассматривается ее пересечение с расовыми, классовыми в историческом и социальном контексте американского Юга. Фолкнер мастерски изображает персонажей, борющихся с чувством отчуждения из-за таких факторов, как расовые предрассудки, социальная изоляция, внутренние конфликты и груз прошлого. Через яркие образы и психологические озарения он погружается в человеческую сущность, исследуя универсальные проблемы принадлежности и долгосрочное влияние изоляции на человека и общество.

**Ключевые слова:** Уильяма Фолкнер, социальное отчуждение, психологическая изоляция, гротескный рассказ, рабство, расизм, современная критика, поток сознания, американская история, «Засушливый сентябрь», «Поджигатель», «роза для Эмили».

## VILYAM FOLKNER HIKOYALARIDA JAMIYATDAN UZOQLASHISH VA YOLG'IZLIK MAVZULARI

### Annotatsiya

Ushbu maqola Vilyam Folknerning hikoyalarida jamiyatdan uzoqlashish va yolg'izlikning ko'p qirrali mavzu ekanligini ko'rib chiqadi hamda uning irq, sinf va Amerika janubining tarixiy va ijtimoiy konteksti bilan qanday bog'liqligini o'rganadi. Folkner irqiy kamsitish, ijtimoiy chetlanish, ichki ziddiyatlar va o'tmish og'irligi kabi omillar tufayli jamiyat bilan aloqadan ajralish hissi bilan kurashayotgan qahramonlarni mohirona tasvirlaydi. O'ziga xos tasvirlar va psixologik tushunchalar orqali u insonning ichki ahvolini chuqur o'rganadi, tegishli bo'lish uchun umumjahon kurashlarini va izolyatsiyaning shaxs va jamiyatga bo'lgan doimiy ta'sirini o'rganadi.

**Kalit so'zlar:** Uilyam Folkner, ijtimoiy begonlashuv, psixologik izolyatsiya, grotesk hikoyalar, qullik, irqchilik, zamonaviy tanqidchilik, ong oqimi, Amerika tarixi, "Quruq sentyabr", "Barn yonishi", "Emili uchun atirgul". Начало формы

**Introduction.** William Cuthbert Faulkner, one of the renowned American writers of the 20th century, was born in New Albany, Mississippi. Faulkner is best known for his novels and stories set in fictional Mississippi county-Yoknapatawpha, where created by him. Faulkner is celebrated for his literary depictions of the American South History. His short stories and novels delve into crucial themes like slavery, the Civil War, and social class struggles, offering a global perspective on significant aspects of American history. The quality of paying close and profound attention to details and the ability to accurately portray the complexities of human existence are key factors contributing to his status as one of the 20th century's most creative writers.

This article examines Faulkner's short stories as complete and unified pieces of fiction and how they typically focus on a significant turning point or transformation in the lives of their main characters, since Faulkner has always been praised for his originality concerning the themes embedded in his works.

**Literature review.** The themes of alienation and isolation are prevalent in the short stories of William Faulkner. Several prominent scholars, such as Cleanth Brooks, leading figure in New Criticism, focused on the close reading of texts and emphasized the importance of internal contradictions and ambiguities. His work on Faulkner's short stories illuminates the psychological complexities of his characters and their struggles with alienation. Robert Penn Warren, Southern writer, provided insightful commentary on Faulkner's work, exploring the social and historical context that shaped his vision of the South. Literary critic Irving Howe examined Faulkner's work within the broader

context of American literature, analyzing his contributions to the Southern Renaissance and his engagement with themes of race, class, and the human condition.

These scholars' works continue to inspire and inform critical discussions of the author's fiction, highlighting the enduring power and relevance of his exploration of these universal themes.

**The themes of alienation and isolation.** Alienation and isolation are often intertwined with the larger themes of race, class, and the decay of the Old South. In Faulkner's short stories, alienation can manifest in various forms. Characters may feel isolated from their communities due to their race, as seen in stories like "Dry September" and "Barn Burning." In "Dry September," the protagonist, Minnie Cooper, is ostracized by the white community after falsely accusing a black man of assault. Similarly, in "Barn Burning," the protagonist, Sarty Snopes, grapples with his loyalty to his family, who are social outcasts due to their poverty and penchant for arson.

William Faulkner's early works, both short stories and novels, often depict a bleak and ironic world where evil seems to prosper while the virtuous suffer. However, his later works show a shift towards a more accepting and even hopeful perspective. This change is gradual, evident in how he portrays recurring characters like Gavin Stevens and Flem Snopes differently over time, and in his evolving views on themes like social justice and race. Initially, Faulkner's writing suggests a deep resentment towards a universe that seems indifferent to human suffering. But later on, he demonstrates a greater acceptance of things as they are,

acknowledging moments of grace and the occasional kindness of nature and humanity.

Carl Rollyson has argued that, "as an artist," Faulkner believed "he should be above worldly concerns and even morality." Faulkner was known for his experimental style with meticulous attention to diction and cadence. In contrast to the minimalist understatement of his contemporary Ernest Hemingway, Faulkner made frequent use of stream of consciousness in his writing, and wrote often highly emotional, subtle, cerebral, complex, and sometimes Gothic or grotesque stories of a wide variety of characters including former slaves or descendants of slaves, poor white, agrarian, or working-class Southerners, and Southern aristocrats. Faulkner's contemporary critical reception was mixed, with *The New York Times* noting that many critics regarded his work as "raw slabs of pseudo realism that had relatively little merit as serious writing".

In "A Rose for Emily," William Faulkner explores how social isolation and cruel gossip contribute to the tragic decline of Emily Grierson. The townspeople, while initially revering her family's legacy, become increasingly critical and indifferent towards her. This lack of empathy, particularly after her father's death, significantly impacts her ability to function within society. The townspeople, instead of acknowledging her potential emotional distress, dismiss her as eccentric and mentally unstable. Their apathy and failure to recognize her true feelings further isolate her and allow her to harbor deep-seated resentments.

While some might attribute her actions to mental illness, the story suggests that the townspeople's indifference played a crucial role in her tragic downfall. After her father's death, Emily unexpectedly begins a romance with Homer Barron, surprising the townspeople. However, she ultimately kills him and preserves his corpse in her house. This bizarre act further highlights the extent of her isolation and the destructive impact of the townspeople's neglect. The story serves as a cautionary tale about the dangers of social isolation and the importance of empathy and understanding within a community.

Class differences also contribute to feelings of alienation in Faulkner's stories. In "A Rose for Emily," the titular character, Miss Emily Grierson, is a relic of the Old South, isolated from the changing social order of the modern world. Her refusal to acknowledge her declining status and the passage of time leads to her tragic isolation. Furthermore, psychological and emotional factors can lead to isolation in Faulkner's characters. In "The Bear," the protagonist, Ike McCaslin, seeks solace in the wilderness, feeling alienated from the corrupting influences of civilization. His retreat into nature reflects his desire for purity and authenticity, which he believes can only be found away from the complexities of human society.

Faulkner's masterful use of stream-of-consciousness narrative techniques allows him to delve into the inner lives of his characters, revealing their deepest fears, anxieties, and feelings of isolation. Through vivid imagery and psychological insights, he explores the human condition with a profound understanding of the complexities of the human experience. Faulkner's exploration of alienation and isolation has garnered critical acclaim for its unflinching honesty and psychological depth. Critics have praised his ability to capture the human condition in all its complexity, laying bare the universal struggles of belonging and connection. His work continues to resonate with contemporary audiences, as these themes remain relevant in a world grappling with issues of identity, social justice, and the psychological impact of trauma.

William Faulkner's short stories are a microcosm of the human condition, grappling with the profound themes. The themes permeate his work, exploring the psychological and social forces that contribute to individuals feeling disconnected from themselves, others, and the world around them.

Social Alienation:

- Race and Class: Faulkner's Yoknapatawpha County, a fictionalized version of his native Mississippi, is a microcosm of the American South, rife with racial tension and social stratification. Characters like Joe Christmas in "Light in August" are marginalized due to their mixed-race heritage, unable to find acceptance in either the white or black communities. Similarly, characters from lower socioeconomic backgrounds, such as the Snopes family in "Barn Burning," often face ostracization and prejudice.

-The Burden of the Past: The legacy of slavery and the Civil War casts a long shadow over Faulkner's characters, hindering their ability to connect with others and move forward. The past often serves as a source of trauma and guilt, leading to feelings of isolation and displacement.

Psychological Isolation:

-Internal Conflict: Many of Faulkner's characters are plagued by internal conflicts, grappling with their own desires, fears, and the weight of their past. This internal turmoil can lead to a sense of alienation from their own selves, as they struggle to understand their motivations and emotions.

-Existential Angst: Faulkner's characters often grapple with existential questions about the meaning of life and their place in the universe. This existential angst can lead to feelings of isolation and despair, as they confront the vastness of the unknown.

Faulkner, influenced by Thoreau's Transcendentalist philosophy, believed in the sacredness of nature and condemned those who exploit it or other people. He saw a connection between the exploitation of nature and the exploitation of humanity, both stemming from a flawed human nature ("Original Sin"). Faulkner believed that those who treat the earth and others as objects are ultimately self-destructive. However, he also believed in the possibility of redemption through love and respect for both humanity and the natural world.

**Conclusion.** World literature offers countless works that explore themes about loneliness and isolation, examining their positive and negative aspects. Authors often focus on psychological perspectives of solitude and its impact on mental health or delve into one's feelings of alienation and societal rejection. Another crucial angle is how the theme of loneliness reflects broader societal conditions such as industrialization, war, and the pressures of modern life.

To conclude, William Faulkner's short stories offer a profound and unsettling exploration of alienation and isolation. Through his powerful storytelling and insightful character portrayals, Faulkner offers a poignant reflection on the human condition and the enduring struggle for connection and belonging. His masterful use of language and narrative technique allows him to create characters who are both timeless and uniquely of their time, inviting readers to confront the enduring power of these universal themes.

William Faulkner's stories provide a profound exploration of alienation in the American South, a region grappling with the legacies of slavery, racial tension, and social inequality. His characters, whether ostracized due to their race, class, or psychological struggles, grapple with feelings of isolation and disconnection. Faulkner masterfully employs stream-of-consciousness to delve into the inner lives of his characters, revealing their deepest anxieties and the profound impact of social and psychological forces on their sense of self. While his early works often depict a bleak and pessimistic worldview, his later works show a glimmer of hope, suggesting the possibility of redemption through empathy, understanding, and a renewed connection to both humanity and the natural world. Faulkner's enduring legacy lies in his unflinching portrayal of the human condition, reminding us of the universal struggle for belonging and the enduring power of isolation.

## REFERENCES

1. Faulkner, William. *Collected Stories of William Faulkner*. Vintage International, 1995.
2. Brooks, Cleanth. *William Faulkner: The Yoknapatawpha Country*. Yale University Press, 1963.
3. Bleikasten, André. *The Ink of Melancholy: Faulkner's Novels from the Sound and the Fury to Light in August*. Indiana University Press, 1990.
4. Millgate, Michael. *The Achievement of William Faulkner*. University of Georgia Press, 1989.

- 
5. Wittenberg, Judith Bryant. "Isolation and Community in Faulkner's Fiction." *The Faulkner Journal*, vol. 16, no. 1/2, 2000, pp. 3–16.
  6. Kartiganer, Donald M. "The Meaning of Form in Faulkner's Novels." *American Literature*, vol. 50, no. 2, 1978
  7. Volpe, Edmond L. "Alienation in Faulkner's 'A Rose for Emily.'" *The Southern Literary Journal*, vol. 1, no. 1, 1968





**Isroiljon ATABOYEV,**  
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti v.b., PhD  
E-mail: isroilataboyev2@gmail.com

Prof. I.Rustamov taqrizi asosida

## TANBEHNI IDROK ETISHDAGI MADANIY TAFOVUTLAR VA ULARNING GLOBAL BOSHQARUV AMALIYOTIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Globallashgan ishbilarmonlik muhitida samarali boshqaruv amaliyoti tashkilotning muvaffaqiyati uchun, xususan, tanbeh orqali fikr-mulohazalarni yetkazishda muhim hisoblanadi. Ushbu tadqiqot tanbehni idrok etishdagi madaniy tafovutlarni va ularning global boshqaruv amaliyotiga ta'sirini o'rganadi. Bu madaniy kontekstlar tuzatuvchi mulohazalarning samaradorligi va qabul qilinishiga qanday ta'sir qilishini aniqlaydi. Aralash usullar yondashuvidan, shu jumladan miqdoriy so'rovlardan foydalangan holda, tadqiqot turli madaniyatlarda tanbeh qanday qabul qilinishida sezilarli farqlarni ochib beradi. Madaniyat xodimlari tanbehni qonuniy vakolatni amalga oshirish deb bilishadi, ba'zi madaniyat vakillari esa konstruktiv va qo'llab-quvvatlovchi mulohazalarni afzal ko'rishadi. Tadqiqot amaliyotda madaniy sezgirlikning muhimligini ta'kidlaydi va kishilarga tanbeh berish strategiyasini madaniy me'yorlarga moslashtirish uchun tavsiyalar beradi. Madaniy istiqbollarni birlashtirish orqali kishilar teskari aloqa samaradorligini oshirishi va turli xil tashkiliy sharoitlarda ijobiy ish muhitini yaratishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Madaniy tafovutlar, tanbeh, global boshqaruv amaliyoti, madaniyatlararo aloqa, quvvat masofasi, individualizm va kollektivizm, yuqori kontekst va past kontekstli madaniyatlar, boshqaruv strategiyalari.

## PERCEPTION OF REPROACH IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES AND ITS IMPACT ON GLOBAL MANAGEMENT PRACTICES

Annotation

In a globalized business environment, effective management practices are essential for organizational success, particularly in delivering feedback through reprimands. This study explores cultural variations in perceptions of reprimands and their implications for global management practices. It identifies how cultural contexts influence the effectiveness and reception of corrective feedback. Utilizing a mixed-methods approach, including quantitative surveys and qualitative interviews, the research reveals significant differences in how reprimands are perceived across various cultures. Employees from high power distance cultures view reprimands as a legitimate exercise of authority, while those from low power distance cultures prefer constructive and supportive feedback. The study underscores the importance of cultural sensitivity in feedback practices and provides recommendations for global managers to tailor reprimand strategies to align with cultural norms. By integrating cultural perspectives, managers can enhance feedback effectiveness and foster a positive work environment in diverse organizational settings.

**Keywords:** Cultural variations, reprimands, global management practices, cross-cultural feedback, power distance, individualism vs. collectivism, high-context vs. low-context cultures, management strategies.

## ВОСПРИЯТИЕ ПОРИЦАНИЯ В КОНТЕКСТЕ КУЛЬТУРНЫХ РАЗЛИЧИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ГЛОБАЛЬНУЮ ПРАКТИКУ УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация

В глобализированной бизнес-среде эффективные методы управления необходимы для успеха организации, особенно для обеспечения обратной связи посредством выговоров. В данном исследовании рассматриваются культурные различия в восприятии выговоров и их последствия для мировой практики управления. В нем определяется, как культурные условия влияют на эффективность и получение корректирующей обратной связи. Используя смешанный подход, включающий количественные опросы и качественные интервью, исследование выявило существенные различия в том, как выговоры воспринимаются в разных культурах. Сотрудники, придерживающиеся культуры дистанцирования от власти, рассматривают выговоры как законное проявление власти, в то время как те, кто придерживается культуры дистанцирования от власти, предпочитают конструктивную и поддерживающую обратную связь. В исследовании подчеркивается важность учета культурных особенностей в практике обратной связи и даются рекомендации для глобальных менеджеров по адаптации стратегий выговора в соответствии с культурными нормами. Интегрируя культурные аспекты, менеджеры могут повысить эффективность обратной связи и создать позитивную рабочую атмосферу в различных организационных структурах.

**Ключевые слова:** Культурные различия, выговоры, глобальные практики управления, межкультурная обратная связь, дистанция власти, индивидуализм против коллективизм, высокий контекст против культура с низким контекстом, стратегии управления.

**Kirish.** Hozirgi ishbilarmonlik muhitida samarali boshqaruv tashkilot muvaffaqiyatining muhim omili hisoblanadi. Rahbarlikning asosiy vazifalaridan biri tanbehni to'g'ri shaklda yetkazishdir. Tanbeh-nomaqbul xatti-harakatlar yoki kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tuzatuvchi mulohazalar-xodimlarning faoliyatini yaxshilash va tashkiliy standartlarga rioya qilishni rag'batlantiradi. Biroq, turli madaniy sharoitlarda tanbehning qabul qilinishi va samaradorligi sezilarli darajada farqlanadi. Ba'zi madaniyatlarda tanbeh kasbiy rivojlanish uchun zarur va konstruktiv vosita sifatida qaralsa, boshqalarida u ziddiyat yoki noqulaylik manbai sifatida idrok etiladi. Shu sababli,

rahbarlar turli madaniy me'yorlarni hurmat qilgan holda teskari aloqa strategiyalarini ishlab chiqishlari zarur. Mazkur tadqiqot madaniy omillarning tanbeh haqidagi qarashlarni qanday shakllantirishi va ularning global boshqaruv amaliyotiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Madaniy munosabatlar va kutishlarni tahlil qilish orqali rahbarlarning fikr-mulohaza strategiyalarini moslashtirishga yordam beradigan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari tanbehni qabul qilishga ta'sir qiluvchi asosiy madaniy omillarni ochib beradi va global ishchi kuchi uchun teskari aloqa mexanizmlarini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni taklif etadi. Tadqiqot shuningdek, xalqaro rahbarlarga

turli madaniy sharoitlarda madaniy sezgirlikni hisobga olgan holda samarali boshqaruv uslublarini ishlab chiqishda yo'l-yo'riq beradi. Bu xulosalar madaniyatlararo farqlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi va rahbarlarga global jamoalarda yanada samarali boshqaruvni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlarni tahlili.** Tanbehning madaniy o'Ichamlarini tushunish hozirgi kunda global boshqaruv uchun muhim bo'lib qolmoqda. Ushbu adabiyotlar sharhi madaniy tafovutlar tanbeh haqidagi tasavvurlarga va ularning boshqaruv amaliyotiga qanday ta'sir qilishi haqidagi mavjud tadqiqotlarni sintez qiladi. Olimlar tuzatuvchi mulohazalarga nisbatan turli xil madaniy munosabatlarni va ushbu munosabatlarning tashkiliy xulq-atvor hamda boshqaruv strategiyalariga ta'sirini o'rganishdi.

Xofstedening madaniy o'Ichovlar bo'yicha seminar ishi madaniy qadriyatlarining teskari aloqa jarayonlariga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun asos yaratadi [1]. Hofstede bir nechta o'Ichovlarni aniqladi, shu jumladan quvvat masofasi, individualizm, kollektivizm va ayniqsa tanbeh uchun tegishli hisoblanadi. Ko'pgina Osiyo mamlakatlari kabi yuqori quvvatli masofaviy madaniyatlarda tanbeh shaxsiy qadr-qimmatni saqlashga kamroq e'tibor berib, buyruq sifatida qabul qilinishi mumkin. Aksincha, Skandinaviyadagi kabi madaniyatlarida tanbeh shubha bilan qaralishi mumkin va rahbar va xodim o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Skandinaviya ish joyi madaniyatlarida haqorat ko'pincha tenglik, ochiq muloqot va uyg'un ish muhitini saqlashga berilgan qadriyat tufayli nozik hamda bilvosita shaklga ega bo'ladi [2]. Misol uchun Skandinaviya tilidagi quyidagi misolga e'tibor qaratsangiz.

Keri: "Ole, jeg har lagt merke til at noen av rapportene dine har kommet litt sent i det siste. Det har dessverre påvirket fremdriften til teamet. Er det noe som gjør at det er vanskelig å holde tidsfristene, eller noe vi kan gjøre for å forbedre prosessen? Jeg ønsker å sikre at vi alle kan holde oss til planen fremover." [1] "Ole, men sizning ba'zi hisobotlaringiz oxirgi paytlarda biroz kechikayotganini payqadim. Afsuski, bu jamoaning rivojlanishiga ta'sir qildi. Belgilangan muddatlarga rioya qilishni qiyinlashtiradigan biror narsa bormi yoki jarayonni yaxshilash uchun nima qila olamiz? Men barchamiz kelajakdagi rejaga sodiq qolishimizga ishonch hosil qilmoqchiman." (Muallif tarjimasini)

Ushbu misolda Keri tanbehni odatda Skandinaviya usulida-yumshoq, bilvosita va yechimga yo'naltirilgan holda ifodalaydi. U aybni tayinlamasdan masalani tan oladi, shu bilan birga suhbatni potensial yaxshilanishlarga ochib, hamkorlik va hurmatli ohangni saqlab qoladi. Trompenars va Xempden-Tyornier ushbu munozarani muloqotga bo'lgan turli xil madaniy yo'nalishlar fikr-mulohazalarga qanday ta'sir qilishini ta'kidlash orqali kengaytiradi [3]. Ular Yaponiya va Arab mamlakatlari kabi yuqori kontekstli muloqot uslubiga ega madaniyatlarda tanbeh ko'pincha bilvosita va kontekstga ega bo'lib, yuzni saqlab qolish va qarama-qarshiliklardan qochishga qaratilgan deya fikr bildirishadi. Aksincha, Amerika Qo'shma Shtatlari va Germaniya kabi madaniyatlar to'g'ridan-to'g'ri hamda aniq mulohazalarni ma'qullashadi.

Tanbehning samaradorligiga rahbarlar va shaxslararo munosabatlarga oid madaniy me'yorlar ham ta'sir qiladi. Guruh uyg'unligi va munosabat aloqalari ustuvor bo'lgan kollektivistik madaniyatlarda, ijtimoiy uyg'unlikni buzadigan tanbeh motivatsiya va ishtirokning pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday madaniyatdagi xodimlar tanbehni konstruktiv fikr-mulohaza emas, balki ommaviy sharmandalik taktikasi sifatida qabul qilishlari mumkin, bu qarshilik yoki ajralishga olib kelishi mumkin. Aksincha, shaxsiy yutuqlar va to'g'ridan-to'g'ri muloqot qadrlanadigan individualistik madaniyatlarda xodimlar to'g'ridan-to'g'ri tanbehni individual javobgarlik va takomillashtirish shakli sifatida qabul qilishlari mumkin. Gelfand ushbu madaniyatdagi shaxslar ko'pincha tanbehni kasbiy rivojlanishning zarur komponenti sifatida ko'rishlarini hamda ularni shaxsiy haqorat sifatida talqin qilish ehtimoli kamligini aniqladilar.

Tanbehning psixologik ta'siri yana bir diqqat markazidir. Kark va Van Deyk tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, yuqori kontekstli madaniyatlarda tanbeh yuzni saqlash va to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshiliklardan qochishga urg'u berish

tufayli yuqori darajadagi stress va xodimlar orasida o'z-o'zini hurmat qilishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, past kontekstli madaniyatlarda tanbehning to'g'riligi shaxsning tanqidni boshqarish va ishlashni yaxshilash qobiliyatiga hurmat belgisi sifatida qabul qilinishi mumkin [4]. Feyrklou tanbelda ishlatiladigan til ularni qabul qilishni qanday shakllantirishi mumkinligini o'rganadi. Xushmuomalalik va bilvosita qadrlanadigan madaniyatlarda tanbeh berishda qo'pol yoki to'g'ridan-to'g'ri tildan foydalanish hurmatsizlik yoki madaniy jihatdan befarqlik sifatida qaralishi mumkin, bu rahbarning vakolatiga putur yetkazishi va xodim-rahbar munosabatlarga zarar yetkazishi mumkin [5].

Biz oldingi tadqiqotlarimizda ham tanbeh konseptiga quyidagicha xulosa va fikrlar keltirib o'tganmiz "Ta'na-dashnom berish nutqining lingvistik dizaynining turli usullarini tahlil qilib, ularni pragmatik ravshanlik bilvosita kategoriya nuqtai nazaridan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Garchi ushbu toifadagi harakatlar an'anaviy ravishda xushmuomalalik printsiplarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lsa-da, ba'zi tilshunolar aniq yoki bilvosita ifoda shaklini tanlashni belgilaydigan turli xil omillarni ajratib ko'rsatishadi va bu omillar ham yuqoridagi ham xushmuomalalikning pragmatik fenomeni doirasiga kirmaydi" [6].

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tahlillar tanbeh berishda madaniy kontekstlarni ko'rib chiqish muhimligini ta'kidlaydi. Madaniy istiqbollarni qayta aloqa amaliyotiga qo'shilishi boshqaruv samaradorligini oshirishi va globallashtirish muhitida ijobiy tashkiliy natijalarni ta'minlashi mumkin. Keyingi tadqiqotlar ushbu dinamikani o'rganishni davom ettirishi va turli madaniy sharoitlarda tanbeh berish strategiyasini optimallashtirish bo'yicha qo'shimcha tushunchalar berishi kerak deb hisoblaymiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot madaniy tafovutlarning tanbehni idrok etishga va global boshqaruv amaliyotiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Unda aralash usul qo'llanilib, miqdoriy va sifati ma'lumotlar integratsiyasi orqali turli madaniy kontekstlarda tanbeh samaradorligi va qabul qilinishini chuqur tushunish maqsad qilingan.

Birinchi bosqichda turli mintaqalardan (Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq) xodimlarning tanbeh haqidagi tasavvurlari bo'yicha miqdoriy ma'lumotlar yig'ildi. Bu ma'lumotlar adolatlilik, motivatsiyaga ta'sir qilish va fikr-mulohaza uslublariga oid tahlillarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqichda madaniy munosabatlarni o'rganish uchun yarim tuzilgan intervyular o'tkazilib, unda ishtirokchilarning shaxsiy tajribalari va turli tanbeh uslublari samaradorligi baholandi.

Tadqiqot davomida ta'riflovchi statistika yordamida tanbeh idrokidagi madaniy tafovutlar umumlashtirildi, dispersiya va regressiya tahlillari orqali esa madaniy o'Ichovlarning (kuch masofasi, individualizm, kollektivizm) ta'siri o'rganildi. Korrelyatsion tahlil xodimlarning tanbeh haqidagi tasavvurlari va ularning motivatsiya hamda ish qoniqlashiga ta'sirini aniqlashga xizmat qildi. Ushbu tadqiqot madaniy jihatdan sezgir boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi va turli madaniyatlarda tanbehning samaradorligini yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi.

**Tahlil va natijalar.** Mazkur bo'limda madaniy omillarning tanbehga munosabat va global boshqaruv amaliyotiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, turli madaniy guruhlar tanbehni qabul qilishda sezilarli farqlarga ega. Masalan, yuqori quvvatli masofaviy madaniyat vakillari (Yaqin Sharq va Osiyo) tanbehni rahbarlikning ajralmas qismi sifatida qabul qilishadi, kam quvvatli masofaviy madaniyat vakillari (Shimoliy Amerika va Shimoliy Yevropa) esa konstruktiv fikr-mulohazalarni afzal ko'rishadi va to'g'ridan-to'g'ri tanbehni noqulay deb hisoblashadi.

Korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, qattiq yoki adolatsiz deb qabul qilingan tanbeh xodimlarning motivatsiyasi va ishdan qoniqlashiga salbiy ta'sir qiladi. Biroq, asosli va konstruktiv tanbeh bu ko'rsatkichlarga nisbatan kamroq salbiy ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqot barcha madaniyatlarda tanbeh berishda madaniy sezgirlik zarurligini ta'kidladi. Respondentlarning fikriga ko'ra, rahbarlar tanbeh strategiyalarini madaniy me'yorlar va kutishlarga moslashtirishi kerak. Madaniyatlararo taqqoslashlar shuni ko'rsatdiki, kollektivistik

madaniyatlarda tanbeh guruh faoliyatini yaxshilash vositasi sifatida qaralgan, individualistik madaniyatlarda esa u ko'pincha shaxsiy tanqid sifatida qabul qilingan. Bu farqlar tanbeh berish jarayonida madaniy kontekstni hisobga olishning muhimligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot xulosasiga ko'ra, tanbeh samarali bo'lishi uchun u aniqlik va adolat tamoyillariga asoslangan bo'lishi kerak. Yuqori quvvatli masofaviy madaniyatlarda to'g'ridan-to'g'ri tanbeh maqbulroq bo'lsa, kam quvvatli masofaviy madaniyatlarda konstruktiv va qo'llab-quvvatlovchi yondashuv samaraliroq. Rahbarlar xodimlarning madaniy kontekstiga moslashtirilgan moslashuvchan feedback strategiyalarini ishlab chiqishi zarur. Tadqiqot natijalari madaniy farqlarni hisobga olish orqali

rahbarlar tanbeh samaradorligini oshirib, tashkilotning umumiy ko'rsatkichlarini yaxshilashi mumkinligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Ushbu tadqiqot tanbehni idrok etishdagi madaniy tafovutlar va ularning global boshqaruv amaliyotiga ta'sirini o'rganadi. Kuchli ierarxik tuzilishga ega madaniyat vakillari tanbehni boshqaruv hokimiyatining qonuniy mashqi sifatida qabul qilsa, kam quvvatli masofaviy madaniyat vakillari konstruktiv mulohazalarni afzal ko'radi va tanbehni demotivatsion deb biladi. Tadqiqot rahbarlar uchun madaniy sezgirlik va turli boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, rahbarlar madaniy treningga e'tibor qaratishi va xodimlarning turli idroklariga moslashishi kerak. Bu yondashuv madaniyatlararo aloqa samaradorligini oshirishga yordam beradi va adabiyotda mavjud bo'shliqni to'ldirishga hissa qo'shadi.

#### REFERENCES

1. Hofstede, G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations. Sage Publications. 2001. 34 – 38 p.
2. <https://core.ac.uk/download/pdf/38114181.pdf>
3. Trompenaars, F., & Hampden-Turner, C. Riding the Waves of Culture: Understanding Diversity in Global Business. McGraw-Hill. 1997 – 83 p.
4. Kark, R., & Van Deyk, D. "Motivated or Demotivated by Reprimands? The Role of Culture in the Reactions to Negative Feedback." Journal of Cross-Cultural Psychology, 2007 - 38, 25-40p.
5. Feyrklou, N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. Longman. 1995.
6. Ataboyev, I. (2023). Ta'na-dashnom nutq harakati va pragmatik harakat sifatida. o'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 2023, [14] ISSN 2181-7324.



UDK:808.3

**Mavlyuda GADOYEVA,**  
*Buxoro davlat universiteti professori, DSc*  
**Azizabonu XAYRULLOYEVA,**  
*Buxoro davlat universiteti magistranti*  
E-mail: [m.i.gadoyeva@buxdu.uz](mailto:m.i.gadoyeva@buxdu.uz)

*O'zDJTU I.Kaxarova DSc taqrizi asosida*

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KIYIM-KECHAK ATAMALARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida kiyim-kechak atamalarining lingvistik xususiyatlari o'rganiladi. Ishning asosiy maqsadi – har ikki tilning leksik tizimida kiyim-kechak bilan bog'liq so'zlarning tuzilishi, semantik jihatlar, etimologiyasi va milliy-madaniy mazmunini tahlil qilishdir. Ushbu ikki tilning lingvistik va madaniy o'ziga xosliklarini tadqiq qilish orqali tarjima jarayoni, leksikologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya sohasiga amaliy foyda keltirishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Kiyim-kechak atamaları, lingvistik xususiyatlar, ingliz tili, o'zbek tili, madaniy mazmun, qiyosiy tahlil.

## LINGUISTIC FEATURES OF CLOTHING TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article will study the linguistic features of clothing terms in English and Uzbek. The main purpose of the work is to analyze the structure, semantic aspects, etymology and national – cultural content of words related to clothing in the lexical system of both languages. By researching the linguistic and cultural identities of these two languages, the translation process can bring practical benefits to the field of lexicology and intercultural communication.

**Key words:** Terms of clothing, linguistic features, English, Uzbek, cultural content, comparative analysis.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОВ ОДЕЖДА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье будут рассмотрены лингвистические особенности терминов одежда на английском и узбекском языках. Основная цель работы-Анализ структуры, семантических аспектов, этимологии и национально-культурного содержания слов, связанных с одеждой, в лексической системе обоих языков. Изучение лингвистической и культурной идентичности этих двух языков может принести практическую пользу процессу перевода, лексикологии и межкультурной коммуникации.

**Ключевые слова:** Терминология одежды, лингвистические особенности, английский язык, узбекский язык, культурное содержание, сравнительный анализ.

**Kirish.** Kiyim-kechak insoniyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, nafaqat jismoniy ehtiyojlarni qondirish, balki madaniy, ijtimoiy va estetik qadriyatlarni ham aks ettiradi. Har bir xalqning kiyim-kechaklari uning madaniyati, urf-odatlar va tarixiy rivojlanishini o'zida aks ettiradi. Bu holat turli tillardagi kiyim-kechak atamalarining shakllanishida va ularning lingvistik xususiyatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillarida kiyim-kechak atamalarining lug'aviy tarkibi bir qator o'xshashlik va farqlarga ega. Ingliz tili global til sifatida dunyo modasi va kiyim-kechak terminologiyasida muhim o'rin tutsa, o'zbek tili xalqning milliy qadriyatlarini va madaniy xususiyatlarini ifodalaydi.

Har bir tilda kiyim-kechak nomlari ma'lum bir lingvistik xususiyatlarga ega bo'lib, ular o'zining semantik ko'lami, etimologik manbalari va ma'no jihatidan turlicha bo'lishi mumkin. Ingliz va o'zbek tillari ushbu masalada qiziqarli o'xshashlik va farqlarga ega. Ingliz tili dunyoda keng tarqalgan global til bo'lib, uning kiyim-kechak terminologiyasi turli madaniyatlar va mintaqalar ta'siri ostida shakllangan. O'z navbatida, o'zbek tili mahalliy madaniy an'analarga chuqur ildiz otgan bo'lib, unda xalqning tarixiy tajribasi va urf-odatlari o'z aksini topgan[1]. Kiyim-kechak atamaları tilni o'rganishda milliy madaniyat va xalqning ma'naviy merosini tushunish uchun muhim material hisoblanadi. Masalan, ingliz tilida modaga oid ko'plab so'zlar xalqaro miqyosda qo'llanilsa, o'zbek tilidagi kiyim-kechak nomlari o'ziga xos milliy semantik yukni o'z ichiga oladi. Ushbu farqlar va o'xshashliklarni aniqlash, ikki tilning leksik tizimida kiyim-kechak atamalarining o'rni va ahamiyatini o'rganish, xalqaro madaniyatlararo kommunikatsiyani chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Ushbu ishning natijalari tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvokulturologiya sohalarida nazariy va amaliy qo'llanilishi

mumkin bo'lib, ikki tilda kiyim-kechak leksikasining boyligini, milliy madaniyatdagi ahamiyatini va tarjimada optimal yondashuvlarni aniqlashga yordam beradi[2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kiyim-kechak leksikasi lingvistika, madaniyatshunoslik, tarjimashunoslik va leksikografiya sohalarida keng o'rganilgan. Ingliz va o'zbek tillarida kiyim-kechak bilan bog'liq atamalarni tadqiq qilishda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilinadi:

1. Leksik-semantik tadqiqotlar: Kiyim-kechak atamalarining lug'aviy ma'nosi, ularning tarkibi va semantik tuzilishi haqida bir qator ilmiy ishlanmalar mavjud. Ushbu tadqiqotlarda: Kiyim-kechak nomlarining sinonimlari, antonimlari va polisemiya hodisalari o'rganiladi. Ingliz tilida kiyim-kechak atamalarining ko'p qismi fransuz, lotin va grek tillaridan olinganligini o'rganish asosida bu atamalarining etimologik o'ziga xosliklari aniqlangan (masalan, skirt va shirt so'zlarining german tillaridan kelib chiqishi).

O'zbek tilida esa kiyim-kechak atamalarining qadimgi turkiy til ildizlariga, mahalliy an'analarga va arabcha-qoraxoni madaniy ta'sirga bog'liqligi o'rganilgan. Leksik-semantik tadqiqotlar kiyim-kechak bilan bog'liq atamalarni lug'aviy (leksik) va ma'no jihatdan (semantik) o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv kiyim-kechak atamalarining til tizimidagi o'rnini, ularning ma'nolarining shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilishga imkon beradi.

1.1. Kiyim-kechak leksikasining tarkibiy tuzilishi:

Oddiy so'zlar: Bitta ildizdan tashkil topgan oddiy so'zlar, masalan, ingliz tilida hat yoki sock, o'zbek tilida ko'ylak, shim.

Murakkab so'zlar: Ikkita yoki undan ortiq ildizdan tashkil topgan so'zlar, masalan, ingliz tilida raincoat (rain + coat), o'zbek tilida beshbolta (besh + bolta).



Qo'shma so'zlar: Ikki yoki undan ortiq so'z birikmasidan tashkil topgan so'zlar, masalan, ingliz tilida evening dress, o'zbek tilida atlas ko'ylak.

1.2. Leksik guruhlash: Kiyim-kechak atamallari semantik jihatdan bir necha guruhlariga bo'linadi: Tana qismlariga qarab: Shim (oyoq uchun), ko'ylak (tan uchun), do'ppi (bosh uchun). Funktsional maqsadga qarab: Kundalik kiyim, rasmiy kiyim, maxsus kiyim (ish kiyimlari). Materialga qarab: Paxta ko'ylak, ipak ro'mol.

Iqlimga moslashuviga qarab: Qishki palto yoki yozgi ko'ylak.

1.3. Sinonim va antonimlar: Sinonimlar: Bir xil yoki o'xshash ma'noga ega so'zlar. Masalan, o'zbek tilida ro'mol va peshona ro'mol, ingliz tilida jacket va coat.

Antonimlar: Qarama-qarshi ma'noga ega so'zlar. Masalan, o'zbek tilida qalin kiyim va yengil kiyim, ingliz tilida thick coat and light shirt.

#### 2. Semantik xususiyatlar:

2.1. Polisemiya (Ko'p ma'nolilik): Bir so'zning bir necha ma'noga ega bo'lishi. Masalan: Ingliz tilida dress so'zi kiyim va kiyinish ma'nosini anglatishi mumkin. O'zbek tilida do'ppi so'zi oddiy bosh kiyim yoki marosimiy libos ma'nosida ishlatilishi mumkin.

2.2. Konnotatsiya (Qo'shimcha ma'no): Kiyim-kechak atamallari ko'pincha qo'shimcha ijtimoiy, madaniy yoki emotsional ma'no tashiydi. Masalan: Ingliz tilida tuxedo rasmiylik va boylikni bildiradi. O'zbek tilida atlas ko'ylak milliy o'ziga xoslik va an'anaviylikni ifodalaydi.

2.3. Metaforik ma'no. Kiyim-kechak atamallari ko'pincha metaforik ma'nolarda ishlatiladi. Masalan: Ingliz tilida cloak of secrecy (sir pardasi). O'zbek tilida to'n kiyish (aybni bo'yniga olish).

2.4. Semantik o'zgarishlar: Kiyim-kechak nomlarining ma'nosi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Masalan: Ingliz tilida robe avval faqat ruhoniylarning kiyimi bo'lgan, hozir esa turli xil liboslarni bildiradi. O'zbek tilida chopon so'zi avval erkaklar kiyimiga tegishli bo'lsa, hozirda kengroq ishlatiladi.

3. Etimologik jihatlar: Kiyim-kechak atamallarining kelib chiqishi tahlil qilinganda ularning tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstlari aniqlanadi: Ingliz tilida: Ko'p kiyim-kechak nomlari fransuz (masalan, velvet), lotin (masalan, tunica) yoki german tillaridan kirib kelgan. O'zbek tilida: Kiyim-kechak nomlari qadimgi turkiy til, arab va fors tillaridan olingan. Masalan, sarpo forsha sar-push (boshni yopuvchi) so'zidan kelib chiqqan.

4. O'zlashma va xalqaro so'zlar: Globalizatsiya ta'sirida ingliz va o'zbek tillarida kiyim-kechak nomlari bir-biridan o'zlashmoqda: O'zbek tilida jeans, t-shirt, hoodie kabi inglizcha so'zlar keng qo'llaniladi. Ingliz tilida esa kimono (yaponcha), sari (hindcha) kabi milliy kiyimlar nomlari kirib kelgan.

5. Tarjima jarayonida leksik-semantik muammolar: Ma'noni yo'qotish: Masalan, ingliz tilidagi blazer so'zining to'liq ekvivalenti o'zbek tilida mavjud emas. Izohli tarjima: Masalan, sweatshirt – "yengil trikotaj kiyim". Moslashtirish: Masalan, hoodie ingliz tilidan bevosita o'zlashgan, lekin mahalliylashgan so'z yaratilmagan[3].

Natijalar va muhokama (Results and Discussion). Ingliz va o'zbek tillarida kiyim-kechak atamallarining lingvistik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va metodologik yondashuvlar bir qator muhim ilmiy natijalarga olib keldi. Ushbu natijalar tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvokulturologiya sohalariga o'z hissasini qo'shadi.

1. Ingliz va o'zbek tillaridagi kiyim-kechak leksikasining umumiy va farqli jihatlar:

1.1. Umumiyliklar: Har ikki tilda kiyim-kechak atamallari odamning ehtiyojlari, madaniyati va tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq. Tana qismlariga mos ravishda kiyim-kechak nomlari ma'lum leksik guruhlariga bo'linadi (bosh kiyimlari, tan kiyimlari, oyoq kiyimlari). Kiyim-kechak atamallari ko'pincha metaforik va majoziy ma'noda ishlatiladi, masalan: Ingliz tilida: put oneself in someone's shoes (birovning o'rniga o'zini qo'yish). O'zbek tilida: to'n kiyish (aybni bo'yniga olish).

1.2. Farqlar: Kelib chiqish: Ingliz tilida kiyim-kechak terminologiyasining katta qismi fransuz, lotin va boshqa yevropa tillaridan o'zlashgan. O'zbek tilida esa ko'plab atamalar qadimgi

turkiy, arab va fors tillaridan kirib kelgan[4]. Semantik yuk: Ingliz tilidagi tuxedo kabi so'zlar rasmiylikni, hoodie esa kundaliklikni bildiradi. O'zbek tilida atlas ko'ylak milliylikni, chopon esa an'anaviylikni ifodalaydi. Madaniy bog'liqlik: O'zbek tilida kiyim-kechak nomlari ko'pincha milliy urf-odatlar va diniy an'analarga asoslangan, ingliz tilida esa zamonaviy moda ta'siri kuchliroq.

2. Kiyim-kechak atamallarining semantik va etimologik tahlili bo'yicha natijalar: Polisemiya (ko'p ma'nolilik): Kiyim-kechak atamallari ko'p ma'noga ega bo'lishi aniqlangan. Masalan: Ingliz tilida dress – "kiyim" yoki "kiyinish" ma'nolarini bildiradi. O'zbek tilida to'n – "kiyim" yoki "aybni bo'yniga olish" ma'nosida ishlatiladi. Sinonimlar: O'zbek tilida ro'mol va sarpo, ingliz tilida esa jacket va coat kabi sinonim atamallarining shakllanishida ijtimoiy kontekst muhim rol o'ynaydi. Etimologik manbalar: O'zbek tilida do'ppi va sarpo kabi so'zlar qadimgi turkiy va fors tillaridan kirib kelgan. Ingliz tilida robe, skirt kabi so'zlar lotin yoki eski german tillariga asoslangan.

3. Tarjimashunoslikda uchraydigan muammolar va yechimlar:

3.1. Ekvivalentlik muammosi: O'zbek tilidagi nimcha, chopon kabi so'zlarning ingliz tilida to'liq ekvivalenti yo'qligi aniqlangan. Ingliz tilidagi trench coat, hoodie kabi so'zlarning o'zbek tilidagi to'g'ridan-to'g'ri tarjimai yo'q, izohli tarjima ishlatiladi.

3.2. Moslashtirish usullari: Kiyim-kechak atamallarini tarjima qilishda izohli yondashuv va moslashtirish usullari muvaffaqiyatli qo'llaniladi, masalan:

Atlas ko'ylak – "silk dress with national pattern".

4. Madaniy va lingvokulturologik xususiyatlar: Madaniy ma'no yuklari:

O'zbek tilidagi atlas, do'ppi, chopon kabi so'zlar xalqning madaniyati va tarixiy qadriyatlarini ifodalaydi. Ingliz tilidagi kilt yoki tuxedo kabi so'zlar esa ma'lum geografik yoki ijtimoiy qatlamga oidlikni bildiradi. An'analari va urf-odatlar ta'siri: O'zbek tilida kiyim-kechak nomlari an'anaviy marosimlar bilan bog'liq, masalan, kelin libosi yoki sarbast do'ppi. Ingliz tilida esa zamonaviy moda va global madaniyat ta'siri kuchliroq[5].

5. Leksik-semantik o'zgarishlar va globalizatsiya ta'siri: Globalizatsiya ta'sirida ingliz tilidan o'zbek tiliga ko'plab kiyim-kechak terminlari kirib kelmoqda (jeans, sneakers, hoodie). Bu jarayon natijasida yangi atamalar til tizimiga moslashmoqda. O'zbek tilidagi ba'zi so'zlar global miqyosda tanilib, ingliz tilida ishlatilmoqda (masalan, do'ppi yoki chapan).

6. Metodologik yondashuvlardan kelib chiqqan ilmiy xulosalar: Leksik-semantik tahlil: Kiyim-kechak leksikasi milliy til tizimining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Bu orqali har ikki tildagi sinonimiya, polisemiya va antonimiya holatlari o'rganildi. Lingvokulturologik yondashuv: Kiyim-kechak bilan bog'liq atamalar xalqning madaniy merosi va qadriyatlarini ifodalovchi lingvistik belgi ekanligi tasdiqlandi. Ingliz va o'zbek tillarida kiyim-kechak leksikasi milliy madaniyat va urf-odatlarini aks ettiradi. Natijalar lingvistik tadqiqotlar, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik sohalariga hissa qo'shib, amaliy foydalanish imkonini beradi[6].

Kiyim-kechaklarning lingvistik xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillari misolida tadqiq qilishda bir nechta muhim nuqtalar yuzaga chiqadi. Quyida ba'zi asosiy muhokama nuqtalarini ko'rib chiqamiz.

1. Kiyim-kechak atamallarining semantik ko'lamidagi farqlar: Leksik boylik va ko'p ma'nolilik (polisemiya): Kiyim-kechak atamallari semantik jihatdan bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi dress so'zi nafaqat "kiyim"ni bildiradi, balki "kiyinish" (to dress) va "to'g'ri moslashish" ma'nolarini ham anglatadi. O'zbek tilida esa to'n so'zi "kiyim" sifatida ishlatilgan bo'lsa-da, "aybni bo'yniga olish" ma'nosida ham ishlatiladi. Bunday ko'p ma'nolilik atamallarining tarjimasi va madaniy konteksti har xil xalqlarda turlicha bo'lishi mumkin[7].

2. Madaniyat va til o'rtasidagi bog'liqlik: Kiyim-kechak atamallarining madaniy ma'nolari. Kiyim-kechak atamallari faqatki tovar yoki mahsulotni emas, balki ma'lum bir madaniyatning, ijtimoiy qatlamning, xalqning o'ziga xos xususiyatlarini



ifodalaydi. Misol uchun, chopon o'zbek xalqining qadimiy kiyimi bo'lib, uning lingvistik ifodasi orqali o'zbek xalqining urf-odatları va tarixiy an'analari aks etadi. Ingliz tilida kilt esa Shotlandiyaning o'ziga xos madaniyatini anglatadi va madaniy xususiyatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

**Xulosa.** Kiyim-kechaklarning lingvistik xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillari misolida tadqiq etish bir qator muhokamalarga olib keldi. Madaniy, ijtimoiy, va tilshunoslik

jihatlari kiyim-kechak atamalarining shakllanishida katta rol o'ynaydi. Tarjimashunoslikda madaniy farqlarni hisobga olish va ekvivalentlik masalasini hal qilish zaruriyati aniqlandi. Kiyim-kechaklarning lingvistik xususiyatlarini ingliz va o'zbek tillari misolida tadqiq etish ushbu ikki tilning leksik boyligi, madaniyati va tarixiy rivojlanishini tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Abduazimov A. "O'zbek tilining leksikologiyasi va leksikografiyasi masalalari." – Toshkent: O'zbekiston, 2000. P.43-47
2. Axmedova D. "Til va madaniyat munosabati." – Toshkent: Fan, 2005. P.75-84
3. Xoshimov O. "Tarjimashunoslik nazariyasi." – Toshkent: O'qituvchi, 2004. P. 123-154.
4. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. A Comprehensive Grammar of the English Language. – Longman, 1985. P.57-68.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. – University of Chicago Press, 1980. P.167-180
6. Brown, P., & Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge University Press, 1987. P.125-140
7. Isoqovb Z. "O'zbek tilida semantik tarkib va o'zlashmalar." – Toshkent: Fan, 1998. P.92-120.



UDK: 801.8.12

**Gulrux GAFUROVA,**  
E-mail: [gafurovagulruh85@gmail.com](mailto:gafurovagulruh85@gmail.com)  
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD Xamidova Sevara taqrizi asosida

#### PUBLITSISTIK MATNLAR TARJIMASIDA LEKSIK VA STILISTIK TA'SIRNI QAYTA IFODALANISHI

Annotatsiya

Mazkur ishda publitsistik matnlarning tarjimasida leksik va stilistik ta'sirlarning qanday qayta ifodalanishi tahlil qilinadi. Publitsistika, o'zining maqsadi va xususiyatlariga ko'ra, jamiyatni axborot bilan ta'minlash va uning fikrini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarjima jarayonida nafaqat til tuzilmasi, balki matnning leksik va stilistik elementlari ham o'zgartirilishi mumkin. Bu jarayon tarjimonning malakasi va matnning maqsadiga qarab turlicha amalga oshiriladi. Ishda, leksik va stilistik ta'sirlarning tarjimadagi ahamiyati, ularning mazmun va uslubga qanday ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, tarjima natijasida o'zgarishlar yuz berishi mumkinligi tahlil qilinadi. Tarjimaning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun matnning muallif tomonidan kiritilgan xususiyatlarini saqlab qolish zarur, bu esa o'z navbatida tarjimonning tilni va madaniyatni chuqur bilishini talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** Publitsistik matn, tarjima, leksika, stilistika, leksik ta'sir, stilistik ta'sir, qayta ifodalash, tarjima jarayoni, til tuzilmasi, madaniy xususiyatlar, mustahkam ifodalar, ijtimoiy-siyosiy kontekst

#### ПЕРЕВОД ПУБЛИЦИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ И ПЕРЕРАЗДЕЛЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ И СТИЛИСТИЧЕСКИХ ВЛИЯНИЙ

Аннотация

В данной работе анализируется, как происходит перераспределение лексических и стилистических воздействий при переводе публицистических текстов. Публицистика, в зависимости от своей цели и особенностей, играет важную роль в информировании общества и формировании его мнения. В процессе перевода изменяется не только языковая структура, но и лексические и стилистические элементы текста. Этот процесс зависит от квалификации переводчика и целей текста. В работе рассматривается значимость лексических и стилистических воздействий в переводе, их влияние на содержание и стиль, а также возможность изменений, которые могут возникнуть в процессе перевода. Для успешного перевода необходимо сохранять особенности текста, введенные автором, что, в свою очередь, требует от переводчика глубоких знаний языка и культуры.

**Ключевые слова:** Публицистический текст, перевод, лексика, стилистика, лексическое влияние, стилистическое влияние, перераспределение, переводческий процесс, языковая структура, культурные особенности, устойчивые выражения, социально-политический контекст.

#### RE-EXPRESSION OF LEXICAL AND STYLISTIC INFLUENCE IN THE TRANSLATION OF JOURNALISTIC TEXTS

Annotation

This study analyzes how lexical and stylistic influences are re-expressed in the translation of journalistic texts. Journalistic writing, due to its purpose and characteristics, plays an important role in providing information to society and shaping its opinions. In the translation process, not only the structure of the language but also the lexical and stylistic elements of the text can be altered. This process varies depending on the translator's skill and the purpose of the text. The study examines the significance of lexical and stylistic influences in translation, how they affect the content and style, and the possible changes that may occur as a result of translation. For the translation to be successful, it is essential to preserve the features introduced by the author, which, in turn, requires the translator to have a deep understanding of both the language and culture.

**Key words:** Journalistic text, translation, lexicon, stylistics, lexical influence, stylistic influence, re-expression, translation process, language structure, cultural features, fixed expressions, socio-political context.

**Kirish.** Publitsistik matnlar jamiyatni axborot bilan ta'minlash va uning fikrini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu matnlar, odatda, jamoatchilikni ma'lum bir fikrni qabul qilishga yoki biror voqeaga munosabat bildirishga undaydi. Shuning uchun publitsistik matnlarning tarjimasida, ularning leksik va stilistik jihatlari to'g'ri va aniq ifodalashni talab qiladi. Tarjima jarayonida nafaqat til tuzilmasi, balki matnning maqsadi va uning uslubiy xususiyatlari ham e'tiborga olinishi zarur.

Publitsistik matnlarni tarjima qilishda leksik va stilistik ta'sirlar alohida ahamiyatga ega, chunki har bir til o'zining leksik tizimi va stilistik xususiyatlariga ega bo'lib, bular tarjima jarayonida muayyan o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Tarjimon, matnning o'ziga xos uslubini saqlab qolgan holda, o'zgartirishlar kiritishga majbur bo'ladi. Bu jarayon tarjimonning til bilimi, madaniyat va kontekstni chuqur anglashini talab qiladi.

Shu bilan birga, publitsistik matnlarning tarjimasida ijtimoiy-siyosiy kontekstda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarjimon o'zgartirishlar kiritishda matnning maqsadli auditoriyasiga mos keladigan yondashuvni tanlashi zarur. Bu ishda publitsistik matnlarning tarjimasida leksik, stilistik ta'sirlarning qayta ifodalashidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Publitsistik matnlarning tarjimasida leksik va stilistik ta'sirlarning qayta ifodalanishi sohasida turli ilmiy tadqiqotlar mavjud. Ushbu tadqiqotlar tarjima nazariyasi, lingvistik va madaniy tadqiqotlar, shuningdek, publitsistika tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Sh. R. Xalilova (2012) o'zining "Publitsistik matnlarning tarjimasida nazariy asoslar" nomli ishida, publitsistik matnlarni tarjima qilishda uslubiy va leksik o'zgarishlarning qanday amalga oshirilishini tahlil qiladi. B. S. Muminov (2015) "Leksik va stilistik o'zgarishlar: tarjima va madaniyat" asarida leksik va stilistik ta'sirlarning tarjimadagi ahamiyatini o'rganadi. A. N. Jafarova (2018) o'zining "Madaniyat va til o'rtasidagi bog'liqlik: publitsistik matnlarni tarjima qilishda stilistik o'zgarishlar" nomli maqolasida, madaniyat va til o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganadi. Jafarova, publitsistik matnlarni tarjima qilishda madaniy farqlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Tarjimon, matnning til va madaniyatdagi nozik farqlarni hisobga olib, leksik va stilistik elementlarni qayta ifodalashda ehtiyotkorlik bilan yondashishi kerakligini ko'rsatadi. T. G. Murodov (2017) "Ijtimoiy-siyosiy kontekstda publitsistik matnlar va ularning tarjimasida" nomli ishida, ijtimoiy-siyosiy kontekstning publitsistik

matnlar tarjimasidagi o'rini o'rganadi. M. Z. Yusupova (2019) "Tarjima va stilistika: leksik ta'sirlar va uslubiy farqlar" asarida, stilistik farqlar va leksik o'zgarishlarning tarjimadagi ahamiyatini tadqiq qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning asosiy metodologik yondashuvlaridan biri leksik va stilistik tahlildir. Ushbu usul yordamida, tarjima qilinayotgan publitsistik matnlarning leksik tarkibi, stilistik xususiyatlari va ularning til strukturasi o'rganiladi. Matndagi so'zlar, ifodalar va stilistik vositalar tarjimaga qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi. Bu metod orqali original va tarjima matnlar orasidagi leksik o'zgarishlar, stilistik farqlar va ularga ta'sir qiluvchi omillar (masalan, madaniyat, kontekst) tahlil qilinadi. Publitsistik matnlar ko'pincha ijtimoiy-siyosiy, madaniy va tarixiy kontekstga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun, kontekstual tahlil usuli yordamida matnning mazmuni va uning maqsadli auditoriyasi bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar o'rganiladi. Tarjima jarayonida matnning ijtimoiy-siyosiy konteksti va uning tilshunoslik jihatlarini hisobga olinishi zarur. Bu metodologiya, tarjimonning matnning maqsadli auditoriyasiga mos ravishda leksik va stilistik o'zgarishlarni qanday amalga oshirishini aniqlashga yordam beradi. Publitsistik matnlarning tarjimasi, uning maqsadli auditoriyasiga qarab farqlanadi. Shuning uchun, tadqiqotda maqsadli auditoriya xususiyatlari ham inobatga olinadi. Bu yondashuv orqali, tarjimon matnning original maqsadini saqlab qolgan holda, leksik va stilistik o'zgarishlar kiritish zarurligini tushunadi. Tadqiqotning nazariy asoslarini tashkil etuvchi metodlar, mavjud ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar asosida umumlashtiriladi. Amaliy tahlil esa, tarjima qilinayotgan matnlarning haqiqiy namunalarini ko'rib chiqish orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv matndagi konkret leksik va stilistik o'zgarishlarni amalda qanday yuzaga kelishini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Publitsistik matnlar ayniqsa, yangiliklar insonlarga nafaqat mahalliy masalalar, balki global miqyosidagi so'ngi o'zgarishlardan boxabar bo'lish imkoniyatini yaratib beradi. Shuning uchun publitsistik matlar tarjimasi ikki tomonlama aloqalar, bugungi dunyo muammolari va so'ngi tendensiyalar haqida yangicha tushunchalarni yetkazib beradi. Shuningdek, turli xil madaniyatlashga dunyoda publitsistik sohada tarjimalar ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi axborot alamashinuvga ham imkon beradi. Darxaqiqat bugungi kunda dunyoning istalgan burchagida yangilik tez fursatlarda turli mintaqalarga yetib bormoqda. Bu jarayonda onlayn materiallar, turli saytlarda berilayotgan yangiliklar yetakchilik qilmoqda.

Ushbu materiallarni o'quvshilarga tasirli va mazmunli qilib yetkazishda material mualliflari tomonidan turli lisoniy vositalar, xususan stilistik vositalar faol qo'llanadi. Ushbu materiallardagi stilistik tasirni tarjimada qayta ifodalash uchun tarjimonlardan katta mahorat talab qilinadi. Dissertatsiyamizning mazkur faslida publitsistik matlarda stilistik vosilarni qayta ifodalash masalalarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimalar misolida ko'rib chiqamiz.

Bizga ma'lumki, publitsistik matnlarda o'ziga xos estetik tasir qayta ifodalashda metaphora va metonimiya stilistik vositalari alohida o'rin o'tadi. Ushbu stilistik vositalar biror voqelikni yorqinroq ifodalashda ham o'quvchini o'ziga jalb etishda keng qo'llanadi.

Metaforani atrof-muhit to'g'risida yangi ma'lumot olish imkoniyatini yaratuvchi ikki mohiyatning o'zaro hamkorligidan, ularning o'xshashligi, o'rtalaridagi analogik mavjudlik, ya'ni umumiy xossalarning topilishi asnosida qiyoslanishidan iborat bo'lgan mental va lisoniy mexanizmdir. Metaforaning bilimni taqdim etishdagi rolini turli tuman narsalarning aloqalarini, qiyoslarini tiklovchi qadimgi ilmiy anglash uslubida kuzatish mumkin. L.L.Nelyubinning ta'kidlashicha, "metaforaning maqsadi narsa yoki hodisaning shunchaki nomlanishi bilan emas, balki uning ekspressiv tavsifi bilan bog'liq". A.D.Arutyunovning fikricha esa, metaforaning mohiyati – "bu nutq predmeti, predikatlar sohasini ko'rsatuvchi, ularning belgilari va xossalari ifodalashga mo'ljallangan leksikaning identifikatsiyalovchi transpozitsiyasi (deskriptiv va semantik diffuziyali)"da ko'rinadi.

Bir nechta o'zaro aloqador unsurlar metforalik semantikasi asosini tashkil etadi. Bu unsurlarga quyidagilar kiradi: so'zning birlamchi ma'nosi; qiyoslash natijasida paydo bo'ladigan

obraz; metaforaning anglanishi oqibatida yuzaga keladigan yangi tushuncha mazmuni, shuningdek yangicha nomlanish. Bu xulosadan kelib chiqib, semantik ikkilanish haqida, ya'ni mazkur usulning ikki planli ekanligi to'g'risida gapirish mumkin, bu esa, shu tarzda metaforaning polufunksionalligini, serma'nodorligini keltirib chiqaradi. Metaforani matnda qo'llash natijasida yuzaga keladigan mana shunday ma'nolari publitsistik matnlarda o'ziga xos qo'shimcha ma'noni xosil qiladi. Bazi xolatlarda esa mana shu unsurlardan ayrimlari tarjima jarayonida o'ziga xos qiyinchilikni yuzaga keltiradi. Masalan, Afghan women 'banned from midwife courses' in latest blow to rights. BBC.com yangiliklar saytida Avg'anistonda bo'layotgan o'zgarishlar va yangiliklar haqida ma'lumot berilgan. Bunga ko'ra Afg'on ayollari mumkin bo'lgan doyalik kursalari ham taqiqlangani, bu esa ayollarni huquqi to'la qonli yo'q qilinganligidan nishona ekanligi bayon etilgan. Ushbu parchada berilgan "in latest blow to rights" birikmasi orqali fikr o'quvchiga juda ham ta'sirli va aniq qilib yetkazilgan bo'lib, metafora stilistik vositasi asosida bayon etilgan. Ushbu parchaning ma'nosiga ko'ra ayollarning huquqiga so'nggi zarba berish ya'ni ayollarni bu davlatda hech qanday huquqi qolmaganligini "huquqga so'nggi zarba" ko'chma ma'nosi orqali majoziy ifodalab berilmoqda.

Mazkur matnning o'zbek tilidagi varianti quyidagicha taqdim etilgan: Afg'on ayollariga doyalikka o'qish ham taqiqlandi - huquqga so'nggi zarba berildimi? BBC.com o'zbek maqolalari sayti orqali berilgan ma'lumotlarga ko'ra yuqorida ta'kidlab o'tgan yangilikni o'zbek tiliga tarjima qilingan variant ham asliyat matniga deyarli mos kelmoqda. Faqat o'zbek tilida ham so'zi qo'shilgan bo'lib, bu birlikning ingliz tilida ekvivalenti berilmagan bo'lib, ushbu so'z parchaga qo'shmacha ma'no yuklamoqda, ya'ni shu so'z orqali gapning mazmunidan Afg'on ayollarini avval bir nechta huquqlari cheklanib endilikda doyalik ham taqiqlab qo'yilganligini bildirilmoqda. Asliyat matnida berilgan "In the latest blow to rights" jumlasini tarjima matniga olib o'tilganda ham metaforik ma'noni saqlab qolgan holda "huquqga so'nggi zarba" deb tarjima qilingan va shu orqali parchada leksik stilistik bo'yoqdorlik ifodalab bera olingan. Bu yerda asliyat matnidagi stilistik tasir tarjima matnida ham saqlanib qolmoqda. Bu yerda metaforani tarjima qilish strategiyalaridan xisoblangan metaforani so'zma-so'z tarjima qilish strategiyasi turidan foydalanilgan. Fikrimizcha, ushbu matnni mazkur strategiyaga qo'shimcha ravishda so'z qo'shish tarjima transformatsiyasidan foydalanib, quyidagich tarjima qilish maqsadga muvofiq: Afg'on ayollariga doyalikka o'qish ham taqiqlandi – isnon huquqlariga so'nggi zarba berildimi?

A.V.Xalimovning fikriga ko'ra, matn nutqning maksimal hajmli birligi hisoblanib, unda muallif fikri va kechinmalari yaxlitligini mazmuniy ifodalash uchun asosiy hossasi aloqadorlik va butunlik bo'lgan lisoniy belgilarning yopiq tizimidan foydalaniladi. Publitsistik uslubdagi matnlarda ham metafora muallif fikri va kechinmalarini yorqin va tasirchan ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, Women training as midwives and nurses in Afghanistan have told the BBC they were ordered not to return to classes in the morning - effectively closing off their last route to further education in the country. BBC.com yangiliklar saytida berilgan publitsistik ma'lumotlarga ko'ra, Afg'anistonda yashovchi ayollar BBCga ularni o'qishga bo'lgan so'nggi umidi ham nihoyasiga yetganini, ularni boshqa o'qishga kelmasliklari buyurilganligi haqida habar berishdi. Ushbu parchada qo'llanilgan "last route to further education" majoziy ma'noda qo'llanilmoqda va ta'limga bo'lgan oxirgi umid ma'nosini bildirib, metafora stilistik vositasi orqali ifodalanganmoqda. Ushbu birikma orqali gapning uslubiy bo'yoqdorligi boyitilgan holda o'quvchini ko'chma ma'noli so'zlarni oson tushinishiga va qiziqishini oshishi uchun asos bo'lmoqda. Ushbu matn o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilingan o'zbek onlayn publitsistik matnida nashr qilingan: Afg'onistonda doyalik va hamshiralikka o'qiyotgan ayollarning BBCga aytishicha, ularga ertalab kurslarga kelmaslik buyurilgan. Bu ularning mamlakatda ta'lim olishga bo'lgan so'nggi yo'li deyarli yopilganini anglatadi. BBC.com o'zbek maqolalari sayti yuqorida aytib o'tgan saytdagi ma'lumotlarni tarjima varianti ifodalangan bo'lib, ushbu tarjima shakli asliyat matniga mazmunan mos keladi. Ushbu tarjima matnida qo'llanilgan

“ta’lim olishga bo’lgan so’nggi yo’l” birikmasi metafora stilistik vositasi orqali yasalgan bo’lib, o’quvchi bir o’qishdayoq bu yerda ta’lim olishi uchun olib boriladigan yo’l emas balki ta’lim olishlari uchun so’nggi umid, ishonch nazarda tutilayotganligini anglab olish qiyin emas.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqotda publitsistik matnlarning tarjimasida leksik va stilistik ta’sirlarning qayta ifodalanishi jarayoni batafsil o’rganildi. Publitsistika o’zining aniq maqsadi, auditoriyasi va uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadigan bir soha bo’lib, uning tarjimasida har doim yuqori malakani va

ehtiyotkorlikni talab qiladi. Umuman olganda, publitsistik matnlarning tarjimasida murakkab jarayon bo’lib, u nafaqat til tuzilmasini, balki madaniyat va kontekstni ham hisobga olishni talab qiladi. Tarjimada leksik va stilistik o’zgarishlar muhim ahamiyatga ega, chunki ular matnning aniq va to’g’ri tushunilishini ta’minlashga yordam beradi. Tadqiqot shuni ko’rsatadiki, tarjimonlarning malakasi, madaniy va ijtimoiy kontekstga bo’lgan e’tibor, shuningdek, matnning asl maqsadini saqlab qolish, muvaffaqiyatli tarjima jarayonining kalitidir.

#### ADABIYOTLAR

1. Xalilova, Sh. R. (2012). Publitsistik matnlarning tarjimasida: nazariy asoslar. Toshkent: O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. Muminov, B. S. (2015). Leksik va stilistik o’zgarishlar: tarjima va madaniyat. Toshkent: O’zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
3. Jafarova, A. N. (2018). Madaniyat va til o’rtasidagi bog’liqlik: publitsistik matnlarni tarjima qilishda stilistik o’zgarishlar. Toshkent: O’zbekiston jurnalistika instituti.
4. Murodov, T. G. (2017). Ijtimoiy-siyosiy kontekstda publitsistik matnlar va ularning tarjimasida. Toshkent: O’zbekiston milliy universiteti.
5. Yusupova, M. Z. (2019). Tarjima va stilistika: leksik ta’sirlar va uslubiy farqlar. Toshkent: O’zbekiston madaniyat va san’at universiteti.
6. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
7. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
8. Venuti, L. (1995). The Translator’s Invisibility: A History of Translation. Routledge.



УДК:81'276.6:355.

**Farhod JUMAYEV,**  
*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti v.b., f.f.n*  
*E-mail: FarhodJ@mail.ru*

*TIPI dotsenti, f.f.n Z.Pardayev taqrizi asosida*

#### KO'MAKCHILARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATI: TARIXIY O'ZBEK TILI MISOLIDA

Аннотация

O'zbek tilidagi ko'makchilar (yoki yordamchi so'zlar) – tilning sintaksisida yordamchi funktsiyani bajaradigan va gap tuzilishini, ma'no yoki grammatik jihatlarini aniqlaydigan so'zlardir. Ko'makchilar o'z-o'zidan mustaqil ma'no ifodalamaydi, balki boshqa so'zlar bilan birgalikda ishlaydi. Mazkur maqolada ko'makchilarning shakllanish xususiyati tarixiy o'zbek tili misolida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ko'makchilar, o'zbek tili, uslubiy formalari.

#### FORMATION FEATURES OF AUXILIARIES: ON THE EXAMPLE OF THE HISTORICAL UZBEKISTAN LANGUAGE

Annotation

Auxiliaries (or auxiliary words) in the Uzbek language are words that perform an auxiliary function in the syntax of the language and determine the structure of speech, meaning or grammatical features. Auxiliaries do not express an independent meaning on their own, but work together with other words. This article reveals the peculiarities of the formation of auxiliaries using the example of the historical Uzbek language.

**Key words:** Auxiliaries, Uzbek language, stylistic forms.

#### ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ ГОВОРЯЩИХ СЛОВ: НА ПРИМЕРЕ ИСТОРИЧЕСКОГО УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Вспомогательные слова в узбекском языке — это слова, которые выполняют вспомогательную функцию в синтаксисе языка и определяют структуру предложения, его значение или грамматическую сторону. Вспомогательные глаголы не выражают значения самостоятельно, а работают вместе с другими словами. В данной статье рассматривается образование вспомогательных глаголов на примере исторического узбекского языка.

**Ключевые слова:** Вспомогательные средства, узбекский язык, методические формы.

**Kirish.** Hozirgi mustaqil O'zbekistonning Davlat tili bo'lgan o'zbek tili o'tmishda qanday nomlanganligi va qaysi davlat sharoitida ish ko'rganligidan qat'i nazar, har doim ilmiy, amaliy jihatdan o'rganib kelingan. To'g'ri, o'zbek til bilimi bir xilda va bir tekisda taraqqiy qilmadi: o'rta asrlarda arab tilshunosligi, yangi asrlardan boshlab esa rus tilshunosligi yo'nalishida rivojlandi va hozir o'zbek tilshunosligi mustaqil tilshunoslik sifatida o'z taraqqiyot yo'lini davom ettirmoqda. Shubhasiz, turkiy til bilimi tarkibida nazariy va amaliy muammolarni yoritishda uning oldingi qatorida bormoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qadimgi turkiy tillardagi ko'makchilarning tadqiq etilishi XX asrda butunlay yangicha bosqichga chiqqanini aytib o'tgan edik. Bu davrda ko'makchilarning turkumlik xususiyatlari bilan birga ularning yasaliş va shakllanishiga doir fikrlar ham aytib o'tilgan edi. Bu borada V. Nalivkin, Ye. D. Polivanov, M. A. Kazembek, I. A. Batmanov, N. S. Budzinskiy, N. Ostroumov, A. Alekseyev, N. K. Dmitriyev, Q. Ramazon, H. Qayumiy kabi olimlarning o'rni beqiyos.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqorida nomi zikr etilgan olimlar o'zbek tilini tadqiq etish davomida ko'makchilar va ularning yasalişiga doir mulohazalarni ham berib o'tadi. Olimlar aytib o'tgan barcha ko'makchilarga to'xtalish niyatimiz yo'q. Balki qadimgi turkiy tilda qo'llangan ko'makchilar va ularning yasalişiga oid fikrlarni o'rta tashlaymiz.

**Tahlil va natijalar.** Uchun ko'makchisi qadimgi turkiy tilda qo'llanish darajasi bo'yicha birinchi o'rinda turadigan so'z sanaladi. Ushbu ko'makchi asosan ot va otlashgan so'zlarni hokim bo'lakka tobelantirib keladi hamda maqsad, sabab, atash ma'nolarini anglatadi.

T. Rustamov "Hozirgi o'zbek adaby tili" kitobida uchun ko'makchisining kelib chiqish tarixi haqida alohida to'xtalib o'tadi. "A.N. Kononov o'zidan oldingi olimlarning fikriga asosan uchun ko'makchisini uch otidan kelib chiqqanini, shuning uchun

ham bu ko'makchining tarkibi morfologik "uch" va "un"dan iborat ekanligini aytadi".

Tengri yarliqadiq uchun elligin elsiratmis – Tangri yarlaqagani uchun davlatini davlatsizlantirgan.

Yoki: "Tengri yer bo'lgaqin uchun ya'gi bolti – Ko'k, yer fitnalik bo'lgani uchun dushman bo'ldi.

Birla ko'makchisi qadimgi turkiy tilda yozilgan toshbitiklarda eng ko'p uchraydigan ko'makchilardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda bilan shaklida qo'llanadi. Prof. A. Kononov, V. V. Radlov, Deni, Ryasyaneni singari turkolog olimlar bilan ko'makchisini birlan ko'makchisidan kelib chiqqanini aytib o'tishadi. Birlan ko'makchisining asosida esa "bir" so'zi bor bo'lib, unga fe'l yasovchi qo'shimcha –la (lan) qo'shilib birlashmoq, qo'shilmov ma'nolarini beruvchi birla (birlan) so'zi yasalgan. Bu xususiyat birla (birlan) ko'makchisining bajaradigan vazifasida mavjud bo'lib, "ukasi bilan bormov", "qalam bilan chizmoq" singari gaplarda ikki shaxs yoki jismning bir vazifani bajarishda birlashib harakat qilishini yuzaga chiqarmoqda.

Inim Kultigin birla, eki shad birla o'la-yita qazg'antim – Inim Kultigin bilan, ikki shad bilan o'la-yita g'alaba qozondim.

Beshinch egenti Qadazda oguz birla sungusdimiz – beshincha (marta) Azganti Qadazda o'g'uz bilan jang qildik.

Chik bodun Qirgiz birla yag'i bolti – Chik xalqi Qirg'iz xalqi bilan dushman bo'ldi.

Kultigin bitiktoshidan olingan birinchi parchada birla ko'makchisi shaxslarning birgalikda harakatlanishini ko'rsatadi. Ikkinchi va uchinchi parchalarda esa birla ko'makchisi bir-biriga zid bo'lgan ikki shaxs, ikki tomonni yonma-yon qo'yishni hosil qilgan. Umuman olganda birla ko'makchisining yasalişida, asosida hamda mazmunida o'zaro bog'liqlik mavjud.

Kisra ko'makchisi qadimgi turkiy tilda, xususan, tosh bitiklar matnida eng faol qo'llangan so'z sanaladi. Kisra qadimgi turkiy tilda "kis" so'ziga "–ra" jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilishi bilan hosil bo'lgan. Yasama "so'ngra" so'zi bilan sinonim bo'lib, har ikkisi ham keyin degan ma'noni anglatadi.



Angra kisraʼ tengri bilig bertuq uchun zumuok qaʼgan qisdim - Oʻshandan soʻng Tengri ilm bergani uchun oʻz-um xoqonni qoʻlga oldim.

Yoki: “Anta kisraʼ qara Turges bodun yaʼgi bolmish Keneres tapa barti – undan soʻng Turges xalqi dushman boʻlmish Keneres tomon bordi”.

N.Abdurahmonov kisraʼ koʻmakchisi haqida “Uning kerdin, kezin, keyin sinonimik variantlari ham boʻlgan”, deya aytib oʻtadi. Bizningcha, olim eʼtirof etgan kerdin, kezin, keyin soʻzlari kisraʼ soʻzining sinonimlariga boʻlib qolmasdan, oʻzakdoshlari ham hisoblanadi. Chunki soʻzlardagi asos “kis-raʼ, “ker-din”, “kez-in”, key-in” lar davr va makon jihatdan fonetik farqlanuvchi hodisalar sanaladi. “-ra”ning “-in”ga oʻtish holati ham tabiiy sanalib, bu jarayonni soʻngra va soʻgʻin soʻzlarida ham koʻrish mumkin.

Uza koʻmakchisi qadimgi turkiy til manbalarida eng koʻp uchraydigan koʻmakchilardan biri sanaladi. Bu soʻz keyinchalik uzra shakliga kelib qolgan. Uzra koʻmakchisining yasalihi haqida Gʻ. Abdurahmonov va Sh. Shukurovlar “yuza maʼnosidagi uz soʻziga joʻnalish kelishigi affiksi –ra qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan” deya aytishadi. Bundan anglashilib turibdiki, uza koʻmakchisining tarkibi asos “uz” hamda joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi “-a”dan (koʻnglima, bana asosan oʻguz lahjasida mavjud) tashkil topgan. Toshbitiklarda ushbu koʻmakchiga koʻplab misollar keltiriladi: “...ol uchun yish uza qabsalim temish, ancha oʻgleshmish, oʻngre Turk qaʼganaru sulelim – oʻsha uchun xoqon fikrlashib, Oltin yish ustiga talon solaylik.

Yoki: “...ol toruda uza achim qagʻan olurti, echim qaʼgan olurupan – oʻsha hukumat boshiga amakim xoqon boʻlib keldi”.

Oʻtrv koʻmakchisi oldingi koʻmakchilarga nisbatan kam qoʻllanadi. Ammo uni ham faol koʻmakchilar qatoriga qoʻsha olamiz. Gʻ. Abdurahmonov va Sh. Shukurovlar ushbu koʻmakchini qadimgi turkiy tilda keng isteʼmolda boʻlganini va XV asrgacha boʻlgan manbalarida uchrashini aytib oʻtadi. Demak, XV asrdan keyin bu koʻmakchi isteʼmoldan chiqib qolgan. Toshbitiklarda bu koʻmakchi keyin, kisraʼ, soʻngra soʻzlari bilan bir maʼnoni ifodalab kelgan.

Oʻtrv koʻmakchisining yasalihi borasida N. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Gʻ. Abdurahmonov T. Rustamov kabi olimlarning morfologiyaga oid ishlarida biror fikrni uchratmadik. Ammo A. Mamatov arch va art bobo oʻzaklarni qiyoslash davomida Oʻtrv soʻzining negizini koʻrsatib beradi: “Arch soʻzi “yuklamoq” maʼnosini anglatar ekan, demak, u ortmoq feʼli bilan aloqador boʻladi, u holda oʻzak oʻz-oʻzidan ad. Or- (ar-) shakli boʻlib chiqadi. biroq bu feʼlning oʻtmoq, oʻtib ketmoq maʼnosini ifodalashi qayd qilinsa-da, uning shakllanish tarixi haqidagi toʻlaroq maʼlumotga koʻzimiz tushmadi”. Olim art soʻzining oʻtmishi sifatida bergan ar-or soʻzi oʻtrv koʻmakchisining oʻzagi sanaladi. Ammo ar-or soʻzi, avvalambor, art shakliga kelib qolgan. Olim bu soʻzdagi “t”ning qoʻshimcha yoki orttirilgan tovush ekanligi hozircha maʼlum emasligini aytadi. Ar-or- soʻzi hozirgi kunda badiiy nutqdagi ermish, erur, erkan singari soʻzlarning oʻzagida saqlanib qolgan. Ammo oʻtgan, oʻtmish soʻzlarida “r” butunlay yoʻqolib ketgan. Bu hol qay tarzda roʻy bergani bizga qorongʻu, lekin oʻtrv koʻmakchisi ar-or soʻzidan “t” tovushi paydo boʻlgandan keyin shakllanganligi aniq.

Natijada esa Oʻtrv koʻmakchisidagi “o-t” oʻzak, “-rv” esa joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi ekanligi aniqlashadi. Bunda oʻt soʻzi “biror voqea-hodisaning oʻtishini bildirib kelsa, “-rv, -ra” qoʻshimchalari chegara maʼnosida ham keladi. Natijada esa, soʻngra soʻzi bilan sinonim boʻla oladigan, “boʻlib oʻtgach, boʻlgandan keyin” maʼnolarini beruvchi Oʻtrv soʻzi shakllanadi. “-ra” qoʻshimchasida yoʻnalish maʼnosi bor. Bu holat ayniqsa ichra koʻmakchisida koʻzga tashlanadi. Ichra koʻmakchisida harakatning biror narsaning ichi orqali oʻtishini yoki ichkariga yoʻnalganlikni bildiradi. Ayni mazmun Oʻtrv koʻmakchisida ham mavjud boʻlib, voqea-hodisaning yakuniga yoʻnalishning, fikrning qaratilganini bildirib turibdi. Qadimgi turkiy tosh bitiklarda ham oʻtru soʻzi yuqorida aytib oʻtilgan mazmunlarni saqlab qolgan. Masalan, “Anta Oʻtrv qaʼganima oʻtuntum – undan soʻng xoqonimga arz qildim”– anta oʻtru birikmasida undan soʻng – oʻsha hodisa roʻy bergach degan maʼno mavjud. Ichra koʻmakchisi ham qadimgi turkiy tilda faol qoʻllangan koʻmakchilardan sanaladi. Ichra koʻmakchisi “ich” soʻzi hamda

joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi “-ra” ning qoʻshilishi bilan yasalgan. Ichra koʻmakchisi voqea-hodisaning biror makon va zamon ichida roʻy berishini bildiradi.

Garchi ichraye soʻzining kelib chiqishiga ich soʻzi asos boʻlayotgan boʻlsa-da, tub oʻzak ich emas. Buni aniqlash uchun turkiy tildagi i-i (B-unli) oʻzagi mavjud boʻlgan qadimgi til davri chuqurroq tahlil qilinishi kerak boʻladi.

A.Mamanov i-i asosli soʻzlar isteʼmolda boʻlgan davrni turkiy til taraqqiyotining nisbatan ilk davrlari, deya hisoblaydi. Olim i-i oʻzagidan kelib chiqqan bir umumiy maʼnoga ega soʻzlar sifatida inishdi hamda in soʻzlarini koʻrsatadi. Inishdi – pastga tushmoq, in –quyilik. Har ikki soʻzning semasida quyiga yoʻnalishning mavjudligini koʻrish mumkin. Ayni maʼno ich soʻzida ham boʻlib, ichiga kirish birikmasida harakatning biror narsaning orasiga qaratilganligi bilan birga quyiga yoʻnalganligini ham bilish mumkin. Zero, ichi yuqoriga qaragan biror obyekt qadimgi turkiy til davrida boʻlmagan. I-i asos oʻzakka –ch ot yasovchi qoʻshimcha qoʻshilgan. Yasalmaga ru-ra joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi qoʻshilgach esa, koʻmakchi ichraye soʻzi paydo boʻlgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz ichraye soʻzining bobo oʻzagi sifatida i-i (B unli) shaklli oʻzak soʻz turibdi, deb hisoblaymiz.

Qadimgi tosh bitiklardan ichraye soʻzining ancha oldin koʻmakchiga aylanganini bilish mumkin. Chunki bobo oʻzak i-i asoslik mavqeyini deyarli yoʻqotgan. Tosh bitiklar davrida koʻmakchi sifatida oʻta faol qoʻllanadi. Masalan, “...Apa tarqanaru ichra sab idmish – Apa tarxanga maxfiy gap yuboribdi”.

Ichra koʻmakchisi turkiy tosh bitiklarda ichraeki tarzida ham uchraydi. Bunda hozirgi kunda qoʻllanilayotgan “ichidagi” soʻziga toʻgʻri keladi. Masalan, “...tun ortusingari, anta ichraeki bodun qop manga koʻrur – shimolgacha boʻlgan yer ichidagi xalqlar hammasi menga qaraydi”.

Коды кумакчиси куйи деган манъони билдиради. Ўзбек тили тарихидаги коды, кўнгир-ер, қазииш-қозимок, куйи, кудук сингари сўзларнинг барчаси “кў” сўзидан келиб чиққан бўлиб, бу сўз ҳаракатнинг пастга-куйига қаратилганини билдиради.

A. Mamatov “Etimologik kuzatishlar” asarida qo- (qo-) komponentli soʻzlarga alohida toʻxtaladi. Olim qadimgi turkiy tilda oʻzagi qo- boʻlgan feʼllar xususida gapirarkan, qo- soʻzida biror narsani maʼlum oʻringa qoʻyish, solish, qoldirib ketish, tashlash, joylashtirish, irgʻitish degan maʼnolarni beradi, deb aytadi. Albatta, bu qo- soʻzidan paydo boʻlgan maʼlum turdagi soʻzlar etimologiyasi.

Olim fikrini isbotlashga kirishar ekan, qo- soʻzidan kelib chiqqan va asl mazmunni oʻzida saqlab qolgan qoʻn soʻzini keltiradi. “Qo- shakli bilan bevosita bogʻliq boʻlgan feʼllarning xarakterlisi qoʻn va qoʻsh soʻzlaridir... Qoʻnish amalida harakatning toʻxtashi, bajaruvchining maʼlum bir oʻrinda qoʻnim topib joylashuvi ifodalanadi”. Shu oʻrinda aytish kerakki, Qo- oʻzagi koʻplab soʻzlarning bobo oʻzagi ekanligi asarda ochib beriladi. Ammo olim yuqorida berib oʻtilgan soʻzlar va maʼnolarni umumlashtirgan holda harakatning quyiga yoʻnalganligi borasida biror fikr bildirilmaydi. Biz bu holatni ayb, deb koʻrsatmoqchi emasmiz. Lekin qo- oʻzagidan yasalgan, yuqorida biz tomondan keltirilgan baʼzi soʻzlar qo- ning ayni maʼnosi ham mavjud ekanligini koʻrsatib turibdi. Qolaversa, tadqiqotchining oʻzi aytib oʻtgan qo-ning joylashtirish, irgʻitish kabi qator maʼnolari ham predmetning quyiga yoʻnalganligini bildirib turibdi.

Qodi – quyi soʻzining oʻzagi qo- ekanligiga qoʻshilamiz. Ammo bu soʻzning koʻmakchilik holatiga oʻtishini kuzatar ekanmiz, aynan koʻmakchi “qodi”ga qo- emas, qod- soʻzi asos boʻlganligiga guvoh boʻlamiz. Chunki qo-ning maʼnosi oʻta umumiy boʻlib, undan toʻgʻridan toʻgʻri koʻmakchilik maʼnosining kelib chiqishi mumkin emas. Demak, qo- soʻzidan avvalambor qod- soʻzi yasalgan. Va quyiga yoʻnalganlikni beruvchi ushbu mustaqil soʻzdan qodi koʻmakchisi kelib chiqqan.

Qadimgi turkiy tildagi qodi koʻmakchisi hozirgi kundagi quyi soʻzining oʻtmishdagi shakli ekanligini, aytib oʻtdik. “-di”ning “-yi”ga oʻtishi davriy fonetik oʻzgarish sanaladi.

**Xulosa va takliflar.** Biz barcha koʻmakchilarga toʻxtalib oʻtirmadik. Balki qadimgi turkiy til davrida faol qoʻllangan koʻmakchilar bilan kifoyalandik. Yordamchi soʻzlarning etimologik

tarixini tadqiq qilish samarador ish sanaladi. Chunki etimologik tahlil til tarixini, uning davriy holatini tasavvur qilishga imkon yaratadi. Shuning uchun ham yordamchi so'zlarni ayni aspektdan kuzatish tarixiy tilshunoslikning oldidagi vazifasidir. Bu tarzda

tekshiruv mustaqil so'z turkumidan yordamchi so'z holatiga o'tish bosqichlarini, qadimgi turkiy tilda qo'llangan ko'makchilarning mustaqillik yoki yordamchilik ma'nosini aks ettirib turganini to'laqonli ko'rsatib beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Нурмонов А.. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Т., 2002.
2. Кодухов В.И.. Общее языкознание. М., 1974.
3. История лингвистических учений. Средневековый Восток. М., 1981.
4. Кондрашов Н.А.. История лингвистических учений. М., 1979.
5. Кондрашов Н.А.. История лингвистических учений. М., 1979.
6. Усмонов С.. Умумий тилшунослик. Т., 1972.
7. Усмонов С.. Умумий тилшунослик. Т., 1972.
8. Амирова Т.А., Б.А.Ольховиков, Ю.В.Рожественский. Очерки по истории лингвистики. М., 1975.
9. Амирова Т.А., Ольховиков Б.А., Рожественский Ю.В.. Очерки по истории лингвистики. М., 1975.
10. Лоя Я.В.. История лингвистических учений. М., 1968.
11. Лоя Я.В.. История лингвистических учений. М., 1968.



Unglasin DJUSUPOVA,  
Alfraganus universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: unglasin@mail.ru

BuxDU dotsenti L.X. Nigmatova taqrizi asosida

## SO'Z URG'USI VA SINGARMONIZM: RIVOJLANISH TARIXI, FUNKSIONAL O'XSHASHLIKLARI VA FARQLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada turkiy tillarda so'z urg'usi va singarmonizmning rivojlanishi, ularning funksional o'xshashliklari va farqlari tahlil qilingan. Turkiy tillardagi so'z urg'usi masalasi haqida turli olimlar o'rtasida bahslar mavjud bo'lib, maqola bu masalalarni ko'rib chiqadi. So'z urg'usining mavjudligi, xususiyatlari, hamda uning singarmonizm bilan qanday aloqada bo'lishi muhokama qilinadi. Singarmonizmning fonologik va morfologik tuzilishdagi o'rni hamda uning aglutinativ tillarda qanday faoliyat ko'rsatishi haqida chuqur tahlil berilgan. Maqola shuningdek, turkiy tillarda so'z urg'usi va singarmonizm o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bu hodisalarning nutqdagi funksiyalarini izohlaydi.

**Kalit so'zlar:** So'z urg'usi, singarmonizm, turkiy tillar, fonologiya, morfologiya, aglutinatsiya, fonetik tuzilish, prosodiya, urg'u va singarmonizm munosabati, turkiy tillarda urg'u, vokalizm, unli tovushlar uyg'unligi.

## WORD EMPHASIS AND SYNCHARMONISM: DEVELOPMENTAL HISTORY, FUNCTIONAL SIMILARITIES, AND DIFFERENCES

Annotation

This article analyzes the development of stress and harmonization in Turkic languages, focusing on their functional similarities and differences. There are debates among scholars regarding the issue of word stress in Turkic languages, and this article addresses these matters. The existence and characteristics of word stress, as well as its relationship with harmonization, are discussed. A deep analysis is provided on the role of harmonization in phonological and morphological structures and how it operates in agglutinative languages. The article also explains the interaction between word stress and harmonization in Turkic languages and the functions of these phenomena in speech.

**Key words:** Word stress, harmonization, Turkic languages, phonology, morphology, agglutination, phonetic structure, prosody, relationship between stress and harmonization, word stress in Turkic languages, vocalism, vowel harmony.

## СЛОВОВОЕ УДАРЕНИЕ И СИНХАРМОНИЗМ: ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ, ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СХОДСТВО И РАЗЛИЧИЯ

Аннотация

В данной статье анализируется развитие словесного ударения и сингармонии в тюркских языках, их функциональные сходства и различия. По вопросу словесного ударения в тюркских языках среди разных ученых ведутся споры, и в статье рассматриваются эти вопросы. Обсуждаются существование и характеристики словесного ударения, его связь с сингармонизмом. Дан углубленный анализ роли сингармонизма в фонологической и морфологической структуре и того, как он работает в агглютинативных языках. Также в статье объясняется взаимодействие словесного ударения и сингармонии в тюркских языках и функции этих явлений в речи.

**Ключевые слова:** Словесное ударение, сингармонизм, тюркские языки, фонология, морфология, агглютинация, фонетический строй, просодия, соотношение ударения и сингармонизма, ударение в тюркских языках, вокализм, гармония гласных звуков.

Turkiy so'z urg'usining tabiati va mohiyati uzoq vaqtdan beri olimlar o'rtasida bahs mavzusi bo'lib kelgan. Bu masalani talqin qilishda turkologlarning fikrlari ikkiga bo'lingan: ba'zi olimlar uning mavjudligiga ishonishadi; boshqalar, o'zgacha hodisa sifatida so'z urg'usi haqida gapirmaslik kerak, deb hisoblashadi.

Bir so'z urg'usining o'rni va xususiyatini aniqlashda birinchi, an'anaviy nuqtai nazar tarafdorlarining fikrlari farqlanadi. Tadqiqotchilarning eng katta guruhi turkiy urg'uni kuchli, ekspirator xususiyatga ega deb hisoblaydi va u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Bu guruhga quyidagi olimlar kiradi X.K. Jubanov [1], S.K. Kenesboev [2], N.U. Turkpenboev [3], D.T. Tursunov [4] va boshqalar.

Boshqa turkologlarning fikriga ko'ra, qadimgi turkiy tillarda urg'u musiqa urg'usi zarurligini hisobga olgan holda oxirgi bo'g'inga emas, balki birinchi bo'g'inga tushgan. Bu masala P.M. Melioranskiy [5], V.A. Bogoroditskiy [6], I.A. Batmanova [7], E.D. Polivanova [8], B.Ya. Vladimirtsov [9] asarlarida ko'rib chiqilgan. Bunday kelishmovchilik turkiy tillarda ikkita urg'u bor, degan taxminni keltirib chiqardi: asosiy va ikkinchi darajali. Bu ikki urg'uni tasdiqlaydi, ya'ni, har bir so'zda ikkita urg'u cho'qqisi mavjud: so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadigan asosiy va bosh bo'g'inga tushadigan ikkinchi darajali.

Umuman olganda, turkiy tillarda og'zaki urg'u zaif markazlashtiruvchi sifatida tavsiflanadi, buning natijasida barcha urg'usiz bo'g'inlar urg'uli bo'g'inlar kabi aniq talaffuz qilinadi. Ushbu holatni hisobga olgan holda, V.N. Zinoviyev turkiy so'z tarkibida har bir bo'g'in teng ta'kidlanadi, degan pozitsiyani ilgari suradi, ya'ni. "... urg'uli bo'g'in o'zining kuchi, yo'nalishi va davomiyligi jihatidan boshqa bo'g'inlardan keskin ajralib turmaydi, barcha bo'g'inlar ozmi-ko'pmi teng talaffuz qilinadi" [10].

Bu pozitsiyani eng aniq shakllantirgan A.M. Shcherbak: "Turkiy tillardagi urg'u, - deb yozadi u, - etarlicha ifodalangan va zaif markazlashtirilgan. So'zda qancha bo'g'in bor bo'lsa, shuncha urg'u bo'lib, ulardan birining ikkinchisidan kuchli bo'lishi ahamiyatli emas" [11].

L.R.Zinderning ta'kidlashicha, turkiy tillarda urg'u majburiy kategoriya emas, balki uning o'rniga so'zga emas, balki sintagmaga, iboraga, jumlagi tegishli ritmik urg'u mavjud [12].

1968 yilda J.Aralboyev va A. Junisbekovlar "Qozoq tilidagi urg'u haqida" maqolasida qozoq tilida so'z urg'u mavjudligini inkor etganlar [13].

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, turkiy tillarda so'z urg'uning yo'qligi haqidagi fikrni barcha olimlar tomonidan qabul qilinmagan. Bu masala atrofidagi bahslar bugungi kungacha davom etmoqda. Shunday qilib, A.Nurmuhamedov turkman tilida

prosodiya omillaridan biri sifatida so'z urg'u borligini ta'kidlaydi. Muallifning ta'kidlashicha, "iboradagi sintagmatik (va mantiqiy) urg'u odatda so'z urg'u qayd etilgan bo'g'inda ohangni oshirish va intensivlikni oshirish orqali ta'kidlanadi. Bu so'z va sintagmatik urg'u o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjudligidan dalolat beradi..." [14].

Bu masalaga S.Kenesboev [15], S.Isaev, G.Nurkina [16] qator tadqiqotlari bag'ishlangan, unda urg'uning etakchi komponentini aniqlash so'z va frazali prosodiyaning yaqin munosabatida ko'rib chiqilishi kerakligini aytib o'tgan.

Turkiy tillardagi urg'u va singarmonizm ma'lum bir munosabat hosil qiladi, degan fikr mavjud. Xususan, ko'pchilik tadqiqotchilar urg'u va singarmonizm bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldirib, yagona so'z urg'uni tashkil qiladi, deb hisoblaydi. Shunday qilib, bu borada V.A. Vinogradov shunday yozadi: "Sinxron tarzda tilda urg'u va singarmonizm o'rtasidagi munosabat masalasini ko'tarish "turan" tillarida qo'zg'almas urg'u va singarmonizmining birga yashashidan iborat bo'lgan prosodik ortiqchalikni oydinlashtirish bilan bog'liq... haqiqatda takrorlash yo'q, faqat bir-birini to'ldirish bor" [17].

M.I. Trofimov bir tilda ikki xil so'z prosodiyaning birgalikda mavjudligini inkor etmaydi: "Turkiylarning urg'u va singarmonizm tizimi, – deb ta'kidlaydi tadqiqotchi, – so'zni bir butunlikka birlashtirish vositasidir. Ular ma'lum darajada bir-birini takrorlaydi va turkiy so'z tartibi bilan birgalikda nutqda katta ortiqchalik hosil qiladi" [18].

Bu borada J.Abuov quyidagilarni qayd etadi: "Singarmonizmi chegara belgisi sifatida ajratib olish uchun turkiy nutqda tilda chiqarib tashlangan singarmonik turli-tembrli so'zlarning qat'iy uzluksiz almashinishi shaklida ma'lum shartlar mavjud bo'lishi kerak xuddi turkiy so'z birikmasini har bir so'zning oxirgi bo'g'ig'ina urg'u berib talaffuz qilish imkoniyati butunlay istisno qilinganidek, butun ibora singarmonik jihatdan bir hil so'zlardan iborat bo'lsa ham" [19].

Singarmonik tillarda og'zaki urg'uning yo'qligi sabablari ushbu tillarning grammatik tarkibi – aglutinatsiyada ham yotadi. Bu singarmonizmga hamroh bo'lgan so'zlarni yasash va o'zgartirishning aglutinativ usuli – ildizni affiksalar zanjiri bilan birlashtirish vositasi. Agglutinatsiya ham so'z mustaqilligini saqlashga xizmat qiladi. B.A. Serebrennikovning ta'kidlashicha, "singarmonizm aglutinativ tillarning paradigmanning akseal tuzilishini saqlab qolish va bir ma'noli affikslarning o'zgaruvchanligini oshirish imkoniyatini cheklash istagining natijasidir" [20].

Binobarin, aglutinativ tillarda so'zning sezilarli mustaqilligi, so'zning fonetik mustaqilligini, o'ziga xos prosodik tuzilishini saqlab qolishga intilishiga olib keladi, bu uning barcha fonetik tarkibiy qismlari xuddi shunday ekanligida ifodalanadi, teng huquqli, teng ta'kidlangan. Aglutinativ tillarda so'z sifat jihatdan kamroq o'zgarishlarga uchraydi, chunki singarmonik so'zda urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar bo'lmaydi, demak, ba'zi unlilar boshqalardan farqlanmaydi. Binobarin, turkiy tillarda og'zaki urg'u izlamaslik kerak, chunki ular singarmonizm kabi kuchli so'z yasovchi omil faoliyat ko'rsatadi.

Singarmonizm turkiy tillarga xos so'zning fonologik tuzilishining tashkiloti sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab tilshunoslarga tomonidan qayta-qayta ta'riflangan. Singarmonizm tilda ma'lum funksional yuklamani bajaruvchi lingvistik hodisa sifatida birinchi marta A. Shleyxer [21], I.A. Boduen de Kurtene [22], V.V. Radlov [23] va boshqalar. Shunday qilib, I.A. Boduen de Kurtene sof morfologik asosga asoslangan va tilning ichki tuzilishi bilan chambarchas bog'liq holda singarmonizmi urg'u vositasi sifatida qo'llashni talab qildi.

Unli tovushlarning urg'u bilan uyg'unligini so'zning fonetik tuzilishidagi roliga ko'ra solishtirib, muallif turon tillarida bo'g'inlarning "tsementlashishi" qo'shimchalarni tovushlarning ildiz majmuasi birikmasiga bo'ysundirish orqali amalga oshirilishini qayd etadi. "Turon tillarida", deb ta'kidlaydi I.A. Boduen de Kurtene, – tobe bo'g'inlar so'zning to'liq ma'nosida hukmron bo'g'inga o'xshatiladi... Turon tillarida alohida so'z va bo'g'inlar ma'lum bir ifodada unlilar uyg'unligi qonuniga zid ravishda o'ziga xos unlilarini saqlab qolsa, mustaqil so'z sifatida qaralishi lozim. Agar ular unlilar uyg'unligi tsementi bilan bir-biriga bog'langan bo'lsa, ular alohida bir bo'g'inli so'zlardan bitta

ko'p bo'g'inli so'z hosil qiladilar" [22]. Shunday qilib, Boduen de Kurtene singarmonizm aglutinatsiya bilan chambarchas bog'liq va u tufayli yuzaga keladi, degan fikrni bildirdi.

V.V. Radlov ham turkiy tillardagi singarmonizmining shunday talqiniga amal qilgan. quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Qo'shni tillarda ketma-ket ildizlar real so'zlarga qo'shilib ketgan tillarda aglutinatsiyaga moyillik uyg'unishi bilanoq ular tashqi bog'lovchiga ehtiyoj paydo bo'ldi..., buning oqibati unli tovush hodisasi edi. uyg'unlik" [23]. V.V. Radlovni shuning uchun morfologik elementlarni o'zak bo'g'inga qo'shish va ularning munosabatini aniqlash jarayonida unlilar uyg'unligi tamoyillarining namoyon bo'lishi qiziqirdi.

V.V. Radlovning xizmatlari turkiy tillarda singarmonizm nazariyasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi shubhasizdir. Bu haqda Q. Xusainov yozadi, uning asarida olimning asarlari batafsil tahlil va tavsiflangan. V.V. Radlovning hissasini yuqori baholab, singarmonizm fonologiyasiga oid tadqiqotida Q. Xusainov ham o'z fikrlarini bildiradi. "O'zining tirik fonetik shartlilikini yo'qotib, – deb yozadi u, – unlilar uyg'unligi nafaqat yo'qolib qolmadi, balki... munosabatlarda... kengayib, izchillik kasb etdi..." [14].

V.V. Radlov asarlari turkiy so'zlarning fonologiyasini tipologik o'rganish uchun manba bo'lgan, shu tariqa singarmonizm nazariyasi bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

E.D. Polivanov, qo'shimcha ravishda, singarmonizm nafaqat progressiv assimillatsiyaning fonetik hodisasi, balki unli tovushlarning artikular bir xilligi va ma'lum darajada undosh shaklida so'zning birligini rasmiy (fonologik) ramzlashning o'ziga xos vositasi ekanligini ta'kidlaydi. Bir so'zga mansub tovushlar ham o'zakdan, ham o'zakning qo'shimchalari bilan birikmasidan iborat [25].

Turkologiyada singarmonizmining mohiyati va so'zning fonologik tuzilishidagi rolini o'rganish 1950-yillardan boshlab jadal rivojlandi. Bu davr tadqiqotlarida singarmonizm turkiy so'zning barcha tarkibiy tovushlarining uyg'unligida namoyon bo'ladigan "til me'yori" sifatida ta'riflanadi. Shunday qilib, V.A. Bogoroditskiy [6], I.A. Batmanov [7], N.A. Baskakov [26] turkiy bo'g'in va so'z ichida barcha unlilar hosil bo'lish o'rni bir xil bo'ladi: yo orqa qator (qattiq) yoki old qator (yumshoq). So'z tarkibidagi undoshlarning qattiqligi va yumshoqligi bunga bevosita bog'liq. Shundan kelib chiqib, N.A. Baskakov turkiy tillarning minimal fonologik birligi sifatida bo'g'inni ajratib ko'rsatishni taklif qiladi [26], bizning fikrimizcha, eng maqbul hisoblanadi, chunki unlilar yoki undoshlarning ma'lum fonetik o'zgarishlari, ularning singarmonik soylari faqat bo'g'in ichida hosil bo'ladi.

Muammoni tahlil qilishni chuqurlashtirib, M.A. Cherkasskiy [27] singarmonizmi eshitish orqali idrok etish jarayonida nutqning alohida so'zlarga bo'linishini osonlashtiradigan chegara signallarini yaratishning o'ziga xos suprafonematik vositasi sifatida ko'rib chiqadilar.

Xususan, M.A. Cherkasskiy unlilar uyg'unligini "ma'lum bir tilga xos bo'lgan cheklangan miqdordagi singarmonik qoliqlar orqali so'zdagi unlilar ketma-ketligini tartibga solish" deb ta'riflaydi. U yoki bu modelni tanlash so'zning boshlang'ich bo'g'inining ovozlik sifati bilan belgilanadi" [27]. Ushbu ta'rifdan muallif turkiy tillarda funksional jihatdan teng bo'lmagan ikki toifadagi tovush birliklarining mavjudligini aniqlaydi: bosh unlilar va bosh bo'lmagan bo'g'inlarning unlilari. Unli tovush uyg'unligining fonologik mohiyati shundan iboratki, "bosh bo'lmagan bo'g'inlarning har ikkala unli arxifonemasining amalga oshirilishi u yoki bu darajada boshlang'ich bo'g'inning ovoz berish sifatining ma'lum jihatlari bilan shartlangan" [27].

Shu bilan birga, singarmonizm nafaqat ildiz va affiksalar morfemaning mos kelishi, balki so'zning yaxlitligini ta'minlovchi birlikdir. Shu munosabat bilan, bir qator olimlar bu fonetik hodisani oddiygina "unli tovushlar uyg'unligi" deb ta'riflashni noqonuniy deb hisoblashadi. Shunday qilib, N.S. Trubetskoy ta'kidlaganidek, "bir qator turkiy tillarda eng aniq uchraydigan singarmonizm so'zning to'g'ri ma'nosidagi "unli garmoni" dan farqlanishi kerak" [28]. Bu zarur, chunki turkiy tillarda singarmonizm so'zning umumiy tovush ko'rinishi tuzilishini belgilovchi til hodisasi bo'lib, ma'lum bir so'z tarkibiga kiruvchi



unlilarni (vokalizm) ham, undosh tovushlarni ham (konsonantizm) qamrab oladi. A.A. Reformatskiy yozganidek, "singarmonizm butun so'zga yaxlit ta'sir qiladi; bu supersegmental "kuch" va alohida segmentlar emas. Shu munosabat bilan, "unlilar uyg'unligi" atamasidan voz kechish kerak [29]. Avvalgi ishida A.A. Reformatskiy ta'kidlaganidek, "ko'pincha unlilar uyg'unligi deb ataladigan va unlilar assimillatsiyasi sarlavhasi ostida faqat fonetikaga taalluqli bo'lgan hodisa aslida ancha qiziqroq va strukturaviy jihatdan mazmunliroqdir..." [29].

Singarmonizmning prosodik hodisa sifatida talqini ham V.V.Vinogradov tomonidan ilgari surilgan. Uning fikricha, singarmonizmni "ildiz vokalizmi - affiks vokalizmi" munosabati sifatida odatiy tushunish prosodik yondashuv g'oyasiga zid keladi. "Haqiqatda, V.V.Vinogradov ta'kidlaydi, singarmonizm aynan butun so'zning, shu jumladan, so'zning uyg'unlashtiruvchi differensial xususiyati bilan ifodalangan aksentual xususiyatiga ham tegishli" [30]. Uning fikricha, prosodik yondashuvda ildiz ham, affiks ham supersegmental qatlamga teng darajada bog'liqdir [30]. Olim shu xulosaga asoslanib, tembr xususiyati o'zak morfemalarga xos xususiyat emas, uni butun so'zning

xissasi sifatida e'tirof etish, singarmonizmni esa doimiy vazifa sifatida talqin qilish kerak, degan xulosaga keladi [30].

Singarmonik nazariyasining asosiy tushunchalari, qoidalari, tamoyillarini tizimlashtirgan A.Junisbekov va M.Jusupovlar singarmonizm nazariyasini birinchi o'ringa olib chiqib, unga ko'ra turkiy tillar, jumladan, qozoq tilining prosodik dominantni urg'u emas, singarmonizm ekanligini tasdiqlagan [31]. Olimlar "singarmonizm" tushunchasiga quyidagi ta'rifni berishadi - bu unlilar va undoshlarning koartikulyatsiyasining o'ziga xos natijasi, umuman so'zning fonetik ko'rinishini tashkil etuvchi barcha tovushlarning bir hil tembral tashkilotidir. Lingvostatistik tahlil yordamida nafaqat turkiy tillarda, balki rus tilida ham singarmonizm mavjudligi isbotlangan [33].

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, singarmonizmni faqat unlilar uyg'unligi sifatida tushunish uning mohiyatini to'liq ochib bermaydi, chunki singarmonik undoshlik uchun unlilar ham, undoshlar ham birdek ahamiyatga ega.

Demak, turkiy tillardagi singarmonizm supersegmental (prosodik) birlik bo'lib, nafaqat fonetik-fonologik, balki morfologik darajani ham qamrab oladi, deb hisoblaymiz.

#### ADABIYOTLAR

1. Jubanov X.K. Qozoq tili bo'yicha tadqiqot. - Almaty: Nauka, 1966. - 361 b.
2. Kenesbaev S. Fonetika // Zamonaviy qozoq tili. Fonetika va morfologiya. - Almaty: AN KazSSR nashriyoti, 1962. - B. 14-118.
3. Turkenbaev N.U. Zamonaviy rus va qozoq tillarining solishtiruvchi fonetikasi. - Almaty: Mektep, 1978. - 102 b.
4. Tursunov D.T. Rus va qozoq tillarining solishtiruvchi grammatikasi. Filologiya fakulteti talabalariga mo'ljallangan darslik / Tursunov D., Xasanov B., Islyamov A. va boshqalar. - Almaty: Mektep, 1967. - 248 b.
5. Melioranskiy P.M. Qozoq-qirg'iz tilining qisqacha grammatikasi. Ch. 1. Fonetika va etimologiya. - SPb., 1984. - 72 b.
6. Bogoroditskiy V.A. Kazan-tatar dialektidagi ildiz vokalizmi va uning o'zgarishlari haqida // Tatarlikshunoslik ilmiy jamiyatining xabarnomasi. - Kazan, 1928. - №8. - B. 113.
7. Batmanov I.A. Qirg'iz tilining shimoliy dialektlari. Shimoliy dialektlarni tasniflash bo'yicha tajriba. Vyp. 1. - Frunze: Qirg'izgosizdat, 1938. - 26 b.
8. Polivanov E.D. Sharqshunoslik va umumiy tilshunoslik bo'yicha ishlar. - M.: Nauka, 1991. - 622 b.
9. Vladimirtsov B.Ya. Mo'g'ul yozma tili va xalkhas dialektining taqqoslamali grammatikasi. - L.: Leningrad Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 1929. - 443 b.
10. Zinoviyev V.N. Qozoq tilining ritmik-melodik tuzilishi haqida // Izvestiya AN KazSSR. Filologiya seriyasi. Vyp. 5. - Almaty, 1948. - №77. - B. 48-50.
11. Shcherbak A.M. Turk tillarini solishtiruvchi o'rganishga kirish. - SPb., 1994. - 192 s.
12. Zinder L.P. Umumiy fonetika. O'quv qo'llanma. 2-nashr, qayta ishlangan va qo'shimcha. - M.: Oliy maktab, 1979. - 312 s.
13. Aralbaev J., Junisbekov A. Qozoq tilida urg'u haqida // Izvestiya AN KazSSR. Ser.filol. - Almaty, 1968. - №6. - B. 63-69.
14. Nurmuhamedov A. Turkman tilida so'z urg'usi bormi? - Ha. // Turk fonetikasi-90: I Birlashgan konf. (26-28 noyabr): Maqolalar tezislari. - Almaty, 1990. - B. 98-107.
15. Kenesbaev S. Fonetika // Zamonaviy qozoq tili. Fonetika va morfologiya. - Almaty: AN KazSSR nashriyoti, 1962. - B. 14-118.
16. Isayev S., Nurkina G. Qozoq va rus tillarining solishtiruvchi tipologiyasi. O'quv qo'llanma. - Almaty: Sanat, 1996. - 272 s.
17. Vinogradov V.A. Singarmonizm va so'z fonologiyasi // Turkologik tadqiqotlar. Ilmiy ishlar to'plami. - Frunze: Ilim, 1970. - B. 106-115.
18. Trofimov M.I. Urg'u muammolari va uyg'ur vokalizmi: Avtoreferat dis. ...doktorlik filol. fanlari. - Almaty, 1992. - 44 s.
19. Abuov J. Singarmoniyalarning nutqni qabul qilish asoslari (nazariy va eksperimental-fonetika tadqiqoti): Avtoreferat dis. ...doktorlik filol. fanlari. - Almaty, 1998. - 52 s.
20. Serebrennikov B.A. Agglyutinativ tuzilishning barqarorligining sabablari haqida // Tilshunoslik masalalari. - 1963. - №1. - B. 46-55.
21. Shleykher A. Indoevropalik tillarning shimoliy-sharqiy bo'limining doistorik qisqacha sharhi. - SPb., 1865.
22. Boduén de Kurtené I.A. Rezya tilining fonetikasiga oid tajriba. - Varshava, SPb., 1875.
23. Radlov V.V. Turkcha lahjalarning lug'atiga oid tajriba T. 1-4. [Elektron resurs]. - SPb., 1882. - Kirish: altaica.ru/v-turks.php.
24. Xusainov K.Sh. Radlov va qozoq tili. - Almaty: Nauka, 1981. - 171 s.
25. Polivanov E.D. O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili (O'zbek til qurilishining hozirgi holati). - Toshkent: O'zSSR Gosizdat, 1933a. - 45 s.
26. Baskakov N.A. Tarixiy-tipologik fonologiya turk tillari. - M.: Nauka, 1988. - 208 s.
27. Cherkasskiy M.A. Turk vokalizmi va singarmonizm. - M.: Nauka, 1965. - 142 s.
28. Trubetskoy N.S. Fonologiyaning asoslari. - M.: Tashqi adabiyot nashriyoti, 1960. - 372 s.
29. Reformatskiy A.A. Fonologik birliklar ierarxiyasi va singarmonizm hodisalari // Fonologiya tadqiqotlari. Ilmiy ishlar to'plami. - M.: Nauka, 1966. - B. 184-199.
30. Vinogradov V.A. Prosodik darajada tenglik va kompensatsiya haqida // Fonologik to'plam: Universitetlararo konferensiya materiallari. Vyp. II. - Donetsk, 1968. - B. 14-16.
31. Junisbekov A. Singarmonizm qozoq tilida. - Almaty: Naqoa, 1980. - 78 s.
32. Jusupov M. Foneimografiya A. Baytursinova va singarmonizm fonologiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 1995. - 176 s.
33. Jusupova U. Rus va praslavyan tilini o'rganish tarixi fonema, guruhfonema, sillabema masalasi // Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim. - 2017. - T. 2. - № 1 (62). - B. 79-85.





**Rafiqjon ZARIPOV,**

*Renessans ta'lim universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari doktori*

*E-mail: zaripovrafiqjon1@gmail.com*

*Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi professori f.f.d B.Mengliyev taqrizi asosida*

## NEUROLINGUISTICS: VIEWS ON THE RELATIONSHIP BETWEEN THE BRAIN AND LANGUAGE

Annotation

The article defines neurolinguistics as the study of the relationship between the brain and language. It discusses the characteristics of language processing, psycholinguistic models, experimental studies, computer simulations, measurements of brain activity during language tasks, and other central issues of neurolinguistics. The importance of studying language pathology after brain injury, aphasia and related disorders, as well as species and related issues of language development in humans are described. The interconnectedness of disciplines related to neurolinguistics, such as linguistics, medical neuroscience, psychology, and speech-language pathology, is highlighted.

**Key words:** language, speech, brain, thinking, neurolinguistics, language development disorders, neurolinguistic approaches, aphasia.

## НЕЙРОЛИНГВИСТИКА: ВЗГЛЯДЫ НА ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ МОЗГОМ И ЯЗЫКОМ

Аннотация

В статье определяются границы нейролингвистики, как науки о взаимоотношениях мозга и языка. В нем обсуждаются такие вопросы, как обработка языка, психолингвистические модели, экспериментальные исследования, компьютерное моделирование, измерение активности мозга во время языковых задач и другие центральные вопросы нейролингвистики. Описана важность изучения патологии языка после черепно-мозговой травмы, афазии и связанных с ней расстройств, а также актуальные вопросы развития языка у видов и людей. Освещены взаимосвязи дисциплин, связанных с нейролингвистикой, таких как лингвистика, медицинская неврология, психология и логопедия.

**Ключевые слова:** язык, речь, мозг, мышление, нейролингвистика, нарушения развития речи, нейролингвистические подходы, афазия.

## NEYROLINGVISTIKA: MIYA VA TIL O'RTASIDAGI MUNOSABATLARGA OID QARASHLAR

Annotatsiya

Maqola neyrolingvistikani miya va til o'rtasidagi munosabatni o'rganish sifatida belgilash orqali chegaralaydi. Unda tilni qayta ishlash, psixolingvistik modellar, eksperimental tadqiqotlar, kompyuter simulyatsiyalari, til vazifalarini bajarishda miya faolligini o'lchash kabi tavsiflar va boshqa neyrolingvistikaning markaziy masalalari haqida so'z boradi. Miya shikastlanishidan keyingi til patologiyasini o'rganishning ahamiyati, afaziya va unga bog'liq bo'lgan kasalliklar, shuningdek, turlar va odamda til rivojlanishining tegishli masalalari tavsiflangan. Neyrolingvistikaga aloqador tilshunoslik, tibbiy nevrologiya, psixologiya va nutq-til patologiyasi kabi fanlarning bog'liqlik xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** til, nutq, miya, tafakkur, neyrolingvistika, til rivojlanishidagi buzilishlar, neyrolingvistik yondashuvlar, afaziya.

**Kirish.** Neyrolingvistika til va muloqotning miya faoliyati bilan bog'liq turli jihatlarini o'rganadi [2]. Boshqacha qilib aytganda, miyaning til va muloqotni qanday idrok etishi va nutq ishlab chiqarilish jarayonlarini o'rganishga harakat qiladi. Bu nevrologik, nefrofiziologik nazariyani (miya qanday tuzilgan va u qanday ishlaydi) lingvistik nazariya (til qanday tuzilgan va u qanday ishlaydi) bilan uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi [1]. Nevrologiya va tilshunoslik bilan birga, psixologiya ham neyrolingvistikaning asosiy manbalaridan hisoblanadi. Neyrolingvistika psixolingvistik bilan juda yaqin aloqada bo'lib, neyrolingvistikaning psixolingvistikadan asosiy farqi neyrolingvistika ko'proq miya faoliyatini o'rganish, tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Neyrolingvistik tadqiqotlarning eng keng tarqalgan turi miya shikastlanishidan keyingi til va muloqotni o'rganish hisoblanishi ko'plab manbalarda qayd etiladi. Ammo hozirgi davrda mazkur sohaning tadqiq doirasi kengayib, muayyan bir jihatni fandagi keng tarqalgan izlanish deb ajratish jarayonini murakkablashtirmoqda. Chunki neyrolingvistika bilan aloqador har qanday tadqiq obyektining o'ziga xos dolzarbligi mavjud. Jumladan, amaliy tajribalarga asoslangan sohadagi empirik izlanishlar, modellarni qurish, kompyuter simulyatsiyasi va neyroimajing tadqiqotlari tez-tez qo'llaniladigan, ilg'or usullardandir.

Neyrolingvistikaning o'ziga xos modellari, tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad, vazifalari va asoslarini aniqlash uchun avvalo ushbu tadqiqot sohasi doirasini chegaralashga harakat qilaylik.

Neyrolingvistikaning asosiy masalalari tarixda bir qator tadqiqotchilar tomonidan ko'rib chiqilgan bo'lsada, neyrolingvistikaga e'tiborning kuchaygan davri sifatida XIX asr oxiri qaraladi. Neyrolingvistika tarixda qator fan sohalari tarkibida, muayyan izlanishlarda yoritilgan bo'lsada, mazkur yo'nalish birliklari juda ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortgan. Bu esa qayd etilgan davrda yanada kuchaydi. "Neyrolingvistika" atamasi 1960-yillarda Chomskyning tilshunoslikka bo'lgan ta'siri va psixolingvistikaning ma'lum bir soha sifatida rivojlanishi natijasida, soha masalalarini yaxlid aks ettirish uchun yaratildi [2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon tilshunosligida tilni qayta ishlash, psixolingvistik modellar, eksperimental tadqiqotlar, kompyuter simulyatsiyalari, til vazifalarini bajarishda miya faolligini o'lchash kabi neyrolingvistikaning markaziy masalalari atroflicha tadqiq etilgan. Miya shikastlanishidan keyingi til patologiyasini o'rganishning ahamiyati, afaziya va unga bog'liq bo'lgan kasalliklar, shuningdek, turlar va odamda til rivojlanishining tegishli masalalari izlanishlarda yoritiladi. Neyrolingvistikaga aloqador tilshunoslik, tibbiy nevrologiya, psixologiya va nutq-til patologiyasi kabi fanlarning bog'liqlik xususiyatlari asoslanadi. Biz ham mazkur maqolada neyrolingvistikaga oid yuqoridagi jihatlarini tahlil etgan holda mavzuga doir o'z munosabatlarimizni bildiramiz. Bu jihatlarini yoritishda D.Kaplan (1987), A.L.Kristensen (1974), X.Gudglass, E.Kaplan (1973), D.Hovard, F.M.Xetfild (1987), A.Kagan, M.Saling (1988), J.Kay, R.Lesser, M.Kolteart (1992), A.R.Luriya

(1973), B.Stemmer, X.Uitaker (1998) kabi tadqiqotchi va soha olimlari izlanishlariga tayanganmiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning obyekti sifatida tilni qayta ishlash, psixolingvistik modellar, eksperimental tadqiqotlar, kompyuter simulyatsiyalari, til vazifalarini bajarishda miya faolligini o'lchash, miya shikastlanishidan keyingi til patologiyasini o'rganishning ahamiyati, afaziya va unga bog'liq bo'lgan kasalliklar, shuningdek, turlar va odamda til rivojlanishiga tegishli materiallar olingan. Tadqiqot tavsifida, lingvistik, neyrolingvistik, psixolingvistik, nevrologlar tahliliga tayangan holda ish ko'rildi. Tadqiqotda psixolingvistik modellar, kompyuterda simulyatsiyalash, lingvistik tavsiflash, sistem, statistik, tavsiflash, tasniflash, analiz, sintez, lingvistik eksperiment ilmiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Neyrolingvistikaning predmeti 1970-yillarda Vitaker va Vitaker tomonidan tahrir qilingan "Neyrolingvistika bo'yicha tadqiqotlar" nomli izlanishlar turkumining kirish qismida quyidagicha tavsiflangan: ochig'ini aytganda neyrolingvistika sohasi fanlararo bo'lsa ham, uning umumiy mavzusi mavjud. Neyrolingvistikaning tadqiq manbayi til va miya o'rtasidagi munosabatlar [3].

Ko'proq funksional jihatlariga qaratilgan bo'lsa-da, yuqorida keltirilgan izohga o'xshash tavsif, ushbu sohadagi eng nufuzli jurnallardan biri bo'lgan "Brain and Language"ning kirish qismida ham keltirilgan: Neyrolingvistika miya yoki miya faoliyatining har qanday jihati, inson tili yoki muloqoti (nutq, eshitish, o'qish, yozish yoki og'zaki bo'lmagan usullar) bilan bog'liq [1].

Ushbu dinamik formulada til yoki aloqa aspektlarini miya funksiyasi bilan bog'lashdagi umumiy muammo Luriya tomonidan "Neyrolingvistikaning asosiy muammolari" asarida qo'yilgan: neyrolingvistikaning predmeti og'zaki muloqotning shakllanishi, uni tushunish jarayonlari, uning tarkibiy qismlari, mazkur jarayonlar va ular sodir bo'ladigan sharoitlar [4].

Yuqoridagi tavsiflardan kelib chiqib aytish mumkinki, neyrolingvistika – neyron va lingvistik so'zlarining o'zaro birikuvidan shakllangan soha bo'lib, miya faoliyati va unda tovush, til birliklari, nutq shakllantirilishi hodisalarining yuzaga kelish modullarini nevrologik va lingvistik me'zonlar asosida tekshiradi. Shuningdek ushbu soha, inson miyasidagi neyronlarning til va nutqni hosil qilishdagi funksional xususiyatlari, ular bilan aloqador jarayonlar, neyronlar zararlanganda yuzaga keladigan kasalliklarni o'rganish bilan birga tegishli tavsiyalarni ishlab chiqadi [1].

Neyrolingvistika o'z oldiga quyidagi savollarni qo'yadi:

- Har xil turdagi miya shikastlanishidan keyin til va muloqot bilan aloqador qanday hodisalar kuzatiladi?

- Turlarning rivojlanishi davomida muloqot qilish va tildan foydalanish qobiliyati qanday rivojlangan? Ushbu rivojlanishni miya evolyutsiyasi bilan qanday bog'lashimiz mumkin?

- Bolalar qanday qilib muloqot qilishni va tildan foydalanishni o'rganadilar? Ularning tilni o'zlashtirishini miyasining rivojlanishi bilan qanday bog'lashimiz mumkin?

- Til va muloqotni shakllantiruvchi neyronlar harakatini, miyadagi jarayonlarni qanday o'lchashimiz va tasavvur qilishimiz mumkin?

- Biz o'rganayotgan lingvistik hodisalarni tushuntirishga yordam beradigan til va muloqot jarayonlarining ilg'or modellarini qanday yaratishimiz mumkin?

- Tilni qayta ishlash, tilni rivojlantirish va tilni yo'qotishning kompyuter simulyatsiyasini qanday ishlab chiqishimiz mumkin?

- Tilni qayta ishlash bo'yicha modellarimiz va gipotezalarimizni sinab ko'rish imkonini beradigan tajribalarni qanday loyihalashimiz mumkin?

Yuqoridagi savollarning birinchisi neyrolingvistikada alohida o'rin tutadi. Jumladan, Afaziya "miya shikastlanishi tufayli tilni yo'qotish" deb ta'riflanadi. Buning sababi, masalan, infarkt (miya tomirlarida muayyan to'siqlarning hosil bo'lishi), qon ketishi (qon tomirining yorilishi) yoki bosh jarohati bo'lishi mumkin.

Lezyon(jarohat)ning ta'siri shundaki, tilni tushunish yoki ishlab chiqarish o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlarni o'rganish orqali

biz til bilan bog'liq funksional tizimlar qanday ishlashini va ularda qaysi miya tuzilmalari ishtirok etishini o'rganishimiz mumkin. Tadqiqotchilar miya funksiyalarini xaritada tushirish uchun har doim turli qobiliyatlarni yo'qotgan bemorlar holatlarini o'rganishgan. Til kabi yuqori kognitiv qobiliyatlar haqida gap ketganda, bu juda ko'p muammolarni keltirib chiqaradi. Ammo afaziyaning o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar boshqa neyrolingvistik usullar bilan olingan ma'lumotlar kabi ishonchlik darajasiga ega.

Afaziologiya yoki lingvistik afaziologiya neyrolingvistikaning dominant sohasidir. Afaziya - bu tilning orttirilgan buzilishi bo'lib, ko'pincha fokal lezyon ya'ni, bir yoki bir nechta o'ziga xos joylarning shikastlanishi sifatida namoyon bo'ladi. Buzilishlar, shuningdek, demensiya kabi progressiv nevrologik kasalliklar tufayli yuzaga keladi. Til va xotira, ayniqsa, murakkab yuqori kognitiv funksiyalarda chambarchas va o'zaro bog'liqdir. Neyrolingvistikada nafaqat orttirilgan til buzilishlari, balki til rivojlanishidagi buzilishlar, ya'ni o'ziga xos lezyon hodisasini boshdan kechirmagan bolalarda uchraydigan buzilishlar ham tadqiq etiladi [1].

Til rivojlanishidagi buzilishlarga neyrolingvistik yondashuvlar, masalan, SLI (o'ziga xos til buzilishi) va rivojlanishdagi o'qish va yozish muammolari, shu jumladan disleksiya, odatda tilni o'zlashtirishning maxsus shartlarini va tilning plastisitetligini (qoliplash qobiliyatini) hisobga olgan holda, ushbu shartlarni o'xshash orttirilgan kasalliklar bilan solishtiradi. Neyrolingvistik, shuningdek, tilga ta'sir qiladigan o'ziga xos bo'lmagan rivojlanish buzilishlari bo'lgan bolalarning til rivojlanishini o'rganadilar.

Til va nutqning rivojlanishi va turning evolyutsiyasida til va nutqning zaruriy shartlari ham neyrolingvistik tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Miyaning tuzilishi va faoliyatidagi o'zgarishlar har xil turlarning yashash tarzi bilan taqqoslanadi. Hayvonlarning aloqa tizimlari tabiiy sharoitlarda, ayniqsa primatlarnikida o'rganiladi va odamlarning aloqa tizimlariga yaqin, o'rgatilgan primatlar bilan tajribalar o'tkaziladi.

Neyrolingvistik uchun bilimning, tadqiqotning muhim manbai oddiy va shikastlangan miyalarda til vazifalarini bajarishda ishtirok etuvchi neyronlar holati va miya faoliyatini o'lchash imkoniyatidir. Miyaning ko'plab tekisliklarining rentgen nurlari yoki MRI (magnit tomografiyasi) natijasida uch o'lchamli tasviri yaratadigan KT (kompyuter tomografiyasi) kabi lezyon joylarini ko'rish mumkin bo'lgan miyaning statik rasmlari. rezonans tasviri bugungi kunda shifoxonalarda olish mumkin bo'lgan ma'lumotlardir. EYEG (elektroensefalografiya), PET (pozitron emissiya tomografiyasi), FMRI (funktional magnit-rezonans tomografiya) va MEG (magnit ensefalografiya) kabi usullar bilan til vazifalarini bajarishda miyaning dinamik faolligini o'lchash tadqiqot uchun muhim vositadir.

Psixolingvistik ko'pincha miyaning turli sohalarida miya faoliyati haqidagi ma'lumotlar bilan birgalikda tilni tushunish, lingvistik xotira, til ishlab chiqarish, tilni o'zlashtirish va tilni yo'qotish jarayonlarini neyrolingvistik modellashtirish uchun asos yaratadi. Bunday modellar ketma-ket (ya'ni, asosan, "quti va o'q") modellar, parallel jarayonlar bir vaqtning o'zida ishlaydigan modellar, jarayonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va jarayonlar modellari darajalari o'rtasidagi teskari aloqa zanjirlari yordamida kompyuter simulyatsiyasining asosi bo'lishi mumkin. "Sun'iy neyron tarmoqlari" (SNT(ANN) yoki ulanish tarmoqlarini o'z ichiga olgan kompyuter simulyatsiyalari ham qo'llaniladi. Modellar, shuningdek, til funksiyalari bo'yicha oflayn va onlayn (ya'ni, jarayonlarni real vaqtda o'lchash) tajribalarining asosi hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Neyrolingvistik til va muloqotning miya faoliyati bilan bog'liq turli jihatlarini o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, miyaning til va muloqotni qanday idrok etishi va unda nutq ishlab chiqarilish jarayonlarini o'rganishga harakat qiladi. Bu nevrologik, neyrofiziologik nazariyani (miya qanday tuzilgan va u qanday ishlaydi) lingvistik nazariya (til qanday tuzilgan va u qanday ishlaydi) bilan uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi. Neyrolingvistik – neyron va lingvistik so'zlarining o'zaro birikuvidan shakllangan soha bo'lib, miya faoliyati va unda tovush, til birliklari, nutq shakllantirilishi hodisalarining yuzaga kelish modullarini nevrologik va lingvistik me'zonlar asosida

tekshiradi. Shuningdek ushbu soha, inson miyasidagi neyronlarning til va nutqni hosil qilishdagi funksional xususiyatlari, ular bilan aloqador jarayonlar, neyronlar zararlanganda yuzaga keladigan kasalliklarni o'rganish bilan birga tegishli tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Miya va til o'rtasidagi munosabatlar haqidagi xilma-xil qarashlar turli davrlarda mavjud bo'lgan va hozir ham turli xil yondashuvlar munozaralar markazida. Ammo sohadagi mavjud qarashlarning barchasi ham o'z ta'siriga ega bo'lmagan.

#### ADABIYOTLAR

1. Brain and Language // <https://www.sciencedirect.com/journal/brain-and-language>
2. Zaripov R. Neyrolingvistika. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – B. 5.
3. Whitaker, H., & coeditors (1976–1979). Studies in neurolinguistics. New York: Academic Press. P. 6.
4. Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М.: Либроком, 2009. – 3 с.



**Jasurbek IBRAGIMOV,**

*Impuls tibbiyot instituti ingliz tili o'qituvchisi, PhD*

*E-mail: ibragimov.jasurbek2022@gmail.com*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori f.f.d B.To'xliyev taqrizi asosida*

## A BRIEF HISTORY OF WESTERN VIEWS OF A METAPHOR

Annotation

Comparative analysis of literal arts in all fields of linguistics, literature and translation studies is being studied. Especially, it is a need to find the origin of the western theory of metaphor and to learn the similarities and differences of metaphors in the East and West. This article discusses a brief history of western metaphorical theories from the researchers of those countries.

**Key words:** metaphor, West, history, trope, theory, Poetics, riddle, simile.

## КРАТКАЯ ИСТОРИЯ ЗАПАДНЫХ ВЗГЛЯДОВ НА МЕТАФОРУ

Аннотация

Изучается сравнительный анализ буквальных искусств во всех областях лингвистики, литературоведения и переводоведения. Особенно необходимо найти истоки западной теории метафоры и изучить сходства и различия метафор на Востоке и Западе. В этой статье обсуждается краткая история западных метафорических теорий от исследователей этих стран.

**Ключевые слова:** метафора, Запад, история, троп, теория, поэтика, загадка, сравнение.

## G'ARBONA METAFORAGA OID UMUMIY QARASHLARNING QISQACHA TARIXIDAN

Annotatsiya

Badiiy san'atlarining qiyosiy tahlili tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimaunoslikning barcha yo'nalishlarida o'rganilmoqda. Ayniqsa, g'arbda tadqiq qilinayotgan metafora nazariyasi tarixini aniqlash va ularni sharq mumtoz poetikasidagi "istiora" termini bilan o'zaro o'xshash va farqli jihatlari aniqlash bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lmoqda. Ushbu maqolada aynan g'arb olimlari tomonidan ilgari surilgan metafora nazariyasi tarixidan qisqacha ma'lumotlar to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** metafora, g'arb, tarix, majoziy ma'no, nazariya, Poetika, topishmoq, tashbeh.

**Kirish.** Adabiy hodisalarni, ayniqsa, bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish jarayonidagi hodisalar mohiyatini faqat tilshunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik fanlari tamoyillari asosida o'rganishning o'zi kamlik qiladi. Bunday paytlarda, ayniqsa, gap qadimiy matnlar ustida boradigan bo'lsa, boshqacharoq yondashuvlar talab etiladi. Xuddi shuning uchun ham akademik V.V.Vinogradov lingvopoetik tadqiqotlarning o'rni va ahamiyatiga katta baho bergan edi [1]. Sharqda "istiora", g'arbda "metafora" nomi bilan yuritiladigan lisoniy adabiy hodisa badiiy tasvir vositasi sifatida nisbatan qadimiyligi bilan ajralib turadi. Har holda mutaxassislar uni ancha qadimiy tafakkur tarzi bilan bog'lashadi. Uni boshqacharoq tarzda "ma'no ichida ma'no" deb atash mumkin, chunki badiiy mantda istioraga olingan so'zlar yoki so'z birikmalari o'zining asl ma'nosini emas, balki undan anglashilgan ko'chma ma'noni nazarda tutadi hamda tasvirga tortilgan lisoniy-adabiy hodisa mohiyati va mazmunini yanada teranroq anglashga yordam beradi. "Metafora" so'zi qadimdan, ya'ni Aristotelning "Poetika" asari yaratilgandan beri yozuvchi-yu shoirlar, adabiyotshunos-u tilshunoslar va hatto psixologlar-u faylasuflarning ham diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** G'arbda metafora nazariyasi so'nggi yillarda o'zining ko'lami doirasidan kengayib bormoqda. Bu kengayish K.Moultonning "Homer metaforasi", M.Blekning "Metafora", J.Serlning "Ifoda va ma'no" va boshqa olimlar tomonidan yaratilgan adabiyotlar tahlilga tortildi. G'arbda metaforani mifologik, falsafiy, lingvistik va boshqa fanlar nuqtai nazaridan o'rgangan E.Kassirer, A.Richards, X.Ortega-i-Gasset, R.Yakobson, D.Davidson, N.Gudmen, M.Birdsli, F.Uilrayt, va A.Vejbiska nomlarini keltirish o'rinni. Mana shunday olimlarning mehnati va amalga oshirgan ilmiy izlanishlari samarasi o'laroq, metafora endilikda nafaqat adabiy va lingvistik jihatdan, balki falsafiy tomondan ham o'rganilishiga zamin yaratildi. Rus olimlari tomonidan ko'p diqqatga sazovor tadqiqot ishlari bajarilgan. Ulardan quyidagilarni alohida ta'kidlash kerak: A.N.Veselovskiy, L.I.Timofeyev, G.L.Abramovich, G.N.Pospelov, V.M.Jirmunskiy, G.N.Sklyarevskaya, I.V.Milashevskaya, Y.Y.Yurkov. Yuqoridagi olimlarning barcha

nazariyalari Aristotelning "Poetika" asarida berilgan g'oyalari negizida shakllangan.

**Tahlillar va natijalar.** Arastuning "Poetika" asari adabiyot va adabiyot nazariyasi haqidagi hozirgacha saqlanib qolgan eng qadimiy asarlardan biridir. Bu asar ikki qismdan iborat, biri komediya, ikkinchisi fojia haqida, ulardan faqat fojia janrida yozilgan qismigina bizgacha yetib kelgan. Asarning 21-bo'limida otlarning turlariga, shu jumladan, metaforaga ham alohida to'xtab o'tilgan. Faylasuf "metafora narsaga xos bo'lmagan, jinsdan turga, yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga ko'chirilgan yoki o'xshatilgan so'zdir". Arastu ko'chilmalarni mohirona ishlatishni iste'dod belgisi sifatida qaraydi hamda yaxshi metaforalarni kashf etish uchun narsalardagi o'xshashlikni payqay olish bilan aloqador bo'lgan ko'nikma va malakalarning shakllangan bo'lishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi [17].

O'rni kelganda ta'kidlash joizki, K.Moultonning "Homeric metaphor" nomli maqolasi mavjud. Unda keltirilishicha, olimlar va tanqidchilar Homer "Iliada" va "Odiseya" epik dostonlarida metaforani "kengaygan o'xshatish" sifatida ishlatgan, deb izohlaydilar [3]. Homerning vatandoshi Platon asarlarida metaforadan keng foydalangan bo'lsa-da, "μεταφορά", ya'ni metaforani emas, o'rni "εἰκὼν" (tasvir) atamasini qo'llaydi [5]. Eski fransuz tilidagi "métaphore" atamasining etimologiyasini aniqlash uchun bizda manbalar yetarli bo'lmagan bois, onlayn etimologik lug'atga murojaat qildik. Unda berilishicha, metafora atamasi lotin tilidagi "métaphore" so'zi negizida XIII asrda paydo bo'lgan [19]. Bu fikr ko'p g'arb manbalarida uchraydi. Atama g'arb poetikasiga kirib kelishi shu davrga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, aslida Aristotel miloddan avvalgi asrda bu atamaga turli ta'riflar berganini yuqorida ta'kidladik.

G'arbda Aristotel nazariyasini yoqlab chiqqan holda metafora hodisasini o'rganish va tadqiq qilish ishlari keng ko'lam kasb etadi. Xususan, XX asrda g'arbda metafora nazariyasi bilan yetuk fan arboblari shug'ullana boshladi.

Kembridj universiteti professori J.Serlning ta'kidlashicha, Aristotel davridan hozirgacha metafora nazariyasi ikki turga bo'linadi:

ikki yoki ko'proq obyekt orasidagi o'xshash jihatlarda hamda qiyosiylikni ko'rsatib beradigan metaforaviy ifodalar

ikki semantik tarkib orasidagi o'zaro ta'sir yoki verbal qaralama-qarshilikning ifodasi [6].

Bizningcha, J.Serlning yuqoridagi fikrida g'alizlik mavjud. Xususan, olim tomonidan berilgan ikkinchi turda "metafora – verbal qaralama-qarshilik ifodasi" degan jumla mavjud. Bunday nazariyaga keyinroq rus olimlari tomonidan bildirilgan fikrlarda ham uchraydi. Umuman olganda, J.Serl ham g'arbdagi qiyosiy metafora nazariyasiga asoslangan holda yuqoridagi fikrlarni yuritgan.

Faylasuf M.Blek "metaforani tushunish topishmoqning javobini topish yoki kodni yechishdek bir gap", [7] – deb ta'riflaydi. Bunday mulohaza akademik V.V.Vinogradovda ham "istoriaviy topishmoq" tarzida uchraydi [2]. Topishmoqlarda yashirin o'xshatish mavjudligi M.Blek va V.V.Vinogradovlarning fikrlari asosli ekanini ko'rsatadi.

M.Blek til qoidalarida ba'zi iboralar, allegoriya va topishmoqlar ham metafora sifatida qabul qilish mumkin deya ta'kidlagan [7]. Bunday holatda jumla ichidagi barcha so'z va so'z birikmalari metaforaviy ma'noda ishlatilgan bo'lishi kerak.

A.Ortoni va M.Blekning yuqorida keltirib o'tilgan metaforaga ta'rifini "o'rnini bosuvchi" va "taqqoslovchi", deya qayta nomlaydi [7]. Olim ikki jumlaning misol sifatida olib ularni taqqoslaydi. Bular M.Blek tomonidan berilgan "Richard is a lion" (Richard – sher) (J.I.) va "Man is a wolf" (Erkak – bo'ri) (J.I.) misollaridir. Ortoni "Man is a wolf" jumlasini "Richard is a lion" jumlasidan muhimroq va qiziqroqligini aytib o'tadi. Buning sababi, insonlarning qo'rqmaslik xususiyati, asosan, bo'riga qiyoslanadi. U bu qarash bilan M.Blekning "o'zaro ta'sir" nazariyasi "so'zlarning metaforaviyligini kamaytirishga turtki bo'ladi", [8] deya ta'kidlaydi. Keyinchalik, A.Ortoni metaforani "elliptik tashbih" bo'la olmaydi, degan nazariyasiga ham tanqidiy fikrlarini bildiradi. Uning fikriga ko'ra, dunyodagi barcha narsalarni bir-biriga o'xshashligi bor. Shu o'rinda, bo'ri leksemasi sharqda, xususan, turkiy xalqlarda ham qo'rqmaslik, qaytmaslik ramzi sifatida insonlarga nisbatan badiiy ko'chim sifatida tez-tez muloqot jarayonida qo'llanishini eslatib o'tish joiz.

Yana bir faylasuf D.Davidson esa unga etiroz bildirib, "metafora faqatgina ba'zi bir ifodalarni ko'rsatadigan til qoidalariga emas, balki u yana ham ko'proq ma'nolarga, ya'ni so'zlovchining maqsadi, ovoz toni va nutqiy holatlariga bog'liqdir", [9] deb aytadi.

Ta'kidlash kerakki, E.Kassirerning "Til va mif" kitobidagi "Metaforaning qudrati" qismida hodisa mifologiyaga aloqador holda tadqiq etilgan. Olim metaforani til va mif orasidagi intellektual bog'lanish deb ataydi, ammo jarayonning aniq ta'rifida va hatto uni qabul qilish kerak bo'lgan umumiy yo'nalishlarda ham nazariyalar bir-biriga ziddiyatini ko'rsatadi. [10] Uning nazariyasiga ko'ra, metaforaning asl manbai ma'lum emas, u hali ham til qurilishi va mif tasavvuridan izlanmoqda, degan qarash ilgari suriladi.

Boshqa bir faylasuf tilshunos olim A.Richards esa metaforani falsafa ritorikasiga bog'liq holda o'rganib, uni matnga kinoyali ma'no yuklashning bir turi sifatida izohlaydi [10]. U "The Philosophy of Rhetoric" nomli kitobida Shekspirning "Otello"sidan bir misol keltiradi. Bu misol ingliz tilida bo'lgani uchun avval asl matnga, keyin esa tarjimaga murojaat qilamiz.

A stubborn and unconquerable flame

Creeps in his veins and drinks the streams of life[10].

Tarjimasi:

O'jar va bo'ysunmas olov uning vena tomirlarida harakatlanib, uning hayotiga xavf solmoqda (ya'ni hayot buloqlarining suvini ichmoqda). (J.I.)

Jumlada tananing baland harorati olovga qiyoslanmoqda. Umuman olganda, A.Richardsning nazariyasi bilan qaraganda, olovda ham, tana haroratida ham issiqlikning ko'tarilishi kuzatiladi. Tana harorati olovga qiyoslanadi, lekin har doim ham haroratning balandligini olov deb qarashning o'zi yetarli emas. Keyingi o'rinlarda berilgan jumla tana haroratini jonlantirish

orqali metafora hosil qilgan, chunki harakatlanish (o'rmlash) va hayot buloqlarining suvini ichish baland tana haroratiga xos emas. Professor A.Richardsning bunday metaforaga nisbatan falsafiy qarashlari XX asr falsafiy ritorikada alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

D.Tresi metafora zamonaviy diniy ta'lim va teologiyaning ma'lum bir bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etganini isbotlab beradi [12]. U "Alloh" (God), "sevgi" (love) va "adolat" (justice) so'zlarining metaforaviy ahamiyatini tushuntirib o'tadi. Berilgan misollarni tahlil qilish uchun "God is love" (Alloh – sevgi) (J.I.) jumlasini tanlab olindi. Yuqoridagi misol Xristian dinida Allohning mohiyati (kimligi) emas, balki Allohni tasavvur qilishga yordam beradigan hodisa (nimaga o'xshashligi) ta'riflanadi. Tresining bunday nazariyasi "teomorfik metafora" sifatida yaxshi ma'lum.

Boshqa bir olim R.O.Yakobson lingvistikaning eng unumli aspekti deb atagan "afeziya"ni metafora atamasi hosil qilishning bir qismi sifatida belgilaydi. Afeziya, aslida, meditsinada nutqiy kasallik turlaridan biriga berilgan nom bo'lib, u ko'proq yosh bolalarda uchraydi. Bu kasallikka chalingan bemorlar nutqiy rivojlanishda ortda qolgan bo'lib, ular to'liq bir gapning o'rniga bitta so'z yoki biror-bir so'z o'rniga, umuman, boshqa so'z ishlatadi. R.O.Yakobson metaforani afeziya kasalligiga qiyoslab o'rganib chiqadi. Uning fikriga ko'ra, afeziyaning turlari juda ko'p, lekin ularning barchasi ikki nuqta, ya'ni metafora va metonimiya orasida paydo bo'ladi [13].

F.E.Uilrayt metaforani qanday ma'no anglatishini va "epifora" hamda "daifora"ning mohiyatini atroflicha tushintirgan. U grammatiklar metafora va tashbih orasidagi farqni inkor etishganini tanqid ostiga oladi [14]. Olim fikrining isboti uchun ikki misol beradi. Mana o'sha misollar: "O my love is like a red, red rose" (O, mening sevgim qizil atirgulga o'xshaydi) (J.I.) va "Love is red rose" (Sevgi – qizil atirgul) (J.I.). Grammatiklar fikriga ko'ra, bu ikki misol bir xil bo'lib, "like" (-ga o'xshagan) kabi so'zlar hech qanday ma'no anglatmaydi. F.E. Uilrayt esa, metafora va tashbih tamomila boshqa-boshqa narsa ekanini aytib, vositachi so'zlar gapning tuzilishiga ta'sir qilishini o'rinli qayd etadi. Aynan shu fikr sharq mumtoz poetikasidagi istiora va tashbih o'rtasidagi farqda ham mavjud [15].

Mashhur lingvistlar J.Lakoff va M.Jonsonlar metaforani aksariyat insonlar uchun oddiy til vositasi emas, balki adabiyot va falsafada xayolot va rivojlanishning bir ko'rinishi, deb ta'rif berishadi. Buning ustiga, metafora o'y yoki harakatdan ko'ra so'zlarning tabiatdagi holatini namoyon qiladi, deb ta'kidlaydi [16]. Shuning uchun ko'pchilik metaforasiz muomala qilish qulayroq deb bilishadi, lekin J.Lakoff va M.Jonson metaforani faqat tilimizda emas, balki kundalik hayotimizda ham eng ko'p uchraydigan lisoniy vosita ekanligini alohida ta'kidlab o'tishadi [16]. Inson muloqot jarayonida metaforaviy jummalarni ko'p qo'llashini sezmaydi, chunki xalqning ongida metafora faqat murakkab o'xshatishga asoslangan badiiy ko'chim. Natijada insonlar muloqotda qo'llaydigan o'lik, zamonaviy, original va boshqa metaforalar ular uchun murakkablik emas.

E.Romero va B.Soria o'zlarining "Cognitive metaphor Theory Revisited" nomli g'oyat mazmunli maqolalari bilan J.Lakoff va M.Jonson tomonidan ilgari surilgan nazariyani asoslab berganlar [18].

**Xulosa vatakliflar.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, g'arbdagi metafora nazariyasi bo'yicha qilingan ishlarning salmog'i barcha fanlarning, ayniqsa, falsafa, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va lingvistikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Fan va texnologiya rivojlangan asrimizda ham metafora nazariyasini o'rganishga bo'lgan qiziqish so'nmaydi. Insoniyat har doim san'atning adabiyot, so'z san'ati deb atalmish bu turidan foydalanib, o'zlari uchun turli bilimlarni egallashni maqsad qiladi. Adabiy asarlarni omma uchun tasavvurga boy tarzda namoyon bo'lishida yozuvchi va shoirlar badiiy tasvir vositalaridan, ayniqsa metaforadan juda ham unumli foydalanishadi. Ayni hodisalar jahonning turli qutblarida yashaydigan insonlarning tasavvur olamini dunyoqarashi va qiziqishlarining so'z san'ati vositasidagi uyg'unlik hamda tafovutlar tizimini, ulardagi rang-baranglik va go'zallik tushunchalarini yanada yaxshiroq va aniqroq tasavvur etishga ko'mak beradi.



## ADABIYOTLAR

1. Виноградов В.В. Проблема авторства и теория стилей. – Москва: Художественная литература, 1961. 59 с.
2. Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – Москва: Наука, 1976. – 425 с.
3. Moulton C. Homeric Metaphor//Classical Philology. Vol. 74, No. 4(Oct, 1979), p.
4. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Ленинград: Художественная литература, 1940. – 647 с.
5. Pender E.E. Plato on Metaphors and Models. In: Metaphor, Allergy, and the Classical Tradition: Ancient Thought and Modern Revisions by G.R. Boys-Stones. – Oxford. 2003, p. 47.
6. Searle J. R. Expression and Meaning. – Cambridge University Press. 1981. p. 85.
7. Black M. Metaphor. In: M.Black. Models and Metaphor. Studies in Language and Philosophy. – London: Cornell University Press. 1962, p. 34.
8. Ortony A. Understanding metaphors//Technical report No. 154, University of Illinois at Urbana-Champaign. January 1980, p. 42.
9. Davidson D. What Metaphors Mean//Critical Inquiry. 1978, Issue5, p. 31.
10. Casirer E. Die Kraft der Metapher. Sprache und Mythe. – Leipzig: Berlin. 1925, pp 68-80.
11. Richards I.A. The Philosophy of Rhetoric. – New York: Oxford University Press. 1950. p 102.
12. Tracy D. Metaphor and Religion: The Test cases of Christian Texts//Critical Inquiry. 1978, Issue 5, pp. 91-106.
13. Jakobson R.O. Two aspects of language and two types of aphasic disturbances - The Hague-Paris: Mouton publishers. 1971, p. 239-259.
14. Wheelwright P. Metaphor and Reality. – Indiana University Press: Bloomington-London, 1967 p. 70-128.
15. Бобоев Т., Бобоева З. Бадиий санъатлар. – Тошкент, 2001. 9-10 б.
16. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By – The University of Chicago Press, 1980. p. 3. Romero E., Soria B. Cognitive Metaphor Theory Revisited//Critical Inquiry. 1978, Issue 5, p. 106-124.
17. Аристотель. Поэтика (поэзия сўз санъати ҳақида) – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. 42 б.
18. Romero E., Soria B. Cognitive Metaphor Theory Revisited//Critical Inquiry. 1978, Issue 5, p. 106-124.
19. <https://www.etymonline.com/word/Metaphor>



UO'K: 81'25:811.111:811.512.133

**Shuhratxon IMYAMINOVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti professori, f.f.n*  
E-mail: [rumreich@gmail.com](mailto:rumreich@gmail.com)  
Tel: +998 90 135 05 12

*O'zMU, XFF, fransuz filologiyasi kafedrası professori, filologiya fanlari doktori A.E.Mamatov taqrizi asosida*

#### SOME PROBLEMS OF TRANSLATING PHRASEOLOGISMS FROM GERMAN TO UZBEK (BASED ON THE MATERIAL OF THE TRANSLATION OF PROSAIC WORKS)

Аннотация

This article provides information about phraseology, one of the youngest branches of German linguistics, and its development process, as well as the problems of translating phraseology from German into Uzbek. In it, the problems of the use of German phraseology in prose works and the direct translation into Uzbek are reflected in the article.

**Key words:** Phraseological connections, phrases, phraseological units, stable connections, expressivity, emotionality, imagery.

#### НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С НЕМЕЦКОГО НА УЗБЕКСКИЙ (НА МАТЕРИАЛЕ ПЕРЕВОДОВ ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ)

Аннотация

В данной статье представлены сведения о фразеологии, одной из самых молодых отраслей немецкого языкознания, и процессе ее развития, а также проблемах перевода фразеологии с немецкого языка на узбекский язык. В статье отражены проблемы использования немецкой фразеологии в прозаических произведениях и прямого перевода на узбекский язык.

**Ключевые слова:** фразеологические сочетания, фраземы, фразеологизмы, устойчивые сочетания, выразительность, эмоциональность, образность.

#### FRAZEOLIGIZMLARNI NEMIS TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING BA'ZI MUAMMOLARI (PROZAIK ASARLAR TARJIMASI MATERIALI ASOSIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada nemis tilshunosligida eng yosh soxalardan biri frazeologiya va uning rivojlanish jarayoni hamda frazeologiya jarayonining maxsuli bo'lgan frazeologizmlarning nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Unda nemis tilidagi frazeologizmlarni prozaik asarlarda qo'llanishi hamda o'zbek tiliga bevosita tarjimada berilish muammolari ham maqolada aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birliklar, frazemalar, frazeologik birliklar, turg'un birlikmalar, ekspressivlik, emosionallik, obrazlilik.

**Kirish.** Frazeologiya tilshunoslikning asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi, ya'ni frazeologiya tilshunoslikning frazemalar bilan shug'ullanuvchi va turg'un iboralar haqidagi bilim demakdir. Iboralar turg'un birlikma holidagi atamalarini, parafrazalarni va frazeologizmlarni o'z ichiga oladi. Bu birlikmalar faqat ma'no ifodalash xususiyatiga ko'ra bir - biridan o'zaro keskin farqlanadi. Birikma atamalar ma'nosi tarkibidagi so'zlar ma'nosi sintezidan kelib chiqadi. Parafrazalar turg'un birlikmalardan iborat bo'ladi. Ular ma'nosi ham tarkibidagi so'zlar ma'nosining o'zaro bog'likligi asosida va ularning sintezidan paydo bo'ladi. Biroq tarkibidagi so'zlar birlikma atamalar kabi nominativ ma'nosi bilan emas, balki majoziy (figural) ma'no bilan ishtirok etadi.

Frazeologiya leksikologiyani tarkibida o'rganib kelgan va u alohida tarmoq sifatida ajralib chiqqan va nutqdagi, tildagi barcha turg'un birlikmalar bilan shug'ullanadi. Bu birlikmalar frazeologik birlikmalar, frazemalar, frazeologik birliklar kabi atamalar bilan nomlanadi. Bunday turg'un birlikmalar qatoriga, odatda, maqol, matallarni ham kiritiladi. Ular tilda ekspressivlik, emosionallik, obrazlilikni oshirish uchun qo'llaniladi.

So'z ham, frazeologik birlikma ham lug'aviy birlik sanaladi. Tilning lug'at boyligini tashkil qiladi. Frazeologizmlar so'z birlikmasi yoki gaplar singari nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki ular huddi so'zlar kabi tilda tayyor holda bo'ladi. Demak, frazeologizmlar nutq hodisasi emas, balki til hodisasi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Vinfrid Ulrix va Rut Klappenbaxning fikriga ko'ra, nemis frazeologisi sohasida va bu borada olib borilgan tadqiqotlarning tasdiqlashicha, frazeologiya leksikologiyani bir qismi leksikografiya aspektida ham o'rganiladi.

V.Shmidt va V.Flayslerlar xam nemis frazeologiyasi sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borgan [1]. Bu olimlar nemis tilidagi frazeologiya sohasi bo'yicha izlanishlar olib borgan.

A.Reformatskiy frazeologiya to'g'risida shunday deydi: "Biror adabiy yo'nalishga yoki biror muallifga nisbatan qo'llaniladigan so'zlar va so'z birlikmalari frazeologik birlikmalar deb ataladi [2].

V.M.Mokiyenkoning fikriga ko'ra esa «Frazeologik birlik deganda turg'un, qayta ishlangan, ekspressiv, yaxlit ma'noga ega bo'lgan leksemalar birlikmasi tushuniladi» [3].

Frazeologiya sohasi bo'yicha juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan tilshunos-olimlardan M.D.Stepanova hamda I.I.Chernishyovalar frazeologizmlar bir ma'no anglatuvchi, ammo turli sintaktik tuzilishga ega bo'lgan turg'un so'zlar yig'indisidir, uning ma'nosi birlikma tarkibining batamom yoki qisman semantik ma'nosiga bog'liq bo'ladi deb fikr yuritadilar.

Frazeologiyani inson psixologiyasiga oid, shuningdek, insonlar o'rtasidagi munosabatlari ma'lum frazeologik - semantik guruhga jamlanadi, ya'ni bular maqto'v va tanbeh, baxt va baxtsizlik, sevgi va nafrat, omad va omadsizlik, mag'lubiyat, o'lim, kasallik, ahmoqlik, qiyinchiliklar, yolg'on, ruhiy tushkinlik, g'azab, yordamga muxtojlik va boshqalar".

Ko'pgina rus hamda nemis olimlari frazeologiya muammosini barcha turg'un so'z birlikmalarining umumiyliqi sifatida talqin qiladilar.

Teo Shippanning fikricha, "frazeologizmlar semantik birlikga ega bo'ladi. Hamma so'zlar bir-biriga frazeologik jihatdan bog'langan bo'lib, uning ma'nosi faqatgina turg'un kontekstning ichida mujassam bo'ladi. Frazeologizmlar xalq donoligining ifodasidir, ularning ko'plari tilda yuz yillar davomida mavjud bo'lib, xalq o'tkir tig'li, obrazli iboralarni

yaxshi ko'radi va ular yordamida har qanday fikrni ifoda etish mumkin.

Nemis tilidagi frazeologizmlar turli tilshunos olimlar tomonidan turli jihatlariga ko'ra klassifikatsiya qilingan.

V.V.Vinogradov tomonidan esa, ma'lumki, 1947 yilda o'zining mashhur "Об основных типах фразеологических единиц в русском языке" asarida frazeologizmlarni klassifikatsiyasini ishlab chiqqan edi [4]. Unga ko'ra ideomalar, frazeologik birliklar, frazeologik birikmalar frazeologiyaning asosiy ob'ekti hisoblanar ekan. N.N.Amosova 60- yillar boshlarida esa funksional jihatdan tuzilgan klassifikatsiya yaratdi. Ushbu tadqiqotlardan keyin M.D.Stepanova hamda I.I.Chernishyova tomonidan frazeologizmlarning strukturaviy-semantik klassifikatsiyasi ishlab chiqildi. Demak, bunga ko'ra frazeologizmlar:

1. Frazeologik birlik. 2. Turg'un birikma. Frazeologik birikmalarga ajraladi. Teo Shippan ham frazeologizmlarning ikki turini ajratib ko'rsatadi, ya'ni frazeologik butunlik va turg'un birikmalar.

Nemis tilidagi frazeologizmlar bo'yicha yaratilgan klassifikatsiyalar qatoriga yana bir klassifikatsiya kelib qo'shildi. Bu klassifikatsiya izchil, mantiqiy davom etadigan yagona mezon bo'lishini istagan tilshunos olim U.Fiksga tegishlidir. Olim frazeologizmlarni sintaktik jihatdan farqlaydi. U fe'lga alohida urg'u bergan holda, frazeologizmlarni sintaktik va semantik xususiyatlarini farqlaydi. U.Fiks frazeologizmlarni erkin gap bilan taqqoslaganda fe'llar ma'nosining mos kelishi yoki kelmasligiga ko'ra iboraning ikki turini farqlaydi:

1) Fe'l ma'nosining mos kelishi (Er schläft mit offenen Augen – Er schläft im Unterricht ständig).

2) Fe'l ma'nosining mos kelmasligi (Er winkt mit dem Zaunpfahl – Er winkt mit dem Taschentuch).

Birinchi ko'rinish U.Fiks tomonidan "frazeologizmlar", ikkinchi ko'rinish esa "idiomalar" deb ataladi.

A.Rotkegel esa semantik nuqtai nazardan frazeologizmlarni ikki katta guruhlariga bo'lib o'rganadi, ya'ni:

1) Birinchi tartibdagi turg'un frazeologizmlar.

2) Ikkinchi tartibdagi turg'un frazeologizmlar.

A.Rotkegel bundan tashqari frazeologizmlarning sintaktik klassifikatsiyasini yaratadi:

1) Ot guruhlariga mansub frazeologizmlar;

2) Ravish guruhlariga mansub frazeologizmlar;

3) Predloglarga mansub frazeologizmlar;

4) Fe'l guruhlariga mansub frazeologizmlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bulardan tashqari eng so'nggi yaratilgan klassifikatsiya bu Xarld Burger tomonidan o'rganilgan klassifikatsiya hisoblanadi. Unga ko'ra frazeologizmlar strukturaviy, referentel, kommunikativ kabi guruhlariga ajratiladi. X.Burger referentel – frazeologizmlar tarkibiga nominativ hamda proporsional frazeologizmlarni kiritadi. O'z navbatida nominativ frazeologizmlar pollokatsiya (Zähne putzen), chala - idioma (blinder Passagier), idiomani o'z ichiga oladi. Proporsional frazeologizmlar esa turg'un frazalar (jmds. Aktien steigen) hamda topik formula (ibora)lardan tashkil topgan. Topik formulalar ham o'z tarkibiga maqollar (Lügen haben kurze Beine) hamda umumiy maydon (Was muss das muss ) ni qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan klassifikatsiyalardan kelib chiqqan holda, biz V.Vinogradov klassifikatsiyasiga ko'proq suyanamiz. Uning klassifikatsiyasi frazeologizmlar bo'yicha yaratilgan eng sodda, qulay klassifikatsiya hisoblanadi.

Xullas, frazeologizmlarning tilshunoslikdagi o'rni benihoya ahamiyatli ekanligini tan olgan holda ularni nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish muammosi ham muhim ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

**Tahlil va natijalar.** Demak, shunga ko'ra frazeologizmlarni tarjima qilishda mos kelish, mos kelmaslik va qisman mos kelish hollari farqlanadi.

1) Frazeologizmlar tarjimasida mos kelish hollari.

Yuqorida ta'kidlanib o'tilganidek, nemis tilidagi frazeologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilish tarjimashunoslikda uchraydigan asosiy qiyinchiliklarni namoyon etadi. Nemis tilidagi frazeologizmlarni o'zbek tiliga o'girishda turli xollar mavjud. Masalan, shunday xollardan biri bu mos kelish xollari hisoblanadi. Bunda nemis tilidagi berilgan frazeologizm ma'nosi o'zbek tilida

ham huddi shu ma'noga mos keladi, ya'ni ular bildiradigan ma'no har ikki tilda ham bir xil tushuniladi.

Bu kabi frazeologizmlar tarjimasida unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Masalan, nemis tilidagi "seinen Anfang nehmen (od.kriegen)" frazeologizmining nemischa ma'nosi "anfangen" bo'lib, uning o'zbekcha ma'nosi ham "boshlamoq, boshlanmoq" ma'nosiga to'g'ri keladi. Xuddi shu frazeologizm qatnashgan jumlaning biz H.Hessemning "Steppenwolf" asarida kuzatishimiz mumkin. Masalan: "Damals hatte meine Vereinsamung ihren Anfang genommen" ("Steppenwolf" S.75). Xuddi shu jumlaning taniqli tarjimon M.Akbarov o'zbekchaga shunday o'g'irgan: "O'shanda mening yolg'izlikdagi, g'ariblikdagi hayotim boshlangan edi"(Cho'l bo'risi).

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, har ikkala tildagi frazeologizmlar bir-biriga ma'no jihatdan to'liq mos kelgan.

Tahlil natijasida shuni hulosa qilib aytish mumkinki, nemis tilidagi ba'zi frazeologizmlarning ma'nosi o'zbek tilidagi frazeologizmlar ma'nosi bilan mos kelar ekan. Bu kabi mos kelish xollari tarjima ishini oson kechishiga hamda ma'noning to'liq ochib berilishiga yordam beradi.

Zero, tarjimonning ham asosiy maqsadi, tarjimada oxir-oqibat bir tildagi frazeologizmni ikkinchi tilga frazeologizm bilan tarjima qila olish san'atidir. Bu maqsadga tarjimada har doim ham erishib bo'lmaydi, chunki bu jarayon tarjimondan ham juda katta mahorat talab etadi. Ta'bir joiz bo'lsa shuni ta'kidlash lozimki, tarjimon biror asarni tarjimasiga qo'l urishdan oldin shu asarni tarjima qila olamanmi, yo'qmi degan fikrni ham olg'a surishi lozim, chunki yaxshi tarjima qila olish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi.

2) Frazeologizmlar tarjimasida mos kelmaslik hollari.

Nemis tilidagi frazeologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda bir necha tafovut, qiyinchiliklarga duch kelinadi. Shunday xollardan biri bu – nemis tilidagi frazeologizmlarni tarjimasida mos kelmaslik hollari hisoblanadi. Bu hol o'zida shuni aks ettiradiki, nemis tilidagi frazeologizmlarning ichki komponentlari ma'nosi bilan birga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydirlar. Nemis tilidagi frazeologizmlarning ichki komponentlari to'g'ri ma'noga ega bo'lsa, ammo frazeologizmining umumiy ma'nosi o'ta kuchli obrazlilikga qurilgan bo'ladi. Bu kabi frazeologizmlarni to'g'ri ma'noda tushunmasdan, so'zma-so'z tarjima qilishdan saqlanish lozim. Agar bu hol bajarilsa, unda frazeologizm o'z asl ma'nosini, obrazlilikni yo'qotadi. Masalan, nemis tilidagi "die Augen sehliessen" frazeologizmi "sterben" ma'nosiga ega. Ushbu frazeologizmining o'zbek tilidagi ma'nosi ham nemis tilidagi ma'noga yaqin turibdi, ya'ni "o'lmoq" ma'nosiga to'g'ri keladi. Ammo ushbu frazeologizmni "ko'z yummoq" deb to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda uning asl ma'nosi yo'qoladi. Chunki oddiy uxlayotgan odam ham ko'zini yumib uxlashi mumkin. Bunda frazeologizm o'z asl ma'nosida qo'llanmagan bo'ladi. Xuddi shu frazeologizm qatnashgan gapni olib ko'raylik. "Dankbar schloss ich die Augen und nippte am Elixier"(Steppenwolf.S. 191).

Ushbu jumlaning Mirzali Akbarov shunday tarjima qiladi: "Men minnatdorlik bilan ko'zlarimni yumdim va hayotbaxshlikni xo'plashda davom etdim" (Cho'l bo'risi. 99-b). Ushbu jumladagi frazeologizm o'z ma'nosida qo'llanmagan. Xullas, frazeologizmlar tarjimasida mos kelmaslik xollari ko'p uchraydi.

3) Frazeologizmlarni tarjimada boshqa birliklar bilan ifodalaniishi

Frazeologizmlarni tarjimada boshqa birliklar bilan ifodalaniishi tarjimashunoslikda tarjima qilishning bir usuli hisoblanadi. Bunda nemis tilidagi frazeologizm ma'nosiga yaqin, ammo frazeologizm bo'lmagan boshqa birlik bilan berish ushbu holatning tarjimada aks etishi hisoblanadi.

To'g'ri, bunda nemis tilidagi frazeologizm o'zbek tiliga o'girilayotganda o'z obrazlilikni yo'qotadi. Bu holatga tegishli bir misol keltirib ko'raylik. Masalan, nemis tilidagi "Zur Ruhe kommen" frazeologizmi nemischada "sich beruhigen" ma'nosiga ega. O'zbekcha ma'nosi esa "tinchlanmoq" ga to'g'ri keladi. Endi shu jumla qatnashgan misolni olib ko'raylik. "Statt deine Welt zu verengern, deine Seele zu vereinfachen, wirst du immer mehr Wel, wirst sehliesslich die ganze Welt in deine schmerzlich

erweiterte Seele aufnehmen müsse, um vielleicht einmal zum Ende, zur Ruhe zu kommen" (Steppenwolf S. 72).

Ushbu jumlaning M.Akbarov xuddi shunday tarjima qilgan: "O'z olamingni toraytirish, o'z qalbingni soddalashtirish o'rniga sen endi, ehtimol oxiratga abadiy oromga yetishish uchun yanada kengroq olamni, pirovardida butun dunyoni o'zingning qayg'u-hasratla kengaygan qalbing, ko'nglingga sig'dirishingga to'g'ri keladi" (Cho'l bo'risi 38).

Ushbu jumlada ifodalangan " Zur Ruhe kommen " frazeologizmi aynan "tinchlanmoq" deb emas, balki "abadiy oromga yetishish" orqali ifodalangan. Bu yerda frazeologizm tarjimasi frazeologizm bilan emas, balki boshqa birlik bilan ifodalangan.

Umuman, frazeologizmlarni tarjimada mos kelmasligi yoki boshqa birliklar orqali ifodalanishi tarjima tilining bir xil bo'lib qolmasligini ta'minlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Fleischer Wolfgang. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig, 1982.
2. Реформатский А.А. Введение в языковедение. Москва, 2004, стр. 57
3. Мокиенко М.В. Славянская фразеология. Москва, 1989.
4. Виноградов В. Русский язык. Москва, 1986.
5. Имяминова Ш.С. Немис тили фразеологияси. Ўқув қўлланма. Тошкент, "Мумтоз сўз", 2011
6. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari – Toshkent, 1999.
7. Олышанский И.Г., Гусева А.Е. Лексикология: Современный немецкий язык. Издательский центр «Академия», 2005
8. Schippan Thea. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Max Niemeyer Verlag GmbH, Tübingen, 1992
9. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy xususiyatlari: – Toshkent, 1993.
10. Seller F. Lesestoffe zur deutschen Lexikologie. Moskau, Prosvischenija, 1985, S.118.
11. Chernyseva I.I., Stepanova M. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Moskau, Hochschule, 1986, S. 209
12. Burger Harald. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin, 1998.
13. Brandsch I. Phraseologische Wendungen in der deutschen Sprache. Artikel aus der Zeitung "Neues Leben", 4. 530 Januar. 1990. N5.
14. Iskos A., Lenkova A. Lesestoffe zur deutschen Lexikologie. Leningrad, 1975.



UDK: 811.113:512.133+87'1(575.1)

**Mohigul KAXAROVA,**  
Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: mohigulkaharova@gmail.com

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori M.Ahmedova taqrizi asosida*

### BADIIY ASARLARNI LINGVOPOETIK TAHLIL QILISHNING TAMOYILLARI

Аннотация

Maqola badiiy asarlarning nazariy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, til va uning estetik vazifalarining badiiy asarlarni yaratish va tushinishda qanday muhim rol o'ynashi haqida fikr yuritadi. Shuningdek, maqolada adabiyotda shakl va mazmun o'rtasidagi munosabat, mazmunning ahamiyati va badiiy matnlarni tahlil qilishda lingvistik poetikaning roli muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** shakl, mazmun, lingvopoetika, syujet, badiiy asar, kompozitsiya, lingvistika, badiiy, badiiylilik, hissiy ta'sir, uslub.

### ПРИНЦИПЫ ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Аннотация

Статья посвящена теоретическому анализу произведений искусства, размышлению о важной роли языка и его эстетических функций в создании и понимании произведений искусства. В статье также рассматриваются вопросы соотношения формы и содержания в литературе, значение содержания и роль лингвистической поэтики в анализе художественных текстов.

**Ключевые слова:** форма, содержание, лингвопоэтика, сюжет, произведение искусства, композиция, лингвистика, художественность, художественность, эмоциональное воздействие, стиль.

### THE PRINCIPLES OF LINGUA-POETIC ANALYSIS OF LITERARY WORKS

Annotation

The article is about a theoretical analysis of literary works, focusing on how language and its aesthetic functions play a crucial role in the creation and understanding of literary fiction. It also discusses the relationship between form and content in literature, the significance of content's components, and the role of linguistic poetics in analyzing literary texts.

**Key words:** form, content, lingua-poetics, plot, literary work, composition, linguistics, artistry, emotional impact, style.

**Introduction.** It is noticeable that literature helps ameliorate knowledge about society reflecting the essence of existence through its use of imagery. Literature acts as a school for life, assisting in understanding human behavior, spiritual and emotional development, the complexities of interpersonal relationships, and finding ways to eliminate social vices. Therefore, when readers read novels, they become familiar with the spiritual world of various characters. By being influenced by the positive actions of the protagonists, readers can draw the necessary conclusions. Indeed, as readers engage with a literary work, they live through its events, experience life alongside the characters, and deeply feel sympathy or despair for every pain and suffering the characters endure.

On the one hand, the field that studies the change of the language is deemed to be linguistics; on the other hand, the writer's skill and style in using language opportunities are considered to be a stylistic aspect. G.O. Vinokur claimed: "Language is the expression of thought that can be divided into parts. The language of a person not only reflects the logical relation of concepts but also expresses the speaker's attitude towards his or her thoughts"[1].

The term "aesthetic function of language" is frequently used in the process of studying literary works. This is because the aesthetic function encompasses concepts such as artistry, emotional impact, and poetic quality.

**Research Methods.** The literary analysis approach consists of the following:

**Linguistic Poetics.** This method involves analyzing the language of literary texts, focusing on the aesthetic function of language. It considers how language's artistry, emotional impact, and poetic qualities contribute to the meaning of a work. Researchers in this field look at the relationship between form (language use) and content (the themes and ideas conveyed by the text). This approach integrates both literature and linguistics, emphasizing how language structures reveal the underlying concepts and ideologies of a work. [M. Yo'ldoshev]

**Aesthetic Function of Language.** Researchers in this field study how language serves its aesthetic function in literature, especially in conveying emotions and artistic expressions. This involves examining how linguistic choices like imagery, rhythm, and word choice create an emotional impact on the reader, contributing to the overall artistic value of the text. [I.Sulton]

– **Structural Analysis of Literary Works:** This approach involves breaking down literary works into their structural components, such as exposition, plot, climax, and resolution. Researchers focus on how these components are arranged and interact to develop the themes and ideas within the text. This method is particularly useful for studying narrative techniques and how events are structured to convey meaning[2].

**Results.** Scholars have interpreted the aesthetic function of language in the field of linguistics in the following way. The Italian philosopher Benedetto Croce compared linguistics to the field of aesthetics in his book "Aesthetics as the Science of Expression and General Linguistics". (1920)

The German philologist Karl Fossler determined the unique aesthetic quality of words and sentences and the role of aesthetic elements in fulfilling key functions in literary works. This scholar's perspective on the aesthetic function of language becomes evident in the process of studying the text of literary works. Of course, the aesthetic function of language can be seen in the artistic text. The aesthetic function of language also appears in verbal speech; however, language always is formed as a specific element in a literary text. The field that studies the language of literary works and the manifestation of the aesthetic function of language is called "linguistic poetics" or "lingua-poetics" and research work has still been conducted in this field of study.

V.P. Grigoryev had conducted scientific research in the field of lingua-poetics. According to his classification, lingua-poetics can be related to both literature and linguistics; he carried on his research on the text of literary works[3].



Literary fiction helps analyze society artistically and shape an artistic concept of the world and humanity. It is not feasible to imagine literary fiction without language.

It is known that literary fiction is created using words; the elevation of a literary work to the level of a piece of art depends on its linguistic structure and the author's skills and capabilities. Therefore, one of the essential tasks of lingua-poetics is to evaluate the essence of every artistic work impartially and to study its linguistic composition. The following principles can be defined during the lingua-poetic analysis of a literary text:

Unity of form and content.

Unity of space and time.

Transition from the specific to the general meaning[4].

The unity of form and content – refers to the internal elements in literary works describing things and events; form is the method of expressing the content. Form and content must always correspond to each other. Otherwise, the author will be deprived of the opportunity to clearly convey the intended concept through the literary work. For example, when describing a positive character in a literary work, the writer uses bright colors and positive word collocations. In contrast, when depicting negative characters, dark colors and negative word collocations can be utilized by an author.

Form is a way of content's existence. The content and essence of literary works can be understood through their form. Imagery is a distinctive method of reflecting life in literature, that is, a form.

Imagery in a literary text manifest through the depiction of characters. The content of a literary work expresses the artistic intention the writer wants to convey to the reader. The language, plot, composition, and landscape of a literary work play a crucial role in conveying the main idea of a literary work[5].

One of the important tasks of literary works is to highlight the unique aspects of ideological content. Ideological content includes the ideas and descriptive material reflected in the literary work. The unique aspect of the content of a literary work is that it can express ideas that can be essential for humans. Writers have been striving to enrich the content of their works for a long time.

When new content was created in artistic literature, a new era began in the history of literature. For instance, a new content in Uzbek literature appeared in the XIXth century, that's to say, the glorification of human beings and their life became a tradition. During this period, the idea of humanism was promoted by writers. In the second half of the XIXth century, the emergence of

enlightenment literature led to the birth of new progressive, national ideas. The change in the content of a literary text influences its form in artistic literature.

Discussion. Uzbek language began to come closer to the folk language, as well as, forms and specific techniques were created in the XXth century literature. Form and content hold a leading position in literary work. A literary text can also achieve a perfect form with its significant content. The content may possess elements of the changing nature of the writer's creativity. Oybek's novels "Navoi" and "Qutlug' qon" belong to the category of novels with various topics. A new content remains in the old traditional form until it acquires its own distinctive structure in literature[5].

It is known that classical literary forms were used in S. Ayniy's "Bukhara Executioners" and Hamza's "Uzbek Women". Content is changing and influencing form in literature day by day. There is a principle in literature that content transits to form or vice versa. One of the main tasks of artistic literature is the creation of characters in literary works. However, the characters in an artistic work can serve as a tool for depicting the relationship between humans and society for a writer. The reader is able to grasp the content of the literary work by the depiction of the characters. The depiction of the protagonist's fate and events are selected from the lives of real people.

The characters of a literary work can be both the form of the content and they can appear in ways that clearly demonstrate the unity of content and form. The main hero's depiction of the internal and external world shows the form of a literary work. It is known that the language of the literary work plays a significant role in the depiction of characters. The characters play a crucial role in forming the content, while the language serves as a form for a literary work. The plot as an element of form is able to be also a means of depicting real life. It is known that the language of a literary work expresses the essence of the plot.

Specialists suggest studying the structure of a literary work as a system. Representatives of the Russian formalist school have argued that the concept of "content" is redundant in literature, and it is better to use the concept of "material" instead of "form." The famous literary scholar Yu.M.Lotman regarded the pair of "form and content" as one-sidedly "dualistic" unity and he preferred to replace them with the concepts of "structure and idea." The form expresses content, and content can exist in form. Content exists with form; form must also be adjusted to the content.

We have observed the following characteristic features of "form" and "content":

| №  | Form                                                                     | Content                                                                                                                                                              |
|----|--------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | The text structure is considered to be the style of a literary work.     | Content expresses the conception, theme, and main idea of a literary work.                                                                                           |
| 2. | The text of a literary work consists of paragraphs and chapters.         | The artistic content includes the unity of time and space, the components of the plot and the depiction of the characters in the literary work.                      |
| 3. | The compositional structure of prose and poetry shows the artistic form. | The artistic content serves the consistent development of the plot events and it reflects the changing conditions in the characters' inner world in a literary work. |

Jack London described his protagonist skillfully in his novel "Martin Eden" like this: "Martin Eden's hands were trembling before he could touch the books in his life for the first time. Unlike others, the protagonist took firm steps quickly during his visit to Arthur's house. The picture on the wall, with the sea waves, the dark clouds foreshadowing a storm, and the ship sailing in the sunlight, made Martin Eden imagine himself sailing on the deck of his ship. Later, he involuntarily began to glance at the books on the table one by one. Excited, Martin began asking his friend about the authors of these books.

It was known that there was a noticeable tendency to look down upon members of the lower classes in society at the end of the 19th century and at the beginning of the 20th century in the USA. Jack London described the events of his novel "Martin Eden" during this time. It can be observed that the time described in the novel "Martin Eden" coincides with Jack London's life. Firstly, the protagonist lived in poor and miserable conditions and the manuscripts of Martin Eden were rejected by journal editors. Having gained popularity, a number of Martin Eden's articles, such as "The Wonderful Fools," "Dreamers," "The Measure of

Our Own Personality," and "The Philosophy of Fantasies," were published as soon as possible. It proves the fact that Martin Eden's life is similar to Jack London's own life.

The uniqueness of the content of literary fiction lies in the fact that the content of a realistic work is expressed authentically. The author chooses the form of the artistic work from his point of view. For example, A. Qahhor managed to express substantial content of society's vices and virtues in his short stories. The daily life was narrated in the story "The Thief". One day a poor peasant's ox was stolen. The writer informed about the vices of society and inhumane laws that led to poverty by describing the protagonist Qobil Bobo's misfortune. The writer's skill is revealed in portraying the truth hidden within the commitment of crime.

Content and form are in dialectical connection and influence each other in an artistic work. The content leads in shaping the form, and the author plans in advance which form to choose based on the content of the artistic work. For instance, the writer, perceiving real society artistically, plans to write a realistic novel based on his thoughts; the author should align with the

content, in accordance with the creative intention while writing a realistic novel.

The form used in each period can be different in literary fiction, and a writer strives to adjust the content to the form, the content is formed during the author's creative process.

Hegel stated: "Content cannot exist without form; form, at the same time, materializes in the content and it is an external element relative to the content." The philosopher emphasized the constant transition between form and content; form can be sustainable.

The content of a literary work is subject to change. For example, a short story has maintained its features of conciseness and brevity from the distant past. However, various meanings are embodied in the stories.

**Conclusion.** Literary critics have approached the relationship between form and content in different ways. Scholars explain the issue of form and content as follows:

1. L. Timofeyev considered the theme, idea, and character to be the elements of content; when it comes to the plot, composition, and language they are deemed to be elements of form.

2. V. Gulyayev considered image, plot, composition, rhythm, and language as elements of form; and theme and idea as elements of content.

3. Shepilova regarded theme, problem, and idea as elements of content; plot, composition, language, rhythm, and the system of images as elements of form.

4. T. Boboyev emphasized that theme and idea are elements of content; the image can be both a form and a content phenomenon; language, artistic means of expression, conflict, composition, type, and genre are elements of form.

5. V. Kojinov considered style, genre, composition, language, and rhythm as elements of form; theme, plot, conflict,

characters, artistic idea, and tendency are the elements of content; the plot is both a form and content phenomenon.

6. Other critics contemplated the plot as both an element of form and content; theme, plot, system of images, and conflict are internal forms; as well as, composition is considered to be an external form[6].

Artistic work serves to connect events, and if the events in the artistic work are considered to be both elements of form and content, the schemes showing how these events are combined can be classified as form. Therefore, the events in an artistic work, when taken from real life, help increase the artistic value and express the main idea of a realistic novel.

D.H. Quronov stated that "the author creates the artistic work in a certain way so that he can delineate real life events. D.H. Quronov highlighted three main characteristics of form: 1. The rhetorical structure of the artistic work; 2. The depicted world is artistic reality; 3. The role of composition is crucial in combining and harmoniously coordinating the rhetorical structure and artistic reality of literary works"[7].

Every author expresses his attitude toward social issues of his time. If a writer avoids describing social issues, he will not be able to achieve positive outcomes from his literary works. When depicting history, the writer tries to make the content of his literary work impressive and he intends to find solutions to humans' problems.

The role of composition in a literary work is significant for expressing its content, which is considered to be one of the component's forms. The composition has the characteristic of integrating the elements of a literary work. A well-structured literary work is considered to be a masterpiece both in terms of content and form. Furthermore, composition helps unite form and content when combining the parts of a literary work. A reader can easily imagine the events of the literary work owing to the composition's well-done structure.

## REFERENCES

1. Г.О.Винокур. О языке художественной литературы. – Москва, 1991. – С.35.
2. <https://poemanalysis.com/definition/content/>
3. M. Yo'ldoshev. Badiiy matn va uning lingvopetik tahlili asoslari. – Toshkent: Ozbekiston Fanlar akademiyasi, 2007. – P.7.
4. M.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyazova. Matn linvestikasi – Toshkent: Ishonchli Hamkor, 2021. – P.142.
5. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Oqituvchi nashriyot ijodiy matbaa uyi, 2005. – P.142.
6. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Oqituvchi nashriyot ijodiy matbaa uyi, 2005. – P.145
7. D.H.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Noshir, 2019. – P.102.
8. The same source. – B.125.
9. Jamilova B. S., Kakharova M.Y. Comparative interpretation of the characters in English and Uzbek novels//Journal of Contemporary Issues in Business and Government –Western Australia, 2021. Vol. 27, No. 2. P-ISSN: 2204-1990. P.1608-1615.
10. Kahharova M.Y. The image of adolescent psyche in World and Uzbek children's prose // Academicia, An International Multidisciplinary Research Journal. – India, 2020. – №. September. Vol. 10, Issue 9. – P. 352-359 (SJIF: 7.13)
11. Kakharova Mohigul Yusufvna. Moral and Psychological Growth of protagonists in literary works // Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning. – Indonesia, 2022. ISSN: 2776-0995 Volume 3, Issue 1. – P.55-63.
12. Kakharova M.Y.Literary analysis of Uzbek and English adventure and detective prose // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – Spain, 2021. Volume 26, №1, 2021, ISSN: 2509-0119. – P.1-6.



**Diyora QORAQO'ZIYEVA,**  
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail:diyoraotajonova17@gmail.ru

ADCHTI dotsenti, f.f.n N.Pazilova taqrizi asosida

## MALE AND FEMALE IMAGES IN ZOOMORPHIC PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

This article discusses the issues of phraseology research in world linguistics and explores the gender characteristics of phraseological units in the English and Uzbek languages. Additionally, it reveals aspects of how the male image is expressed in zoomorphic phraseological units of the compared languages.

**Key words:** phraseological unit, gender, male image, term, semantics, component, seme.

## МУЖСКИЕ И ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В ЗООМОРФНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ

Аннотация

В данной статье обсуждаются вопросы исследования фразеологизмов в мировой лингвистике, рассматриваются гендерные особенности фразеологических единиц в английском и узбекском языках. Также раскрываются аспекты выражения мужского образа в зооморфных фразеологических единицах сопоставляемых языков.

**Ключевые слова:** фразеологическая единица, гендер, мужской образ, термин, семантика, компонент, сема.

## ZOOMORF FRAZEOLGIK BIRLIKLARDA ERKAK VA AYOL OBRAZI

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida frazeologizmlar tadqiqi masalalari muhokama qilingan bo'lib, ingliz va o'zbek tillarda frazeologik birliklarning gender xususiyatlari ilgari surilgan. Shuningdek, chog'ishtirilayotgan tillar zoomorf frazeologik birliklarida erkak obrazining ifodalanish jihatlarini ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birlik, gender, erkak obrazi, termin, semantika, komponent, sema.

**Kirish.** Frazeologik birliklar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, yashash tarzi, o'tmishi, intilishi, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir [1]. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklar o'rganish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilgan. Frazeologik birliklar kelib chiqishi jihatidan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya fani tarixi qariyb ikki asrni o'z ichiga oladi [2].

**Adabiyotlar tahlili.** Mustaqillik davrida tilimizning frazeologik boyligini to'la qamrab oluvchi turli xil izohli lug'atlar, so'zliklar yaratishga alohida ahamiyat berildi [3]. Masalan, Sh.Rahmatullaevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati", M.Sodiqovning "Qisqacha ruscha-o'zbekcha barqaror iboralar lug'ati", Mahmud Sattorning "O'zbekning gapi qiziq", B.Yo'ldoshev, K.Bozorboevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati", Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning "Ma'nolar mahzani", Sh.Shomaqsudov, S.Dolimovlarning "Qayroqi so'zlar", N.Mahmudov, D.Xudoyberganovlarning "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati", N.Mahmudov, Yo.Odilovlarning "O'zbek tili enantiosemitik so'zlarining izohli lug'ati" singari leksikografik asarlari shular jumlasidandir [4]. Sh.Almamatova o'zbek tilidagi frazemalarni komponent tahlil qilish muammolariga doir nomzodlik ishini himoya qildi. Bu ishning dastlabki bobi o'zbek tilidagi ot komponentli frazemalarning semantik tahlili masalalarini yoritishga bag'ishlangan. Tadqiqotchi shaxs komponentli frazemalar (ko'ngli joyiga tushdi, jonini fido qilmoq, dimog'i chog' bo'ldi, esi joyiga tushdi kabi), zoonimik komponentli frazemalar (it kunini boshiga solgan, otdan tushsa ham, egardan tushmaydi, ilonday avramoq, ilon qimirlasa bilmoq, buzoqning yugurgani somonxonagacha kabi), somatik komponentli frazemalar (qo'lidan kelmoq, qo'lini ko'tarmoq, ko'z olaytirmoq, ko'ziga issiq ko'rinoq, oyog'ini tirab turib olmoq, oyog'ini tortmoq kabi)ning har birini alohida-alohida semantik jihatdan tahlil qilishga intilgan [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Semasiologiya doim rivojlanib va takomillashibboradi. Bu sohada turli-tuman izlanishlar, ko'pgina yangi tushunchalar va atamalar o'rta tashlandi, ba'zi tushuncha va terminlar qayta izohlandi. Ana

shunday holni leksikaga sistema sifatida yondashuvni ochib beradigan komponent tahlil metodiga doir tushuncha va terminlarda ham ko'ramiz. Masalan, bir qancha izlanishlardan keyin leksik ma'no tarkibidagi semantik komponent uchun "sema" termini tanlandi. U hatto universal termin darajasiga ko'tarildi, leksik ma'noga mansub semantik komponentgina emas, balki leksiksemantik komponentlar ham shu termin bilan nomlanmokda. Komponent tahlil metodidagi bosh masala leksik birlikning lug'aviy ma'nosini semalarga bo'lib o'rganishdir. Leksik birlik semantik strukturasining asosini semalar tashkil qiladi. Semantik komponent tahlil asosida aniqlanganidan keyin ularning stilistik jihatini o'rganish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Stilistik xususiyatlar leksik birlikning semantik tabiatini kengroq ochib beradi, semantik tasnif uchun yordam beradi. Leksik birliklarning o'zaro tizimli munosabatlari ularning lug'aviy ma'nolari asosida mavjud bo'ladi. Masalan, tildagi eng aniq semantik mikrosistemani-sinonimik uyani belgilashda lug'aviy ma'no hal etuvchi rol o'ynaydi. Har bir turkum doirasida leksik birliklar, frazeologik birliklar o'zaro turlicha semantik guruhlariga birlashadi. Bunday semantik guruhlariga birlashish lug'aviy ma'no asosida, aniqlik, lug'aviy ma'no tarkibidagi sema asosida amalga oshadi.

Yu.D.Apreyaning yozishicha: «Lug'aviy birliklarning ko'p bosqichli semantik tasnifida oraliq holatni egallovchi sema ikki tomonlama izoh oladi: yuqori bosqichga nisbatan farqlovchi sema holatida bo'lsa, quyi bosqichga nisbatan integral sema holatida bo'ladi». Demak, «umumiy sema-xususiy sema», «integral sema-farqlovchi sema» tushunchalari semalar ierarxiyasini o'rganish asosida taklif etilgan. Masalan, leksemalar orasida ruhiy holatni bildiruvchi semantik guruh ajratiladi: xursand, shod, xurram, xafa, mayus, xomush, g'amgin, ayg'uli, xazin, asabi, tajang kabi. Xuddi shunday semantik guruh sifat frazeologizmlar orasida ham mavjud: ta'bi xira, ta'bi tirri, dili siyo, bag'ri on, ichi g'ash kabi. «Ruhiy holat» deyishning o'zidan bunday sifatlarining «shaxsga tegishli» belgisini anglash mumkin. Xuddi shu «ruhiy holat»ni rivojlantirsak, «kayfiyat» semasi haqida gapirish mumkin. «Kayfiyat» esa, odatda, emosiya bilan belgilanadi. Organizmning turli-tuman faktorlarga emosional

reaksiyasi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib, emosianing "ijobiy-salbiy" semasi ajratiladi. Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi bosqichida dastlab ikki bir-biriga qarama-qarshi tendensiya – integrasiya va farqlash hodisalari kuzatiladi [6]. Ulardan biri, ya'ni integrasiya turli xil til birliklari orasida umumiy ma'noga qaratilgan. Farqlanish hodisasi esa, til birliklari semantikasiga chuqurroq kirib borib, ularning alohida ma'nolarini izlab topishga qaratilgan bo'lib, u obyektini to'la-to'kis anglash va parchalab o'rganishni «semantik va leksik-grammatik maydon»da amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

**Tahlil va natijalar.** Aslida komponent tahlil metodi leksika maydonida vujudga kelgan, lekin ushbu ishda komponent tahlil tamoyillarini zoomorf komponentli frazeologik birliklar ilmiy tadbiriq qilishda foydalanishga harakat qildik. Leksik birliklarga alohida ilmiy yondashuvni taklif etgan E.Kurilovich so'zning ma'nosida leksiksemantik variantlarni va qo'shimcha ma'nolarni ajratadi (birlamchi va ikkilamchi funksiyalar). Shuningdek, V.G. Gak so'zning semantik strukturasida semaning ierarxiyasiga etibor beradi. Dastlab, u B. Potening terminidan foydalanib, umumiy sema asosida arxisemani ajratadi. So'ngra u farqlovchi semalar predmetning xususiy, o'ziga xos tomonlarini anglatishini, shu asosda ularning o'xshashligi va farqlarini aniqlanishini ta'kidlab o'tadi. Quyi bosqichda potensial semalar predmetning barcha tomonlarini aks ettirib, ayrim sharoitlarda faollashadi [7]. Ingliz tilidagi "fox" zoonimini shu nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uning semantik strukturasiga quyidagi leksik-semantik variantlar (LSV) lar, ya'ni semalar kirganligini ko'rishimiz mumkin [8]:

Fox

1) a wild animal of the dog family has red fur and a large bushy tail and is famous for its cunning;

2)(n) , fig–acunning or crafty (of person);

3) (a), fig – acunning, sly;

4) vt, bluff – try to out wit (smth), fool (smb);

5) archaic. A sword;

6) slang. A person esp. a woman, who is attractive, esp. sexually attractive;

7) an artificial sore;

8) in U.S. colleges: A freshman.

Ushbu ma'nolar Webster [10] va Oxford lug'atlarida ko'rib chiqildi. Endi "fox" zoonimi qatnashgan frazeologik birliklarning ayrimlarini ko'rib chiqamiz: as cunning as a fox – tulkidek ayyor. Ushbu birikmada "fox" zoonimining 3-ma'nosidagi sema, ya'ni farqlovchi sema qo'llanilgan va bu erda o'xshatishga asoslangan stilistik usuldan foydalanilgan [9].

Wolf so'zining Webster va Oxford lug'atlarida berilgan asosiy ma'nolarini ko'rib chiqaylik:

1) either of two carnivorous mammals: canis lupus, of northern regions, or CF rufus of South-western North America, related to any resembling the dogs;

2) care: the destructive larva of any various moths, beetles, or flies;

3) one that is rapacious, predatory, and fierce;

4) slang: a man given to avid amatory pursuit of woman;

5) a fierce, cruel, or greedy person;

6) a man who flirts aggressively with many women;

7) to eat much food.

Quyida "wolf" zoonimi bilan kelgan frazeologik birliklarning ayrimlari ustida to'xtalib o'tamiz: the big bad wolf – xavfli shaxs. Bu iborada ikki narsaning belgilari, ya'ni «bo'ri» va «xavfli shaxs» umumiy semalari bo'lib, "cruel" semasi aktuallashgan.

You're the big bad wolf so far as this house is concerned. [Gardner]

Cry wolf– yolg'ondan vahima ko'tarish, ishonchni yo'qotmoq. Bu iborada Ezop masalida cho'ponning yolg'ondan «bo'ri keldi!» deb baqirib, odamlarni chaqirib rohatlanganligiga ishora qilingan. Bu ibora ham "wolf" zoonimining "cruel", "greedy" kabi semalaridan kelib chiqqan. Quyidagi misolga e'tibor qarataylik:

"Come, come now Nissie", he replied in a low tone which could not carry to the scullery, "you're talking about that headache. If you're always crying wolf, wolf" we'll not be believed you when it does come to the bit. [Cronin] Eat like a

wolf– bo'ridek emoq, ishtahasi karnay bo'lmoq, Ushbu iborada "wolf" zoonimining "greedy" semasi birikishi natijasida ibora vujudga kelgan. Cat so'zining Webster va Oxford lug'atlarida berilgan ma'nolarini ko'rib chiqaylik:

1) carnivorous mammal, domesticated since early times as a catcher of rats, and mice;

2) the fur of a domestic cat;

3) a spiteful or gossiping woman;

4) any person esp. a man;

5) slang: a prostitute;

6) a term used in various games: "cat and trap", "cat in the hole";

7) chief.

Quyidagi frazeologik iboralarda "cat" zoonimining semalarini aniqlaymiz: old cat – qari mushuk; yovuz kampir. Ushbu iborada "cat" zoonimining "A spiteful or gossiping woman" semasi ifodalangan. He remembered Rose saying something about her not coming to the canteen any more. It seemed that she did not get on with the women, or something of the sort. Lot of old cats, he said to himself, with a stir of Sympathy.

Fat cat– kapitalist, «pul xaltasi». Bu iborada "sat" zoonimining "chief" semasi ifodalangan: In our country when the political bosses want to fill their campaign chest, they put up some rich man for a high office – "a fat cat" they call him- and he pays the bills and gets elected for a term of years. [Sinclair]

"Dog" zoonimi quyidagi frazeologik birliklarda qo'llanilgan: "a clever dog" – xushyor, dono; Bu iborada "dog" zoonimining "a boy or man" semasi aks ettirilgan.

He's a clever dog, isn't he? "Very clever", admitted the other. [Lewis]

A lame dog– omadsiz, baxtsiz kishi. Bu iborada "dog" zoonimining "hopelessly inferior product or creation" semasi ifodalangan:

There's enough junk in this place as it is without cluttering it up with the manuscripts of all the lame dogs you take a fancy to. [Dickens]

Try it on the dog– past joyda sinab ko'rmoq. Bu ibora teatr sohasidagi jargon hisoblanib, "yangi spektaklni mahalliy tomoshabinlarda sinab ko'rish" degan ma'noni anglatadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, "dog" zoonimining "feet", uninteresting kabi semalaridan kelib chiqqan holda "try it on the dog" iborasi "yangi spektaklni mahalliy tomoshabinlarda ko'rsatib sinab ko'rmoq" degan ma'noni anglatgan:

The show's not in shape yet. This Dotworth isn't a real date. I know the place; played it once before, years ago. It's a dud. All we're doing, Miss Trant, is trying it on the dog. [Priestley]

Ingliz tilida «dog-cat-dog» iborasi ot sifatida «o'zicha yashaydigan, nima hoxlasa, shuni qiladigan erkin kishi» ni bildiradi. Bu ibora sifat sifatida «faqat o'zini o'ylaydigan, boshqalarga foydasi tegmaydigan» kishilarga nisbatan qo'llanadi: During the California gold rush, men had a dogeat-dog life [Makkai].

Chicken so'zining Webster va Oxford izohli lug'atlarida berilgan ma'nolarini ko'rib chiqaylik:

1) the common domestic fowl or its young;

2) any of various similar or related birds;

3) slang: a young woman;

4) afraid: timid.

Biz to'plagan materiallar ichida "chicken" zoonimi qatnashgan quyidagi frazeolog ikiboralar uchradi: be no chicken – yosh bo'lmaslik Bu ibora Dj. Swift tomonidan qo'llanilgan. Bu iborada "chicken" zoonimining "a young woman"(yoshayol) semasi ifodalangan:

Miss. I swear she's no chicken: she's on the wrong side of thirty.... [Swift]

The eldest Miss Larkins is not a chicken, for the youngest miss Larkins is not that, and the eldest must be three or four years older. [Dickens]

A spring chicken – tajribasiz kishi. Bu iborada "chicken" zoonimining "young", "afraid", "timid" kabi semalari nazarda tutilgan:

"My remotest ancestors are but spring chickens compared with these robed and stately antiques..." [Twain]



We told him something about her life "I'm no spring chicken, Bunny don't imagine it". [Sinclair]

Tame as a chicken - xonaki, qo'lga o'rgangan. Bu frazeologik birliklarda "chicken" zoonimining "afraid", "timid" semalari nazarda tutilgan. Ingliz tilida chicken bolalar tilida sleng so'z sifatida «qo'rqq» ma'nosida qo'llaniladi: The boy called him chicken. Bu so'zdan predlog yordamida fe'l yasalgan: two chicken out, uqattiq (juda) qo'rqqmoq ma'nosida ishlatiladi. Don't chicken out now. Bu zoonimik iboraning get cold feet; back out kabi sinonimlari mavjud bo'lib, ular «qo'rqqanidan sovuq ter chiqmoq», «o'zini yo'qotib qo'ymoq» ma'nolarida qo'llanadi.

**Xulosa va takliflar.** Zoonim komponentli frazeologik birliklarda erkak va ayol obrazlarining semantik tahlili o'ziga xos murakkablik va qiziqarli xususiyatlarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu tahlil gender stereotiplari, madaniy tasavvurlar, ijtimoiy rollar va tilning o'ziga xos xususiyatlarini birlashtiradi. Quyida shunday tahlil asosida xulosaviy fikrlarni keltiramiz:

Zoonim komponentli frazeologizmlarda erkak va ayol obrazlari ko'pincha jamiyatdagi gender stereotiplariga mos ravishda aks etadi. Masalan, "sheryurak" iborasi erkak jasurligini, "mushuk kabi mayin" esa ayol nozikligini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu frazeologizmlarda gender stereotiplari til orqali mustahkamlanishi ko'rinadi.

Erkaklar ko'pincha kuch, jasorat, liderlik kabi xususiyatlarga ega bo'lgan hayvonlar (masalan, sher, bo'ri) bilan bog'lanadi. "Sheryurak" (jasur), "bo'ridek qudratli" kabi iboralar erkakning kuchini, qat'iyatini, o'ziga bo'lgan ishonchini ifodalaydi. Ayollar frazeologizmlarda ko'proq go'zallik, noziklik, ayyorlik yoki boshqa ba'zi hollarda esa, zaiflik kabi xususiyatlarga ega hayvonlar (masalan, mushuk, qush, tulki, qo'y) bilan bog'lanadi. "Mushukdek mayin", "kabutar kabi sadoqatli" iboralar ayolning nazokatini, sadoqatini ifodalaydi. Biroq, ayollarning ayyorligi yoki zaifligini aks ettiruvchi "tulki kabi

ayyor", "qo'y kabi yuvosh" kabi misollar ham mavjud, bu gender stereotiplarining xilma-xilligini ko'rsatadi.

Frazeologizmlar erkak va ayol obrazlariga nisbatan ijobiy va salbiy konnotatsiyalarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, "burgutdek balandparvoz" erkak jasurligiga nisbatan ijobiy ma'no kasb etsa, ayollarga nisbatan qo'llaniladigan "tovuq miya" yoki "mushukdek xudbin" iboralari salbiy ma'noni anglatishi mumkin.

Zoonimlar yordamida yaratilgan frazeologizmlar til va gender o'rtasidagi aloqani o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Til nafaqat gender stereotiplarini aks ettiradi, balki ularni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Frazeologizmlarni tadqiq etish orqali gender tenglik masalalarini muhokama qilish va stereotiplarga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Gender rollari va ijtimoiy qarashlar o'zgarishi bilan frazeologizmlarning ma'nolari ham o'zgarishi mumkin. Ayollarning jamiyatdagi roli ortishi bilan ularga nisbatan qo'llaniladigan ijobiy frazeologizmlar ko'payishi mumkin, shu bilan birga, ilgari mavjud bo'lgan salbiy konnotatsiyalar ham yo'qolib borishi mumkin.

Zoonim komponentli frazeologik birliklarda erkak va ayol obrazlarining semantik tahlili jamiyatdagi gender stereotiplarining til orqali aks etishini, ijtimoiy rollarni, madaniy tasavvurlarni va tilning genderga ta'sirini ko'rsatadi. Bunday tahlil gender tenglikka erishish, gender stereotiplarini o'zgartirish yo'lida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu tahlil tilshunoslik va sotsiolingvistika sohalarini boyitadi.

Zoonim komponentli frazeologik birliklarning semantik tahlilidan ularning ayrim semalarining bir necha zoonimlarga xos ekanligi ma'lum bo'ladi. Masalan, industrius (mexnatsevarlik) semasi bee, ant, horse, beaver, mule, hen, donkey kabi zoonimlarda kuzatiladi, shu zoonimlar uchun industrius integral sema bo'lib, ularning har qaysisining alohida farqlovchi semalari mavjud.

#### ADABIYOTLAR

1. Апресян Ю. Д. Современные методы изучения значений и некоторые проблемы структурной лингвистики // Проблемы структурной лингвистики. – М., 1963. – С. 102-150.
2. Вафоева М.И. Ўзбек тилида фразеологик синонимлар ва ularning структуралсемантик тахлили. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 4-20.
3. Гак В.Г. Сопоставительная лексикология. – М.: «Высшая школа», 1987. – 90 с.
4. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: "Университет", 1992. – Б. 125.
5. Шамсиддинов Х. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Тошкент: 1999, 9-бет.
6. Юсупов У. К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: «Фан», 2007. – 125 с.
7. Cristie A. Cat among the pigeons. – New York: Pocket Books, 1970. – 256p.
8. Cronin A. J. Crusader's Tomb. – London: New English Library, 1977. – 392p.
9. Smith W. Y. The Oxford Dictionary of English proverbs. – Oxford., 1936.
10. Websters New World Dictionary of The American Language. College edition. – Cleveland and N.Y., 1966. – 1724 p.





**Dilnoza QURBONOVA,**  
Buxoro davlat universiteti maqsadli tayanch doktoranti  
E-mail: [dilnozaqurbonova415@gmail.com](mailto:dilnozaqurbonova415@gmail.com)

*TDIU Xorijiy tillarni o'qitish kafedrasi professori, PhD, dotsent F.B.Saidova taqrizi asosida*

## CULTURAL DIFFERENCES IN AMERICAN AND UZBEK MAGAZINE ADVERTISEMENTS

### Annotation

This article explores how each nation, based on its culture and worldview, adapts advertising texts and their visual presentation to align with national values when conveying them to consumers. It also illustrates, with examples, how this phenomenon is clearly evident in both English and Uzbek advertising texts. In many cases, when products from globally renowned American companies are introduced into our country, the process of translating their English-language advertisements involves adapting them to align with our cultural values. Scholars refer to this phenomenon as "localization" which encompasses not only the translation of advertising texts but also the modification of their visual presentation to match the cultural values of the target audience in a given country. This article provides a detailed analysis of these phenomena, supported by scholarly perspectives and examples from various journals.

**Key words:** Translation, localization, globalization, term, cultural values, localized advertisements and non-localized advertisements, individualism.

## КУЛЬТУРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В РЕКЛАМНЫХ ОБЪЯВЛЕНИЯХ В АМЕРИКАНСКИХ И УЗБЕКСКИХ ЖУРНАЛАХ

### Аннотация

В данной статье рассматривается, как каждая нация, исходя из своей культуры и мировоззрения, адаптирует рекламные тексты и их визуальное представление в соответствии с национальными ценностями при подаче их потребителям. Также на примерах показано, как это явление четко проявляется в английских и узбекских рекламных текстах. Во многих случаях, когда продукция всемирно известных американских компаний поступает в нашу страну, процесс перевода их англоязычной рекламы включает адаптацию в соответствии с нашими культурными ценностями. Ученые называют это явление «локализацией», которая охватывает не только перевод рекламных текстов, но и изменение их визуального представления, чтобы оно соответствовало культурным ценностям целевой аудитории в конкретной стране. В данной статье подробно анализируются эти явления на основе мнений ученых и примеров из различных журналов.

**Ключевые слова:** Перевод, локализация, глобализация, термин, культурные ценности, локализованные рекламные объявления, нелокализованные рекламные объявления, индивидуализм.

## AMERIKA VA O'ZBEK JURNALI REKLAMALARIDAGI MADANIY XILMA-XILLIK

### Annotatsiya

Ushbu maqolada har bir millat o'z madaniyati hamda dunyoqarashi jihatidan kelib chiqqan holda reklama matnini hamda ko'rinishini milliyatiga moslashtirib xaridorga talqin etishi va ushbu hodisa ingliz va o'zbek reklama matnlarida ham yaqqol ayon bo'lishi misollar yordamida yoritib berilgan. Ko'p hollarda esa butun dunyo bo'yicha mashhur bo'lgan Amerika kompaniyalarining mahsulotlari o'z yurtimizga olib kelinganda uning ingliz tilidagi reklamasini tarjima jarayonida biz o'z qadriyatlarimizga moslashtirib tarjima qilishimiz ham yoritib berildi. Ushbu hodisa esa olimlar tomonidan lokalashtirish deb nomlanib, unda nafaqat reklama matnini va reklama ko'rinishini ham reklama olib borilayotgan millat qadriyatlariga moslab mamlakatda talqin etilishi tushuniladi. Ushbu maqolada yuqorida keltirilgan hodisalar olimlarning fikrlari hamda jurnallardan keltirilgan misollar yordamida batafsil yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Translatatsiya, lokalizatsiya (lokallashtirish), globalizatsiya, atama, madaniy qadriyatlar, lokallashtirilgan reklamalar va lokallashtirilmagan reklamalar, individualizm.

**Kirish.** Reklamalar muloqot yuritishda muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Hamda u jamiyatning normalariga va qadriyatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu sababdan reklamalar o'zi reklama qilinayotgan davlat madaniyati ta'siri ostida bo'lishi tabiiy hol. Chunki reklama matniga ushbu davlat madaniyati ta'sir o'tkazadi. Madaniy qadriyatlar, qarashlar, urf-odatlar hamda jamiyatdagi normalar reklamalarning qay tarzda bezatilayotganligida, xaridorga yetkazib berilayotganligida katta ahamiyat kasb etadi. Ikki millat madaniyatidagi farqni tushunish nafaqat olimlar hamda tadqiqotchilar uchun muhim bo'libgina qolmasdan ushbu, tijoratdagi, reklamachilar hamda ko'pgina davlatlarda faoliyat olib borayotgan kompaniyalar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ushbu maqolada keltirilgan misollarni ishonarli va yorqinroq bayon etish maqsadida turli xil adabiyotlar hamda reklama jurnallaridan foydalanildi. Nazariy qismini yoritib berish maqsadida reklama psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Cook Guy hamda Geoffrey Neil Leech asarlaridan ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu tadqiqotchi olimlar reklamalarning xaridorlar ongiga qanday ta'sir qilishini o'rganigan. Geoffrey Leech reklama tilini o'rganishda lingvistik va pragmatik jihatlarni hisobga olgan. Uning

tadqiqotlari reklama tilining lingvokulturologik xususiyatlari, ya'ni til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi hamda reklamaning turli madaniy kontekstlarda qanday qabul qilinishiga ham e'tibor qaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqola uchun Amerika hamda

O'zbekiston reklama strategiyalarini taqqoslash maqsadida ba'zi nashr etilgan jurnallardagi reklama misollaridan foydalanildi. Va quyidagi Vogue, Elle hamda Glamour jurnallarining Amerika va O'zbekiston sonlaridagi reklamalar ikki kategoriya (qismga) ajratilib, ya'ni lokalashtirilgan (localized) va lokalashtirilmagan (non-localized) o'rganilib chiqildi. Mahalliyashtirilgan reklamalardagi o'zgarishlar sababi hamda reklamalarda ikki elat qadriyatlariga mos tarzda o'zgartirish kiritilishi va xaridorga yetkazib berilayotganligi yoritib berildi.

**Tahlil va natijalar.** Ba'zi tilshunolar tomonidan translatatsiya hamda lokalizatsiya terminlari bir xil ma'no anglatadi va bir xil vazifa bajaradi degan tushuncha mavjud. Ammo ko'pchilik olimlar ushbu ikki atama o'rtasida farqni aniqlashdi va ba'zilar hattoki bu ikkisidan tashqari yana bir atamani uchinchisini ya'ni globalizatsiya ham o'ylab topishdi. Tarjima bilan shug'ullanuvchi, o'z ishining ustasi Bert Esselink ushbu 3 ta

atamalarining farqini juda ajoyib tarzda farqlab berdi: Globalization is the process by which a company breaks free of the home markets to pursue business opportunities wherever their customers may be located. Translation is the process of converting written or displayed text or spoken words to another language. In localization, translation is not a word-for-word “global replacement” process. It requires accurately conveying the total meaning of the source material into the target language, with special attention to cultural nuance and style [1]. Ya'ni globalizatsiya deganda xaridor qayerda bo'lsa tijoratni o'sha yerda amalga oshirish tushuniladi. Translatiya esa yozma matnni boshqa bir tilga o'girish va lokalizatsiya so'zma-so'z tarjima emas aksincha umumiy ma'noni ko'zlanayotgan tilga madaniyatiga xos tarzda yetkazib berish.

Lokalizatsiya bu matnning leksik ya'ni so'zma-so'z tarjimasini hisoblanmaydi, yan'i tinglovchi, mijoz yetkazilayotgan xabarining har bir so'zi, elementi qanday qabul qilinishining madaniy natijalarini o'z ichiga olgan jarayon hisoblanadi. Lokalizatsiya jarayonini tushunish uchun avvalambor madaniyatlar o'rtasidagi farqni tushunish kerak bo'ladi. Ko'pgina hollarda tadbirkorlikda lokalizatsiya kerakmi o'zi degan savol uyg'onadi. Chunki madaniyatlar juda turlicha. Shuning uchun xalqaro reklamalar muvaffaqiyatga erishish uchun haqiqatdan ham lokalizatsiya jarayonidan o'tishi shart. AQSH hamda O'zbekiston madaniyati o'rtasida juda katta farq borligi sababli, reklamalardagi suratlar hamda matnlarni lokalashtirishga bo'lgan ehtiyoj nafaqat ko'zga tashlanarli bo'libgina qolmasdan, ushbu ehtiyoj xalqaro kompaniyalarning muvaffaqiyyati uchun muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Ko'pgina olimlar ayollar modasi hamda go'zallik jurnallaridagi lokalashtirilgan va lokalashtirilmagan reklamalarning farqliklarini tahlil qilib ko'rishdi. Chunki ushbu turdagi jurnallar turli xil mintaqaviy moda namoyondalarini o'ziga jalb etgan edi. Misol tariqasida AQSHning Cosmopolitan va Vogue jurnallarini keltirishimiz mumkin. Ushbu jurnalda keltirilishicha Osiyo do'konlari uchun mukammal teri rangi bu ochimtir, ammo Amerikada ushbu to'qimtirroq yoki quyoshda tovlangan teri hisoblanadi. For Asian markets, the ideal skin tone is viewed as “white” and “pale”, while the ideal skin tone in America is viewed as “tan”, “bronzed” and “sun-kissed” [2]. Xuddi shu yo'sinda Iglikova Cosmopolitan jurnalining Amerika, Angliya va Bulgariya sonlaridagi sog'lik kontentlaridagi farqlarni ko'rib chiqdi hamda quyidagicha xulosa chiqardi: “There are large distinctions in the way that health topics are treated among the three nations” [3]. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu 3 ta millatlarning sog'lomlik mavzulari turlicha tushuniladi.

Simpson klassifikatsiyasiga ko'ra reklamalar quyidagi darajalarga farqlanadi: bog'lovchilarning mavjudligi, ijobiy va salbiy nutqning ishlatilishi, taxminiy ma'no hamda konvensional anglatma yoki an'anaviy anglatma (conventional implicature), suhbat yoki nutqiy anglatma (conversational implicature), reklama so'zlarining miqdori. “1) Presence of conjunctive adjuncts (and their Uzbek equivalents), 2) problem-solution strategy, 3) negative and positive politeness, 4) presuppositions and conventional implicature, 5) conversational implicature, 6) number of words in advertisements” [4].

Umuman olganda lokalizatsiya yangi bir ko'rinishdagi soha bo'lganligi sababli, uni dunyo tillari hodisalar orasida kundalik hayotimizda uchrab turadigan jarayon tariqasida juda kam tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu maqola nafaqat qanday qilib xalqaro reklamalar lokalashtirilganligi haqida ma'lumot beribgina qolmasdan, reklama matnining qay darajada o'zgartirilganligi haqida ham ma'lumot beradi. 80% dan ortiq xalqaro reklamalar umuman o'zgartirilmaydi yoki reklama matni hamda ko'rinishiga garchi boshqa davlatdagi xaridor talabi sherik davlatnikidan tubdan farq qilsada salgina o'zgartirish kiritiladi.

Lokallashtirish bu faqat xalqaro mahsulotlarni boshqa davlatlarga moslashtirish, lokalashtirilmagan (non-localized) esa mahalliy mahsulotlardagi holat hisoblanadi. Ushbu holatni Amerika hamda O'zbekistondagi uchta mashhur: Elle, Vogue,

Glamour go'zallik jurnallaridagi misollarda ham yaqqol ko'rish mumkinki, ba'zilar lokalashtirilgan (localized) va lokalashtirilmagan (non-localized) misollardir. Lokallashtirilgan (localized) reklamalar ikki xil ko'rinishda bo'ladi, ya'ni biri mahsulot ishlab chiqarilgan va reklamasi tayyorlangan tilda hamda reklamasi tarjima qilinayotgan va xuddi shu mahsulotni sotayotgan davlat tilida. Lokallashtirilmagan (non-localized) reklamalar O'zbekiston uchun ushbu davlatdagi kompaniyalar tomonidan yaratilgan bo'ladi.

Reklamalar ma'lum miqdorda lokalashtirilishiga ayollar kiyimining La Perla brendi misol bo'la oladi (Amerika Vogue jurnalining 2016-yil yanvar oyi soni, O'zbekiston Vogue jurnalining 2016-yil fevral oyi soni). Ushbu jurnalidagi reklamada faqat rasm o'zgartirilganligini ko'rish mumkin. Asl sonidagi jurnal reklamasida esa 2 ta model qizlarning katta rasmlari mavjud edi. Faqatgina ikkita reklamaning matn elementigina, veb sahifa va brend nomi O'zbekiston Vogue jurnalida (Amerika Vogue jurnali nusxasi) o'zgartirilmay qoldirilgan. Misol tariqasida yana xuddi shu jurnalidan reklamalar keltirish mumkin. Mashhur shampun brendi Head and Shouldersning Amerikaning Elle jurnalidagi reklamasini bilan uning O'zbekistondagi jurnal reklamasida ancha farqni yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu holda endi reklama matnida ham katta o'zgartirish kiritilgan. Amerika jurnalidagi reklamasida umuman mashhur shaxsan foydalanilmagan. Hatto xaridor reklamadagi shaxs kimligini ham bilmaydi. Reklamada faqatgina ushbu soch yuvish vositasi lavanda ekstrakti va tabiiy qo'shimchalardan tayyorlangan degan ma'lumot berilgan “lavender essence and natural extracts, both 100% flake-free and beautiful hair” [5]. Va xulosani xaridorning o'ziga qoldirgan. O'zbekistonda esa mashhur aktrisa yordamida reklama qilishgan va shampunning tarkibi emas balki uni nimalarga yordam berishi haqidagi tushunchalarga urg'u bergan. Bundan ko'rinib turibdiki, bir elatda individualizm asoslariga tayangan holda reklamalar olib borilgan, boshqa bir hududda mashhur shaxslar reklamalarning qoq markazida bo'lishadi. “An element leads to a great importance of status symbols and the opinion of powerful people in the culture” [6].

Xuddi shunga o'xshash Pantene shampunini qiyos keltiradigan bo'lsak, Amerikada ushbu shampun quyidagicha reklama etiladi. “Stronger hair with Pro-V formula”, “Damage repair in 3 washes”. Ya'ni bu bilan aniq va dalar berilyapti va dinamik, tezroq hamda iste'molchini tezroq tajriba qilishga chaqiryapti. Ushbu mahsulotning O'zbekistondagi reklama ko'rinishi esa odatda yumshoq, hissiy va an'anaviy ohangda bo'lib, unda yumshoq iboralar ishlatilgan: “Sochingizni tabiiy go'zallik bilan himoya qiling”, “Sog'lom va ipakdek yumshoq sochlar uchun”.

**Xulosa va takliflar.** O'zbek reklamalarining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan holda ushbu maqola lokalashtirish sohasiga o'z hissasini qo'shmasdan qolmaydi. Ko'pgina xalqaro kompaniyalar mahsulotlarini dunyo bo'ylab yetkazib berish hamda, o'z mahsulotlarini boshqa millat tiliga tarjima qilish maqsadida mahsulot eksport qilinayotgan davlatning mahalliy ekspertlarini (mutaxassis) yollashadi. Mahalliy ekspertlar esa ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda boshqa bir davlatdan kirib kelayotgan mahsulot reklamalarini madaniy qadriyatlarimizga mos keladigan darajada yaxshiroq shaklga keltirishadi. Ushbu jarayondan foydalanish oldin O'zbek madaniyati va reklama qilish strategiyalarini to'la to'kis anglab yetmagan xalqaro kompaniyalarning daromadini oshirib, kompaniya shoh-shuhratini yuksaltirishga ko'maklashadi.

Yuqorida keltirilgan misollardan xulosa chiqarishimiz mumkinki, Amerika reklamalarida ko'proq ilmiy asoslangan, mahsulot tarkibi, texnologiyasi va samaradorligini ilmiy dalillar bilan isbotlashga e'tibor qaratiladi. Aksincha O'zbekistonda reklamalar odatda an'anaviy go'zallik standartlariga asoslangan bo'lib, mahsulotni jozibali qilib ko'rsatishga urg'u beriladi. Bir xil mahsulot har xil madaniy muhitga mos ravishda reklama qilinadi. Amerika Vogue jurnalida global trendlarni ta'kidlaydi, innovatsizaga urg'u beradi, O'zbekiston Vogue esa milliy qadriyatlarni hisobga olgan holda reklama qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Bert Esselink, A practical Guide to Software Localization. – Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1998.

2. Xie, Qinwei and Meng Zhang, White or tan? A cross-cultural analysis of skin beauty advertisements between China and the United States. – Asian Journal of communication 23 (5), 2013, P. 54
3. Iglukova Radostina, Let's Talk health: The textual efficiency of the discourse of healthcare articles in online women's magazines cosmopolitan – European journal of Bioethics 4(7), 2013, P. 23
4. Simpson Paul, reason and tickle as pragmatic constructs in the discourse of advertising. – Journal of pragmatics, 2001, P. 97
5. Elle American Magazine. – May, 2016, P. 173
6. Gert Jan Hofstede and Michael Minkov, Cultures and Organizations: Software of the Mind, 3rd edition. – New York: McGraw-Hill, 2010.
7. Leech, Geoffrey N., English in Advertising: A Linguistic Study of Advertising in Great Britain. – London: Longman, 1966.
8. Esselink Bert, A practical guide to software localization. – Philadelphia: John Benjamins publishing company, 1998.
9. Delin Judy, The language of everyday life. – London: Sage, 2000.
10. Cao Shuo, Intertextuality and globalization: A corpus-based Analysis of advertisement texts of an international female fashion magazine. Journal of art humanities 3 (1). <http://dx.doi.org/10.18533/journal.v3il.290>
11. Cook Guy, The discourse of advertising. – New York: Routledge, 2001.



*Sadoqat QO'CHQOROVA,*  
*Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti*  
*E-mail: sadokat kuchkorova@gmail.com*

*SamDChTi dotsenti, f.f.n N.Suvonova taqrizi asosida*

## FROM ABSTRACTION TO ARCHETYPE: TYPES OF THINKING AND SYMBOLIC IMAGES

### Annotation

This article analyzes the role of various cognitive processes of human thinking – abstract, mythological, metaphorical, and associative – in the formation of symbolic images. Symbols are considered as cognitive and cultural constructs that reflect the worldview and spiritual values of society. Abstract thinking contributes to the generalization of universal meanings and the formation of theoretical models, while mythological thinking reveals the influence of cultural and archetypal contexts on the semantic system. Associative thinking identifies hidden connections between ideas and images, facilitating the creation of new symbolic meanings. Metaphorical thinking enhances the emotional and expressive aspects of symbols, increasing their impact in the communication process. By exploring various manifestations of symbolic thinking, the author uncovers mechanisms that enrich human cognitive experience and worldview. This work contributes to a deeper understanding of the interconnection between language, thinking, and culture.

**Key words:** Symbolic image, types of thinking, abstract thinking, metaphorical thinking, mythological thinking, associative thinking.

## ОТ АБСТРАКЦИИ К АРХЕТИПУ: ВИДЫ МЫШЛЕНИЯ И СИМВОЛИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ

### Аннотация

В данной статье анализируется роль различных когнитивных процессов человеческого мышления – абстрактного, мифологического, метафорического и ассоциативного – в формировании символических образов. Символы рассматриваются как когнитивные и культурные конструкции, которые отражают мировоззрение и духовные ценности общества. Абстрактное мышление способствует обобщению универсальных значений и формированию теоретических моделей, тогда как мифологическое мышление раскрывает влияние культурных и архетипических контекстов на семантическую систему. Ассоциативное мышление выявляет скрытые связи между идеями и образами, способствуя созданию новых символических значений. Метафорическое мышление усиливает эмоциональную и выразительную стороны символов, повышая их воздействие в процессе коммуникации. Автор, исследуя различные проявления символического мышления, раскрывает механизмы, которые обогащают когнитивный опыт и мировоззрение человека. Эта работа способствует более глубокому пониманию взаимосвязи языка, мышления и культуры.

**Ключевые слова:** Символический образ, виды мышления, абстрактное мышление, метафорическое мышление, мифологическое мышление, ассоциативное мышление.

## MAVHUMLIKDAN ARXETIPGACHA: TAFAKKUR TURLARI VA SIMVOLIK OBRAZLAR

### Annotatsiya

Mazkur maqolada inson tafakkurining turli kognitiv jarayonlari – abstrakt, mifologik, metaforik va assotsiativ tafakkurlar uyg'unligining simvolik obrazlarni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Simvollar jamiyatning dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etuvchi kognitiv va madaniy qurilmalar sifatida ko'rib chiqiladi. Abstrakt tafakkur universal ma'nolarni umumlashtirish va nazariy etdollar orqali shakllantirsa, mifologik tafakkur madaniy va arxetipik kontekstlarning semantik tizimga ta'sirini ochib beradi. Assotsiativ tafakkur esa g'oyalar va obrazlar o'rtasidagi yashirin bog'lanishlarni ko'rib, yangi ramziy ma'nolar yaratishga xizmat qiladi. Metaforik tafakkur ramzlarning hissiy va ifodalilik qirralarini kuchaytirib, ularni kommunikatsiya jarayonida ta'sirchanligini oshiradi. Muallif ramziy tafakkurning turli ko'rinishlarini tahlil qilish orqali insonning kognitiv tajribasi va dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladigan mexanizmlarni ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** Ramziy obraz, tafakkur turlari, abstrakt tafakkur, metaforik tafakkur, mifologik tafakkur, assotsiativ tafakkur.

**Kirish.** Simvollar inson tafakkurining kognitiv va madaniy qurilmasi sifatida jamiyatning dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Ularning yuzaga kelishi turli kognitiv jarayonlar – abstrakt, mifologik, metaforik va assotsiativ tafakkurlarning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshadi. Bu jarayonda tilning rolini alohida ta'kidlash zarur, zero til ramziy ma'nolarni shakllantirish va ularni kommunikatsiya jarayonida uzatishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Simvolik obraz ramziy tafakkurning mahsuli sifatida vujudga keladi [6]. Simvolik tafakkurni esa, o'z navbatida, abstrakt, mifologik, metaforik va assotsiativ tafakkurlarning uyg'unligidan yuzaga kelishi xususida xulosaga kelish mumkin. Ma'lumki, kreativlik va hodisalarga no'anaviy yondashuv abstrakt tafakkurning o'ziga xos jihati hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Abstrakt tafakkuri rivojlangan inson vazifalarni hal etishda noodatiy yondashuvlardan foydalanishi va yashirin imkoniyatlarni ko'ra olishi bilan turli g'oyalarni umumlashtirishi va ularni bir-biriga bog'lash orqali g'ayrioddiy yechimlarni taklif qila oladi. Abstrakt tafakkurning yana bir muhim jihati – uning til bilan uzviy

bog'liqligidir. Til abstrakt g'oyalar va konsepsiyalarni shakllantirishga, ularning verbal muhokamasi va tahlili uchun imkon beradi. Bu o'zaro bog'liqlik tanqidiy tafakkurning rivojlanishi va tahlil qilish qobiliyatining oshishiga xizmat qiladi [8, 11]. So'zlashni o'rganish – bu, lisoniy abstraksiyalarni qo'llashga o'rganish va shu orqali abstrakt fikrlash qobiliyatini rivojlantirish demakdir [1]. Demak, abstrakt tafakkur insonning bilish faoliyatining muhim jihati bo'lib, unga bilim va kuzatuvlarni umumlashtirish, shu asosda hukm va xulosa chiqarish imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mifologik tafakkur ongning o'ziga xos shakli bo'lib, u ratsional yoki ilmiy tafakkurdan bir qator xususiyatlari bilan farqlanib turadi [9]: 1) sinkretizm: mifologik ong turli elementlar – tabiiy va madaniy hodisalarni birlashtirish xususiyatiga ega, bu subyekt va obyektning bir-biriga tenglashtirilishiga olib keladi; 2) partitsipatsiya: bu xususiyat dunyodagi barcha elementlar o'zaro bog'langan va bir-birining xususiyatlarini aks ettirishga qodir degan ishonch asosidagi jism va hodisalar o'rtasidagi mistik bog'liqlikni nazarda tutadi; binar qarama-qarshiliklar: mifologiya binar qarama-qarshiliklardan

(masalan, yaxshilik-yomonlik, hayot-o'lim) faol foydalanadi, ular olam idrokini tizimlashtirishga yordam beradi va asosiy ma'naviy dilemmalarni aks ettiradi; vaqt va makonning o'ziga xos tuzilmasi: mifologik tafakkurda vaqt davriy (siklik) shaklda aks etadi, makon esa bir butunlik sifatida ko'riladi. Mifologik kontekstda til oddiy va muqaddas tillarga bo'linadi. Muqaddas til haqiqatni tasvirlabgina qolmay, balki unga va yashirin kuchlarga ta'sir o'tkazish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mifologik tafakkurga ko'ra so'z yoki matn talaffuz qilinganida u haqiqatga aylanadi, bu tilning magik tabiatiga ishora qiladi [7].

Assotsiativ tafakkur, bu – insonning g'oya, tushuncha yoki obrazlarni ular bir-biriga bevosita aloqasi bo'lmasa-da biror xususiyat asosida bog'lash qobiliyatidir. Bu qobiliyat insonga yangi g'oyalar yaratish, muammolarni hal qilish, ijodiy bog'liqliklarni topish va turli obyekt yoki konsepsiyalar o'rtasidagi yashirin bog'liqliklarni ko'rish imkonini beradi.

Assotsiativ tafakkurga xos quyidagi xususiyatlar ta'kidlanadi: 1) assotsiativ tafakkur ikki turga bo'linadi: ixtiyorsiz (o'z-o'zidan yuzaga keladigan bog'liqliklar) va ixtiyoriy (assotsiatsiyalarni maqsadli boshqarish); 2) assotsiativ tafakkur diqqat-e'tibor mexanizmlari bilan bog'liq bo'lib, obyektlarni tanlash va ularni xotirada saqlab turish qobiliyatini o'z ichiga oladi; 3) Assotsiativ tafakkur murakkab shartli refleks jarayonining bir shakli sifatida ko'rib chiqiladi [3].

Ijodiy jarayonda ushbu tafakkur turi yangi muhitda turli unsurlarni bog'lagan holda noodatiy g'oyalar yaratishga yordam bersa, kundalik hayotda inson har xil voqea-hodisa, narsa va odamlar o'rtasida assotsiatsiyalar orqali o'zini o'rab turgan dunyoni yaxshiroq tushunishga imkon yaratadi.

jadval. Tafakkur turlarining ramziy obraz yaratishdagi xususiyatlari

| Tafakkur turi        | Asosiy xususiyatlari                                                                         | Ramziy obraz yaratishdagi roli                                                     | Ramziy obrazga misollar            |
|----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------|
| Metaforik tafakkur   | O'zaro bog'lanmagan konsepsiyalarni metafora orqali bog'lash, yangi ma'nolar yaratish        | Chuqur, ifodali va hissiy ramzlarni yaratadi.                                      | Vaqt – bu pul, Shaharning yuragi   |
| Assotsiativ tafakkur | G'oya va obrazlar o'rtasida mantiqiy jihatdan bog'lanmagan assotsiatsiyalarni shakllantirish | Turli g'oyalarni birlashtirish orqali noodatiy yechimlar topishga yordam beradi.   | Hayot doirasi                      |
| Mifologik tafakkur   | Arxetip, mif va ramzlar orqali voqelikni talqin qilish va anglash.                           | Obrazlarga madaniy va jamoaviy kontekst qo'shadi.                                  | Axilles to'voni, Almisodqan qolgan |
| Abstrakt tafakkur    | Abstrakt tushuncha va nazariy modellar bilan ishlash, bilimlarni tizimlashtirish.            | Konkret tafsilotlardan chetga chiqib, universal ma'nolarni ko'rishga imkon beradi. | Adolat tarozisi                    |

Simvollar inson ongi va madaniyatidagi kognitiv jarayonlarning uyg'un ta'siri asosida yuzaga keladigan semantik va semiotik qurilmalardir. Abstrakt tafakkur umumiydasturlash va nazariy modellar orqali universal ma'nolarni shakllantirsa, mifologik tafakkur arxetiplar va madaniy kontekstlar asosida ramzlarni boyitadi. Assotsiativ tafakkur mantiqiy va mantiqsiz bog'liqliklarni aniqlab, yangi ramziy ma'nolar yaratishga yordam

Metaforik tafakkur dunyoni anglashning o'ziga xos yo'li bo'lib insonning olamga munosabati va voqelikni qabul qilish tarzini aks ettirishda inson idroki turlarining jamlanmasi hisoblanadi. Metaforik tafakkur subyektning bilish faoliyatining asosidir, chunki u subyektga atrof-muhit voqeligini anglashga imkon beradi. Bu voqelikni talqin qilish va yangi ma'nolarni shakllantirish uchun subyektning shaxsiy tajribasidagi mavjud kognitiv tuzilmalardan foydalanishni ta'minlaydi [4].

Metaforik tafakkurning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi [5, 10, 2]: a) metaforik tafakkur turli g'oya va obrazlarni bog'lash – assotsiatsiya qobiliyatiga asoslanadi, bu esa yangi konseptlarni yaratishga imkon beradi, obrazlar o'rtasidagi mazmuniy masofa qisqarib, original fikrlar paydo bo'ladi; b) metaforik tafakkur orqali bir obyektning xususiyatlari boshqa obyektga ko'chiriladi, bu orqali abstrakt tushunchalarni aniq misollar yordamida yaxshiroq tushunish imkonini beradi; v) metaforik tafakkur kreativ va innovatsion tarzda muammoga yechim topadi. Bu an'anaviy mantiqiy bog'liqliklarni chetga surish va muammolarga noodatiy yondashuvlar uchun imkon beradi; g) metaforalar orqali chuqur his-tuyg'u va murakkab fikrlar ifodasi tilning ta'sirini kuchaytiradi. Bu holat insonlar o'zaro muloqoti samarasi va tushunish darajasi yaxshilanishiga olib keladi.

**Tahlil va natijalar.** Demak, simvolik obraz mifologik, abstrakt, metaforik va assotsiativ tafakkurlar uyg'unligida hosil bo'ladi. Quyidagi jadvalda biz yuqorida sanab o'tilgan tafakkur turlarining ramziy obrazni yaratishdagi xususiyatlarini belgilashga harakat qildik.

beradi. Metaforik tafakkur esa ramzlarning hissiy va ifodalilik jihatlarini shakllantirib, ularning ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Shu tarzda simvolik tafakkurning turli ko'rinishlari o'zaro uyg'unlikda insonning semantik va kognitiv tajribasini boyitadi. Ularning lisoniy talqini nafaqat ramzlar vositasida voqelikni ifoda etish, balki yangi ma'nolar yaratish imkoniyatini ham beradi. Ular orqali jamiyat o'z dunyoqarashi va qadriyatlarini saqlab qolish va avlodlarga yetkazishga erishadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Sociologie, 2020, Jérôme Deauvieu, Jean-Pierre Terrail (Cairn.info) <https://dictionnaire.lerobert.com/definition/pensee-abstraite>
2. Борщевская М.Ю. Метафорическое мышление и современный урок литературы // Нижегородское образование / Языкознание и литературоведение, 2013. – С. 111-118.
3. Далгатова М. Особенности ассоциативного мышления. Homo sapiens (Features of associative thinking in Homo sapiens) (2021): n. pag. Print. [https://www.academia.edu/50943717/Особенности\\_ассоциативного\\_мышления\\_Номо\\_sapiens](https://www.academia.edu/50943717/Особенности_ассоциативного_мышления_Номо_sapiens)
4. Калашникова Л.В. Метафорическое мышление как основа когнитивной деятельности субъекта на этапе наглядно-образного мышления/ Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики, 2019. № 3. – С. 22-32.
5. Калинина Л.П. Развитие метафорического мышления как одно из условий формирования личности будущего художника традиционного прикладного искусства/Традиционное искусство и образование, 2012, №2. С.11-18.;
6. Qo'chqorova S.T. Simvolik obraz – ramziy tafakkur mahsuli sifatida/ Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim. №1(90), 2024. – B. 72-81.
7. Ростошинский Е.Н. Структура мифологического мировоззрения // Серия «Мыслители», Смыслы мифа: мифология в истории и культуре. <http://anthropology.ru/ru/text/rostoshinskiy-en/struktura-mifologicheskogo-mirovozzreniya>
8. Свойства абстрактного мышления <https://studfile.net/preview/7681199/page:10/>
9. Тимофеев В.Г., Н.В. Петров. Свойства мифологического сознания/ Вестник Чувашского университета. 2010. №4. – С. 146-151.
10. Чернейко Л.О. Языковая метафора как ключ к реконструкции метафорического мышления/ Язык, сознание, коммуникация, 2021, том 63. – С. 40-61.;
11. Что такое абстрактное мышление и как его развивать <https://skillbox.ru/media/growth/abstract-thinking/>





УДК:81'276.6:355.

Наргиза МАМЕДОВА,

Ташкентский экономический педагогический институт и.о. доцента кафедра “Языков и дошкольного образования”

E-mail: Nargis44@mail.ru

Рецензент: З.Бекетовна. и.о. доцента кафедра “Языков и дошкольного образования”

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СРАВНИТЕЛЬНОГО И СОПОСТАВИТЕЛЬНОГО МЕТОДА В ФОНОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

Сравнительная типология – раздел языкознания, изучающий языки в сопоставлении с другими языками с целью установления особенностей, присущих данным языкам, а также сходств и различий между языками. Сравнение (или сопоставление) является одним из основных методов изучения языка. Однако в зависимости от объекта и цели (иначе направления) исследования выделяются различные отрасли языкознания, пользующиеся методом сравнения языков.

**Ключевые слова:** Сравнительного метод, сопоставительного метода, фонологическом аспект, русский язык, узбекский язык

## RUS VA O‘ZBEK TILILARINING FONOLOGIK ASPEKTIDA QIYOSIY VA QO‘SHISH USULIDAN FOYDALANISH

Аннотация

Qiyosiy tipologiya – bu tillarga xos xususiyatlarni, shuningdek, tillar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash uchun tillarni boshqa tillarga nisbatan o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi. Taqqoslash (yoki yonma-yon joylashtirish) til o‘rganishning asosiy usullaridan biridir. Shu bilan birga, tadqiqot obyekti va maqsadi (yoki yo‘nalishi) ga qarab, tillarni taqqoslash usulidan foydalanadigan tilshunoslikning turli sohalar ajralib turadi.

**Kalit so‘zlar:** Qiyosiy metod, qarama-qarshilik usuli, fonologik jihat, rus tili, o‘zbek tili.

## USING THE COMPARATIVE AND CONTRASTIVE METHOD IN THE PHONOLOGICAL ASPECT OF THE RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

Comparative typology is a branch of linguistics that studies languages in comparison with other languages in order to establish the features inherent in these languages, as well as the similarities and differences between languages. Comparison (or contrasting) is one of the main methods of learning a language. However, depending on the object and purpose (or direction) of the research, various branches of linguistics are distinguished that use the method of comparing languages.

**Key words:** Comparative method, comparative method, phonological aspect, Russian language, Uzbek language.

**Введение.** Сравнительное или сравнительно-историческое языкознание ставит задачей определение степени родства, общности происхождения языков. Конечной целью сравнительно-генетического анализа является восстановление языка-основы, из которого развились исследуемые языки, и установление законов, по которым шло это развитие.

Объектом сравнительного языкознания могут быть только родственные языки, как близко родственные, так и находящиеся в отдаленном родстве. Сопоставительно-типологическая лингвистика отличается от сравнительно-исторической не только объектом, но преимущественно целью исследования. Объектом ее могут быть неродственные языки, отдаленно родственные, близко родственные, варианты одного языка, разные исторические этапы одного языка.

**Анализ соответствующей литературы.** Сопоставительное изучение языков имеет свою историю, в которой можно выделить три этапа. Первый этап охватывает период с древних времен до 20-х годов нашего столетия. Данный этап характеризуется обилием грамматик, основанных на так называемой имитации, и отсутствием специальных работ, направленных на решение теоретических вопросов сопоставительной лингвистики. Важными на этом этапе являются идеи И.А.Бодуэна де Кургенэ, Н.А.Богородицкого, Ф.Ф.Фортунатова, А.А.Погобни, А.Мейе и других лингвистов о возможности и плодотворности сравнения неродственных языков.

Второй этап охватывает период с 20-х до 50-х годов. На этом этапе появились два важных направления: сопоставительное изучение языков в теоретических целях и сопоставительное изучение языков в лингводидактических целях. Основоположителем первого направления был

В.Матезиус, второго -Б.Д.Поливанов. На этом этапе появился ряд ценных идей относительно методики сопоставления языков.

**Методология исследования.** Сопоставительная (или сравнительная) типология объединяет сопоставительный и типологический анализ языков. Как мы знаем, сопоставительная лингвистика сравнивает, как правило, два языка, независимо от степени их родства, с целью выявления сходств и различий между ними, а типологическая лингвистика ставит более широкие задачи: она изучает специфику языков на фоне тех общих черт, которые свойственны человеческим языкам вообще.

**Анализ и результаты.** Для сопоставления строения систем изучаемых языков первым уровнем, безусловно, является фонологический уровень, отражающий сходства и различия в материальной звуковой организации сопоставляемых языков. Единицами сопоставления в рамках этой подсистемы являются сегментные и супraseгментные языковые единицы. К первым относятся фонема и слог, непосредственно образующие речевые цепочки, ко вторым - единицы, не имеющие собственной материальной формы и реализуемые одновременно с сегментными единицами в звуковой цепи: словесное ударение, интонация. Соответственно выделяются фонетико-фонологическая и просодическая типология.

В качестве показателей для установления типологии фонологических систем языков выделяют: 1) количественный и качественный инвентарь фонем по их артикуляционно-акустическим признакам; 2) количество и качество фонемных оппозиций и корреляций, устанавливаемых на основе дистрибутивного анализа и оппозиционного анализа; 3)

наличие нейтрализации фонем; 4) сила оппозиции; 5) дистрибуция фонем и частота их использования.

Соотношение гласных и согласных фонем служит основанием для типологического выделения вокалических и консонантических языков. По этому и целому ряду сопутствующих критериев русский и узбекский языки относятся – к языкам консонантического типа. Вокализм русского и узбекского языков близок к «вокалическому минимуму». Целый ряд признаков также отличает системы консонантизма русского и узбекского языков, самыми существенными из которых является наличие корреляций по твердости/мягкости в русском языке, а также исторические и позиционные чередования согласных фонем.

Изучение языкового строя языка может быть предметом сравнительного (сопоставительной) фонетики и сравнительной фонологии. Сопоставительная фонетика изучает особенности образования звуков и просодических (интонационных) средств языков. Сопоставительная фонология изучает звуки и просодические явления прежде всего в функциональном аспекте как средство различения звуковых оболочек слов и высказываний. В основе типологического сопоставления лежит сравнение фонетических систем двух языков. Понятие системы предполагает определённую совокупность фонем (инвентарь) и отношение между ними.

Сопоставительный анализ фонем проводится как на уровне системы, так и в плане их функционирования в речи. В связи с этим различаются: 1. фонетическая (точнее фонематическая) парадигматика – описание системы фонем на основе их признаков; 2. фонетическая синтагматика, в которой различается два аспекта: а) частотность фонем в речи, б) фонетическая комбинаторика, т.е. сочетаемость фонем; 3. фонетическая трансформаторика – изменение фонем в речи, их чередование, т.е. замена одних фонемных признаков другими.

Определение номенклатуры фонем – не простой вопрос, т.к. в каждом языке имеются спорные случаи относительно того, являются ли данные звуки самостоятельными фонемами или они представляют собой варианты других фонем.

Парадигматические отношения между гласными (т.е. отношения в системе) в узбекском и русском языках описываются при помощи следующих дифференциальных признаков: 1. подъёма (положения спинки языка по отношению к нёбу); 2. ряда (положения кончика языка относительно зубов); 3. лабиальности (участия губ в артикуляции). Первые три признака свойственны обоим сравниваемым языкам, хотя роль каждого из них в фонематических системах разная. Система узбекских гласных реализуется в синтагматике (т.е. в речевой цепи) в своём полном виде, в русском же языке существуют две разные системы гласных: одна – полная – в парадигматике, другая, отличающаяся от первой и количественно и качественно, – в синтагматике. Синтагматический план – сочетаемость звуков речи. В обоих языках наблюдаются следующие типы изменения гласных звуков: количественные изменения, качественные изменения, консонантизация, редукция. Консонантизм – парадигматический план. Основными признаками согласных являются место образования, способ образования и участие голосовых связок. В зависимости от места образования выделяются согласные: губные, переднеязычные, среднеязычные, заднеязычные, овальные, фарингальные, гортанные. Две последние артикуляции не представлены в фонемах русского языка. По способу образования различаются смычные, щелевые и дрожащие согласные. В зависимости от участия голоса различаются сонорные и шумные согласные. А внутри шумных – глухие и звонкие. Специфические признаки согласных многочисленны: палатализованность, лабиальность, напряжённость и т.д. К этим качественным признакам добавляется и количественный признак – долгота. Синтагматический план – позиционное изменение согласных. Количественное изменение согласных при ассимиляции, на стыке слов и морфем, могут возникать долгие

геминированные согласные как в русском, так и во узбекском языках. Лабиализация согласного перед следующим лабиализованным гласным имеет место в обоих языках. Палатализация также отмечается в обоих языках, но в разных условиях. Выпадение согласных в группах согласных свойственно разговорной речи и просторечию в узбекском языке, а также литературной речи в русском языке. Обоим языкам в большей степени, свойственно скопление согласных в начале и конце слога. Русскому языку более свойственно скопление согласных в конце слога. Узбекским звукам по сравнению с русскими свойственна большая чёткость и устойчивость артикуляции. Многие активные органы речи: губы, нижняя челюсть, язык, нёбная занавеска, голосовые связки – работают при говорении на узбекском языке больше, чем при говорении на русском. В русском языке выделяется одна языковая зона артикуляции – средняя по ряду, несколько сдвинутая вперёд и вверх. В узбекском языке, по сравнению с русским выделяются две зоны: основная в передней части ротовой полости, дополнительная – в задней её части.

Большую помощь в изучении узбекского правописания может оказать сравнение с русским языком. Это относится прежде всего к этимологическим написаниям.

Как известно, в русском языке имеется много слов, заимствованных из латинского, которые подчас сохраняют звучание, более близкое к латинскому, нежели соответствующие узбекские слова. Основываясь на этих звуковых закономерностях, можно вывести ряд правил, помогающих усвоить написание узбекских слов.

Каждый язык в отдельности – это замкнутая система. Поэтому всякое сравнение двух языков отчасти означает некоторое разрушение двух систем, ибо сравниваются какие-то части, подчас занимающие в этих системах совсем разные места.

Разрушение системы выглядит по-разному в зависимости от того, говорим ли мы о двух языках («сопоставление») или о всех языках («типология»). При сопоставлении учитывается то, насколько близки друг другу сопоставляемые языки. Сопоставление таджикского и русского языков имеет иной характер, нежели, скажем, сопоставление узбекского и русского или же, допустим, таджикского и узбекского.

На сегодняшний день с большой долей уверенности можно утверждать, что сопоставительные исследования не только констатируют, но и выявляют причины тех или иных языковых явлений. Сопоставительная лингвистика все в большей степени становится «объяснительной» дисциплиной. Дальнейшему развитию этого направления, несомненно, способствовало бы тесное взаимодействие сопоставительного метода с характерологией – относительно автономной типологической дисциплиной. Согласно Матезиусу характерологию интересует не столько принадлежность языка к определённому типу, сколько индивидуальная организация языковых структур, рассматриваемая (что особенно важно) в широком спектре взаимосвязей и взаимозависимостей. Учет имплицитных отношений между отдельными, в том числе и межуровневыми структурами – это то главное, что может быть успешно заимствовано сопоставительной лингвистикой при выявлении особенностей функционирования языковых систем как генетически родственных, так и далеких друг от друга.

Несмотря на возрастающий интерес к сопоставительной лингвистике, в большинстве книг по общему языкознанию это направление все еще не упоминается. Можно отметить определенное число лингвистов, открыто выступающих против сопоставительной лингвистики и ставящих под сомнение ее научную и практическую ценность (см., например, Kewmark 1970; Ritchie 1970). Такое положение объясняется тем, что в настоящее время теоретические основы сопоставительной лингвистики все еще недостаточно разработаны, хотя за последние два десятилетия в этой области были достигнуты определенные успехи. Тюрколог А.Н.Кононов пишет: "В настоящее время сопоставительное изучение названных языков (русского и национального языков. - У.Ю.)

количественно развивается весьма энергично, однако, качественно оно далеко не отвечает всеобщему интересу к этой важной проблеме. Многочисленные попытки - почти по всем тюркским языкам СНГ написаны сопоставительные (с русским языком) грамматики - с неумолимой логикой убеждают, что простое сопоставление фактического материала двух языков без точно и глубоко разработанной специальной методики сопоставления двух разно-системных языков не дает и не может дать обнадеживающих результатов" (Кононов 1968, II, 12; 1977, 17).

Третий этап истории сопоставительной лингвистики начинается с 50-х годов и продолжается до настоящего времени. Характерные особенности этого этапа: 1) возросший интерес лингвистов и методистов к сопоставительной лингвистике; 2) дискуссия, развернувшаяся в 1957-1958 гг. на страницах журнала "русский язык в национальной школе", поводом для которой послужила статья Б.А.Серебренникова "Всякое ли сопоставление полезно?"; 3) осознание лингвистами важности принципа системности при сопоставлении языков; 4) возникновение различных вариантов полевого подхода в сопоставительной лингвистике; 5) появление новых теорий и подходов к сопоставлению языков; 6) выход в свет крупных теоретических работ по сопоставительному изучению языков: "Контрастивная грамматика" (Ярцева 1981), "Лингвистика через культуру" (Lado 1957), "Языковые структуры в их контрастности" (Pietro 1978).

На третьем этапе сопоставительная лингвистика была выделена как самостоятельная дисциплина. Сопоставление языков имеет теоретическую и практическую ценность. Оно углубляет исследование каждого из сравниваемых языков, способствует обнаружению свойств, которые остаются вне поля зрения при отдельном (несопоставительном) изучении.

Результаты таких исследований могут служить материалом для типологии, для составления словарей, а также для теории и практики перевода.

Сопоставительная лингвистика может создать универсальную модель или универсальный метаязык, с помощью которых возможно установить степень близости языков, их сходства и различия, оно может также снабдить новыми данными общее языкознание.

Сопоставительное изучение языков способствует решению целого ряда практических задач: а) диагностирование трудностей изучаемого языка, возникающих вследствие межъязыковых расхождений; б) отбор языкового материала для обучения; в) определение последовательности подачи учебного материала; г) выбор эффективных методических приемов для объяснения учебного материала; д) создание рациональных упражнений, направленных на снятие межъязыковых интерференции; е) определение объектов контроля умений и навыков речи на неродном языке; ё) создание эффективных тестов; ж) объяснение типичных ошибок; з) создание эффективных учебников, учебных пособий, методических разработок, программ по неродному языку.

Таким образом, сопоставительная лингвистика имеет тесную связь с типологией, теорией и практикой перевода, социо-лингвистикой, лексикографией и методикой преподавания неродного языка.

**Выводы и предложения.** Будущий преподаватель неродного языка должен не только свободно владеть этим языком, но и отчетливо представлять себе те стороны неродного языка, который сближает или, наоборот, отличает этот язык от родного языка, предвидеть фацилигации и интерференции, знать пути преодоления последних.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Акуленко 1976 Акуленко В.В. Типология и сопоставительное изучение языков. - В кн.: Типология как раздел языкознания. Дискуссия. -М.: Наука, 1976, с. 6-8.
2. Алиев 1957 Алиев У.Б. Сопоставительное изучение языков должно быть всесторонним. - Русский язык в национальной школе, 1957, № 3, с. 11-17.
3. Баженов 1970 Баженов Л.Т. Индоевропейские и тюркские после-ложные формы. Автореф. канд. филол. наук. - М., 1970.- 24 с.
4. Гаджиева 1975 Гаджиева Н.З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеаз. ареал. - М.: Наука, 1975.- 302 с.
5. Климов 1983: Климов Г. А. Принципы контрасивной типологии. М.. 1983.
6. Матезиус 1989: Матезиус В. О лингвистической характерологии на материале современного английского языка // Новое в зарубежной лингвистике, вып. XXV. М.. 1989.
7. Скаличка 1989: Скаличка В. Типология и сопоставительная лингвистика // Новое в зарубежной лингвистике, вып. XXV. М.. 1989.



**Manzura MAXMUDOVA,**  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o'qituvchisi*  
E-mail: [misssterrassamarkand@gmail.com](mailto:misssterrassamarkand@gmail.com)

*SamDChTI dotsenti M.M.Oblokulova taqrizi asosida*

## THE IMPORTANCE OF LANGUAGE IN THE CONCEPTUALIZATION OF THE WORLD

### Annotation

This article reveals the language and its role, influence and place in conceptualization, and presents its important aspects. This article explains that language not only encodes but also expresses concepts. The article also presents works and theories in the study of conceptualization. From the theory of metaphor to the study of conceptual blending and prototype theory, the scholars of this field have shown that language is not just a means of expressing pre-existing ideas, but also shows its complex participation in the formation of concepts used to understand and manage reality.

**Key words:** conceptualization, embodiment, cognitive metaphor, cognitive blending, zone of proximal development.

## ЗНАЧЕНИЕ ЯЗЫКА В КОНЦЕПТУАЛИЗАЦИИ МИРА

### Аннотация

В данной статье раскрывается язык, его роль, влияние и место в концептуализации, а также представлены его важные аспекты. В этой статье объясняется, что язык не только кодирует, но и выражает концепты. В статье также представлены работы и теории по исследованию концептуализации. От теории метафоры до изучения смешения концептов и теории прототипов ученые в этой области показали, что язык является не просто средством выражения уже существующих идей, но также демонстрирует свое сложное участие в формировании понятий, используемых для понимания и управления реальностью.

**Ключевые слова:** концептуализация, воплощение, когнитивная метафора, когнитивная смесь, зона ближайшего развития.

## DUNYONING KONSEPTUALLASHUVIDA TILNING AHAMIYATI

### Аннотация

Ushbu maqolada til va uning konseptuallashtirishdagi roli, ta'siri va o'rini ochib berilgan va uning muhim bo'lgan jihatlari keltirilgan. Til konseptlarni nafaqat kodlash balki ifodalash xususiyatiga ham ega ekanligini ushbu maqolada yoritib berilgan. Maqolada shuningdek konseptuallashtirishni o'rganishda qilingan ishlar va nazariyalar keltirilgan. Ushbu soha olimlari metafora nazariyasidan kontseptual qorishma va prototip nazariyasini o'rganishgacha, til shunchaki oldindan mavjud bo'lgan fikrlarni ifodalash vositasi emas, balki haqiqatni tushunish va boshqarish uchun foydalanadigan konseptlarni shakllantirishda murakkab ishtirokini ko'rsatib berganlarini ham ko'rish mumkin.

**Kalit so'zlar:** konseptuallashuv, mujassamlashtirish, kognitiv metafora, kognitiv qorishma, proksimal rivojlanish zonasi.

**Kirish.** Til va konseptuallashuv o'rtasidagi munosabat kognitiv tilshunoslik, til falsafasi, psixolingvistika, antropologiya va kognitiv fan sohalarida markaziy mavzu bo'lib kelgan. Ushbu yo'nalishlarda tadqiqot olib borayotgan olimlar til bizning mental ifodamiz ekanligi va kontseptual tuzilmalarni qanday shakllantirishi, kodlashi va aks ettirishini o'rganib chiqdilar. Til konseptlarni kodlash va ifodalash vositasidir. Bu insonlarga o'zlarining mental ifodalarini boshqalarga etkazishga imkon beradi. Turli tillarda konseptlarni kodlash usullari turlicha bo'lishi mumkin, bu har xil tillarda so'zlashuvchilarning dunyoni konseptuallashtirish usullariga ta'sir qiladi. Til va konseptuallashuv bir-biri bilan chambarchas bog'langan, chunki til bizning mental konseptlarimizni tartibga solish va ifodalash uchun ham vosita ham ularning aksi bo'lib xizmat qiladi. Konseptuallashuv insonning o'z tajribalarini aqlan tizimlashtirish va tasniflash usulini anglatadi va til bu konseptlarni boshqalarga etkazishning asosiy vositasi hisoblanadi. Talmining kognitiv kategoriyalash nazariyasida tilning tuzilishi aqlning tajribani qanday tashkil etganligi aks ettirilgan bo'lib, harakat, makon va sabab-oqibat kabi lingvistik kategoriyalar odamlarning dunyoni qanday konseptuallashtirishi bilan bog'liq degan fikr o'rta tashlangan [10,21]. Maxmudova xalqning madaniyati, xalq og'zaki ijodi, adabiyoti, ilm-fan, tasviriy san'ati, tarixiy tajribasi, dini qanchalik boy bo'lsa, xalqning konseptosferasi ham shunchalik boy bo'ladi deb aytadi [17,44].

Til va konseptuallashuv o'rtasidagi munosabat. Til konseptuallashuvni shakllantirish vositasi bo'lib, bu uning atrofimizdagi dunyoni konseptuallashtirishda va tasniflashda muhim rol o'ynashini bildiradi. Til orqali biz mavhum g'oyalarni ifodalashimiz, hissiy tajribalarni tasvirlashimiz va voqeilikning mental modellarini etkazishimiz mumkin. Vigotskiyning

“proksimal rivojlanish zonasi” kontseptida til vositasida o'rganish insonga oddiy fikrlashdan murakkabroq darajaga o'tishga qanday yordam berishiga urg'u beradi. Vigotskiyning fikriga ko'ra, til bizning tajribalarimizni tartibga solish va namoyish qilish uchun asosni taqdim etish orqali dunyoni konseptuallashtirish usulini shakllantiradi [16,197].

Tildagi lingvistik tuzilmalar (sintaksis, so'z tanlash va metafora kabi) konseptlarni idrok etish va tartibga solish usullarini shakllantiradi. Masalan, vaqt haqida gapirish uchun fazoviy metaforalardan foydalanadigan tillar (ingliz tilida “moving forward into the future” – “kelajakka intilish”) shu tillarda so'zlashuvchilar vaqtini qanday konseptuallashtirganiga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin.

Grammatik kategoriyalar (masalan, zamon, aspekt va son) til egalarining harakat va hodisalarni qanday turkumlashiga ta'sir qiladi. Misol uchun, murakkabroq zamon tizimlariga ega tillarda (masalan, ispan yoki frantsuz kabi tillar) so'zlovchilarni vaqt haqida oddiyroq zamon tizimlariga (masalan, xitoy) ega tillarda so'zlashuvchilarga qaraganda vaqt haqida chuqurroq tasavvurga ega ekanligini bildirishi mumkin. Jekendoff o'z tadqiqotlarida sintaksis, semantika va idrok bir-biri bilan qanday bog'langanligini o'rgangan [12,3]. U bizning mental ifodalarimiz tildan mustaqil emas, aksincha, bizda mavjud bo'lgan lingvistik tuzilmalar, masalan, vaqt, sabab va modallikni ifodalash uchun grammatik konstruksiyalar ta'sirida ekanligini taklif qildi [11,651].

Kognitiv lingvistika konseptuallashuv jarayonini til elementlari bilan bog'langanligini o'rganadi. Kognitiv lingvistikada til avvaldan mavjud konseptlarni ifodalash uchun faqat passiv vosita emas; aksincha, u dunyoni konseptuallashtirish tarzimizni faol shakllantiruvchi dinamik



jarayon sifatida qaraladi. Til va konseptuallashtirish munosabatini bir nechta nazariyalar asosida ko'rib chiqish mumkin. Mujassamlashtirish nazariyasi (Embodiment theory) inson idroki uning jismoniy tajribalari va hislariga asoslanganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, konseptlar bizning dunyo bilan o'zaro jismoniy aks-ta'sir natijasida shakllanadi. Masalan, "understanding is seeing" – "tushunish - ko'rish" metaforasi ko'rish orqali bilimning mujassamlashuvini aks ettiradi. Jorj Lakoff ham xuddi Jonson kabi til va tafakkur bir-biri bilan chuqur bog'liq degan fikrni ta'kidlab, bizning konseptlarimiz asosan jismoniy tajribamiz tomonidan shakllantiriladi va gavdalanadi, ya'ni aniq tajribalar ko'proq mavhum konseptlarni tushunish uchun asos bo'ladi deb aytdi [5,14]. Konseptual metafora nazariyasi Lakoff va Jonson tomonidan taklif qilingan bo'lib, inson tafakkurining katta qismi metafora ekanligini aytishadi. Bu nazariyaga ko'ra, biz mavhum konseptlarni aniqroq konseptlar orqali tushunamiz. Masalan, "Time is money" – "Vaqt - bu pul" metaforasi vaqtni sarflash, tejash yoki behuda o'tkazish mumkin bo'lgan qimmatli resurs sifatida konseptuallashtirilganini aks ettiradi [4,8]. Lakoff ishi tilning kognitiv jarayonlarni qanday aks ettirishini, metafora mavhum g'oyalarni konseptuallashtirishning asosiy vositasi ekanligini ko'rsatdi [6,3]. Jonsonning ta'kidlashicha, metafora kundalik tilda keng tarqalgan va shunchaki ritorik vositalar emas, balki bizning kognitiv jarayonlarimiz uchun asosdir [4,4]. Zoltan Kovecses Lakoff va Jonson ishlarini kengaytirib, madaniy omillar odamlarning mavhum konseptlarni tushunish uchun ishlatadigan metaforalariga qanday ta'sir qilishini o'rgandi. U kontseptual metaforalarning ham umuminsoniy tajribada, ham til ishlatiladigan o'ziga xos madaniy kontekstda qanday chuqur ildiz otganini ko'rsatib berdi. Kovecses ta'kidlanishicha, "vaqt - bu pul" kabi ba'zi kontseptual metaforalar keng tarqalgan bo'lsa-da, boshqa metaforalar madaniy jihatdan o'ziga xosdir. Masalan, turli madaniyatlar his-tuyg'ularni, makon va ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tarzda konseptuallashtiradi va bu konseptlar tilda o'z aksini topadi [15,50]. Mental makonlar. Gilles Fauconnier bilan bog'liq bo'lgan bu nazariya inson idrokining dinamik ekanligini va yangi ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida konseptlarning mental ifodalari ham o'zgarishini ta'kidlaydi. Biron bir vaziyat haqida o'ylaganimizda, biz mavjud konseptlarni ifodalovchi mental makonlarni quramiz. Ushbu makonlar yangi konseptuallashtirishni yaratish uchun birlashtirilishi mumkin. Jils Fauconier va Mark Tyorner kontseptual qorishma (Conceptual Blending) nazariyasini ishlab chiqqan, bu nazariya biz turli kontseptual sohalardagi elementlarni birlashtirib, qanday qilib yangi mental ifodalarni yaratishimizni o'rganadi. Kontseptual aralashtirish bizga yangi vaziyatlarni tushunish va turli kontseptual makonlarni birlashtirish va aralashtirish orqali ijodiy g'oyalarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Ularning ishi soddaroq, oldindan mavjud bo'lgan konseptlardan murakkab konseptlar qanday paydo bo'lishini va metafora, analogiya va ijodiy iboralarda ko'rinish turganidek, tilning ushbu konseptual qorishmalarni osonlashtirishda asosiy rol o'ynashini ko'rsatadi [7,20].

Dunyoni inson ongida konseptuallashtirishni o'rganar ekanmiz bu jarayon nafaqat til balki madaniyat bilan bog'liq hodisa ekanligiga amin bo'lamiz. Odamlarning dunyoni konseptuallashtirish usuli ko'pincha ularning madaniy kelib chiqishi va til muhiti bilan shakllanadi. Til nafaqat madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, balki turli madaniyatdagi shaxslarning o'z tajribalarini idrok etishi va tashkil etishiga ham ta'sir qiladi. "Tafakkur shakllari" va "Kognitiv semantika tomon" kabi asarlarida Talmi turli tillarning hodisalar, vaqt va makonni qanday tasniflashini o'rganib chiqdi va til turli madaniyatlarda bizning konseptuallashtirishimizni turli yo'llar bilan shakllantirishini ko'rsatdi [10,3]. Sapir-Uorf gipotezasi yoki til nisbiyligi nazariyasi biz gapiradigan til bizning fikrlash tarzimizni shakllantiradi, deb ta'kidlaydi. Ushbu gipotezaning kuchli shakli (ya'ni til fikrni belgilaydi) ko'pchilik tomondan rad etilgan bo'lsa-da, zaifroq shakli (ya'ni til fikrga ta'sir qiladi) o'z kuchini saqlagan holda ko'plab izlanishlarga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda [1,134]. Lev Vigotskiy til va tafakkur o'rtasidagi munosabatni o'rganishda, xususan, madaniy vositachilik nazariyasiga asos solgan shaxsdir. Vygotskiy tilning fikrlash uchun asos ekanligini va kognitiv rivojlanish boshqalar bilan o'zaro ta'sir qilish va tildan foydalanish

orqali sodir bo'lishini ta'kidladi [16,103]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli tillarda so'zlashuvchilar o'z tillarining tuzilishiga qarab dunyoni turlicha tasniflashlari va konseptuallashtirishlari mumkin. Syuzan Ervin-Tripp tilning fikrga qanday ta'sir qilishini va fikrning ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qanday shakllanishini o'rganib chiqdi. Uning ikki tillilik bo'yicha ishi turli tillarda gapirish konseptuallashtirishning turli shakllariga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi, bu til kognitiv jarayonlarni qanday shakllantirishini ko'rsatadi [13,86]. Ervin-Tripp shuningdek, til ijtimoiy rollar va munosabatlarga qanday qarashimizga qanday ta'sir qilishi mumkinligini o'rganib chiqdi. Uning tadqiqotlari til nafaqat oldindan mavjud konseptlarni aks ettiradi, balki bizning ijtimoiy va kognitiv dunyoyimizni faol ravishda shakllantiradi, degan fikrga olib keldi [14,307].

Madaniy konseptuallashtirish. Til madaniy fikrlash usullarini aks ettiradi va mustahkamlaydi. Masalan, turli madaniyatlar his-tuyg'ularni, ijtimoiy munosabatlarni yoki vaqtni juda boshqacha tarzda konseptuallashtirgan bo'lishi mumkin va bu farqlar tilda kodlanadi. Ba'zi tillarda qarindoshlik atamaları ancha kengroq ma'noga ega bo'lib, bu madaniyatda oilaviy munosabatlarning ahamiyatini aks ettiradi.

Konseptuallashtirishda metaforalarning roli shundan iboratki ular ko'pincha mavhum tushuncha va hodisalarni o'ziga xos tarzda anglashga yordamlashadi. Metaforalar dunyoni konseptuallashtirish uchun kuchli vositadir, chunki ular bizga bir konseptni boshqasi nuqtai nazaridan tushunishga imkon beradi. Metaforalar shunchaki stilistik vosita emas; ular dunyo haqidagi fikrlash tarzimizni shakllantiradigan asosiy kognitiv tuzilmalarni aks ettiradi. Bizning konseptuallashtirishimizni shakllantiradigan ba'zi keng tarqalgan metaforalar mavjud. Konteyner metaforasi: Ko'p tillar vaziyat va munosabatlar haqida gapirish uchun "inside-ichkarida" yoki "outside-tashqarida" bo'lmoq metaforasidan foydalanadi (masalan, "I am in love" - "Men sevib qoldim", "He is out of control" - "U nazoratdan chiqib ketdi"). Sayohat metaforasi: life - hayot, growth - o'sish va progress-taraqqiyot kabi konseptlar ko'pincha sayohatlar sifatida konseptuallashtiradi (masalan, "We've come a long way" - "Biz uzoq yo'lni bosib o'tdik", "He's at a crossroads in his career" - "U o'z karerasi chorrahasida"). Urush metaforasi: Bahs urush misolida bo'lgani kabi (masalan, "She attacked my argument" "U mening fikrimga hujum qildi"), bu erda ziddiyat jang yoki urush nuqtai nazaridan konseptuallashtiradi. Bu metaforalar nafaqat mavhum konseptlar haqida fikr yuritish tarzimizni, balki ularni tasvirlashda foydalanadigan leksikani ham shakllantiradi.

Konseptuallashtirishdagi kognitiv jarayonlarni o'rganish kognitiv lingvistikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Konseptuallashtirish dunyoning izchil mental ifodasini shakllantirish uchun birgalikda ishlaydigan turli xil kognitiv jarayonlarni o'z ichiga oladi. Turkumlashtirish yuqorida aytib o'tgan kognitiv jarayonlarning biri bo'lib, odamlar dunyoni anglash uchun tajriba va ob'ektlarni toifalarga ajratadilar. Kategoriyalar o'xshash narsalarni umumiy xususiyatlari asosida guruhlashimizga yordam beradi, lekin ular ham egiluvchan va kontekstga bog'liq. Masalan, "sigir"ni kontekstga qarab hayvon, uy hayvoni, sutemizuvchi va hokazolarga ajratish mumkin. Roshning ishi bizning turkumlarni konseptuallashtirishimiz qat'iy ta'riflarga emas, balki o'xshashlik va gradientga asoslangan degan g'oyani ta'kidlaydi [3,192]. Til bu moslashuvchanlikni aks ettiradi, bu ko'pincha ravon va kontekstga bog'liq bo'lgan atamalardan foydalanadi. Kognitiv jarayonni ochib beruvchi sxema nazariyasi ham mavjud bo'lib, sxemalar dunyo haqidagi bilimlarimizni tartibga soluvchi mental tuzilmalardir. Biz yangi ma'lumotga duch kelganimizda, uni tushunish uchun mavjud sxemalar bilan taqqoslaymiz. Misol uchun, "nikoh to'yi" sxemasi hozirgi zamonda restoranga joy buyurtma berish, maxsus kiyimdagi kelin - kuyov, mehmonlar va qo'shiq - raqslar kabi hodisalar taxminini o'z ichiga olishi mumkin. Prototip nazariyasi konseptlar qandaydir bir turkumning eng oddiy yoki ifodaviy namunalarini bo'lgan prototiplar atrofida tuzilganligini ko'rsatadi. Masalan, o'zbek madaniyatida "uy hayvoni" ning prototipi sigir yoki qo'y bo'lishi mumkin va boshqa hayvonlar (masalan, tuya yoki cho'chqalar) kamroq odatiy misollar sifatida tasniflanadi. G'arb madaniyatida esa "uy hayvoni" prototipi ko'proq mushuk va it kabilar bo'lishi mumkin. Eleanor Rosh prototip nazariyasidagi asos slogan bo'lib,



uning ta'kidlashicha, kontseptlar qat'iy atributlar to'plami bilan emas, balki prototiplar bilan belgilanadi - bu kategoriyaning eng tipik yoki markaziy misollari. Uning tadqiqotlari mental toifalar prototiplar atrofida tashkil etilishi va bu o'z navbatida toifalarni yanada moslashuvchan va kontekstga bog'liq bo'lishini ko'rsatdi [3,192].

Til mavhum kontseptlarni soddaroq tushinishga yordam beradi. Til adolat, haqiqat, erkinlik, sevgi va vaqt kabi mavhum g'oyalarni kontseptuallashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu kontseptlarni izohlash ko'pincha qiyin, lekin ular turli lingvistik tuzilmalar orqali ifodalanadi va tushuniladi. Leonard Talmi kognitiv semantikaning asosiy vakili bo'lib, kognitiv tilshunoslikning lingvistik tuzilmalar kontseptual tuzilmalarni qanday kodlashini o'rganadi. Talmining tadqiqotlari til va idrok o'rtasidagi bog'liqlik va lingvistik iboralar kognitiv jarayonlarni qanday aks ettirishiga qaratilgan [10,3]. Metaforalar va analogiyalar: mavhum kontseptlar ko'pincha aniq tushunchani beradigan metafora orqali beriladi. Misol uchun, biz ko'pincha harakat metaforalaridan foydalangan holda erkinlikni tasvirlaymiz (masalan, "breaking free" - "ozodlikka chiqish, qutulish" yoki "being trapped" - "tuzoqqa tushish"). Grammatik tuzilmalar: Tilning grammatik tuzilmalardan foydalanish usuli (zamon, aspekt va modallik kabi) mavhum kontseptlarni tushinishga ta'sir qiladi. Masalan, kelasi zamonni o'ziga xos tarzda ifodalaydigan tillarda gapiruvchilarning kelajakni qanday kontseptuallashtirishiga ta'sir qilishi mumkin.

Til nafaqat fikrni aks ettiradi, balki ma'noni yaratishda ham faol rol o'ynaydi. So'zlar va jumlar fikrlash vositasi bo'lib, kontseptlarimizni shakllantirish va takomillashtirishga yordam beradi. Gap tuzish jarayonida shaxslar o'z fikrlari va kontseptlarini izchillikka ega bo'lgan xabarlariga aylantiradilar, bu esa o'z navbatida ularning mental ifodalariga ta'sir qiladi. Jon Searl o'zining niyat va ma'noga oid asari bilan til falsafasiga katta hissa qo'shdi. Searlning fikriga ko'ra, kontseptlar dunyodagi biror narsani anglatib ma'lum maqsadni aks ettiradigan mental ifodalardir. Bu shuni anglatadiki, biz tildan foydalanganda narsalar, harakatlar yoki holatlarning mental ifodalarini nazarda tutamiz [9,3]. Masalan, so'z ma'nolari ko'pincha kontekstga

bog'liq bo'ladi. Ingliz tilidagi "Bank" so'zi bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin (masalan, daryo bo'yi yoki moliya muassasasi) va albatta qaysi ma'noda kelayotgani ko'pincha kontekstga qarab belgilanadi. Xuddi shunday misollarni o'zbek tilida ham berish mumkin, masalan, "Ot" hayvon, ism yoki qurol vositasida shiklatmoq/o'ldirmoq va h.k.lar bo'lishi mumkin. Gerbert Klark tilni kontekstda o'rganishda asosiy shaxs hisoblanadi. Uning tadqiqotida tildan kontseptlarni ifodalash uchun o'zaro ta'sirda qanday foydalanilishi va ijtimoiy o'zaro ta'sir kontseptuallashtirishga qanday hissa qo'shishiga urg'u beradi. Klarkning ma'lumotnoma va umumiy asoslar bo'yicha ishi odamlarning muloqot davomida kontseptlar haqida umumiy kontseptlarni yaratish uchun birgalikda qanday ishlashini ko'rsatadi. Misol uchun, suhbatda ma'ruzachilar mavzuning umumiy kontseptsiyasiga erishish uchun umumiy bilim va kontekstga tayanadilar [8,50]. Kontseptuallashtirishda ijtimoiy vaziyat va suhbat konteksti muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy vaziyatlarning mental ifodalari suhbatdagi ijtimoiy signallarni qanday talqin qilishimizga qarab o'zgarishi mumkin.

Xulosa sifatida ashuni aytish mumkinki til va kontseptuallashtirish o'rtasidagi munosabatlar boy va murakkab tadqiqot sohasidir. Tilshunoslik, kognitologiya, psixologiya va falsafa kabi turli sohalaridagi olimlar tilning dunyoni kontseptuallashtirish tarzimizga qanday ta'sir qilishini o'rganib kelishmoqda. Ushbu olimlar metafora nazariyasidan kontseptual aralashish va prototip nazariyasini o'rganishgacha, til shunchaki oldindan mavjud bo'lgan fikrlarni ifodalash vositasi emas, balki haqiqatni tushunish va boshqarish uchun foydalanadigan kontseptlarni shakllantirishda murakkab ishtirok etishini ko'rsatdi. Til va kontseptuallashtirish hodisasi bir biriga bog'liq bo'lib, til bizning fikrlarimizni tartibga solish va etkazish vositasi sifatida ham, dunyoni kontseptuallashtirish usulini shakllantiradigan qolip sifatida ham xizmat qiladi. Tajribalarimizni tasniflash va fikrlash usullari til tuzilmalari, madaniyat va kognitiv jarayonlarga ta'sir qiladi. Til va kontseptuallashtirish o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganish bizga ma'no qanday yaratilishi va muloqotda qo'llanilishini tushunishga yordam beradi, va shu bilan birga ong, til va dunyo o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Benjamin Lee Whorf, "Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf", The Technology Press of Massachusetts Institute of Technology and John Wiley & Sons, Inc., New York London, 1959, 302pp
2. Edward Sapir, "Language: An Introduction to the Study of Speech", New York: HARCOURT, BRACE, 1921, 126pp
3. Eleanor Rosch, "Cognitive Representations of Semantic Categories", Journal of Experimental Psychology: General, Vol.104, #3, 1975, 192-233pp.
4. George Lakoff and Mark Johnson, "Metaphors We Live By", London: The university of Chicago Press, 2003, 193pp.
5. George Lakoff and Mark Johnson, "Philosophy in the Flesh: The Embodied Mind and Its Challenge to Western Thought", Basic Books, A member of the Perseus Books Group, New York, 1999, 590pp
6. George Lakoff, "Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind", The University of Chicago Press, 1986, 316pp
7. Gilles Fauconnier and Mark Turner, "The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities.", Basic Books, A member of the Perseus Books Group, New York, 2002, 423pp.
8. Herbert Clark, "Using Language", Cambridge:Cambridge University Press, 1996, 452pp
9. John Searle, A theory of speech acts, Published by the Syndics of the Cambridge University Press Bentley House, 200 Euston Road, London N.W.1, 1969, 208pp
10. Leonard Talmy, "Toward a Cognitive Semantics", Volume 1: Concept Structuring Systems, The MIT press, 2000, 560pp.
11. Ray Jackendoff, "Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution", BEHAVIORAL AND BRAIN SCIENCES (2003) 26, 651-707 Printed in the United States of America, 2003, 651-707pp
12. Ray Jackendoff, "Semantics and Cognition", The MIT Press, Cambridge, Massachusetts, London, England, 1985, 322pp
13. Susan Ervin-Tripp, "An Analysis of the Interaction of Language, Topic, and Listener", Article in American Anthropologist, DOI: 10.1525/aa.1964.66.suppl\_3.02a00050, 2011, 86-102pp.
14. Susan Ervin-Tripp; Jiansheng Guo and Martin Lampert, Politeness and persuasion in children's control acts, Journal of Pragmatics 14, North-Holland, 1990, 307-331pp
15. Zoltán Kövecses, "Metaphor in Culture: Universality and Variation", Cambridge University Press, New York, 2005, 307pp
16. Л.С.Выготский, Мышление и речь, Государственное социально-экономическое издательство, Москва, 1934, 362ст
17. M.Maxmudova, "Konsept" tushunchasining ilmiy talqini, "Ilm sarchashmalari" научно-теоретический, методический журнал, 5/2.2023, 40-45b



**Aziza MASHRABBEKOVA,**

*Hankuk chet tillar universiteti (Janubiy Koreya) professori, f.f.n*

*E-mail: aziza692002@gamil.com*

*O'z FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti professori Y.Odilov taqrizi asosida*

## LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE UNIVERSE AND LANGUAGE IDIOETHNICITY

Annotation

This article discusses how a person develops their worldview and the linguistic picture of the world that is specific to that language as they acquire their native language. In the article, the author expresses his thoughts on the linguistic picture of the world, one of the concepts that reflects the main content of spiritual concepts that determine the culture and mentality of a linguistic community, and its important aspect, idioethnicity.

**Key words:** language, nation, national perspective, linguistic world-view, Sapir-Whorf hypothesis, philosophy of language, idioethnicism.

## ЯЗЫКОВАЯ КАРТИНА МИРА И ЯЗЫКОВАЯ ИДИОЭТНИЧНОСТЬ

Аннотация

В статье рассматривается, как по мере овладения родным языком у человека формируется собственное мировоззрение и языковая картина мира, свойственная данному языку. В статье автор высказывает свои размышления о языковой картине мира - одном из понятий, отражающем основное содержание духовных концептов, определяющих культуру и менталитет языкового сообщества, и ее важном аспекте - идиоэтничности.

**Ключевые слова:** язык, нация, национальная перспектива, языковое мировоззрение, гипотеза Сепира-Уорфа, философия языка, идиотетизм.

## OLAMNING LISONIY MANZARASI VA TIL IDIOETNIKLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson ona tilini egallab borishi bilan o'z dunyoqarashi va shu tilga xos bo'lgan olamning lisoniy manzarasini shakllantirishi haqida so'z boradi. Muallif maqolada lisoniy hamjamiyatning madaniyati va mentalitetini belgilaydigan ma'naviy tushunchalarning asosiy mazmunini aks ettiradigan tushunchalardan biri bo'lgan olamning lisoniy manzarasi hamda uning muhim jihati idioetniklik haqida o'z fikr-mulohazalarini bildiradi.

**Kalit so'zlar:** til, millat, milliy nigoh, olam lisoniy manzarasi, Sepir-Uorf gipotezasi, til falsafasi, idioetniklik.

**Kirish.** Tillar o'z egalarining original idrok organlari sanaladi. Inson shaxsining shakllanishida, tafakkurining tashkillanishi va undagi tushunchalarning tizimlashishida, ajdodlari qoldirgan bilimlarni o'zlashtirishida yetakchi rol tilga tegishli [2]. Inson ona tilini egallab borishi bilan o'z dunyoqarashini shakllantiradi, bora-bora ona tili shaxsning asosiy axborot olish manbayiga aylanadi. Bunday axborot olish tizimi uning boshqa tilni ona tilini unutish evaziga egallagandagina o'zgarishi mumkin. Til egalarida shu tarzda olamni bilish imkoni, milliy nigoh paydo bo'ladi. Milliy nigoh – narsa-hodisani milliy mentalitet, milliy ong prizmasidan o'tkazib ko'rish, anglash, baholash demakdir. "Qancha millat va til bo'lsa, shuncha miqdordagi olam lisoniy manzarasi bo'lishi aslida shundan"[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Nazariy tilshunoslikning asoschisi V.Humboldt lingvistik konsepsiyasining asosi ham tillarning turlichaligi bitta narsani turlicha anglatishi tufayli emas, balki bitta narsani turlicha ko'rishi sabablidir, degan xulosaga asoslangan. Quydagi lingvistik xulosalar V.Humboldt konsepsiyaning asosiy tushunchalari hisoblanadi:

- 1) tilda moddiy va ruhiy madaniyat joylashgan bo'ladi;
- 2) muayyan madaniyatdagi milliy jihat har bir xalq dunyoni o'ziga xos ko'rgani sababli tilida ifodalanadi;
- 3) tilda har bir xalqqa xos ichki forma bor va bu forma aynan xalq madaniyatining ifodasi demakdir;
- 4) til – odam va olam o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi hodisa [2].

V. Humboldtning mazkur qarashlari yangihumboldtchilik yo'nalishida yanada rivojlantirildi. Masalan, Y.Veysherber ustoz V.Humboldtning tilning tafakkurni shakllantirishdagi asosiy vosita ekanligi g'oyasidan ilhomlanib, ona tili falsafasini yaratdi. Bu falsafaga ko'ra, 1) tilga egalik odam uchun juda katta imkoniyat, ona tili esa bunday imkoniyatlarning asosiysidir; 2) ona tilini egallagan odamning abstrakt fikrlash imkoniyati keng

bo'ladi, ona tili egallamagan kishining abstrakt fikrlash darajasi past bo'ladi; 3) ona tili shaxsning ma'naviy-ruhiy dunyosini yaratadi[10].

Tilshunos Y.Odilov o'zbek tili ham shunday imkoniyatga egaligini ta'kidlaydi hamda fikrini o'zbek tili misolida quyidagicha tushuntiradi: "...o'zbek tilida ham milliy-madaniy semali so'zlar abstrakt ma'noli. Masalan, muomalada og'irlik, vazminlik o'zbek madaniyatida qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Shu bois o'zbek tilida kishining bunday sifatini ifodalaydigan bir-ikkita emas, alohida sinonimik qatorlar yuzaga kelgan: sifat sinonimlar: og'ir, vazmin, bosiq, sipo; ot sinonimlar: og'irlik, vazminlik, bosiqlik, sipolik. Mazkur sinonimlar uchun "o'z xatti-harakatlari, his-tuyg'ularini boshqara bilish holati" ma'nosi umumiy bo'lsa ham, mazkur sinonimlar odamning turli vaziyatlarda o'zini tutishi, so'zlash tarziga nisbatan farqli bo'lgan. Masalan, bosiqlik bilan sipolikning o'rtasida jiddiy tafovut bor. Mazkur so'zlar o'rtasidagi ma'no nozikligini bilib olish madaniyat kalitini qo'lga kiritishdir[5]. Ona tilining bunday imkoniyati narsa-hodisalarga nom berishda ham yaqqol ko'rinadi. Har bir xalq o'zining til ko'nikmalari va olamni anglash tarzidan kelib chiqib, borliq ashyolariga nom beradi. Y.Odilov V.Humboldt va Y.Veysherber fikrlarini ijodiy rivojlantirib, idioetnik nominatsiya haqida o'zbek tilidagi quyidagi holatni misol keltiradi: borliqdagi bir predmet, deylik, o'simliklarni nomlashda har bir xalq uni o'zicha ko'rgan, ya'ni nomlashda o'simlikka bir xalq shakli, boshqa xalq xususiyatidan kelib chiqib yondashgan. Masalan, ayiqtovon degan o'simlikka nom berishda o'zbek uning shakliga, ya'ni ayiqning tovoniga o'xshab ketishini asos qilib olgan. Ruslar esa o'simlikning xususiyatini – zaharliligini asosga olgan va "yirtqich", "qonxo'r", "shafqatsiz", "ashaddiy" ma'nolarini bildiruvchi "лютий" so'ziga -ik kichraytirish suffiksini qo'shib so'z yasagan. Inglizlar esa ayni o'simlikdagi rangni – sariqlikni faollashtirib, "buttercup" (yog'chashka) deb nomlagan. Demak, bilishning o'ziga xosligi

bois bitta narsani nomlashda uning turli tomonlari, xususiyatlari faollashtirilmoqda [5].

“Sepir-Uorf gipotezasi”dan anglashilishicha, tillar struktur-semantik jihatidan bir-biridan qancha ko‘p va katta farqlansa, bu tillar egalarining olam lisoniy manzarasidagi farq ham shuncha ko‘p va katta bo‘ladi [8]. Mazkur talqindan tilning inson hayoti va faoliyatining barcha sohasida birinchi o‘rinda turishi anglashiladi. Agar bu qarash to‘g‘ri deb hisoblanadigan bo‘lsa, tillari struktur-semantik jihatdan yaqin xalqlarning aqliy, ruhiy, diniy olamida ham yaqinlik bo‘lishi kerak.

**Taqdiqot metodologiyasi.** Til va ong, til va tafakkur, til va madaniyat munosabatini olamning lisoniy manzarasi tushunchasi o‘zida birlashtira oladi. Unda millat vakillarining borliq haqidagi original tasavvur va tushunchalari bilan birga, umuminsoniy hamda baynalmilal tasavvur va tushunchalari ham aks etadi. Eng asosiysi, Y.Veysherber tilning borliqni bilish va baholashdagi, inson hayoti va faoliyatidagi rolini belgilashda muvozanat saqlangani uchun maqbul lingvistik nazariya sifatida hozir ham rivojlantirilmoqda, tilning eng ichki xususiyatlarini aniqlashga tatbiq qilinmoqda. Yangihumboldtchilik yo‘nalishi namoyandalari tomonidan tilni tushunish va tushuntirishda qo‘llangan tushunchalardan lingvistlar faol foydalanmoqdalar.

**Tahlil va natijalar.** Til falsafasidagi o‘zak tushunchalardan biri bo‘lgan olamning lisoniy manzarasi (Mazkur tushunchani nomlayotgan terminda metaforizatsiya mavjud) tushunachasi XX asrning o‘rtalarida nemis lingvisti Yoxan Veysherberning “Nemis tili olam manzarasi haqida” (Vom Weibild der deutschen Sprache) asari orqali tilshunoslikda paydo bo‘ldi. Nemis olimi mazkur termin bilan “Lingvistik nisbiylik nazariyasi”ning kuchli va kuchsiz versiyalari tahlilidan charchagan tilshunoslikka yangi ruh olib kirdi va uni shundan tushuntirdi: Muayyan jamoa tilida ma‘naviy mazmun, bilimlar xazinasi yashaydi va ular tilga muntazam ta‘sir qilib turadi, bu esa haqli ravishda tildagi olam manzarasi deb ataladi [6]. Keyinroq tilshunoslar tomonidan olamning lisoniy manzarasi tushunchasining falsafiy tadqiqi tufayli bu tushunchaning mohiyati yanada kengaydi. Natijada olamning lisoniy manzarasi terminiga ohangdosh hosil qilingan olamning oddiy manzarasi, olamning konseptual manzarasi, olamning ilmiy manzarasi, olamning badiiy manzarasi, olamning dialektal manzarasi terminlari hosil qilindi. Ushbu atamalarining mohiyatida ham borliqni bilganidan keyin kishi tafakkurida paydo bo‘ladigan dialektik, mantiqiy, faniy, poetik, lingvistik tushunchalar tizimi turadi.

Y. Veysherberning tushuntirishicha, olamning lisoniy manzarasi bu – lisoniy hamjamiyatning madaniyati va mentalitetini belgilaydigan ma‘naviy tushunchalarning asosiy mazmunini aks ettiradigan tushuncha. Jamiyat madaniyati, xalq mentaliteti tili yordamida shakllanadi. O‘z navbatida, til ham ularni yuzaga keltirishda ishtirok etadi, ham o‘zida ularni namoyon etadi. Xalq mentalitetida nima bo‘lsa, madaniyati nimaga asoslangan bo‘lsa, til ularning barini ifoda toptiradi. So‘z, frazeologizm, maqol, aforizmlar vositasida xalqning asrlar bo‘yi to‘plagan tajribalari, jamiyatga nisbatan munosabatlari olamning lisoniy manzarasida joylashadi. Doimiy foydalanilgani sababli tegishli tushunchalar bilan assotsiyalashib qoladi. Buni quyida o‘zbek tilidagi bir necha xil birliklar orqali tushuntirib o‘tamiz.

Masalan, “o‘zbek tilida “Odamlar nima derkin?!””, “El-yurt nima deydi?!””, “Mahalla-ko‘y nima deb o‘ylaydi?!” tarzidagi qoliplashgan jumalarning mavjudligi jamoa fikrining o‘zbek mentalitetida muhimligini ko‘rsatadi. Ammo buni mustaqil ish ko‘rish, shaxsiy mas‘uliyat hissi o‘zbek mentalitetida yo‘q deb emas, balki jamoa fikrini hurmat qilish, muammoga ko‘plashib yechim topish, an‘analarga ergashish tarzida tushunish, tushuntirish kerak. Yoki o‘zbek tilidagi “Kengashli to‘y tarqamas”, “Maslahatli osh aynimas”, “Kengashli el kamimas”, “Kengashli ishning kami bo‘lmas” kabilar jamoaviylik mentalitetimizning ajralmas jihati ekanligi sababli yuzaga kelgan, bu holatda mentalitetdan tilga tarzidagi ta‘sirlashuv bo‘lgan” [9].

Olamning lisoniy manzarasi birdaniga yuzaga kelmaydi, balki bosqichma-bosqich shakllanadi [10]. Olamning lisoniy manzarasi bola tug‘ilganidan boshlab ona tilida yoki shaxs birinchi egallagan tilda shakllana boshlaydi. Ona tilining mazkur vazifasi nemis tilshunosligida batafsil o‘rganilgan. Ayniqsa,

Yoxan Veysherberning ishlarida ona tilining olam lisoniy manzarasini yaratuvchilik vazifasi, inson tafakkuri va shaxsiyatini shakllantiruvchilik roli kuchaytirilgan [10]. Olim “til” termini ostida ikki tushunchani, ya‘ni so‘zlash orqali namoyon bo‘ladigan tildan ruhiy hodisa hisoblangan tilni farqlagan va keyingisini lisoniy organizm deb atagan [7]. Uning quyidagi qaydida ona tilining zikr etilgan vazifasi aniq ifoda topgan.

Olimning til hodisasiga bunday munosabatini tilni sistem-struktur, immanent hodisa sifatida o‘rganadigan lingvistlar ma‘qul ko‘rmaydilar hamda uni tilning rolini oshirib yuborgan, deb tanqid qiladilar. Biroq barcha olimlar bunga qo‘shilavermaydilar. Xususan, Y.Odilovning ishlarida shuni ko‘rish mumkin: “Tilni “o‘zida va o‘zi uchun” maqomida o‘rganish, uni immanent hodisa sifatida tadqiq va taqdim qilishni ustuvor usul deb bilgan sistem-struktur tilshunoslik metodlarining o‘zbek tilini o‘rganishga tatbiq etilishi natijasida bir qator yutuqlarga erishilgani bor gap. Xususan, til va nutqning farqlanishi, shunga monand til va nutq birliklarining ajratilishi va tavsiflanishi, so‘z semantik strukturasini aniqlashga semik tahlilning joriy etilishi kabi ko‘plab yaxshi gaplarni keltirish mumkin. Ammo mazkur paradigmadoirasidagi tadqiqotlar asosan tilni sistema sifatida o‘rganishga yo‘naltirilganligi sababli bunday tadqiq tamoyilida, tabiiyki, xalqning ma‘naviy-ruhiy dunyosini, etnik tarixi va madaniyatini, etnografik va demografik xususiyatlarini, tilning etik-estetik qimmatini boricha ko‘rsatib bo‘lmas edi. Buning natijasida tilni immanent hodisa sifatida taqdim qilish, tilni sohibidan ayirgan holda tushunish va tushuntirishga zo‘r berilgani holda til va milliy o‘zlik, til va milliy iftixor, til va milliy ruhiyat, til va etnos, til va jamiyat munosabatidagi injaliklarni tadqiq qiluvchi etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya kabi sohalar rivoj topmadi [10]. Umuman, Yoxan Veysherberning lingvistik falsafasida “har qanday tilning olam manzarasidan iboratligi va xalqning tili unga muntazam ta‘sir o‘tkazib turishi” asosiy o‘rin tutadi.

Y. Veysherber olamning lisoniy manzarasi tushunchasi orqali har bir tilning o‘ziga xos yashash va boyish tarzi borligini ko‘rsatib berdi va uning tashkillanishida quyidagi muhim besh jihatni qayd qildi. Olamning lisoniy manzarasida: 1) so‘z bilish faoliyatida markaziy, asos nuqta (slovotsentrizm) sifatida turadi; 2) buzilmas tizimlilik (sistemnost) amal qiladi; 3) o‘ziga xos bo‘ladi; 4) o‘zgarishga moyillik xos; 5) amaliy tabiatlilik (praktichnost) asosida shakllanadi [3]. Mazkur besh tabiiy til idioetnikligi uchun ham muhim. Shu bois o‘zbek tilining idioetnik tabiatiga ham to‘xtalib o‘tamiz.

Milliy-madaniy tushunchalar muntazam nutqda qo‘llanishi natijasida xalq turmushiga shu darajada singib ketgan bo‘ladiki, hatto gapirmay ham – imo-ishora yoki tana a‘zolari harakati bilan fikr ifodalash mumkin bo‘ladi. Masalan, “O‘zbek tili. Standart darlik”da o‘zbek xalqi keng foydalanadigan imo-ishoralar haqida ma‘lumot beriladi. Masalan, ko‘rsatkich barmoqni “bigiz” qilib harakatlantirish “Adabingni beraman. Mumkin emas” degan mazmunni ifodalasa, ko‘rsatkich barmoqni peshonaning yon tarafiga tirab, o‘ng va chap tomonga aylantirib harakatlantirish “aqldan ozgan, jinni, ahmoq” degan mazmunni ifodalaydi [3]. Yoki bo‘lmasa, o‘zbek xalqi orasida bir-biriga o‘zaro muloqotda ikki qo‘l barmoqlarini bir-birining ustiga panjara qilib qo‘yish harakati “qamoq”, “qamallish” ma‘nosini, yoqasini tishlash (asosan, ayollar tomonidan bajariladi) “Yo, tavba! Ishonish qiyin!” mazmunini, yoqasini biroz ochib, uch marta sekingina tuf-tuf deyish (asosan, ayollar tomonidan bajariladi) “Qo‘rqib ketdim-a!” degan mazmunni bildiradi [8]. Har qanday o‘zbekka qarata shunday ishora qilinganda, shu mazmun angashiladi. Bu kabi paralingvistik vositalarning mazmunida idioetnik xususiyat borligi sababli mazkur ishoralar mazmunini bilmaslik muloqotning to‘la anglanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Idioetniklik olam lisoniy manzarasining muhim jihati. U xalq o‘zi kerak deb bilgan tushunchalarni ifodalaydigan til birliklarida saqlanadi. Xalqning qaysi tushunchani hayotiy muhim hisoblashi shu xalq yashaydigan makon va zamonga bog‘liq. Shu tariqa xalqning uzoq yillik kuzatishlari so‘z semantikasiga singib ketadi. Bu holat faqat maqol, matal, frazeologizm singari paremalarda emas, hatto ko‘p ma‘noli so‘zlardagi hosila ma‘nolarda ham kuzatiladi. Hosila ma‘nolardagi idioetniklikni namoyon etishini bir umumturkiy o‘zlashma so‘zning qarindosh

turkiy tillarda qarama-qarshi ma'no taraqqiyotiga uchragani misolida izohlab beramiz. Masalan, qadimgi turkiy tildagi cho'zmoq so'zining o'zbek tilidagi hosila ma'nolaridan biri "ishni bitirmay paysalga solmoq" hisoblanadi. Xuddi shu so'z qardosh turk tilida ham mavjud. Hozirgi turk tilidagi hosila ma'nolaridan biri "ishni hal qilmoq". Bunday zid ma'no taraqqiyoti o'zbek-turk xalqlarning olamga munosabatining har xilligidan kelib chiqqan[7].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, tilni antropotsentrik aspektda o'rganishda olamning lisoniy manzarasi

tushunchasidan foydalanish juda samarali bo'ladi. Mazkur tushunchada tilning inson shaxsiyatiga bog'liqligi ancha batafsil ifodalanadi. Shuningdek, "Sepir-Uorf gipotezasi"dagi kabi tilning rolini oshirib ko'rsatishda ham shubha qilinmaydi. Olamning lisoniy manzarasi haqidagi g'oyada tilning xalq bilan, xalqning dunyoqarashi, madaniyati, mentaliteti tushunchalari bilan birgalikda hosil bo'lishi anglashiladi. Y.Veysherberda ona tilining xalq tafakkuri, madaniyatini shakllantirishdagi xizmati til falsafasi darajasiga ko'tariladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Даниленко В.П. Введение в языкознание. – М.: Флинта, 2010. – С.26.
2. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – С.322 – 323.
3. Mashrabbekova A., 이지은, Odilov Y. O'zbek tili. Standart darslik. – Hankuk, 2022. – P.36.
4. Новое в лингвистике. Вып.1. – М., 1960. – С.160 – 169.
5. Odilov Y. Society, language, culture // Uzbekistan: Language and Culture. Vol. 2. Tashkent, 2022. – P.9.
6. Odilov Y. Uzbek Mentality and Uzbek Language: Processes of Their Interaction // Anglisticum Journal (IJLLIS), Volume: 10. – Tetovo, 2021. – P.34.
7. Одилов Ё. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. 6 –7-бетлар.
8. Odilov Y. Soxta o'xshashlik yoki tarjimonning yolg'onchi do'stlari // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. – Toshkent, 2013. №8. – B.38 – 40.
9. Радченко О.А. Язык как мирозидание: лингвофилософская концепция неогумбольдтианства. Изд. 3-е, стереотипное. – М.: КомКнига, 2006. – С.234.
10. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. – М.: Книжный дом «Либроком», 2009. – С.142 – 157.





**Dilorom MURATOVA,**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi*

*TDTU amaliy ingliz tillar kafedrasida dotsenti, PhD Sh.Adilova taqrizi asosida*

## APPEARANCE OF TOURISM TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article analyzes the emergence of tourism terms in both English and Uzbek languages, exploring their differences and similarities. The article examines the key changes in tourism terminology, the structure of word combinations, and the semantic differences between terms. It also discusses the challenges faced when translating English tourism terms into Uzbek and suggests ways to overcome these difficulties. The authors highlight the influence of language changes, national features, and cultural contexts on the formation of tourism terminology.

**Key words:** tourism terminology, English language, Uzbek language, word combinations, semantics, translation, language differences, cultural context, terminological analysis.

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TURIZM ATAMALARINING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi turizm terminlarining paydo bo'lishi va ularning o'zaro farqlari haqida tahlil olib boradi. Maqola turizm terminologiyasidagi muhim o'zgarishlarni, so'z birikmalarining tuzilishini va ular orasidagi semantik farqlarni o'rganadi. Shuningdek, ingliz tilidagi atamalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari haqida ham so'z boradi. Mualliflar til o'zgarishlari, milliy xususiyatlar va madaniy kontekstlarning turizm terminlarining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar.

**Kalit so'zlar:** turizm terminologiyasi, ingliz tili, o'zbek tili, so'z birikmalari, semantika, tarjima, til farqlari, madaniy kontekst, terminologik tahlil.

## ПОЯВЛЕНИЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье рассматривается появление туристических терминов в английском и узбекском языках, их различия и сходства. Статья анализирует основные изменения в туристической терминологии, структуру словосочетаний и семантические различия между терминами. Также обсуждаются проблемы перевода английских туристических терминов на узбекский язык и предложены способы их решения. Авторы подчеркивают влияние языковых изменений, национальных особенностей и культурного контекста на формирование туристической терминологии.

**Ключевые слова:** туристическая терминология, английский язык, узбекский язык, словосочетания, семантика, перевод, языковые различия, культурный контекст, терминологический анализ.

**Introduction.** In English and Uzbek, attributive word combinations with a substantive model are predominant, where nouns serve as prepositive modifiers. Combinations structured according to the formula "N+N" (in this study, the author utilizes a recognized system of abbreviations to represent structural types of word combinations: N – noun; A – adjective; V ing – verb ending with "ing"; V ed – verb ending with "ed"; Adv – adverb; Num – numeral; P – pronoun; p – preposition; c – conjunction) are easily formed in the modern English and Uzbek systems of tourism terminology. A total of 170 such combinations have been identified, accounting for 33% of all analyzed terms in English and 60% of the identified English word combinations (e.g., air travel-havoda o'tkazgan soatlari soni; baggage sag – yuk vagoni; baggage room- saqlash kamerasi).

**Materials and methods** Island hopping is a very interesting two-component terminological phrase, where the adjective hopping is substantivized and participates as a noun, so that this compound belongs to the "N+N" model.

It should be noted that in English this structural type of attributive phrases is much more common than in Uzbek. It is a combination of two noun phrases, in which the first word comes as a qualifier for the second (adventure tour – sarguzasht sayohati; baggage sag – yuk vagoni; budget tourism-ijtimoiy sayyohlik; business tourism – ish bo'yicha sayyohlik). In the Uzbek language, such attributive relations can be expressed by a relative adjective with an affixal indicator (sarguzasht; yuk; ijtimoiy; ish bo'yicha). In English, due to the absence of an adjective affix in the first word of a multi-component term, it is difficult to determine precisely which word group the defining word belongs

to, and accordingly, it is difficult to distinguish between a phrase and a compound word [1].

Terminological structures of this type stand on the border between complex-compound words and real word combinations. Although the problem of distinguishing between a compound word and a word combination is not thoroughly interpreted in Uzbekistan or in foreign linguistic literature, even a cursory review of the main sources of information on this issue reveals the author's analysis of two-component word combinations of the "N+N" type. made it possible to identify some general principles that are sufficient for the development of the main strategic direction [2].

**Results and discussion.** Such terminological structures exist on the boundary between compound words and actual word combinations. The issue of distinguishing between compound words and word combinations is not definitively addressed in the linguistic literature of both Uzbekistan and abroad, but even a cursory review of key sources on this matter allows the author to identify some general principles that help formulate the main strategic direction for analyzing two-component word combinations in the "N+N" format [3].

Among the most frequently mentioned criteria for distinguishing compound words from word combinations are phonetic criteria, such as unified pronunciation, a single stress pattern, the combination of phonetic and semantic criteria, and the semantic criterion of the components [4].

Other more practical criteria include the fact that one of the most obvious features of a compound word is that no other words can be used between its elements, and the order of the components cannot be changed [5].



All the distinguishing features listed above represent the basic and unique characteristics of a compound word, namely the integrity and cohesive expression of its semantics, which, in other words, manifests in the formal and logical unity of the compound word's expression [6].

The primary characteristics of the integrity of a compound word are as follows:

The structure maintains a single form as its basis;

The structure maintains a single word form as its basis;

The components of the structure cannot be separated by other words;

The structure has unified pronunciation or is written with a hyphen;

It follows a single stress pattern [7].

Taking the above into account, the analysis of word combinations in the "N+N" format has revealed the following observations.

In our case, such word combinations generally have separate spelling; however, in some sources, they may appear in the form of compound words, typically written with a hyphen, such as "baggage-man" (hammol), "baggage-room" (юк саклаш камераси), or even as a unified form like "customhouse" (customs). These combinations may also appear as "baggage man," "baggage room," or even in some cases, a single written form, such as "божхона".

Moreover, in the analyzed lexical array, word combinations with a defining component expressed by a chain of terminological elements also occur, making it challenging to classify them into a specific word class. Examples of such chain-based terms, with at least three relatively independent bases, include "around-the-world journey" and "dunyo bo'ylab sayohat". In identifying the word class of these terminological elements, it seems reasonable to rely on the base component of the chain part of the term (e.g., "world"). The components (coast) could also serve as an example of this structure.

The presence of these complex structures in terminological units highlights the interplay between compound words and word combinations and the difficulties in categorizing them, especially when they involve multiple components that combine to form a unified conceptual meaning. This can lead to challenges in determining the precise word class of the elements within these compound terms.

In this respect, the English language is closer to languages of the isolating type, in which the ungrammatical, "yalang" roots of words are mutually coordinated. The fact that there are different spellings of the same terms: whole, with a hyphen, and separately is related to this situation.

The attributive terminological word combinations where the adjective performs the function of a prepositive determiner come next in frequency. Examples of these include "advance timetable" (muntazam reyslarning avvaldan berilgan jadvali), "American Plan" (Amerika rejasi), "common room" (umumiy xona), and "continental breakfast" (qit'adagi kabi nonushta). These combinations total 57, constituting 11% of the total number of terms analyzed in both English and Uzbek, and 20% of the English terms and word combinations analyzed. The structural formula for such word combinations is "A+N."

A smaller number of word combinations, in which a present participle performs the function of a prepositive determiner, follow the "Ving+N" formula. Examples include "bathingplace" (dengiz kurorti), "crossingtour" (butun davlat do'ylab sayohat), "dining car" (vagon- restoran), and "boarding card" (o'tirish joyi taloni). There are 18 of these combinations, making up 4% of the total number of English terms analyzed and 6% of the total number of term-word combinations analyzed in English.

In such word combinations, the first component, functioning as a preposition, adopts the characteristics of an adjective because it becomes a means of expressing qualities typically represented by adjectives. However, the exact status of the first element in these combinations has not been fully determined, and defining this status leads to some ambiguities.

In fact, present participles, which serve as the determinative word in the combination, are somewhat similar to adjectives in certain respects. However, while adjectives traditionally reflect states or qualities in English, present participles often convey less definitive processes or actions. These present participles are distinct from adjectives formed from "non-terminative" (or "inconclusive") verbs (e.g., "boarding house") and from "terminative" (or "conclusive") verbs (e.g., "camping trip"). The latter still retain the characteristic of expressing temporal relations, as indicated by the verb tense, although this is not always the case.

Thus, both types of present participles in such combinations become less about reflecting a process or time and more about conveying a constant characteristic or property, similar to adjectives. In this sense, these word combinations show that the first component is historically derived from non-personal verb forms—participles—that express inherent qualities of the objects they describe. Therefore, it is reasonable to conclude that these first components in such combinations are adjectives, reflecting consistent qualities of the object, and not time-related actions.

In English, multi-component terminological word combinations represent a significant part of the tourism lexicon, accounting for 8% of the total. Among the three-component tourism terms in English, the following models are the most common, listed in decreasing order of frequency:

**N+N+N model:** Involves adding two noun-based elements to the main term. Examples include charter class fare, city packages tour, nature study tour, and rail adventure tour. Seven terms in this category were identified, making up 1% of the total investigated English terms and 2% of the multi-component terms in English.

**N+p+N model:** Here, the main noun is accompanied by an auxiliary noun, and prepositions like on, of, out, and by are used. Examples include administrator on duty, bill of entry, place of interest, and travel by land. Five terms follow this structure, constituting approximately 1% of the total terms investigated and 1.8% of the multi-component terms in English. These terms are typical of English and suggest a tendency towards compression, as seen in the preference for more concise forms in specialized vocabulary.

**A+N+N model:** This model involves a combination of adjectives and nouns in the structure. Three terms, such as majestic mountains tour, round trip ticket, and round way ticket, were found in this model. These make up 0.6% of the total terms investigated and 1% of the terminological terms in English.

**A+A+N model:** This model adds adjectives to the main noun. Examples include foreign independent tour and Full American Plan. The N+V ing+N model, which includes a noun and a present participle adjective, such as all-expense sightseeing tour and horse riding tour, also appears. These models each represent 0.4% of the total terms and 0.7% of the multi-component terms in English.

All the aforementioned models occur only once in the corpus, making up 0.2% of the total lexemes and 0.4% of the multi-component lexical units in English. Some of these models may be classified as quasi-terms:

Ving+p+N (e.g., checking out time)

Num+N+N (e.g., one way ticket)

N+A+N (e.g., world round trip)

N+c+N (e.g., bed and breakfast)

**Conclusion.** The analysis of the types of multi-component terminological word combinations in English and Uzbek languages leads to the conclusion that the most common type consists of two-component word combinations, where the attributive element is in the form of an adjective and is part of a noun phrase. The meaning of the determinative element usually represents the function, purpose (cabin crew), characteristic (boat tour), or shape (baggage sack) of the object designated by the head element.

## REFERENCES

1. Amasova N.N. Etymological foundations of the vocabulary of the modern English language. - M.: Publishing house of foreign literature, 2016.-218 p.
2. Grinev S.V. Introduction to terminology.-M.:2013.-309 p.
3. Hutcheon, L. (2000). A Theory of Adaptation. Routledge.
4. Israilova Dildora Atxamovna, & Abdunazarova Nargiza Fatxullayevna. (2022). Improving methodology of teaching english to preschool children through fairy tales (on the example of preparatory groups). Current Research Journal of Pedagogics, 3(04), 28–32. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-04-07>
5. Kozlova, A. (2017). Terminological Systems in Tourism: A Comparative Study of English and Russian. Journal of Language and Linguistics, 16(2), 88-101.
6. Muratov, A., & Tursunov, D. (2020). Language and Terminology of Tourism in Uzbek and English: A Comparative Analysis. Tashkent State University Press.
7. Nadeau, R. (2009). Tourism and Translation: Language Use in the Travel Industry. University of Chicago Press.
8. Popova, A. (2018). Linguistic Aspects of Terminology in Tourism: A Cross-Cultural Approach. Linguistics Journal, 14(1), 45-63.
9. Rizaeva, S., & Kamilova, Z. (2019). The Development of Tourist Terminology in Uzbekistan: The Role of Linguistic Borrowings. Uzbekistan Linguistic Journal, 12(3), 35-50.
10. Searle, J. R. (1995). The Construction of Social Reality. Free Press.



**Suxrob MUXAMMADIYEV,**  
*Osiyo texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi*  
E-mail: suhrobmuhammadiyev@gmail.com

*Qarshi davlat universiteti professori O.Shukurov taqrizi ostida,*

## THE FORMATION AND CURRENT STATE OF LIVESTOCK TERMINOLOGY IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

The livestock-related vocabulary in the Uzbek language has evolved over centuries under the influence of cultural, economic, and social factors. This article examines the historical development, linguistic characteristics, and current state of livestock-related terms. Emphasis is placed on the influence of cultural, economic, and external linguistic factors, as well as the challenges and opportunities for standardizing and enriching this terminology in the modern era.

**Key words:** breeding, livestock terminology, Uzbek language, English language, phraseological units, structural analysis, component analysis, cultural features, zoonyms, linguistic analysis.

## ФОРМИРОВАНИЕ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ТЕРМИНОЛОГИИ ЖИВОТНОВОДСТВА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Лексика, связанная со скотоводством, в узбекском языке складывалась веками под влиянием культурных, экономических и социальных факторов. В данной статье рассматривается историческое развитие, языковые особенности и современное состояние терминов, связанных со скотоводством. Особое внимание уделяется влиянию культурных, экономических и внешних языковых факторов, а также проблемам и возможностям стандартизации и обогащения этой терминологии в современную эпоху.

**Ключевые слова:** животноводство, терминология животноводства, узбекский язык, английский язык, фразеологические единицы, структурный анализ, компонентный анализ, культурные особенности, зоонимы, лингвистический анализ.

## O'ZBEK TILIDA CHORVACHILIK TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA HOZIRGI HOLATI

Annotatsiya

O'zbek tilida chorvachilik bilan bog'liq lug'at asrlar davomida madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllangan. Ushbu maqolada chorvachilik bilan bog'liq atamalarining tarixiy rivojlanishi, til xususiyatlari va hozirgi holati ko'rib chiqiladi. Madaniy, iqtisodiy va tashqi lingvistik omillarning ta'siriga, shuningdek, zamonaviy davrda ushbu terminologiyani standartlashtirish va boyitish muammolari va imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** chorvachilik, chorvachilik terminologiyasi, o'zbek tili, ingliz tili, frazeologik birliklar, strukturaviy tahlil, komponent tahlili, madaniy xususiyatlar, zoonimlar, lingvistik tahlil.

**Kirish.** Historically, agriculture, and particularly livestock breeding, have been essential sectors of the region's economy, leading to the active development of corresponding terminology. As agricultural activities progressed in different areas of Uzbekistan, numerous terms emerged related to the breeding of livestock, animal care, and the processing of livestock products.

Research on livestock terminology in the Uzbek language remains extremely limited to this day. Despite the importance of this sector to Uzbekistan's economy and culture, the systematic analysis of specialized vocabulary in academic literature is insufficiently broad. This hinders a full understanding and classification of the terms used in the livestock sector and limits the potential for further study within the context of linguistic and cultural specificity.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Historically, the territory of modern Uzbekistan has been a crossroads of many cultures and peoples. This region, being part of the Great Silk Road, has experienced numerous conquests and migrations, which have undoubtedly influenced the language. The Uzbek language shows a significant presence of lexical borrowings from Turkic, Persian, Arabic, and even Russian languages, enriching its terminological base, including in the field of livestock breeding.

With the arrival of Islam in the region starting in the 7th century, Arabic borrowings also became actively integrated into the linguistic usage. Words such as бакар (корова) and ғунажин (пастбище), borrowed from Arabic, enriched the terminological system of the Uzbek language in the area of livestock, adding

descriptions of practices related to animal husbandry and breeding.

**Tadqiqot metodologiyasi.** During the Timurid period, the cultural and scientific renaissance that swept through Central Asia led to the formation and consolidation of many specialized terms related to the breeding of specific livestock and horse breeds, becoming part of the region's cultural heritage. Terms such as араблар (Arabian horse breed) and камвол (fine-wool sheep) reflected both the zoological and cultural-historical aspects of Uzbek identity.

After the region was incorporated into the Russian Empire and subsequently into the Soviet Union, there was a significant enrichment and standardization of livestock terminology due to the introduction of scientific and technical terms such as селекция (breeding) and генетика (genetics). This contributed to the unification of scientific and practical knowledge, which was crucial for the development of agricultural science and practice in Uzbekistan.

Studies conducted by several linguists have shown that the core terminological units in this field were borrowed from Turkic languages, as well as Persian and Arabic, which significantly influenced Uzbek vocabulary as a whole. It is important to note that the borrowing process was mutual: Uzbek terms also penetrated into other languages, including neighboring Tajik and Kazakh.

As noted by I. Sarymsakov, the study of terms related to animals was initiated thanks to the works of Mahmud Kashgari. In his "Devon," over a hundred names of various birds are mentioned. In the analysis of Turkic languages, zoonyms are examined through the lens of lexical-semantic features. In the

literary work Tarikhi Muluki Ajam, zoonyms are classified by genealogical criteria into several groups: Turkic (e.g., арслон – tiger, бургут – eagle, ит – dog, кийик – deer), Persian-Tajik (e.g., аждаҳо – dragon, пил – elephant), and Arabic, with a total of 23 lexemes. The text also includes 13 of the most commonly used Turkic zoonyms, covering both domestic and wild animals. B. Abdushukurov emphasizes that most zoonyms in the Old Uzbek language belong to ancient Turkic origins. Genetic analysis of terms from the 11th to 14th centuries shows that the foundation consists of common Turkic words, along with borrowings from Mongolian, Arabic, and Persian-Tajik languages.

The current state of livestock-related vocabulary in the Uzbek language is characterized by a variety of terms encompassing both traditional and modern aspects of agricultural management. Recently, there has been an increase in the use of scientific terms in the field of veterinary medicine and livestock genetics, driven by globalization and advancements in agricultural technology. For example, terms such as *genetik jihatidan modifikatsiyalangan hayvonlar* (genetically modified animals) have entered common usage in recent decades, reflecting contemporary scientific achievements.

**Tahlil va natijalar.** In contemporary Uzbekistan, livestock terminology faces both preservation and modernization challenges such as scientific integration, it advances in veterinary science and animal husbandry have introduced specialized terms, often borrowed from Russian or English. These include "inseminatsiya" (insemination) and "genetika" (genetics). With regard to urbanization, as rural populations migrate to urban areas, traditional livestock terms risk becoming obsolete. Younger generations may lack familiarity with terms that were once common in agricultural communities. As per standardization efforts, the Uzbek language is undergoing a process of standardization, with efforts to unify terminology across dialects. The development of comprehensive dictionaries and educational resources is crucial in this regard.

In A.M. Khasanov's work, the issue of filling lexical gaps in the Uzbek language through the use of dialectal words is examined. The author emphasizes that the use of dialect words not only eliminates gaps in the language but also contributes to its development while preserving its cultural and linguistic heritage. According to the author, lexical gaps arise during the evolution of the language when new concepts require appropriate linguistic expression, a phenomenon often observed in professional vocabulary related to livestock farming.

Khasanov identifies several causes for the emergence of lexical gaps. First, the appearance of new concepts demands new terms for precise designation. Secondly, he notes that some terms used in the everyday speech of dialects remain outside the literary language, despite their potential utility for enriching it.

The work emphasizes that the use of dialectisms should be based on several criteria, such as simplicity, purity, and popularity among native speakers. For instance, Khasanov cites the example of the word *мывот*, which is actively used in rural areas and refers to rain falling in the form of fine particles rather than drops. The author argues that such words, deeply rooted in cultural traditions, could become part of the literary language, maintaining its connection to popular dialects.

The examples of livestock-related terminology provided by the author, such as *гадик* (underdeveloped lamb) and *пичима* (a male sheep intended for weight gain), highlight the necessity of incorporating these words into the literary language to more fully reflect the cultural and professional realities of Uzbekistan's rural regions.

O.T. Urinova's study focuses on the synonymous relationships of terms related to cattle in the Uzbek language. The author explores how language, reflecting objective reality, structures elements at different levels, including the lexical one, where specific groups of words are distinguished by their usage characteristics. One of the key aspects of the study is the identification of paradigmatic relationships that unite terms based on a common semantic feature. For example, the concept of milk links terms such as *катик* (yogurt) and *сметана* (sour cream), which relate to dairy products. This illustrates how nest-like relationships form in livestock terminology.

Special attention is given to the diversity of terms that denote cattle and their characteristics. Urinova provides examples where the same animal can be called different names depending on its physical appearance or behavioral traits. For example, the term *пятнистый (холдор)* is used to describe animals with dark spots on their fur, while its synonym *чигидор* carries a slightly different nuance in describing the appearance, highlighting the richness of synonymous connections in livestock-related vocabulary.

In addition, the author examines the use of terms in dialects, pointing to the existence of regional variants, such as *чўпон* (shepherd) and *молбоқар* (cattle herder), which can function as hyponyms or synonyms depending on the context. This confirms the systematic nature of the language, where the same phenomenon can be described through different lexical means depending on the conditions of use. Terms related to livestock have their own specificity, expressed through the hierarchy of genus-species relationships. This specificity is manifested not only in terms of content, where the terms reflect the characteristics of the animals themselves, but also in terms of expression, through unique lexical forms characteristic of the Uzbek language. It is important to note that Uzbek zoonymy in livestock farming has its own system, which structurally and semantically differs from other languages, such as Russian, and provides material for in-depth philological analysis.

Special attention is paid to the functional-semantic microsystem of terms denoting cattle, where terms not only designate animals but also include distinguishing features such as gender, age, and castration status. For example, the lexeme *корамол* serves as a general term for words like *сигир* (cow), *хукиз* (ox), and *бука* (bull). This system allows for clear structuring of terminology based on semantic features, which is an important characteristic of Uzbek livestock terminology. Unlike in the Russian language, where the term "*крупнорогатый скот*" (cattle) is expressed as a phrase, in Uzbek it is represented by a single lexeme.

Research conducted by H. Negmatov and R. Rasulov shows that zoonymy in the Uzbek language has a complex system of interrelationships, where lexemes are contrasted with each other based on various characteristics. For example, the word *бука* refers to an uncastrated bull, while *хукиз* refers to a castrated bull (ox) [58, c. 310-317]. These distinctions highlight the importance of age and gender characteristics in the semantic structure of Uzbek terms. Such nuances are essential for a deeper understanding of the lexical features of the language, as they reflect not only linguistic but also cultural traditions related to livestock farming.

The terminology of any language reflects various types of human activity, and its development through conceptual stages is a natural and social process. In the Uzbek language, the terminological system related to livestock farming is closely tied to anthropocentrism, where human activity is at the center. Within the framework of anthropocentrism, zoonymy is one of the key areas examined not only from a linguistic but also from a cultural perspective.

The development of terms in economic vocabulary is often linked to metaphorical transfers, where animals play a significant role. For example, in English economic terminology, the terms *bull* (*бука*) and *bear* (*айик*) symbolize market participants who influence price dynamics. Such terms can be compared with Uzbek zoonyms that reflect the behavior and characteristics of animals. For instance, in Uzbek, the word *бука* refers to a young bull, which is associated with the concept of strength and growth, while *хукиз* (ox) symbolizes a castrated bull, indicating calmness and stability.

Animal-related terms in different languages often form complex semantic structures, where cultural and linguistic features play an important role. For example, the expression *cash cow* (*сигир*) in English is used metaphorically to describe a business that generates steady income, and in Uzbek culture, the cow is also associated with usefulness and income. This suggests the universality of zoonym usage, though the forms and meanings may differ depending on the language and cultural traditions.

Thus, studying livestock terminology in the Uzbek language requires analyzing its semantic structure, linguistic and cultural significance, and its role in the modern economy and everyday life. Zonymy, as part of the terminological system, not only describes specific animal species but also reflects deeper cultural and economic processes, making it a key subject of philological and cognitive research.

**Conclusion.** The evolution of livestock terminology in the Uzbek language is a testament to the enduring bond between the Uzbek people and animal husbandry. While challenges such as globalization and urbanization pose threats to this lexicon, proactive measures can ensure its preservation and relevance. By embracing both tradition and innovation, Uzbekistan can maintain its linguistic heritage while fostering progress in the livestock sector.

#### REFERENCES

1. Абдиев М. Б. О некоторых особенностях кулинарной лексики узбекского языка //Язык в сфере профессиональной коммуникации. – Екатеринбург, 2016. – 2016. – С. 68-73.
2. Абдиназаров У. Лингвистические особенности гиппонимической лексики в узбекском языке //Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 77-82.
3. Абдулвохидов р. М. История таджикского животноводства и его социально-экономические аспекты в конце XIX–начале XX вв. 2022. С. 123-145
4. Абдушукуров Б. Семья дурмона как один из древних народов узбекского народа //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 33-47.
5. Акимов О. В. Специализированные подязыки и дискурс в аспектах перевода //Казанский лингвистический журнал. – 2019. – Т. 2. – №. 2. – С. 21-31.
6. Орипова С. Роль английского языка в процессе современного англо-русского языкового общения //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 236-243.
7. Расулова З. К вопросу о переводе диалектов в художественных произведениях //in Library. – 2022. – Т. 22. – №. 4. – С. 821-824.
8. Постников С. В. Научно-математическая терминология на узбекском языке и деятельность государственных органов власти Узбекистана по ее созданию //Актуальные проблемы гуманитарных и социально-экономических наук. – 2014. – Т. 8. – №. 1. – С. 62-72.
9. Сарымсакова А. Ж. и др. Основы научно-технического перевода //Вестник Кыргызского государственного университета строительства, транспорта и архитектуры им. Н. Исанова. – 2017. – №. 1. – С. 121-124.
10. Хасанов А. М. Заполнение лексического лакуна в узбекском языке диалектизмами (на материале животноводственной лексики) //Редакционная коллегия. – 2021. – С. 1112.
11. Чернышов М. Ю. О семантикологических принципах построения и употребления медицинских терминов-эпонимов в испанском, английском и русском языках //Russian Journal of Linguistics. – 2013. – №. 2. – С. 70-79.
12. Шишкина Е. А. Терминология, связанная с оценением неопределенности в контексте дозиметрии и радиационной защиты //АНРИ. – 2013. – Т. 73. – №. 2. – С. 2-13.





*Niginabonu NEMATOVA,*  
Teacher of KIUT Samarkand branch  
E-mail: zi.wei@mail.ru

*Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, f.f.d Sh.Turniyazova taqrizi asosida*

#### XITOIY VA O'ZBEK TILLARI MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALARIDA POLIPREDIKATIVLIK HODISASI

Annotatsiya

Predikativlik hodisasi tilshunoslik fanida ko'p yillardan beri talqin etib kelinmoqda. Biroq, shunday bo'lishiga qaramay, bu sohada aytilayotgan fikrlar mushtarak emas. Grammatikaga oid ishlarning ko'pchiligida predikativlik deganda, kesimlilik tushuniladi va shu bois mazkur hodisa faqat gap doirasida vujudga kelishi ta'kidlanadi. So'nggi o'n yilliklarda olimlar polipredikativ jumalarga ko'proq e'tibor berishdi. "Polipredikativ gap" atamasi nazariy ishlarda ham, o'quv amaliyotida ham o'z o'rnini topdi. Polipredikativ konstruksiya oddiy gapning shakliy va semantik tashkil etilishiga ega bo'lgan, lekin kommunikativ birlikning asosiy xususiyati – semantik to'liqlikka ega bo'lmagan predikativ birliklardan iborat. Murakkab jumla umuman olganda shunday xususiyatga ega bo'lib, uni alohida gap vazifasini bajaradigan sodda gapga yaqinlashtiradi. Yozma nutqda murakkab gap oddiy gap kabi "qo'shni" gaplardan nuqta, so'roq yoki undov belgilari bilan ajratiladi, bu esa uning alohida kommunikativ birlik ekanligini bildiradi. Og'zaki nutqda murakkab gapning kommunikativ to'liqligi intonatsiya orqali uzatiladi [Beloshapkova, 1991, 811-812]. Polipredikativ gap - shakli jihatidan sodda gaplarga o'xshash, lekin ma'nosi, qurilishi va intonatsiyasi jihatidan bir butunlikni tashkil etuvchi bir necha bo'laklardan tashkil topgan murakkab gap. Polipredikativ gapning tuzilishi xilma-xildir.

**Kalit so'zlar:** predikat, kesimlilik, mustaqil so'z, so'z birikmasi, kesim, zamon, shaxs, intonatsiya, jumla, mikromatn.

#### ФЕНОМЕН ПОЛИПРЕДИКАТИВНОСТИ В СЛОЖНЫХ СИНТАКСИЧЕСКИХ ЦЕЛЫХ КИТАЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

Феномен предикативности трактуется в лингвистике уже много лет. Однако, несмотря на это, мнения, высказанные в этой области, не являются общими. В большинстве работ по грамматике предикативность понимается как причастие, в связи с чем подчеркивается, что это явление имеет место только внутри предложения. В последние десятилетия ученые все больше внимания уделяют полипредикативным предложениям. Термин „полипредикативное предложение“ закрепили как в теоретических работах, так и в практике преподавания. Полипредикативная конструкция состоит из предикативных единиц, которые имеют формальную и смысловую организацию простого предложения, но не обладают главным свойством коммуникативной единицы - смысловой законченностью. Этим свойством обладает сложное предложение в целом, что сближает его с простым предложением, функционирующим в качестве отдельного высказывания. В письменной речи сложное предложение, подобно простому, отделяется от соседних предложений точкой или вопросительным или восклицательным знаками, которые сигнализируют о том, что оно составляет отдельную коммуникативную единицу. В устной речи коммуникативная законченность сложного предложения передается интонацией [Белашапкова, 1991, 811-812]. Полипредикативное предложение - это сложное предложение, которое состоит из нескольких частей, являющихся по форме однотипными с простыми предложениями, но образующими единое целое по смыслу, конструкции и интонации. Структура полипредикативного предложения - разнообразна. Части полипредикативного предложения соединяются на основе союзных связей подчинения и сочинения, поэтому полипредикативные предложения делятся на сложноподчиненные и сложносочиненные.

**Ключевые слова:** предикат, причастие, самостоятельное слово, словосочетание, сказуемое, время, лицо, интонация, предложение, микротекст.

#### THE PHENOMENON OF POLYPREDICATIVITY IN COMPLEX SYNTACTIC CONSTRUCTIONS OF CHINESE AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

The phenomenon of predicativity has been interpreted in linguistics for many years. However, despite this, the opinions expressed in this area are not general. In most works on grammar, predication is understood as a participle, and therefore it is emphasized that this phenomenon takes place only within a sentence. In recent decades, scientists have been paying increasing attention to polypredicative sentences. The term "polypredicative sentence" has become established both in theoretical works and in teaching practice. A polypredicative construction consists of predicative units that have the formal and semantic organization of a simple sentence, but do not have the main property of a communicative unit - semantic completeness. A complex sentence as a whole has this property, which brings it closer to a simple sentence that functions as a separate utterance. In written speech, a complex sentence, like a simple one, is separated from neighboring sentences by a period or a question or exclamation mark, which signal that it constitutes a separate communicative unit. In oral speech, the communicative completeness of a complex sentence is conveyed by intonation [Beloshapkova, 1991, 811-812]. A polypredicative sentence is a complex sentence that consists of several parts that are similar in form to simple sentences, but form a single whole in meaning, construction and intonation. The structure of a polypredicative sentence is varied. The parts of a polypredicative sentence are connected on the basis of union connections of subordination and composition, therefore polypredicative sentences are divided into complex and compound.

**Key words:** predicate, participle, independent word, phrase, tense, person, intonation, sentence, microtext.

**Kirish.** Predikativlik hodisasining faqatgina gap doirasida vujudga keladigan kesimlilik tarzida izohlanishiga, A.M.Peshkovskiy ta'limotining ta'siri katta bo'ldi.

A.M.Peshkovskiy «predikativlik» termini o'rniga «kesimlilik» atamasidan foydalanadi [1].

Uning fikriga ko'ra, kesimlilik nafaqat kesimni, balki gapni ham gap qiluvchi hodisadir [2].

Nisbatan to'g'ri fikrni V.V.Vinogradovning qarashlarida uchratish mumkin. Olimning fikricha, predikativlik orqali gap ma'nosining voqelikka munosabati ifodalanadi hamda uning modallik, zamon va shaxs bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlab o'tiladi [3].

Ammo shuni aytish lozimki, zamon, shaxs tushunchalari predikativlik hodisasi bilan bevosita bog'liq emas, chunki tarkibida fe'l qatnashmagan gaplar ham predikativlik ifodalashi mumkin. Shunga ko'ra V.V.Vinogradovning faqat predikativlik orqali voqelikka munosabat bildirilishi haqidagi fikriga qo'shilsa bo'ladi, xolos.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Yu.S.Stepanov to'g'ri ta'kidlaganidek, predikatsiya zamon tushunchasi bilan aloqador bo'lmagan hodisadir. Tarkibida fe'l va zamon kategoriyasi kuzatilmaydigan gaplar ham mavjud ekan, demak, predikatsiya fe'l va zamon tushunchasiga tobe emas [4].

Yu.S.Stepanov to'g'ri ta'kidlaganidek, predikatsiya zamon tushunchasi bilan aloqador bo'lmagan hodisadir. Tarkibida fe'l va zamon kategoriyasi kuzatilmaydigan gaplar ham mavjud ekan, demak, predikatsiya fe'l va zamon tushunchasiga tobe emas [5].

Sh. N.Turniyazova ham X. Z. Xayrullaevning mulohazalariga qo'shilgan holda quyidagilarni yozadi: "... predikativlik hodisasini faqat gap sathida vujudga keladi deyish ham, bizningcha, izohtalabdir. Predikativlik tushunchasi voqelikka munosabat bildirilishi bilan bog'liq ekan, u mustaqil so'z bilan ham, so'z birikmasi bilan ham ifodalanishi mumkin" [6].

Bundan tashqari olimaning fikricha, modallik tushunchasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Modallik esa yolg'iz so'zda ham, so'z birikmasi va gapda ham kuzatilishi mumkin. Uning mukammal ifodasini esa matnda ko'rish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, matnning ham predikativli qurilma ekanligidan dalolat beradi [7].

**Muhokama.** Yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shilgan holda shuni ham ta'kidlash lozimki, murakkab sintaktik qurilmalar (MSQ) ham predikativlik tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Shunisi xarakterliki, MSQlarning har bir komponenti o'z predikativligiga ega ekan, biz uni polipredikativ qurilma deb olamiz:

1. Ammo hisob, jabr, xandasa, jo'g'rofiya, tarix, falakiyot, tibbiyot kabi xalqlarning madaniyati va tiraqiyotiga xizmat qiladigan yana ko'p ilmlar borki, ularning taqdiri haqida o'ylash bugungi olamshumul vazifamizdir (Oybek. Ulug' yo'l).

2. 这家伙照顾他的母亲, 照顾种植, 夏天在河里游泳, 冬天开车野兔穿过雪地, 当红薯成熟时, 吃红薯, 当玉米成熟时, 吃玉米, 当小麦成熟时, 小麦。(潘晓婷, 年轻人);

MSQlarda ifodalanuvchi predikativlik belgisi uning komponentlari predikativ ma'nolari bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, MSQlarning barcha komponentlari o'zicha modallik ifodalab, voqelikka munosabat bildiradi. Biroq ular muayyan MSQ tarkibida kelayotgani bois, bir-biri bilan semantik jihatdan ham, sintaktik jihatdan ham bog'lanadi:

Men tushgan tramvayda u ham bor ekan, lekin u meni ko'rmadi (Oydin. Gulsanam).

Keltirilgan misolda MSQ ikki komponentdan iborat bo'lib, uning har bir komponenti o'zicha voqelikka munosabat bildirmoqda. Shu bilan birga, mazkur sintaktik qurilma yaxlit bir butun MSQ bo'lganligi uchun hamda uning tarkibida birdan ziyod predikativlik hodisasini kuzatayotganligimiz uchun, uni polipredikativ qurilma deb olamiz. Quyidagi misollarda ham biz polipredikativ qurilmalarni ko'ramiz:

1. 一般来说, 我的母亲也是一个美女: 以前, 当她在大型超市担任销售员时, 她与男人一起获得了巨大的成功, 但她有骄傲, 自我控制和清醒——她总是知道她最终。(李碧华. 潮州巷吃腌鹅的女人)。

Ta'kidlanganlar bilan bir qatorda shuni ham qayd etish lozimki, polipredikativlik hodisasi MSQ komponentlarini yaxlitlangan ma'no ifodasini shakllantirishga olib kelmoqda. Boshqacha aytganda, bunda kuzatiladigan modallik MSQ

komponentlarining har biri orqali qayd etiluvchi modallik belgilarining umumlashmasini taqozo etadi. Shu bois ayni paytda, yuqori pog'onadagi modallik belgisi voqelanadi. Bu esa, o'z navbatida, ustpredikativ ma'noning hosil bo'lishiga olib keladi [8]:

Oftob nayzaga kelib qoldi, ammo kun issiq emas, shabada mezon ipaklarini tut qatorlariga eltib iladi, uzoqdagi chorbog'larni xazon o'rtab ketgan, faqat Sitorai Mohi Xosaning parvarishli bog'lari hamon to'q-yashil ranga burkanib yotardi (A. Muxtor. Buxoroning jinko'chalari).

Keltirilgan MSQ tarkibida uning komponentlari sifatida beshta komponent qatnashib, ularning har biri o'z predikativlik xususiyatiga ega bo'lgan nisbiy mustaqil jumalardan tashkil topgan. Qayd etilganidek, «mustaqil» so'zini bu o'rinda nisbiy tushunmoq kerak. Chunki MSQ tarkibiga kirgach, har bir jumla o'z mustaqilligini yo'qotadi va MSQ komponentlari bilan bog'liq bo'lib qoladi. Ana shu bog'liqlik ularning predikativlik belgilarini ham o'zaro tutashtiradi va polipredikativlik orqali ustpredikativlik ma'nosini shakllantiradi. Berilgan MSQda buni ketma-ket sodir bo'layotgan voqea-hodisalar ifodalarini aks ettirayotgan komponentlar misolida bemalol kuzata olamiz.

Boshqacha aytganda, ikki jumlaning birikuvidan tashkil topayotgan mikromatnning o'zi ham yaxlit xabar ifodasini berib, predikativ ma'no shakllantirmoqda. Mazkur hodisani yuqorida ham aytib o'tganimizdek ustpredikativlik hodisasi deb ataymiz [9]. Bizningcha, ustpredikativlik ikki yoki undan ortiq predikativ qurilmalarda voqelikka bildirilayotgan munosabatlar zamidra vujudga keladi.

MSQning ustpredikativ belgisi mustaqil jumalarning sintaktik va semantik jihatdan o'zaro bog'lanishi orqali voqelanadi, aks holda ustpredikativlik emas, balki alohida predikativ belgilar xususidagina so'z yuritish mumkin bo'ladi. Ana shu jihatdan ustpredikativlik hodisasi MSQ derivatsiyasi bilan uzviy aloqadordir. Zero, bunda sintaktik derivatsiyaning so'nggi natijasi- hosilasi (derivat) vujudga kelishi bilan bir paytning o'zida ustpredikativlik belgisi ham tug'iladi [10].

Polipredikativ qurilmalar sinonimik qayta tuzilish xususiyatiga ega. Boshqacha aytganda, MSQlar tarkibidagi komponentlar o'zaro sintaktik aloqaga kirishuvda transformatsion xususiyatga egadirlar. Bunda derivatsion jihatdan operatorlar o'zgarishi bilan MSQ komponentlarining sintaktik-semantik aloqasini shakllantiruvchi leksik- grammatik vositalar o'zgaradi. Ammo shunday bo'lsa-da, MSQ o'z polipredikativ xususiyatini yo'qotmaydi, faqatgina transformatsiyaga uchraydi, xolos. Fikr dalili uchun quyidagi misolga e'tiborimsizni qarataylik:

Kun botib, osmon qoraydi.

Kun botgach, osmon qoraydi.

Kun botishi bilan, osmon qoraydi.

Kun botdi-yu, osmon qoraydi.

Kun botdi va osmon qoraydi.

Keltirilgan misolda MSQ ikki komponentdan iborat bo'lib, har bir komponent o'z predikativlik xususiyatiga ega. Mazkur predikativ qurilmalar bitta MSQ strukturasida yaxlitlashib polipredikativlik, undan so'ng esa ustpredikativlik hodisasini keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, misolning sinonimik variantlarida ikki komponentni bog'lab turgan leksik-garmmatik vositalar o'zgargani bilan, MSQning polipredikativlik xususiyatni yo'qolganini yo'q. Bu vaziyatda derivatsion nuqtai nazardan faqatgina derivatsiya operatorlari o'zgarayotpi, xolos. Qiyoslaymiz:

Kun botib, osmon qoraydi – operator: -ib;

Kun botgach, osmon qoraydi – operator: -gach;

Kun botishi bilan, osmon qoraydi – operator: bilan;

Kun botdi-yu, osmon qoraydi – operator: -yu;

门开了, 他就进去了 - operator -就(va);

当门打开时, 他进入- dubloperator - 当, 时 (-ganda, -gan paytda);

门刚开, 他就进了 - dubloperator -刚, 就(-yu, va).

Natija.

Ko'rinadiki, polipredikativ MSQlar kompozitsion-sintaktik birlik sifatida shaxsining ongida shakllanadi va uning fikrlash xususiyatlari bilan belgilanadi. Ya'ni MSQning kengayish

yoki torayish doirasi, uning komponentlarini bog'lovchi vositalar, operatorlar zahirasi operator tanlash imkoniyati, bularning hammasi inson ogniga bog'liqdir. Shu bilan bir qatorda, bunda kognitiv pragmatik vaziyat ham muhim rol o'ynaydi.

1. Kun chiqayotganda shahar tashqarisida bir qism qo'shini bilan Shayboniyxon paydo bo'ldi, ammo u suv to'la chohdan beriga o'tolmadi; barcha darvozalar Boburning odamlari tomonidan bekitib olingan, chohlarning ko'priklari ko'tarilgan, ichkarida intiqom davom etmoqda edi (P. Qodirov. Yulduzli tunlar).

2. 当电视的人来拜访我们时, 我们已经离开了潮州巷 因为在九十七年五月, 城市发展部门开始了这条不起眼的街道的正式重组。

(李碧华. 潮州巷吃腌鸭的女人)。

Keltirilgan misollarning birinchisi beshta komponentdan iborat bo'lib, har qaysisi o'z predikativligiga ega. MSQ strukturasining polipredikativligi birinchi o'rinda MSQning birinchi va ikkinchi komponentlari o'rtasidagi teng bog'lanishda kuzatilmoqda. Bunda MSQ komponentlarini ammo zidlov bog'lovchisi bog'lab kelmoqda. Keyingi komponentlarning ketma-ket bog'lanishi ohang orqali ro'y bergan. Bu vaziyatda derivatsion nuqtai nazardan mazkur MSQ komponentlarining o'zaro derivatsion jarayoni noliy operatorga tayangan. MSQ tarkibidagi komponentlar nisbiy mustaqil jumalardan tashkil topar ekan, ularning har biri o'zicha voqelikka munosabat bildirishi tabiiydir. Bu polipredikativlik hodisasi esa bitta MSQga

jamlangan, o'z predikativligiga ega bo'lgan komponentlarning ustpredikativligini keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchi misolda MSQ uch komponentdan iborat:

当电视的人来拜访我们时

我们已经离开了潮州巷

因为在九十七年五月, 城市发展部门开始了这

条不起眼的街道的正式重组

Bu MSQda ham birinчисidagi kabi har bir komponent o'z predikativligiga ega. O'z navbatida predikativlik xususiyatiga ega jumalar bitta MSQ doirasida birikib polipredikativlikni hosil qilmoqda. Mazkur MSQda birinchi komponent ikkinchisi bilan, ikkinchi komponent uchinchisi bilan o'zaro tobe munosabatdagi kontakt bog'lanishni keltirib chiqarmoqda.

**Xulosa.** MSQ qurilmalar predikativlik tushunchasi bilan bilan uzviy bog'liqdir. MSQlarning har bir komponenti o'z predikativligiga ega ekan, biz uni polipredikativ qurilma deb olamiz.

Polipredikativlik hodisasi MSQ komponentlarini yaxlitlangan ma'no ifodasini shakllantirishga olib keladi. Boshqacha aytganda, MSQlarda kuzatiladigan modallik MSQ komponentlarining har biri orqali qayd etiluvchi modallik belgilarining umumlashmasini taqozo etadi. Shu bois bu vaziyatda yuqori pog'onadagi modallik belgisi voqelanadi. Bu esa, o'z navbatida, ustpredikativ ma'noning hosil bo'lishiga olib keladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Turniyazova Sh. Hozirgi zamon o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. Nomz. dis. Toshkent, 2010.98-bet.
2. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. Изд.5-е.-М., 1935.-С.152.
3. Виноградов В.В. Исследования по русской грамматике.-М.,1975.-С.267-268.
4. Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. - М.,1975.-С.134.
5. Xayrullaev X.Z. So'z, So'z birikmasi va gapning predikativlikka munosabati// Nomzodlik dis. avtoreferati .- Toshkent, 2001.
6. Turniyazova Sh. Hozirgi zamon o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. Nomz. dis. Toshkent, 2010.99-bet.
7. Turniyazova Sh. Ko'rsatilgan ish, 100-bet.
8. Turniyazova Sh. Ko'rsatilgan ish, 101-bet.
9. Qarang: Xayrullaev X.Z. Ko'rsatilgan ish, 20- bet.
10. Qarang: Turniyazova Sh. N. Hozirgi o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatdari. Monografiya. Toshkent: 2016. 87-b.
11. Ли Ц. С. Грамматика китайского языка / Ц. С. Ли. – Пекин: Изд-во Коммерческая пресса, 2000.
12. Люй Шу-сян. Очерк грамматики китайского яз. М., Издательство “Наука”, 1965.
13. Turniyazova Sh. Hozirgi zamon o'zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. Nomz. dis. Toshkent, 2010.
14. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. Изд.5-е.-М., 1935
15. Xayrullaev X.Z. So'z, So'z birikmasi va gapning predikativlikka munosabati// Nomzodlik dis. avtoreferati .- Toshkent, 2001
16. 外国人实用汉语语法. 北京语言大学出版社. 2007 年
17. В.И.Горелов. Грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1982
18. Гафоров А.А. Ҳозирги ўзбек тилида парцелятив ва илова қурилмаларнинг синтактик деривацияси. Номзодлик диссертацияси. – Самарқанд, 1997.



UDK:894.375-17(045)

**Gulruxbegim RAVSHANOVA,**  
QarDU dotsenti, PhD  
E-mail: [ravshanovagulruxbegim@gmail.com](mailto:ravshanovagulruxbegim@gmail.com)

*Qarshi davlat universiteti professori O.Shukurov taqrizi ostida,*

## THE CONFLICTS OF THE PERIOD IN ABDULLA ORIPOV'S SATIRE

Annotation

First of all, in the series of socio-cultural life, the greatest at the core of genre-compositional integrity appeared in the works of the creators of the Enlightenment period, and then they began to be further refined in strict principles. Starting from the individual character and then connecting to the general mood, it prepared the ground for renewing the philosophical and aesthetic criteria of humorism. A strong critical-psychological mood began to evolve into the improvement of comic works. This led to the emergence of new literary genres. Also, the tightening of human relations, opening a way to overcome pain and suffering are the main issues facing humor, and through the conflict at the heart of laughter, it serves to deeply understand the spirit of the times.

**Key words:** humor, criticism, satire, humor, enlightenment, pathos, theme, idea, criterion, motive of laughter and crying.

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВРЕМЕННЫХ КОНФЛИКТОВ В КОМИЧЕСКИХ СТИХИЯХ

Аннотация

Прежде всего в ряду социокультурной жизни величайшие замказы жанрово-композиционной цельности проявились в творчестве творцов эпохи Просвещения, а затем стали уточняться в строгих принципах. Начиная с индивидуального характера и затем соединяясь с общим настроением, оно подготовило почву для обновления философских и эстетических критериев юморизма. Сильный критически-психологический настрой стал перерастать в улучшение комических произведений. Это привело к появлению новых литературных жанров. Также обострение человеческих отношений, открытие пути к преодолению боли и страданий — основные проблемы, стоящие перед юмором, а через конфликт, лежащий в основе смеха, он служит глубокому пониманию духа времени.

**Ключевые слова:** юмор, критика, сатира, юмор, просветительство, пафос, тема, идея, критерий, мотив смеха и плача.

## ABDULLA ORIPOV HAJVIDA DAVR ZIDDIYATLARINING AKS ETISHI

Annotatsiya

Ijtimoiy-madaniy hayot silsilalarida avvalo, eng katta janriy-kompozitsion yaxlitlik zamzamalari ma'rifatparvarlik davri ijodkorlari asarlarida bo'y ko'rsatib, keyinchalik qat'iy tamoyillarda yanada sayqallana boshladi. Individual xarakterdan ibtidoilangan va so'ngra umumkayfiyatga tutashuvi hajvnavislikning falsafiy-estetik mezonlarini yangilashga zamin hozirladi. Kuchli tanqidiy-psixologik kayfiyat hajviy asarlarning takomillashuviga evrila boshlandi. Bu aynanlik adabiy yo'nalishlarda yangi-yangi janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, insoniy munosabatlarning tig'izlashuvi, dard va og'irlarni yengib o'tishga yo'l ochish hajvnavislikning oldida turgan asosiy masalalardan bo'lib, kulgi zamiridagi ziddiyat orqali davr nafasini teran fahmlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** yumor, tanqid, satira, hajvnavislik, ma'rifatparvarlik, pafos, mavzu, g'oya, mezon, kulgi va yig'i motivi.

**Kirish.** Hajviyotning obyektiv hayotiy ildizlariga nazar tashlar ekanmiz, shoir hajviyotni turmushning o'zidan, voqea-hodisalardan, insonlarning nosamimiy munosabatidan, xatti-harakatlaridan keltirib chiqardi, buning uchun shoir hayotni chuqur o'rganishi va tushunishi, tanqid qila olishi, hajv qilish orqali hayotimizni yengillashtirish, o'zgartirish mumkin deb qaradi. Shu bois shoir hajviyotining mazmun-mohiyati keng, serqirra, hayotdagi barcha voqea-hodisalar, ulardagi illatlar uning nazaridan chetda qolmaydi, hajvning qirralari o'sha nuqsonlarni yo'qotishga qaratiladi.

Abdulla Oripov satiralarining boshqa hajvnavis shoirlar ijodidan farqi shundaki, u hayotda katta nuqsonlarga yo'l qo'ygan, jamoatchilik oldida o'zini qoralab qo'ygan turli razil, jirkanch, xasis, qo'pol, anqov, dangasa, uquvsiz, go'l, johil, byurokrat kabi turli-tuman kimsalarni asarlarining asosiy obyektiga aylantiradi. Shoir satira tamoyillariga ko'ra, o'z hajviyotida mazkur nuqisliklarga ega personajlar, obrazlar orqali ulardagi kamchiliklarning mohiyatini kulgi orqali ochib berdi, ulardagi illatlardan baralla kuldi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Shoir istiqlol davrida ham hajviy yo'nalishda ijod qilgan. Xususan, "Haj daftari" turkumidagi "Haj savobi", shuningdek, "Qaysar bola", "Maqtanchoqlar", "Oqlar va qoralar", "Qo'llanma", "Safardoshlar", "Ikki shoir" she'rlari shular jumlasidandir. Bu she'rlarda kulgi ko'pincha nomuvofiqlik keltirib chiqaradi. Nomuvofiqlik hajv paydo bo'lishi uchun zarur deb hisoblanishiga qaramay, u hali hanuz to'liq o'rganilmagan. Kulishning hamma holatlarini ham ushbu nazariya bo'yicha tushuntirib bo'lmaydi.

Bundan tashqari, nomuvofiqlik chalkashlikka yoki kulgidan tashqari boshqa holatlarga ham olib kelishi mumkin. Ular ong tomonidan his qilinishi va nomuvofiqlik nazariyasining cheklanganligi hisobga olinib, olimlar bu nazariya barcha kulgi holatlarini qamrab ololmaydi degan xulosaga kelishgan. Shunga qaramay, ushbu nazariyaning kuch va imkoniyatlarini e'tiborsiz qoldirmaslik lozim. Chunki nomuvofiqlik kulgiga sabab bo'lishini ko'pchilik hajvnavislar ijodi tasdiqlaydi.

Abdulla Oripov she'rlarida zamon va makon talqini haqida gap ketganda ham shunday munozarali o'rinlarga duch kelamiz: "Asar majoz usulida yozilgan. "Hasharot" jurnali, "Ranjkom" tashkiloti, Rais, Birinchi a'zo, Ikkinchi a'zo, Farrosh ayol, Savdoyi olim, G'oz ko'targan chol – bularning barchasi o'tkir istehzo bilan yo'g'rilgan. Syujetda epik voqealar silsilasi yetakchilik qilmaydi. Shoir ezop tilidan foydalanib, jamiyatda hasharotdek parazitlik bilan kun kechirib yurgan zararkunandalarning basharalarini ochib tashlaydi". Darhaqiqat, mazkur doston zamonasozlikka moslashib olganlarning ham asl yuziga parda tortib olgan, aysh-ishratda kun kechiradigan, munofiq kimsalarni ko'rsatib beradi.

"Ranjkom" dramasi sarkazm va kuchli ironiya yorqin ranglarda namoyon bo'ladi. Abdulla Oripov hajviy she'rlarining aksariyatida ironiya, sarkazm, zaharxanda kuchli ekanini ko'ramiz. Bu xususiyat qahramon nutqi orqali fosh etish ruhi ustuvorligida ko'zga tashlanadi. Bu holat shoir uslubining yetakchi xususiyatlaridan biri ekanligini ko'rsatadi. "Ranjkom" dramasi shoir o'zini ko'rsatmaydi, so'zni qahramonning o'ziga berib qo'yadi. Bu usulning ham bir qator afzalliklari bor: hajviy



qahramon o'z nutqi bilan o'zini fosh etadi va o'quvchining kulgisiga sabab bo'ladi, ammo kulgiga qolganini sezmaydi; so'z tejali, ixchamlik yuzaga keladi; shoir o'zining ijtimoiy hayotga, davr illatlariga qarshi subyektiv fikrlarini yashiradi, ularga qahramon ko'zi bilan qarab baho berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dramada qayta qurish va oshkoralik okoplariga kirib olgan, o'z manfaatlarini yo'lida baqirib-chaqirib yuruvchi amaldorlar, sharoitga moslashuvchi xudbinlar qoralanadi. Unda hayotimizdagi ayrim manfiy hodisalar ochib tashlanadi. Asarda shoir rais va uning ikki yordamchisi nutqi orqali ularning kirdikorlarini fosh etadi, o'zining pozitsiyasini esa bir qadar pardalab ko'rsatishga harakat qiladi. "Hasharot" tashkiloti raisining faoliyati va u yashagan muhit suvrati o'ziga xos tarzda muhim rol o'ynaydi:

Biz "Ranjkom"miz, "Ranjkom"miz.

Kelajagi ganjkomimiz.

Ko'ringanni tishlaymiz,

Ishimiz shu – ishlaymiz.

Mayli kekxa, mayli yosh,

Berolmas bizga bardosh.

Chimchilaymiz bildirmay,

Burdalaymiz o'ldirmay.

Ko'paysa gar dahmaza,

Bizlarga bo'lar maza.

Bor bo'lsin yuvvoslar,

Galvarsalar, qovoqboshlar.

(Oripov A., Saylanma. B.260)

Doston chop qilinganida Vatanimiz mustaqillik ostonasida turgandi. O'zi bu xususda, "o'zbek xalqining bo'linib yashashlaridan juda to'ygandim, shu ma'noda doston yozishga kirishdim va buni uddaladim", – deydi. Dostonning har xil hasharotlar nomi bilan atalishi yuksak mahorat belgisidan nishona. Dramatik dostonda yengil yumor va istehzoli kulgi o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi. Dramatik doston voqealari o'tgan zamonlarda bo'lgandek taassurot uyg'otsa-da, unda shoirning ichki bir kuyinishlari shundoq sezilib turadi. Zamon va makon "sirli" pardalar bilan o'ralgan. Asarda 6 qahramon ishtirok etadi. Raisning so'zlarini qolganlar ma'qullab, "xo'p-xo'p" deb turadi. Buni hech inkor qilib bo'lmaz darajada, tashkilot a'zolari bir-biriga bog'lanib ketadiki, ularning har bir gapi bir yerdan chiqishi o'quvchini asar syujetiga maftun qilib qo'yadi. Raisga boshqa a'zolar savol beradi, Rais obdon o'ylab javob beradi. Ikkinchi a'zoning bola haqidagi fikrlarini tahlil qilganda masala mohiyati yanada oydinlashadi:

Ikkinchi a'zo

G'oyat teran fikrlarni aytingiz, ammo,

Menda jindek sarosima uyg'ondi, taqdir.

Yosh bolani ranjitmoqchi bo'lsak mabodo,

Ne qilaylik? Uray desak, u go'dak axir.

Rais

Tashvishlanmang, o'ylaganmiz bu muammoni,

Yosh bolalar masalasi ancha jo'n, oson.

Ko'cha-ko'yda bir juvuqni uchratgan oni,

Boshginasin silab qo'ying, bo'ling mehribon.

Otasining kimligini so'rang, albatta.

Shirinlikda novvot bilan asaldan qayting.

Gap so'ngida baqrayingu, bolaga shartta:

Sening otang tamom boshqa odam, deb ayting.

Ana endi tomoshaning zo'ri chiqadi,

Uyga borgach, eshitganin aytadi bola.

Har qandayin erkakni ham shubha yiqadi,

Qolgan gaplar ko'ribsizki, sudga havola.

(Oripov A., Saylanma. B.348)

Tashkilot Raisi va Ikkinchi a'zo orasida bo'lib o'tgan qisqa muloqot dostonning poetik mohiyatini oydinlashtiradi. Hammani ranjitib, "kun ko'rish" dramatik doston qahramonlari asl shiori ekanligi namoyon bo'ladi. Oddiy bolani ranjitib ham butun bir oilani parokanda qilib yuborishi mumkinligi, g'iybat va hasad insonni ma'nalan jarlikka olib kelishi mahorat bilan talqin qilingan. Raisning aql berishicha, oilani bo'lib yuborish uchun bolaga "Otang boshqa odam" deb aytishning o'zi yetarli. Abdulla Oripov dostonida darajama-daraja ko'chish matritsasini qo'llaydi. Bemorga ham – "rak bo'lding" deyish bilan uni o'ldirib yuborish, tirik murdaga aylantirish mumkin, degan g'oyani o'z qahramonlari tilidan bayon qiladi. Bu voz kechishimiz zarur

bo'lgan illat, deb biladi shoir. Uydan chiqayotganda "ranjitmoq uchun niyatlanib chiq", deydi Rais. Ana shunday falsafiy-parodik usul doston arxitektonikasini belgilab beradi. Dunyoda razil odamlar nihoyatda ko'p. Ulardan yiroq yurish muhimligi dostonning tarbiyaviy ahamiyatini belgilaydi. Zamon kengliklarida makoniy kategoriya "Ranjkom" kompozitsiyasida alohida bo'g'inni tartiblashtiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Abdulla Oripovning "Ranjkom" dramatik dostonida satirik ruh XX asr boshlaridagi Cho'lpon, Behbudiy, Hamza, Fitrat, Qodiriy kabi dramaturglarning an'analari bilan uyg'un bo'lishiga qaramay shoirning baquvvat uslubi o'ziga xoslik kasb etgan. "Demak, zamonaviy o'zbek dramasi maydonga kelishi, bir tomondan, jahon dramaturgiyasida kechgan ijtimoiy-madaniy, badiiy-estetik jarayonlar bilan, ikkinchi tomondan, XX asr boshida Turkiston (O'rta Osiyo) xalqlari hayotida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy evrilishlar oqibatida tug'ilgan ma'naviy, badiiy va g'oyaviy ehtiyojlar bilan bog'liq. Binobarin, drama janri tarixi haqida so'z yuritilganda, asosan, Yevropa dramaturgiyasiga murojaat qilishimizning sababi ham hozirgi o'zbek dramasi ilbizlari ayni manbalarga borib bog'lanishini ko'rsatishdir". Darhaqiqat, dramatik dostonlarda ham davrning "qaltis" vaziyatlari hajviy-parodik, kinoya, sarkazm bilan inkishof qilingan. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov dramatik dostonlarida hajviy obrazlar bugungi kunda ham o'quvchilar e'tiborida bo'lib kelmoqda. "Ranjkom"dagi kulgili o'rinlarni shoir o'zining yashab turgan muhitida boshidan o'tkazgan bir-birini sotishlar, xiyonat, mehr-shafqatning yo'qligi deb idroklamoqda.

**Tahlil va natijalar.** Shoirning satirik mazmundagi she'rlari mustaqillikdan keyingi yillarda ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarni, bu o'zgarishlar jarayonida insonlar xarakterida shakllangan illatlarni ko'rsatib, ularni bartaraf qilishga qaratilgan bo'lsa, uning yumoristik she'rlarida esa hayotdagi biror nuqsonli holatdan yengil kulish bilan unga ishora qilinib, undan ozod bo'lishga undaladi. Bu unsurlar shoirning mustaqillikdan keyingi ijodida ham o'ziga xos bo'y ko'rsatadi.

Ta'kidlash o'rinliki, hajviy she'riyatdagi poetik obrazlar, ikki xil: biri – satirik, ikkinchisi – yumoristik xarakterda bo'ladi. Abdulla Oripov ko'proq insonlardagi salbiy xislatlarni hajv ostiga olishga intiladi, buni "Uzr" she'rida ko'rsatib beradi. She'rdan kekxa bir qalamkashning shoiridan uzr so'rashi, yomonlik qilganini tan olishi haqida fikr yuritiladi. Gunohini bo'yniga olganiga ham rahmat deyish kerak, deb o'ylaydi qahramon. Ammo:

Sen gugurt chaqqanda yonsayu olam,

Uzringdan ne foyda, ey, so'qir, nodon.

Attangki, qaydadir noshud shifokor

Kimningdir dilbandin ayladi nobud.

Unga uzrlarning ne keragi bor,

Qo'lma-qo'l ketmoqda kichkintoy tobut.

Siz mening umrimni qildingiz ado,

Turfa puchmoqlardan bo'lgan hujumlar.

U temir panjalar yurakni borho

Anorni siqqandek, ezib g'ijimlar.

(Oripov A., Saylanma. B.348)

Zukko xalqimizda "Uzri gunohidan battar" degan maqol bor. Qilg'ilikni qilib qo'yib, bir gunohsizni botqoqqa botirib, dilini toptab, umrini xazon, qalbini vayron qilib, so'ngira uzr so'rash gunohdan ham battar, o'lganni ustiga chiqib tepganda o'xshaydi. Lekin shoir shunga ham shukur qilish kerak, deydi. Ana shu uzr so'ralmasdan oldin har bir odam o'z harakatlarini nazorat qilishi kerak. Masalan, bir savodsiz shifokor birovning dilbandini o'ldirib qo'yib, bir insonning umrini barbod qilib so'ngira uzr so'rasa, uni kechirib bo'ladimi? Bir umr turli puchmoqlarda qilingan tuhmatlar, g'iybatlar, hasad-xusumatlar shoir yuragini "anorni siqqandek, ezib g'ijimlar" ekan, ularni xotiradan butunlay o'chirib bo'ladimi? She'r misralaridagi zalvorli hazin yuk kishi qalbini ezib, ana shunday kimsalarga nisbatan nafrat paydo qiladi. She'r Abdulla Oripov uslubiga xos tarzda hajviyona yakunlangan: "Kun-bakun taraqqiy etmoqda dunyo, Nogoh odamkushni topmoq ham qiyin. Hozirgi madaniy jallodlar hatto, Avval uzr so'rab, so'yishar keyin". Ha, bu qadim dunyo qanchalik taraqqiy etmasin, dilozorlar, hasadgo'ylar qanchalik liboslarini, qiyofalarini o'zgartirmasinlar, baribir asl



basharalarini yashirolmaydilar. Shoir ta'бири bilan aytganda, "madaniy jallodlar" qiyofasida yashaydilar, boshqa qiyofada o'z faoliyatlarini davom ettiraveradilar. Niqoblangan holda yovuzlik urug'ini sochaveradilar. Hajv ushbu she'rda o'tkir sarkazm, achchiq kinoya shaklida namoyon bo'lgan.

Abdulla Oripov hajviyotida turli adabiy janrlar (ballada, rivoyat, qissa, to'rtlik), voqeaband hazillar, hazil she'rlar ko'plab uchraydi. Shoir ba'zan jiddiy she'rlarida ham kulgi chiqaruvchi unsurlarga e'tibor qaratib, satiraning kuchiga urg'u beradi. Barcha janrlar va shakllar shoir hajviy tafakkurining turli darajada, turli bo'yqlarda namoyon bo'lishini ta'minlashga xizmat qilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov lirikasidagi hajviy she'r modifikatsiyasi yangi davr

adabiyotidagi o'ziga xos haqiqi qamraganligi bilan xarakterlidir. Millat dardu tashvishlari, eng muhim, istiqloлга tashna bo'lgan damlaridagi iztiroblar sistembutunlik kasb etib, yangi-yangi syujetlarda, shakllarda namoyon bo'ldi. Insonki bor, hamisha og'riqlar, iztiroblar qurshovida umr kechiradi. Yuqoridagi nomlari zikr qilingan ijodkorlar insoniylikning eng muhim fazilati ulug'lanadi. Abdulla Oripov she'riyatidagi zamon va makon ifodasi hajv qilinayotgan motivlarni aniqlashda, ularning mohiyati aks etgan ma'noni idroklashga yo'naltirilgan. Mazkur birliklar sistemasi badiiy xronotop qiymatini dalolatlaydi. Eng asosiysi, insoniy munosabatlar tig'izligi, dard va og'irlarni yengib o'tishga yo'l ochadi. Kulgi zamiridagi ziddiyat esa davr nafasini teran fahmlashga yo'naltiriladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ғаниев И., Афокова Н. Озод рух фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.121.
2. Абдулла Орипов. Ранжом. Шарқ юлдузи. №1. 1989. 2 бет.
3. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт ижодий-матбаа уйи, 2015. –Б.43.
4. Орипов А. Танланган асарлар. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт ижодий матбаа уй, 2001. –Б.248.
5. Жамол Камол. Абдиёт остонасида. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018. –Б.263.
6. Гегель.Эстетика. – Тошкент: Файласуфлар жамияти, 2012. – Б.72.
7. Йўлчиев Қ. ҳозирги ўзбек шеъриятида макон ва замон категорияси. Филол.фан.док.дисс. –Фарғона. 2021. –Б.128
8. Эркин Воҳидов ҳаёти ва ижоди замондошлари хотирасида. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018. –Б.215.
9. Қуროнов Д. ва бош. Адабиётшунослик луғати.–Т., "Академнashr". 2010. –Б. 139-140.
10. Ҳомидий Х., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1970. – Б.308.



**Go'zal RAMAZONOVA,**  
*Denov tadbirkorlik pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi*  
*E-mail: go'zalramazonova@gmail.com*

*Filologiya fanlari doktori, professor N.Afoqova taqrizi asosida*

## THE MOTIVE OF EVOLUTION AND THE SOCIO-PHILOSOPHICAL IDEAL OF THE AUTHOR IN THE NOVEL "BAQI DARBADAR"

Annotation

In this article, the possibilities of metamorphosis, which was formed in mythological shells and later gradually developed as a part of various epic large and small genres of folklore, had already formed as a motif in written literature and as a leading literary tool in the modern prose of the independence period, as well as the necessary social-philosophical concept of the creator. The importance is analyzed with the help of examples. Also, in comparing the rapidly developing modern world and the reality of the past, it is revealed that the motif of evolution is fully compatible with the possibilities of the novel genre.

**Key words:** myth, mythology, mythological thinking, metamorphosis (evolution), motif of evolution, science fiction novel, etc.

## МОТИВ ЭВОЛЮЦИИ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ ИДЕАЛ АВТОРА В РОМАНЕ «БАКИ ДАРБАДАР»

Аннотация

В данной статье возможности метаморфозы, формировавшиеся в мифологических оболочках и впоследствии постепенно развивавшиеся в рамках различных эпических больших и малых жанров фольклора, уже сформировались как мотив в письменной литературе и как ведущее литературное средство в современной литературе. проза периода независимости, а также необходимая общественно-философская концепция творца анализируется на примерах. Также при сравнении стремительно развивающегося современного мира и реальности прошлого обнаруживается, что мотив эволюции полностью совместим с возможностями жанра романа.

**Ключевые слова:** миф, мифология, мифологическое мышление, метаморфоза (эволюция), мотив эволюции, фантастический роман и др.

## “BOQIY DARBADAR” ROMANIDA EVRILISH MOTIVI VA MUALLIFNING IJTIMOY-FALSAFIY IDEALI

Annotatsiya

Ushbu maqolada mifologik qobiqlarda shakllanib, keyinchalik xalq og'zaki ijodining turli epik katta-kichik janrlari tarkibida tadjriiy taraqiyyot yo'lini bosib o'tgan metamarfozaning, allaqachon, yozma adabiyotda motiv sifatida shakllanib ulgurgan hamda istiqlol davri zamonaviy nasrida etkachi adabiy vosita sifatidagi imkoniyatlari va ijodkor ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasini anglatishdagi zarur ahamiyati misollar yordamida tahlil etilgan. Shuningdek, shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan zamonaviy dunyo va o'timish voqeligini solishtirishda evrilish motivining roman janri imkoniyatlariga to'la mosligi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** mif, mifologiya, mifologik tafakkur, metamarfoza (evrilish), evrilish motivi, Ilmiy-fantastik roman va b.

**Kirish.** Dunyo adabiyotida yetuk ijodkorlarning metamarfozaning badiiy-estetik vazifalaridan, mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalana olgani jahon adabiyot xazinasini durdona asarlar bilan boyitdi. Ijodkor falsafiy konsepsiyasini, jumladan, inson tafakkuridagi evrilishlar, qahramonlarning ruhiyati, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, tabiat va inson o'rtasidagi ko'rinmas zanjirni, insonning qudrati va shu bilan birga, ne qadar o'jizligi, ilm-fandagi yutuqlar, inson nuqtai nazarida hali ham mavhum va tushunarsiz bo'lib qolayotgan hodisalarning va boshqa shu kabi qator real tasvirlarni poetik talqin qilishda evrilish motivi muallifga keng yo'l ochdi.

Jahon adabiyotida yaratilayotgan evrilish motivli asarlar muayyan xalq adabiyotida yuz berayotgan poetik yangilanishlar, xalq hayotidagi ijtimoiy-ma'naviy evrilishlarning natijasi o'laroq neomifologizmning bir ko'rinishi sifatida yuzaga keldi. Mifologik tafakkur qoldiqlari bo'lmish metamarfozalar bugunga qadar badiiy adabiyot uchun poetik yangilanishlar eshigini birma-bir ochmoqdaki, albatta, o'zbek milliy adabiyoti vakillari ham bu yangilanish va imkoniyatlardan bebahra qolayotgani yo'q. Ayniqsa, istiqlol yillarida evrilish motivi asosida yaratilgan nasriy asarlar zamonaviy modern adabiyotning o'ziga xos yangicha bir ko'rinishini tashkil etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Dunyo adabiyotshunosligida M.Baxtin, V.Propp, S.A.Tokarev, Ye.Meletinskiy, F.Bermejo-Rubio kabi olimlarning tadqiqotlarida evrilish motivining mifologik asoslari, og'zaki va yozma ijodidagi shakllanish bosichlari, shuningdek, jahon adabiyotiga ta'siri va badiiy sintez jarayoni masalalariga doir ilmiy kuzatishlar mavjud. Ye.M.Meletinskiy yarim asrlik ilmiy faoliyati davrida rus klassik

adabiyotidagi arxitiplar, nasrlari mifologiya, afsona va ertak, arxipit motiv va obrazlarni chuqur o'rgangan. Aynan metamarfoza muammosini alohida tadqiq etgan

O'zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligida B.Sarimsoqov, D.O'raeva, M.Jo'raev, E.Jabbor, N.Cho'llievalarning maqola, monografiya va dissertatsiyalarida folkloridagi ertak, afsona, doston va yozma adabiyotdagi asarlarda mif va yozma adabiyot o'rtasidagi munosabatlar o'rganiladi.

**Tahlil va natijalar.** Bugunga qadar yaratilgan romanlar orasida zamonaviy o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan taniqli yozuvchisi Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarlari roman sifatida evrilish motivining keng imkoniyatlarini yangicha mavzu va mazmunda o'zida aks ettirganini ko'rishimiz mumkin. Metamarfozali motivni o'z ichiga olgan bu roman mifologik uydirmalarga asoslanganligi hamda muallifning ilmiy-fantastik, ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasini in'ikos ettirganligi bois ilmiy-falsafiy intellektual romanlar sirasiga kiradi.

Asar syujeti ikki davr va makonda ro'y bergan voqealarni parallel hikoya qiladi, shuning barobarida, bu ikki voqelik o'rtasidagi tutashgan nuqtalarni imkon darajasida qiyoslash, ijodkorning falsafiy konsepsiyasini yangicha uslubda tahlil va talqin qilish imkoniyatini tug'diradi. Romanda kechgan voqealarning biri Muborak zot – Iso Masih yashab o'tgan va chormihga tortilgan zamonlardan toki ming yilliklarni o'z ichiga olgan kelajakka qadar davom etadi. Ikkinchi voqelik esa Yer o'zining barcha imkoniyatlarini, qulayliklarini insoniyatga taqdim etgan, dunyo takomillashib borayotgan XXI asrda, ilm-fan bilan bog'liq yutuqlarning avj pallasida ro'y beradi.

“Bu genomning DNA halqalarida avstraliya kaltakesagining genlari mavjud, favqulodda regeneratsiya qobiliyati ana shu genlar boisdur. Boshqa halqada siz Osiyo cho'llarida goh-goh paydo bo'lib turuvchi ulkan toshbaqa genlarini ko'rasiz, kaltakesak genlari bilan chatishgani bois ular ham o'zlarini yangilash xususiyatiga ega – yangilanib turadigan DNA halqalari bu odamning barhayotligini ta'minlovchi asosiy omildir” [1].

Misir olimi genetika mutaxassisi Georg Mendel tomonidan yaratilgan, na otasi, na onasini biladigan bu jonotning g'oyat uzoq umr ko'rishi kutilmoqda edi. Boshqa barcha chaqaloqlarga xos bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lgan, murg'ak zehnda “u kim – bu nima” kabi savollar berish kutilgandan ko'ra erta sodir bo'lgan, o'zining qaydan bino bo'lgan va kim ekanini yuzlaricha marta so'ragan, go'yo insoniyatning uzoq yillik tadrijiy taraqqiyot yo'lini qisqagina umrida bosib o'tayotgan bu sun'iy urchitilgan odam balog'at yoshiga yetib boshlaganida, o'zining favqulodda mantiq va fikr quvvatiga ega ekanligini namoyon qilgan edi.

“Boqiy darbadar” romanida olimlar “...bunday mukammal jonotlarni ommaviy ravishda ko'paytirish yo'lga qo'yilargu, xatarli hududlarda, konlarda, hayot uchun xavfli makonlarda, vulqon tublaridayu suv ostida – xullas, haqiqiy insonlarni qo'llash ham estetik, ham insoniy qadriyatlar tufayli mumkin bo'lmagan ishlarda ishlatish ko'zda tutilgan edi” [1]. Shuningdek, ular o'z nuqtai nazarlarida ijtimoiy ahamiyat kasb etmasligi uchun ismsiz edilar va raqamlar bilan atalardi.

Inson omili bilan yaratilgan sun'iy barhayot odam anjuman boshlanishidan bir necha kun avval ozodlikka chiqqani haqida xabar beriladi. “Xameleon genlari unga tana tuzilishini va ko'rinishini o'zgartira olish xususiyatini ato etgan – fazoviy qurilmalarning kuchli kameralari uni sahradan izlab topa olmadi, infraqizil “ko'zlar” ham ko'ra olmadi. Shu bois uni hozir Gobi hududida deb faqat taxmin qila olishimiz mumkin, xolos. Tajriba xonasiga kirganlar qalin va mustahkam zirhli oynaning ham, to'qson santimetr qalinlikdagi beton devorning ham bus-butun ekanini ko'rdilar. Ular shisha idish ichida sun'iy odam qoldirgan elektron xatni topdilar...” [1]

U qoldirgan yelektron xatda esa o'zining yaratilishi haqida muttasil fikr yuritgan, butun tevarakning mukammal bir nizom va tartib asosida harakatlanishini kuzatib, o'zining esa o'ta darajada mukammal va mutafik ekanligini anglab yetgan bu yaratq Yer yuzi va Koinotda o'z ahamiyatini anglab olishga qiynalganinpi yozar ekan, biror narsa yoki fikrlovchi insonning o'z-o'zidan paydo bo'lib qolishi ehtimoldan uzoqligini, muqarrar

Yaratguvchi zot borligini tahmin qiladi. Shuningdek, atrof-javonibdagi tiriklik bilan taqqoslab ko'rgan bu mavjudot o'zining mavjudligidan bir maqsad topmaydi, hatto tabiatdagi barcha tirik organizmga xos bo'lgan, ammo ungagina yot bo'lgan hosila berishlik silsilasida ham o'zini noqis sanaydi. Butun bu borliqlarni yaratgan kimdir nima uchun uni yaratganiga javob izlagan bu yaratq o'z maktubini shunday yakunlaydi:

“O'zimdagi mukammal qobiliyatlari, g'ayrioddiy xususiyatlarning barcha-barchasini mushohada etgan holda, ularning menga bejiz berilmaganini anglasam-da, yaratish va yaratilish kabi ulkan jarayon ichida nimalar qilishim kerakligini anglay olmayman!

Shu bois, bu makonni avvalo Uni izlab topish va butun olam yaratilishining sabablarini O'zidan so'rash uchun tark etmoqdaman.

Bu makonda bo'lishim Uning meni yaratishdan ko'zlagan irodasiga mos kelgani taqdirda, albatta qaytaman. Mos kelmagani taqdirda esa, mos keladigan makon va zamon izlayman...” [1].

Bu dunyoni yaratgan hamda uni yaratilishini istagan Yagona Zotni shuningdek, o'zi mos keladigan makon va amonni izlab topish uchun yo'lga chiqan bu ismsiz mavjudot Gobi sahrasida Yaratganga sajda va ibodat qilgan holda qumga singib ketadi. Romanning aynan inson o'laroq yaratilgan bu mavjudotning qumga evrilishi bilan yakun topishi, aslida odamiyatga xos intixodir. Chunki loydan bino bo'lgan odamzot ham alal-oqibat yana tuproqqa evriladi. Olamlar va odamiyat ustidan hukmronlikni qo'lga kiritmoqchi bo'lgan olimlarning kashfiyotlari aks natija bergani holda, o'zini yaratilishiga sabab bo'lgan gunohkorlarni emas, o'zini yaratilishi istagan zotgagina ibodat qilib, unga qaytdi. Bu roman misolida metamarfoza hodisasi, tiriklikning asl, o'zgarimas qonuniyatlaridan biri ekanligi yanayam teranroq namoyon bo'ladi.

**Xulosa.** Roman metamarfoza jarayonini, sabab va oqibatlarini batafsil, detalma-detall yoritishda keng imkoniyatlar hamda hajm va ko'lam jihatdan muallifga yetarlicha qulayliklar bera oladigan katta epik janrdir. Bunda ijodkor o'z falsafiy konsepsiyasini zamon va makon nuqati nazaridan ham, obrazlar ko'lamdorligi jihatidan ham maromiga yetkazib poetik talqin qila oladi. Ayniqsa, metamarfoza bilan bog'liq hodisalarning ikir-chikir mayda tafsilotlariga qadar bosqichma-bosqich yoritishda, buning zamirida evrilishni boshdan kechirayotgan qahramonlarning ruhiyatidagi o'zgarishlarni, ichki olamidagi talatoplarni yana-da, tabiiy, yanada jonliroq tasvirlashda bu epik janrning imkoniyatlari chegara bilmasligini yuqorida tahlilga tortilgan romanlar misolida ko'rib o'tdik.

#### ADABIYOTLAR

19. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. Roman. “Sharq yulduzi” jurnali 2010-yil, 6-son.
20. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – Toshkent: “Akademnashr” 2015. 288 b.
21. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа. М.: «Восточная литература» РАН, 2000. 407 с.
22. Le Guern M. La metamorphose poetique: essai de definition // La Métamorphose dans la poésie baroque française et anglaise: variation et resurgences. Paris, 1980.
23. Mikkonen K. Theories of Metamorphosis: from metatope to textual revision — Phetoric and Poetics, 1996.
24. Gallagher D. Metamorphosis: transformations of the body and the influence of Ovid's Metamorphoses on Germanic Literature of the Nineteenth and Twentieth Centuries. N.Y., 2009.
25. Sarimsokov B. Epik janrlar diffuziyasi // Uzbek folklorining epik janrlari. -- Toshkent: Fan, 1981. B.97-148.



**Nilufar RAXIMOVA,**  
*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: nilufaram1987@gmail.com*

*TDIU Xorijiy tillarni o'qitish kafedrasida dotsenti, PhD N.Mansurova taqrizi asosida*

#### DOROTI L. SEYERSNING DETEKTIV YOZUVCHI SIFATIDAGI MAHORATI VA USLUBI

Annotation

Doroti L. Seyers serqirra ijodkor sifatida o'zini turli adabiy yo'nalishlarda sinab ko'rgan va muvaffaqiyat qozongan adiblardan biri. U adabiyot olamida detektiv janr yozuvchisi sifatida nom chiqardi. Doroti Seyers detektiv janrning cheklangan doirasidan chiqib, uni yuqori darajadagi adabiy asarlarga aylantirdi. Uning asarlari orqali detektiv janr faqatgina ommaviy o'quvchilar uchun emas, balki intellektual o'quvchilar uchun ham jozibador bo'lishi mumkinligini isbotladi. Shu bilan birga, Seyersning ayol yozuvchi sifatida muvaffaqiyat qozongani, ayollar detektiv adabiyotida o'z o'rnini mustahkamlashida katta rol o'ynadi. Doroti L. Seyers detektiv janrining oltin davri vakili bo'lsa-da, uning asarlari faqatgina klassik detektiv qoidalariga emas, balki zamonaviy adabiy yondashuvlarga ham asoslangan.

**Kalit so'zlar:** detektiv romanlar, uslub, detektiv yozuvchi, esseist, shoira, tarjimon, izquvar, qahramonlar

#### DOROTHY L. SAYERS' SKILLS AND STYLE AS A DETECTIVE WRITER

Annotation

Dorothy L. Sayers is a dynamic writer who experimented with various literary genres as a creative artist. She became known in the literary world as a detective genre writer. Dorothy Sayers took the detective genre to new heights, creating literary masterpieces. She demonstrated through her writings that the detective genre can appeal to both general and educated audiences. At the same time, Sayers' success as a female writer contributed significantly to the establishment of a female presence in detective fiction. Although Dorothy L. Sayers represents the golden age of the detective genre, her works draw on both traditional detective rules and modern literary approaches.

**Key words:** detective novels, style, detective writer, playwright, poet, translator, sleuth, heroes

#### НАВЫКИ И СТИЛЬ ДОРОТИ Л. СЭЙЕРС КАК ПИСАТЕЛЯ-ДЕТЕКТИВА

Аннотация

Дороти Л. Сэйерс – одна из успешных писательниц, пробовавших себя в различных литературных направлениях как творческая художница. Он сделал себе имя в литературном мире как писатель детективного жанра. Дороти Сэйерс вырвалась за ограниченные рамки детективного жанра и превратила его в качественные литературные произведения. Своими произведениями он доказал, что детективный жанр может быть привлекателен не только для массового читателя, но и для интеллектуального читателя. В то же время успех Сэйерс как писательницы сыграл важную роль в закреплении места женщин в детективной литературе. Хотя Дороти Л. Сэйерс является представительницей золотого века детективного жанра, ее произведения основаны не только на классических детективных правилах, но и на современных литературных подходах.

**Ключевые слова:** детективные романы, стиль, писатель-детектив, эссеист, поэт, переводчик, авантюрист, герои.

**Kirish.** Badiiy adabiyotda janrlarning xilma –xilligi kitobxonlar uchun turfa xil badiiy asarlar va serqirra ijodkorlarni adabiyot maydoniga chiqarib qo'ydi va bu o'z navbatida o'quvchilarga o'zlar uchun qiziqarli bo'lgan janrlarni tanlash va sevimli adiblarini saralash imkonini berdi. Insonlarning aqliy salohiyati yuksalgani sari, ularning murakkab syujetlar, mantiqiy tahlil, sirli jinoyat olami aks etgan detektiv asarlarga bo'lgan talabi ham orta bordi. Buning natijasi o'laroq Edgar Alan Po, Artur Konan Doyl, Agata Kristi, Gilbert Chesterton, Doroti L. Seyers, Margari Ellingem, Raymond Chandler, P.D.Jeyms kabi yozuvchilar jahon adabiyoti sahnasiga chiqib keldi. Ularning har biri o'ziga xos uslubi va yondashuvi bilan bir-biridan ajralib turadi va o'z kitobxonlariga ega mashhur adiblar hisoblanadi. Ushbu yozuvchilar orasida Doroti L. Seyers o'zining murakkab, intellektual va hazilomuz yozish uslubi bilan boshqa detektiv yozuvchilardan ajralib turadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Doroti L. Seyers (1893–1957) – ingliz adabiyotida nafaqat detektiv janr yozuvchisi, balki , esseist, shoira , tarjimon va adabiy tanqidchi sifatida ham e'tirof etiladi. Seyers faqatgina bitta adabiy janr bilan cheklanib qolmasdan o'zini bir nechta adabiy yo'nalishlarda ham sinab ko'rgan va muvaffaqiyatga erishgan serqirra ijodkor hisoblanadi. Uning zamondoshi Dorin Uolles Seyersni teran aql sohibasi ekanligini ta'kidlab, u haqida shunday fikrlarni bayon qiladi: "I have never known anyone so brimful of the energy of a well-stocked mind: even at 24, when I knew her first, she knew an enormous amount about all sorts of subjects unconnected with

Old French literature, which was her alleged "special," and nothing would content her but fact" [1].

U bolaligidanoq she'riyat olamiga sho'ng'iydi va she'rlar yozishni mashq qilib boradi. Oksforddagi Somerville kollejini bitirayotgan paytida yozgan she'rlarini jamlab, "She'rlar to'plami" ("Poems of Dorothy L. Sayers" ) va "Katolik ertaklari va nasroniy qo'shiqlari" ("Catholic Tales and Christian Songs") deb nomlangan she'riy to'plamlarini nashrdan chiqaradi. Uning she'riyati asosan diniy-falsafiy mavzularga bag'ishlangan bo'lib, she'rlarini yaratishda intellektual erkinlik va aniq tahliliy fikrlarga asoslangan. Bundan tashqari, u o'zini diniy mavzularda pyesalar yozishda ham sinab ko'radi va u yozgan pyesalari ingliz cherkovlarida ijro etilgan va BBC tomonidan e'fira uzatilgan. Doroti Seyers o'zini tarjimada ham sinab ko'radi, avvaliga u lotin va fransuz tilidagi diniy va falsafiy matnlarni tarjima qilishdan boshlaydi. Keyin esa u Dante Aligyerining "Ilohiy komediya" (The Divine Comedy) asarini ingliz tiliga tarjima qilish bilan shug'ullanadi. Garchi Seyers bu asarni tarjimasini yakunlashga ulgurmagan bo'lsada, bu ishi unga katta shuhrat olib keldi. Sababi adabiyotshunoslari Seyersning tarjimasini Dante ijodining eng yaxshi inglizcha talqinlaridan biri deb hisoblashadi. Seyers Dante asarini faqatgina so'zma-so'z tarjima qilish bilan cheklanmay, uning ruhini, ritmi va poetikasini ingliz tilida jonlantirishga harakat qilgan.

Yuqorida e'tirof etilgan serqirra ijodkor Doroti Seyers kitobxonlar orasida detektiv janr yozuvchisi sifatida ancha tanilgan bo'lib, uning "Kuchli zahar" ("Strong poison"), "Go'zal



kecha” (“Gaudy night”), “To’qqiz tikuvchi” (“The nine tailors”) kabi asarlari omma e’tiboriga tushgan. Uning ikkinchi detektiv asari “Guvohning tashvishlari” (“Clouds of witness”) nashrdan chiqishi bilanoq, Seyers adabiyotshunoslar va tanqidchilar e’tiboriga tushdi. Uning asari va yozish uslubi haqida bir qancha fikrlar bayon qilindi. Misol uchun, The Daily news sharhi: “Not for a long time has there appeared a detective story so amusing, so lively, so witty and so agreeable. ... All Miss Sayers’s characterisation is bright, natural and amusing; not a character in the book hangs fire, and there is a delightful absence of conventional clichés throughout ... It is to be hoped that Miss Sayers will not let anything check the flow of her detective-story habit”. [2] “Anchadan beri bunchalik kulgili, jonli, aqli va yoqimli detektiv hikoya paydo bo’lmagan. ... Miss Sayersning barcha xarakteristikalar yorqin, tabiiy va qiziqarli; Kitobdagi qahramonlardan birortasi ham o’t o’chirmaydi va u erda an’anaviy klişelar yo’q... Miss Sayers hech narsa uning detektivlik odatining oqimini tekshirishiga yo’l qo’ymaydi, deb umid qilish mumkin.”

Boshqa bir gazetada esa Seyersning “Clouds of witness” asariga aqli tarzda ishlab chiqilgan hayratlanarli miqdordagi maslahatlar va mutlaqo kutilmagan xulosaga ega yaxshi yozilgan va hayratlanarli sirli hikoya deb ta’rif berilgan, “well-written and pulsating mystery story, with an astonishing number of clues cleverly evolved, and totally unexpected conclusion” [3].

Akademik J.M.Styuart fikriga ko’ra, detektiv janrda ijod qiladigan zukko yozuvchilar ko’p edi, lekin ularning aksariyati boshqotirmadan boshqa hech narsaga ahamiyat bermasdan, yo piyoda uslubida yozgan yoki o’zlarida hech qanday buyruq bo’lmagan an’anaviy fantastika elementlarini shoshqaloqlik bilan kiritishgan. Biroq Seyers hikoyalari yoqimli adabiy tus berishni o’zlashtirgan, shu bilan birga o’zining tasavvur doirasini saqlab qolgan. “There were already many ingenious writers, but most of them either wrote in a pedestrian style, with little concern for anything except a puzzle, or rashly incorporated out of traditional fiction elements over which they had no command... She mastered the art of giving a pleasant literary flavour to her stories while at the same time keeping within her own imaginative range” [4].

Doroti L. Seyers haqida ko’plab yozuvchilar va adabiyotshunoslar o’z fikrlarini bildirgan. U nafaqat detektiv janrning yirik vakili, balki adabiy saviyasi yuqori asarlar yozgan yozuvchi sifatida ham e’tirof etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Doroti L.Seyers detektiv janrini kuchli xarakter va mantiqqa ega bo’lgan, murakkab jumboqlar aks etgan asarlar bilan boyitdi va to’rtta “Jinoyat malikasi” dan biri sifatida tanildi. Bizga ma’lumki, 1920-1930 yillar detektiv fantastikaning oltin davri hisoblanib, bu davrda ko’zga ko’rinarli ayol yozuvchilar ushbu janrda sersmahlus ijod qilishdi. Ulardan to’rttasi: Agata Kristi, Marjeri Ellingem, Doroti L. Seyers va Ngaoi Marsh “Jinoyat malikalari” sifatida e’tirof etilgan zabardast ayol yozuvchilar hisoblanishadi.

Doroti L. Seyers boshqa klassik detektiv yozuvchilardan bir qancha jihatlar bilan ajralib turadi. Jumladan, u jinoyat syujetlarini insoniy ziddiyatlar, ijtimoiy mavzular va yuqori adabiy uslub bilan boyitgan. Shu sababli, u oddiy detektiv yozuvchi emas, balki janrni rivojlantirgan muhim adiblardan biri hisoblanadi. Seyers juda puxta yozuvchi bo’lib, uning hikoyalari adabiy saviyasi va tili jihatidan yuqori darajada. U detektiv romanlarni nafaqat qiziqarli syujetli asarlar, balki haqiqiy adabiyot namunasi sifatida yaratgan. Ko’plab detektiv yozuvchilar, jumladan, Agata Kristi syujet markaziga jinoyat va uning echimini qo’ysa, Seyersning romanlari inson psixologiyasi, axloqiy muammolar va jamiyatdagi o’zgarishlarni ham yoritadi. Ayniqsa, uning qahramonlari hayotiy va chuqur tahlil qilingan xarakterga ega. Seyersning asarlarida ayollar kuchli, mustaqil va o’z fikriga ega shaxslar sifatida tasvirlanadi. Xususan, Xarriyet Veyn – intellektual, mustaqil advokat va yozuvchi bo’lib, u Seyersning o’ziga o’xshash xususiyatlariga ega. Gaudy Night romanida u ayollarning jamiyatdagi roli va akademik erkinlik mavzusini keng ochib beradi. Sayers detektiv janrning cheklangan doirasidan chiqib, uni yuqori darajadagi adabiy asarlarga aylantirdi. Uning asarlari orqali detektiv janr faqatgina ommaviy o’quvchilar uchun emas, balki intellektual o’quvchilar uchun ham jozibador bo’lishi mumkinligini isbotladi. Kennining ta’kidlashicha, Seyersning sirli roman va adabiyot haqidagi ko’p

fikrlarini uning san’atga munosabati haqida ko’p narsalarni ochib beradigan sharhlaridan bilib olish mumkin. U mualliflardan zo’r nasr yozishni va boshqa yozuvchilar tomonidan ishlatilgan vaziyatlar va syujet vositalaridan qochishlarini kutgan.

**Tahlil va natijalar.** Doroti L. Seyers o’zining murakkab, intellektual va hazilomuz yozish uslubi bilan boshqa detektiv yozuvchilardan ajralib turadi. Uning asarlari nafaqat jinoyat sirlari, balki qahramonlarning ichki dunyosi, jamiyat va axloqiy muammolarni ham yoritadi. Garchi Sayersning detektiv asarlari, avvalo, klassik “oltin davr” detektivlari an’analari - murakkab syujetlar, mantiqiy tahlil va o’quvchini so’nggi sahifagacha qiziqtiruvchi sirli hodisalar –ga asoslangan bo’lsada, u bu janrni yanada boyitishga harakat qildi. U o’zining mashhur qahramoni lord Piter Uimsi orqali murakkab syujetlar, ijtimoiy masalalar va teran tahlillarni o’z ichiga olgan detektiv romanlar yaratdi. Seyers oddiy detektiv hikoyachilikdan voz kechib, yuqori adabiy saviyasi va murakkab sintaksisga ega asarlar yaratgan. Uning romanlarida boy leksika va rang-barang iboralar, mantiqiy jumlar va ilmiy va falsafiy mavzulardagi mushohdalarni uchratish mumkin. Jumladan, “Busmanning asal oyi” (“Busman’s honeymoon”) romanida Seyers jinoyatni psixologik va mantiqiy tahlil orqali ochib berishga harakat qiladi va u buni qahramonlar nutqida zukkolik bilan aks ettiradi:

Xarriyet: U juda ham mehribon odam edi. Hech kimga yomonlik qilishni xohlamagan.

Piter: Aynan shuning uchun uni o’ldirishgan. Ideal odamlar odamlarni bezovta qiladi. Hech kim ularning mavjudligiga toqat qilolmaydi.

Bunda muallif qahramonning nutqi orqali inson tabiatining paradokslarini ochib beradi: yaxshi odamlar ham dushman ortirishi mumkinligini, jinoyat sabablarini insoniy his-tuyg’ular orqali tushuntiradi.

Seyers asarlarida yuqori darajadagi madaniy va adabiy bilim namoyon bo’ladi. Uning dialoglari ko’pincha adabiy va ilmiy bilimlar bilan boyitilgan. Masalan, “Kuchli zahar” (“Strong poison”) romanida:

Piter Uimzi: Bu ish menga qadimgi yunon tragediyalarini eslatyapti. Faqat bunda qasoskor xudolar yo’q – faqat sudyalor va noto’g’ri guvohlik berayotgan odamlar bor. Eshil men bilan rozi bo’larmidi, qanday o’ylaysiz?

Detektiv Piter Uimzi bu ishni yunon dramaturgiyasi bilan taqqoslaydi. U tergov jarayonini nafaqat huquqiy, balki falsafiy nuqtai nazardan ham ko’rib chiqadi. Doroti L.Seyers boshqa yozuvchilar singari detektiv adabiyot olamiga izquvar lord Piter Uimsini tanishtiradi. Uning qahramoni odatiy detektivlardan farqli o’laroq, nafaqat jinoyatlarni hal qiladi, balki o’rni kelganda o’z shaxsiy kechinmalari va ijtimoiy masalalar bilan ham yuzma-yuz keladigan murakkab obrazlardan biridir. Seyers bosh qahramoni lord Uimsini hazilkash, o’tkir tilga ega xarakter sifatida tasvirlaydi, va u bilan boshqa qahramonlar o’rtasidagi suhbatlariga hazil-mutoyiba va kinoyani silliqqina tasvirlab ketadi. Masalan:

Inspektor Parker: Lord Piter, siz bu ishga juda engil qarayapsiz. Axir, jasadni kimdir hammaga tashlab ketgan!

Piter Uimzi: Xuddi manavi yog’li non kabi? Juda qo’pol odat. Ko’rinishidan, zamonaviy jinoyatchilar mukammal did va tarbiyani yo’qotgan.

Piter jiddiy jinoyatni hazilga yo’yib, zamonaviy jamiyatning qulashini kinoya bilan ifodalaydi, garchi hazillashayotgan bo’lsa ham, jinoyatchilarning e’tiborsizligi haqida ishora qiladi. Lord Piter va boshqa qahramonlar o’rtasidagi hazil va teran suhbatlar o’quvchini nafaqat o’ylashga, balki zavqlanishga ham chorlaydi.

Seyersning o’ziga xos yozish uslublaridan biri – voqealarning o’ta detallashtirilgani, ya’ni kriminal voqealar, sud jarayonlari va ilmiy dalillar mukammal yoritiladi. Misol uchun “Kuchli zahar” (“Strong poison”) romanida sud jarayoni haqidagi tasvirlar juda aniq va puxta yoritilgan, sababi, Seyers o’zi huquqshunoslik bilan ham qiziqqan:

The judge was an old man; so old, he seemed to have outlived time and change and death. His parrot-face and parrot-voice were dry, like his old, heavily-veined hands. His scarlet robe clashed harshly with the crimson of the roses. He had sat for three days in the stuffy court, but he showed no sign of fatigue.



He did not look at the prisoner as he gathered his notes into a neat sheaf and turned to address the jury, but the prisoner looked at him. Her eyes, like dark smudges under the heavy square brows, seemed equally without fear and without hope. They waited[5].

Ushbu parchadan biz Seyersning kuchli yozuvchi sifatidagi mahoratini ko'rishimiz mumkin, Seyers sudyani tasvirlarga boy, jonli tarzda gavdalandira olgan.

Doroti Seyersning yozish uslubi murakkab, intellektual va adabiy yuksak darajada bo'lib, u klassik detektiv adabiyotni yuqori san'at darajasiga olib chiqqan. Uning asarlari detektiv syujetdan tashqari psixologik tahlil, jamiyat muammolari va san'atga bo'lgan hurmat bilan ham ajralib turadi. Bu jihatlar uni

Agata Kristi yoki Artur Konan Doyl kabi yozuvchilardan farq qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Doroti L. Seyers o'z yozuv uslubiga ega bo'lgan kuchli ijodkorlardan hisoblanadi. U detektiv janrni yanada murakkab va intellektual darajaga olib chiqqan yozuvchilardan biri. Seyers jinoyat syujetlarini insoniy ziddiyatlar, ijtimoiy mavzular va yuqori adabiy uslub bilan boyitgan. Shu sababli, u oddiy detektiv yozuvchi emas, balki janrni rivojlantirgan muhim adiblardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Uning qahramonlari, syujetlari va yozuv uslubi hozir ham qiziqish bilan o'rganiladi va kitobxonlar tomonidan sevib o'qiladi. Seyers adabiyot olamida nafaqat o'tmishda, balki bugungi kunda ham o'z o'rniga ega ijodkordir.

#### ADABIYOTLAR

1. Wallace, Doreen. "Miss Dorothy Sayers", The Times, 1 January 1958, p. 13
2. "Mysteries", The Daily News, 13 April 1926, p. 4
3. Detective Stories", Western Morning News, 15 February 1926, p. 8
4. Stewart, J. I. M. "Sayers, Dorothy Leigh" Dictionary of National Biography, Oxford University Press, 1971
5. <https://gutenberg.ca/ebooks/sayersdl-strongpoison/sayersdl-strongpoison->
6. Kenney, Catherine (2004). "Sayers (married name Fleming), Dorothy Leigh (1893–1957)" Oxford University Press. doi:10.1093/ref:odnb/35966
7. Sarah Barnette . The Morality in the Mysteries of Dorothy Sayers, The journals of zaytuna college,2023
8. James, P. D. (2009). Talking About Detective Fiction. Oxford: Bodleian Library. ISBN 978-1-8512-4309-9.
9. Chesterton K. G., —The Ideal Detective Storyl. Illustrated London News, October 1930; <https://www.chesterton.org/ideal-detective-story/> last.
10. Raymond Chandler, \_The Simple Art of Murder\_, in Pearls Are a Nuisance (London: Penguin Books, 1964)



*Ulug'bek RAHMONOV,*  
Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD  
E-mail: rahmanobulugbek@gmail.com

ADCHTI professori V.A.Vositov taqrizi asosida

### “JONSON LUG'ATI”DA SO'ZNING NOMUNTAZAM GRAMMATIK SHAKLLARI HAMDA SINXRONIK HOSILA SO'ZLAR

Аннотация

Maqolada jahon lug'atshunosligida berilgan bir necha hosila so'zlar tahlilga tortilgan. Unda “Jonson Lug'ati”ga tegishli bo'lgan so'z turkumlari, qo'shimchalar yordamida yasalgan hosila so'zlar tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Leksikograf, grammatik shakllar, hosila so'zlar, nomuntazam shakllar, sinxronik hosila so'zlar.

### НЕПРАВИЛЬНЫЕ ГРАММАТИЧЕСКИЕ ФОРМЫ СЛОВ В “СЛОВАРЕ ДЖОНСОНА” И СИНХРОННЫЕ ПРОИЗВОДНЫЕ

Аннотация

В статье анализируются несколько производных слов, приведенных в мировой лексикографии. Анализируются группы слов, принадлежащие “Словарю Джонсона”, с использованием производных слов, образованных с помощью аффиксов.

**Ключевые слова:** Лексикограф, грамматические формы, производные слова, неправильные формы, синхронные производные слова.

### IRREGULAR GRAMMATICAL FORMS OF THE WORD IN “JOHNSON'S DICTIONARY” AND SYNCHRONIC DERIVATIVE WORDS

Annotation

In this article, several derived words given in world lexicology are analyzed. In it, word groups belonging to "Johnson's Dictionary" are analyzed with the help of derived words made with the help of suffixes.

**Key words:** Lexicographer, grammatical forms, derived words, irregular forms, synchronic derived words.

**Kirish.** Ma'lumki, hozirgi zamonaviy leksikografiyada grammatik shakllar hamda hosilalar o'rtasida oraliq joyni egallaydigan bir guruh hosila so'zlarning muammosi bugunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Ularning farq qiluvchi o'ziga xos xususiyati shundaki, ularni hosil qilishning usuli ham ifoda planida, ham ayniqsa mazmun planida yuqori darajada muntazam xarakterga ega bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Biz so'zning grammatik shakllari semantik jihatdan aynan bir xilligi, tovush xususida bir xil emasliklari (stol – stolning – stollar), biroq ularning tovush tafovutlari muntazam xarakterga ega sanaladi. Bunday hollarda lug'atning so'zligiga so'zning faqat bitta, asosiy shakli kiritiladi, qolganlari esa kiritilmaydi. Tovush tafovutlari nomuntazam xarakterga ega bo'lgan so'zlarning grammatik shakllari bilan ish butunlay boshqachadir. Grammatik shakllarning sezilarli nomuntazamligi hollarida lug'atning barcha nomuntazam shakllari lug'atning so'zligiga kiritiladi. Ammo faqat bittasi, asosiy shakli izohlanadi, qolganlarining yonida esa asosiy shaklga havola beriladi. Masalan, hozirgi leksikografiyada fe'ning majhul nisbati bilan shunday qilishadi: aniq nisbatning shakli izohlanadi, majhul nisbat esa ta'riflanadi. Fe'ning tur shakllari bilan ham shunday qilishadi, tugallangan tur izohlanadi va tugallanmagan tur yonida tugallangan turga havola beriladi, ba'zan esa aksincha. Xuddi shunday qoida boshqa tur shakllari uchun ham mavjuddir, masalan, bir marta bo'ladigan va ko'p karrali tur shakllari izohlanmaydilar. Ammo so'zlikka havola bilan kiritiladilar. Mana shu sababga ko'ra lug'atga ilova sifatida nomuntazam kelishikli fe'l shakllarining ro'yxati izohsiz, ammo asosiy shaklga havola bilan ro'yxati ajratib ko'rsatilgan.

Garchi so'zning eskirgan orfografik variantlari so'zning grammatik shakllari hisoblanmasalar ham, ammo ular ham so'zning nomuntazam grammatik shakllari sifatida izohlanadi. Hozirgi variant izohlanadi, eski variant esa izohlanmaydi, balki havola bilan beriladi. Abbreviaturalar lug'atning oxirida ro'yxat bilan beriladi, ya'ni ular har holda so'zlikka kiritilganlar.

So'z grammatik shakllarining tovush o'xshashligi nomuntazamligining chegarasi suppletivizm hisoblanadi. Shu

sababli suppletiv variantlar so'zlikka kiritiladilar, ammo izohlanmaydilar, balki asosiy shaklga havola bilan beriladilar. Sifatlarning suppletiv qiyosiy darajalari bilan ham shunday ish tutishadi.

Fe'llarning tur va nisbat korrelyatsiyalari masalasida alohida to'xtalish kerak. Hosila so'zlar-fe'llar haqidagi masala ba'zi bir tushuntirishlarni talab qiladi. Ma'lumki, bu masala yuzasidan ikki xil nuqtai nazar mavjud. Birinchisiga ko'ra, tugallangan, (ba'zan teskarisi: tugallanmagan), ko'p karrali, bir karrali tur va majhul nisbat alohida, hosila so'zlar hisoblanadilar [1. 339]. Boshqa nuqtai nazarga ko'ra, bularning hammasi fe'ning grammatik shakllaridir [3. 310].

Jonson o'zining Lug'atida izchillik bilan tovush no'xshashligining katta nomuntazamligi bilan so'zlarning grammatik shakllar haqidagi prinsipga amal qildi. Masalan, uning Lug'atida havola bilan va izohsiz quyidagi alohida vokabulalar ajratib ko'rsatilgan:

1) O'tgan zamonning va II noto'g'ri fe'llar sifatdoshining shakllari: To swap. v.a. ... See to swop; Rode. prèt, of ride; Shook the preterite, and in poetry participle of Shake.

2) otlarning ko'plik sonining nomuntazam shakllari: Feet. pl. of foot.

Geese. The plural of goose.

Men, the plural of man.

3) Sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalarining suppletiv shakllari:

Better, adj. The comparative of good;

Worse. Adj. The comparative of bad: worse, worst;

Best adj. The superlative from good;

4) Eskirgan va ayrim so'zlarning nomuntazam grammatik shakllari:

Fone.n.s. plural of foe. Obsolete.

Treen. Old plur. of tree.

5) Alohida qayd qilish kerakki, Jonson Lug'atga vokabula sifatida havola bilan shuningdek, olmoshlarning nomuntazam (suppletiv) kelishik shakllarini kiritadi va bu bilan nazariy prinsipga rioya qiladi. Masalan:

Me.I. The oblique case of I.  
Them, the oblique of they  
Our pron.poss. ...I. Pertaining to us, belonging to us.  
My pronoun possessive. ...Belonging to me.  
Mine pronoun possessive. Belonging to me.

6) Jonson so'zning orfografik va paronimik variantlari bilan ham xuddi shunday yo'l tutadi, masalan:

|          |           |
|----------|-----------|
| Hickwall | Gantelope |
| Hickway, | Gantlet.  |

Abbreviaturalarga kelsak, u holda Jonson ularni ro'yxat bilan ajratganga qaraganda ancha izchillik bilan [4. 290-298] Lug'atning korpusiga kiritadi.

Hozirgi leksikografiyada, agar so'z grammatik shakllarining tovush noo'xshashligining nomuntazamligi uncha katta bo'lmasa, asosiy shaklga havola bilan bo'lsa ham alohida vokabulani yaratmaslik, balki bu shaklni asosiy maqolada berish qabul qilingan. Sifatlarining qiyosiy va ortirma darajasida tovushlarning o'xshashliklari nomuntazamligi, otning kelishiklarini hosil qilishning nomuntazamligi, fe'llarning shaxs, zamon, sifat-dosh shakllarining nomuntazamligi holda shunday ish tutishadi.

Jonsonning lug'atida bu prinsipni ko'rgazmali tarzda namoyish qiladigan material yo'q, biroq bunda Jonsonning hech qanday xatosi yo'q, chunki ingliz tili shakllarni hosil qilishda yoki muntazam, yoki keskin ifodalangan nomuntazam usullardan foydalanadi, oraliq holatning – nomuntazamlilikning darajasi oz hamda nihoyatda kam.

Na Jonson, na hozirgi me'yoriy-izohli lug'atlar ba'zan so'zning nomuntazam grammatik shakllarini alohida vokabula ko'rinishida (izohsiz va havola bilan), balki so'zning asosiy grammatik shaklida joylashtiradilar. Masalan, Jonson o'tgan zamon sifat-doshini va noto'g'ri fe'llarning sifat-dosh II shaklini faqat alohida vokabula bilan emas, balki asosiy shakli yonida ham beradi. S.I. Ojegovning lug'atida fe'llning tugallanmagan turi alohida vokabula bilan (izohsiz va tugallangan turga havola bilan) va asosiy shaklning yonida beriladi (masalan, вытаскивает-вытащит, окружатся-окружит maqolalarini qarang) [2].

Shunday qilib, Jonsonning lug'atida so'zning nomuntazam grammatik shakllari, odatda, alohida vokabulaga (o'zining alfavitdagi o'rnida) so'zning asosiy grammatik shakliga havola bilan beriladi.

“Ma'nosi ularning hosil qilinishidan tushunarli bo'lgan hosila so'zlarning ba'zi bir kategoriyalari asosning ma'nosi izohlanadigan boshqa so'zlariga havola qilinadigan shartli formula yordamida aniqlanadilar...”

Vokabulalar yonidagi izohlarni havola bilan almashtirishning yagona asosi ularning semantik aynan o'xshashligidir. Ularning tafovutiga kelsak, u holda bu leksik emas, balki grammatik tafovutdir. Shunday ekan, leksikograflar uchun sanab o'tilgan so'zlarning barcha juftliklari haqiqatan bitta so'zning grammatik shakllaridir, deb hisoblashimiz mumkin. Biroq tovush noo'xshashligining sezilarli darajadagi nomuntazamligi sababli ular alohida vokabulalarga ajratilgan, ulardan bittasi izoh o'rniga boshqasiga havolani o'z ichiga oladi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, biz uchun quyidagilarni farqlashga hech qanday asoslar yo'q: 1) ifoda planida bitta so'zning keskin nomuntazam grammatik shakllarini (masalan, sifatlarining suppletiv darajalarini) va 2) boshlang'ich va hosila, semantik jihatdan o'xshash, grammatik jihatdan har xil va tovush jihatidan sezilarli nomuntazamlilik bilan farq qiladigan ko'rsatilgan so'zlarning juftliklarini. Har ikkala holda so'zlar har xil vokabulalarda joylashadilar, ammo ikkilamchi shakllar asosiyga havola qilinadilar. Ayniqsa bu yasama so'zlar faqatgina “osonlik bilan tushunilib” qolmay (ya'ni semantik jihatdan aynan bir xil), balki “osonlik bilan hosil qilinsa” ham (ya'ni tovush noo'xshashligi muntazam xarakterga ega bo'ladi) shubhasizdir. Bu bilan ular semantik jihatdan o'xshash, grammatik jihatdan har xil va o'zlarining tovush noo'xshashligida muntazam bo'lgan so'zlarning grammatik shakllaridan farq qilmaydilar.

|                                                                                                                                               |            |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| Faulconry. See falconry;                                                                                                                      | To         |
| Foreshew. See foreshow;                                                                                                                       |            |
| Tyre n.s. See. tire;                                                                                                                          | Ballister. |
| See balustre.                                                                                                                                 |            |
| Tenant.n.s. See tenet;                                                                                                                        |            |
| Paronimik variantlarning noo'xshashliklari arziyas bo'lgan hollarda, Jonson asosiyning yonida ikkinchi darajali variantlarni beradi. Masalan: |            |

|           |            |
|-----------|------------|
| Pannicile | Pasqui1    |
| Pannick,  | Pasquin    |
|           | Pasquinade |

Jonsonning bunday yasama so'zlarning xususidagi ko'rsatmasi hozirgi ko'rsatma bilan aynan bir xil. Farq shundaki, hozirgi leksikografiyada lug'at tarifini ikkita bir biriga qarama-qarshi qo'yilgan qismlarga ajratish qabul qilingan (shrift bilan ajratib ko'rsatilganlar) Birinchi qism (harflarning orasi ochib yozilgan), shartli formula, hosila so'zni grammatik jihatdan, ikkinchi qism semantik jihatdan xarakterlaydi. Ikkinchi qism fe'ldan yasalgan otni semantik jihatdan aynan o'xshash fe'lga havola qiladi. Jonsonda biz o'sha manzarani (grammatik va semantik qismni ajratib ko'rsatishni) kuzatamiz, ammo shriftlar bilan ayirib ko'rsatishlarsiz. SHu usul bilan Jonsonning Lug'atida, masalan, sinxronik hosila so'zlarning quyidagi so'zlari izohlanadi:

I. Fe'llardan yasalgan boshqa yoki o'sha so'z turkumining so'zlari:

1) Ish-harakatning bajaruvchisini bildiruvchi, fe'llardan -er, -or suffikslari yordamida hosil qilingan, fe'llardan sub'yektivlik grammatik belgisi bilan farq qiluvchi otlar. Masalan:

Hasarder.n.s. he who hazards  
Hater.n.s. One that hates.  
Inkmake.n.s. he who makes ink.  
Regulator.n.s. ...1. One that regulates.

2) Ish-harakatning jarayonini bildiradigan, fe'llardan -ion, -tion, -ation, -sion, -ssion cuffikslari yordamida hosil qilingan otlar. Masalan:

Présentation.n.s. ...I. The act of presentation  
Depression.n.s. ...I. The act of depression  
Deputations, n.s. I. The act of deputing  
Spiritualisations, n.s. ...The act of spiritualizing.

3) Holatni bildiruvchi, sifat-doshlardan -ness cuffiksi yordamida hosil qilingan otlar. Masalan:

Forgiveness.n.s.I. The act of forgiving.  
Preparedness.n.s. the state or act of being prepared.

Sinxronik so'zlarning bu kategoriyasidan ko'plari lug'atga kiritilmagan [5. 4].

4) Ushbu harakatga duchor bo'lishi mumkinligini bildiruvchi fe'llardan hosil qilingan otlardan -able, -ible suffikslari yordamida yasalgan sifatlar. Masalan:

Dissolvable. adj. Capable of dissolution.  
Relievable. adj. ...Capable of relief.  
Reducible, adj. ...possible to be reduced

5) Fe'llarning o'zidan un- old qo'shimchasi yordamda yasalgan inkor ma'noli fe'llar. Masalan:

Unknown.adj. I. Not known.  
Unintrenched.adj. Not intrenched.  
Unconvinced, adj. Not convinced.  
Unaccepted, adj. ...Not accepted.

Bu kategoriyadagi so'zlarning ko'plari Lug'atga kiritilmagan [5.5].

6) Fe'llarning o'zidan re- old qo'shimchasi yordamida yasalgan, ish-harakatning takrorlanishini bildiruvchi fe'llar. Masalan:

To reconduct. v.a. ...To conduct again.  
To reecho, v.n. ...To echo back  
To reclose, v.a. ...to close again  
To recarry.v.a. ...to carry back.  
To rehear, v.a. ...To hear again.

Bu kategoriyadagi so'zlarning ko'plari Lug'atga kiritilmagan [5. 5].

7) Fe'llarning o'zidan over- prefiksi yordamida yasalgan, ish-harakatning haddan tashqari davomlilikini yoki jadalligini bildiruvchi fe'llar. Masalan:

To overlive.v.n. to live too long  
 To overharden.v.a. ...to make too hard.  
 To over-drive.v.a. ...to drive too hard, or beyond strength.  
 To over-heat.v.a. ...to heat too much.

II. Sifatlardan hosil qilingan sifatlar va so'z turkumining boshqa so'zlari:

1) Sifatlardan -ness suffiksi yordamida yasalgan, fazilat (xususiyat) yoki holatni bildiruvchi otlar. Masalan:

Reducibleness.n.s. ...Quality of being reducible.

Relativeness.n.s. ...The state of having relation

Speediness.n.s. ...The quality of being speedy.

Bu sinxronik hosila otlardan ko'plari Lug'atga kiritilmagan.

2) Sifatlardan -ly suffiksi yordamida yasalgan, ish-harakatning belgisini bildiruvchi ravishlar. Masalan:

Ruggedly. adv. ...in a rugged manner

Ministerially. adv. in a ministerial manner

Slipperily. adv. ... In slippery manner.

Ulardan ko'plari, shaxsan Jonsonning ko'rsatib o'tishicha, yasovchi so'zning semantik o'xshashligi sababli, Lug'atga kiritilmagan [5.5].

3) Sifatlarning o'zidan un- old qo'shimchasi yordamida yasalgan inkor ma'noli sifatlar. Masalan:

Unconvinced. adj. Not convinced

Unconversible. adj. Not suitable to conversation.

Uncapable. adj. Not capable;...

Hosila so'zlarning bu kategoriyasidan ko'plari Lug'atga kiritilmagan.

4) Sifatlardan over- old qo'shimchasi yordamida yasalgan, sifatning haddan tashqari yuqori darajasini bildiruvchi sifatlar. Masalan:

Overzealous, adj... Too zealous.

Over-great. adj. ...Too great

Overlong. adj. ...Too long.

III. Otlardan hosil qilingan boshqa so'z turkumining otlari. Bular asosan, otlardan -less suffiksi yordamida yasalgan, otning o'zagida ifodalangan belgining mavjud emasligini bildiruvchi sifatlardir:

Feetless. adj. ...being without feet

Crimeless. adj. ...without crime.

Bottomless. adj. without a bottom

Barless. adj. ...without any ears

IV. Canoq sonlardan -th suffiksi yordamida yasalgan tartib sonlar. Masalan:

Fourth. adj. ...the ordinal of four

Fifth. adj. ...the ordinal of five

Fifteenth. adj. ...the ordinal of fifteen.

Sinxronik hosilalikka ko'rsatma Jonsonning Lug'atida, Lug'at maqolasining etimologik qismida takrorlanadi. Masalan:

Borrow. n.s. G'from verbG'. The thing borrowed.

Borrower, n.s. G'from borrowG'. I. He that borrows he that takes money upon trust; opposed to lender.

Popularly.adv. G'from popularG'. I. In a popular manner; so as to please the crowd.

Spirituousness. n.s.G'from spirituousG'. The quality of being spirituous, tenuity and activity

Demak, lug'atga kiritiladigan, ammo izohlanmaydigan, balki yasovchi so'zga havola qilinadigan hosila so'zlar masalasida biz Jonsonning qarashlari bilan hozirgi leksikograflarning qarashlari o'rtasidagi to'liq o'xshashlikni ko'ramiz.

Me'yoriy-izohli lug'atlarning tuzuvchilari o'zlarining Lug'at Deklaratsiyasining eng birinchi paragrafida lug'atga me'yoriy leksikani kiritishni zimmasiga oladilar [2. 4; 5.8]. Shunga qaramasdan, me'yoriy leksika so'zlarining katta guruhi, sinxronik hosila so'zlar, yoki me'yoriy-izohli lug'atga kiritilmaydilar, yoki kiritiladilar, ammo izohlanmaydilar. Bir qarashda, unisi ham, boshqasi ham g'alati. Ayniqsa ikkinchisi. So'zlarni nima uchun lug'atga kiritish kerak, agar ular izohlanmasalar? Biroq haqiqatda esa leksikograflarning nuqtai nazarlari chuqur asoslangan bo'lib chiqyapti. Lug'atga "osonlik bilan tushuniladigan" va "osonlik bilan hosil qilinadigan" sinxronik hosila so'zlar kiritilmaydilar, boshqacha qilib aytganda, 1) semantik jihatdan hosil qiluvchi so'zlarga o'xshash so'zlar, 2) tovush jihatdan hosil qiluvchilardan muntazam farqlarga ega bo'lgan so'zlar, 3) hosilalardan noseantik jihatdan (grammatik jihatdan) farq qiluvchi so'zlar kiritilmaydilar. Lug'atga 1) va 3) belgilar bilan sinxronik hosila so'zlar kiritiladilar, ammo izohlanmaydilar, agar hosil qiluvchi so'zlar bilan tovush farqlari nomuntazam xarakterga ega bo'lsa.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, so'zning oddiy grammatik shakllari kabi, agar muntazam bo'lmasalar, lug'atga kiritilmaydilar, ammo izohlanadi. Agar ular muntazam bo'lmasalar, lug'atga kiritiladilar, ammo izohlanmaydilar. Oxirgining (ya'ni muntazam bo'lmaganlarning) oxirgi ko'rinishi so'zning suppletiv grammatik shakllari hisoblanadilar. Jonsonning Lug'atida ishlab chiqilishining o'ziga xos xususiyatlarini ancha diqqat bilan qilingan tahlili shuni ko'rsatadiki, bu hollarning hammasi leksikografiyada lug'aviy ta'rifning havola usuli qo'llaniladi. Agar bu fakt har doim ham yetarli darajadagi aniqlik bilan tushunib olinmasa, u holda bu tovush noo'xshashligining nomuntazamligi, bitta so'zning ikkita (yoki undan ko'proq) shaklining suppletivizmi bilan bog'liq bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Грамматика современного русского литературного языка. Под ред. Шведовой Н.Ю.. Изд-во "Наука", М., 1970, стр.768;
2. Ожегов С.И. Словарь русского языка. Изд-во "Мир и Образование". М., 2019, стр.1376.
3. Современный русский язык. Морфология. М., 1952, стр. 310.
4. Ступин Л.П. Аббревиатуры и проблема их включения в толковые словари (на материале Большого толкового словаря Уэбстера). - В сб.: Вопросы теории и истории языка. Изд-во "ЛГУ", 1963, стр.290-298.
5. Johnsson S. Preface to the Dictionary of the English language. Kessinger Publishing. 2010, p.12



UDK: 413=945.375(045)

**Shamshoda RUSTAMOVA,**  
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: [azizbekshamshoda@gmail.com](mailto:azizbekshamshoda@gmail.com)

*IPU dotsenti, f.f.n X.Norxo'jayeva taqrizi asosida*

## LEXICON OF UZBEK TEENAGERS: SPEECH INNOVATION AND FEATURES OF THEIR APPLICATION

### Annotation

In the lexical layer of the language, speech innovations are more pronounced than in other layers. In particular, the speech of teenagers differs from the speech of representatives of other social strata precisely in vocabulary. 82 teenagers studying in the cities of Karshi and Tashkent participated in the study, and the material was collected by observing their speech, conducting a survey, questions and answers. According to the results of the analysis of the collected material, it was found that in the speech of adolescents there are more cases of learning words from Russian and English than new fakes, as well as the use of these units mainly to make the conversation more interesting and speed up communication.

**Keywords:** teenager, colloquial speech, vocabulary, slang, purpose of use

## ЛЕКСИКОН УЗБЕКСКИХ ПОДРОСТКОВ: РЕЧЕВЫЕ ИННОВАЦИИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ

### Аннотация

В лексическом слое языка речевые нововведения проявляются более ярко, чем в других слоях. В частности, речь подростков отличается от речи представителей других социальных слоев именно лексикой. В исследовании приняли участие 82 подростка, обучающихся в городах Карши и Ташкент, и был собран материал путем наблюдения за их речью, проведения опроса, вопросов и ответов. По результатам анализа собранного материала установлено, что в речи подростков больше случаев усвоения слов из русского и английского языков, чем новых подделок, а также использование этих единиц в основном для того, чтобы сделать разговор более интересным и ускорить общение.

**Ключевые слова:** подросток, разговорная речь, лексика, сленг, цель использования

## O'ZBEK O'SMIR BOLALARI LEKSIKONI: NUTQIY INNOVATSIYALAR VA ULARNING QO'LLANISH XUSUSIYATLARI

### Аннотация

Tilning leksik qatlamida nutqiy innovatsiyalar boshqa qatlamlarga nisbatan yorqinroq namoyon bo'ladi. Ayniqsa, o'smirlar nutqi boshqa ijtimoiy qatlam vakillari nutqidan aynan leksikasi bilan farqlanadi. Tadqiqotda Qarshi va Toshkent shaharlarida tahsil olayotgan 82 ta o'smir yoshidagi bolalar ishtirok etishib, ularning nutqini kuzatish, so'rovnomaga o'tkazish, savol-savob qilish orqali material to'plandi. To'plangan material tahlili natijalariga ko'ra o'smirlar nutqida yangi yasalmalardan ko'ra rus va ingliz tillaridan so'z o'zlashtirish holati ko'proqligi hamda mazkur birliklardan, asosan, so'zlashuvni qiziqroq qilish va muloqotni tezlatish uchun foydalanishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** o'smir, og'zaki nutq, leksika, sleng, ishlatilish maqsadi

**Kirish.** Nutqiy innovatsiyalar birinchi navbatda bolalar va o'smirlar leksikasida ko'zga tashlanadi. Bunga sabab sifatida ularning ijtimoiy o'zgarishlarga ochiq ekanliklarini ko'rsatish mumkin. Bolalardagi nutqiy innovatsiyani S.N.Seytlin ularning nutqida qayd etilgan, ammo umumiy til muomalasida mavjud bo'lmagan hodisa sifatida qayd etadi, [1; 330]. Bola tilni atrof-muhitdan taqlid natijasida o'zlashtirib boradi. Nutq organlari va miya faoliyati yetarlicha rivojlanmagan bola murakkabroq so'z va jumalarga aynan taqlid qila olmaydi. Shu sababli kerakli mazmundagi so'zlarni hosil qilish uchun ijodkorlik (oldin o'zlashtirilgan birliklardan yangi so'zlar hosil qilish) talab etiladi. M.Qurbonova mazkur hodisaga quyidagicha ta'rif beradi: "...bolada ijod mahsulining paydo bo'lishi va boyib borishi mazmun bilan ifodani talab etuvchi jarayonda tayyor so'zning mavjud emasligi bilan belgilanadi. Shu tufayli bolalar nutqidagi yoddan chiqarilgan leksik birliklarning o'rmini yangi so'zlar to'ldiradi", [2; 73]. O'smirlardagi nutqiy innovatsiyalar esa bolalar nutqidagidan tubdan farqlanadi. Bolalardagi nutqiy innovatsiyalar tabiiy talab natijasida hosil qilinsa, o'smirlarda bu holat ularning o'z nutqlariga alohida yondashuvlari natijasi hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bunday tarkibiy tuzilish o'smirlarga o'z dunyolarini barpo qilish, uni begonalarni (asosan, ota-ona, o'qituvchi, yoshi katta insonlar, boshqa guruh o'smirlari)dan asrash, yashirish imkonini beradi. Nutqiy innovatsiyalar tilning barcha qatlamlarida kuzatiladi, ammo leksik nutqiy innovatsiyalar o'smirlarning o'ziga xos tilini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. So'nggi yillarda ko'plab tilshunslar nutqiy innovatsiyalar, neologizmlar, okkazonal

so'zlar, normativ bo'lmagan leksika, sleng, jargon kabi mavzularda izlanishlar olib borishganini kuzatish mumkin. Jumladan, dunyo tilshunosligida o'smirlarning o'ziga xos leksikasi F.Nuraeni, A.P.Arbi, N.Kalim, Z.Vei, S.H.Shahraki, R.Oxbury, J.Roth-Gordon, M.O.Kuts, A.Ardianto, Y.A.Gomaa, G.Tambunsaribu ishlarda yoritilgan, [4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13].

Rus tilshunosligida ham o'smirlar va yoshlar nutqining leksik qatlami turli yondashuvlar asosida tadqiq qilingan. S.Talanov, G.A.Izmaylova, E.A.Baranova, Ye.N.Guts, X.K.Magomadova, S.Goydova, Yu.N.Papula, Ye.Matyushenko, D.S.Seyfaddinova kabi olimlar o'z ishlari o'smirlar va yoshlar leksikasini tadqiq qilishgan, [14, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22].

O'zbek tilshunosligida bir qator olimlar tilning leksik qatlami doirasida tadqiqotlar olib borishgan. M.Qurbonova, D.Yuldasheva, L.S.Xudoyberdiyeva, B.Umurqulov, O.To'xtasinova ishlari maktabgacha yoshdagi bolalar leksikasi, bolalar nutqidagi zoonimlar, o'zbek tilidagi nominativ birliklar, yozma va og'zaki nutqdagi so'z, okkazonalizm mavzulari yoritilgan, [2, 23, 24, 25, 26].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida Toshkent va Qarshi shaharlaridagi maktab o'quvchilaridan savol-javob metodi hamda o'smirlarning ijtimoiy tarmoqdagi chatlarini kuzatish orqali ularga xos leksik va frazeologik birliklar yig'ib olindi. Mazkur leksik birliklar qanday maqsadlarda ishlatilishini aniqlash maqsadida 82 ta 7-8-sinf o'quvchilaridan qo'shimcha so'rovnomaga o'tkazildi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbek o'smir yoshdagi bolalar nutqiga xos leksik birliklar, asosan, boshqa tildan



o'zlashganligini, qiyoslash orqali so'zga yangi ma'no yuklash holatlarini kuzatish mumkin. Yangi so'z yasash holatlari esa deyarli kuzatilmaydi. Yuqorida qayd etilganiday, o'smir yoshdagi bolalar nutqidagi innovatsiyalar bolalarniki singari ilojisizlikdan emas, atayin hosil qilinadi. Bu bilan ular alohida shaxslar guruhiga kirishlarini, zamonaviy va o'ziga xos ekanliklarini ko'rsatishni maqsad qilishadi. O'zbek tilida so'zlashuvchi o'smirlar nutqida uchrovchi leksik innovatsiyalar, asosan, o'zlashma so'zlardan iboratdir. O'smirlar nutqini kuzatish va savol-javob natijasida jamlangan leksik-frazeologik birliklarning yarmi rus va ingliz tillaridan o'zlashgan so'zlardan iboratdir. Ularning ba'zilar yangi tushunchalarni nomlash (neologizmlar) uchun ishlatilsa, ba'zilaridan o'smirlar nutqini zamonaviylashtirish, o'ziga xosligini ta'minlash uchun foydalaniladi.

Leksik birliklarni nutqdagi ma'nosini o'rganish o'smirlar nutqini, bolalar emotsional holatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Rus tili ta'siri ostida bugungi kunda o'smirlar nutqidagi ko'plab ushbu tildan kirib kelgan so'zlarning ma'nolari katta yoshli til tashuvchilariga tushunarli. Lekin ingliz tilidan kirib kelgan yangi leksika o'smirlar nutqini boshqa qatlam nutqidan sezilarli farqlaydi. Quyida o'smirlar nutqida tez-tez ishlatiluvchi leksika va uning ma'nolari berilgan.

Dalniy (дальный) – uzoqdagi. Odatda maktab hududidan uzoqda yashovchi bolalarga nisbatan ishlatiladi.

Vorzagon (вор в законе) – qonun doirasidagi o'g'ri. O'ziga bino qo'ygan odamlarga nisbatan ishlatiladi.

Mazgi (мозг) – miya. Ezmalanmoq.

Pal (паль) – soxta, original emas. Ba'zan ko'chma ma'noda shaxslarga nisbatan ham ishlatiladi.

Sabrazm (собирать) – yig'ish. Pul yig'ish jarayoni.

Jiza (жизнь) – hayot. Hayotiy vaziyat.

Dushnila (душный) – boshqalar bilan suhbatlashishi qiyin bo'lgan shaxs. Haddan tashqari ezmaligi, mayda gapligi, hazillarni ko'tara olmasligi sababli atrofdagilarning yuragini siqadigan odam.


O'smirlar nutqida uchrovchi ingliz tilidagi so'zlar ham rus tili orqali yoshlar nutqiga o'rnashgan.

Level (level) – daraja. Tilni bilish darajasini anglatadi.

Lobby (lobby) – PABJ o'yinida ishtirokchilarga musobaqa parametrlarini mustaqil tanlash imkonini beruvchi ishtirokchi kartasi.

Krash (crush) – juda yoqadigan, lekin erishish qiyin bo'lgan inson.

Diagramma



Bugungi kunda o'zbek tilida so'zlashuvchi o'smir bolalar leksikoni turli tashqi ta'sirlar natijasida ancha boyigan. Ularning nutqida faol qo'llanuvchi leksik birliklarning ba'zilar shaxsiy ijod namunasi bo'lsa, ba'zilar rus va ingliz tillaridan o'zlashgan.

Chetdan o'zlashgan so'zlar o'smirlarning qaysi hududda yashashiga ko'ra bir-birdan farqlanadi. Ijtimoiy tarmoqlar turli hudud vakillarini bir umumiy kommunikatsiya maydonida birlashtirsa-da, ular yashayotgan muhit, ta'lim dargohi o'smirlar leksikasiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Masalan, viloyat markazlarida yashovchi o'smirlar o'rtasida rus tilidan o'zlashgan so'zlar ko'p uchrasa, poytaxtda yashovchi bolalar nutqida rus tilidagi so'zlar bilan birgalikda ingliz tilidagi so'zlar (izi (oson), krash (yetishish qiyin bo'lgan sevimli inson), vayb (atmosfera), flop (omadsiz) va h.k.) ham faol qo'llana boshlagan. Bundan tashqari, o'smirlar og'zaki nutqida frazeologizmga teng birliklar ham faol qo'llanishini kuzatish mumkin. Miya zamikaniya bermoq (xato qilmoq), miyaga majlis bo'lyapti (o'ylamoq),

Vayb (vibe) – vibratsiya. Ma'lum bir shaxs, joy, narsa yoki vaziyatdan kelib chiqadigan kayfiyat muhiti.

Pruf (proof) – isbot.

Rofl (rolling on the floor laughing) – hazil.

Chill (chill) – sovuq. Hordiq chiqarmoq, bo'shashmoq.

Harakatdan qizigandan so'ng dam olish natijasida so'vish.

Voys (voice) – ovoz. Ovozli xabar.

Izi (easy) – oson.

Merch (merchandise) – ma'lum bir brend logotipi tushirilgan mahsulot.

Skin (skin) – O'yin qahramoni tashqi ko'rinishi, kiyimi.

Sloupok (slowpok) – sekin harakatlanuvchi o'yin qahramoni (pakemon) nomi. Sekin harakat qiluvchi, tez qaror chiqara olmaydigan shaxs

Tresh (trash) – chiqindi. Dahshat ma'nosida ishlatiladi.

Imba (imbalance) – nomutanosiblik, muvozanatning buzilishi. Zo'r, boshqalardan kuchli ma'nolarida keladi.

Iivat' (leave) – ketmoq. Salbiy bo'yoqdor so'z (surmoq) sifatida keladi.

Sasniy (sassy) – qo'pol, bema'ni. Lekin o'smirlar nutqida ko'rkam, chiroyli, e'tiborni tortuvchi ma'nolarida keladi.

Toksik (toxic) – zaharli. Yoqimsiz, mavjudligi bilan boshqalarni hayotini zaharlaydigan odam.

Xayp (HYPE - high-yields investment program) – Yuqori daromadli investitsiya dasturi. Shovqin ko'tarmoq (internetda).

Ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarning ba'zilar sleng sifatida o'zining asl ma'nosini yo'qotib, ko'chma ma'noda ishlatila boshlagan. Masalan, tresh, imba va sasniy so'zlari o'z salbiy bo'yoqdorligini yo'qotib, ijobiy ma'noni anglatib boshlagan.

Yuqorida berilgan o'smirlarga xos leksika turli maqsadlarda ishlatilishi bilan xarakterlanadi. I.Baresova va H.Zavissovalar yapon o'smirlarining nutqini o'rganar ekan, ularning nutqida uchrovchi leksikaning quyidagi maqsadlarda ishlatilishini ta'kidlaydi: 1) so'zlashuvni qiziqroq qilish; 2) muloqotni tezlashtirish; 3) o'zaro yaqinlikni ko'rsatish; 4) muloqot mavzusini begonalardan sir tutish; 5) muloqotga visual va akustik akzent berish; 6) muloqot jarayonidan zavqlanish, [27; 157]. Tadqiqot natijasida o'zbek tilida so'zlashuvchi o'smirlar nutqida uchrovchi so'zlar tahlil qilinib, ularning yuqorida sanab o'tilgan maqsadlarga qanchalik muvofiq kelishi aniqlangan.

Quyidagi diagrammada o'smirlar o'rtasida keng qo'llanuvchi 62 ta leksik birliklar, asosan, qanday maqsadlarda ishlatilishi ko'rsatilgan. Bunda bir so'zning bir necha maqsadlarda faol qo'llanishi inobatga olingan.

samolyot yetib bordimi (tushundingmi), o'zbek tilini tanlash uchun "1"ni bosing (sekinroq gapir) kabi birliklardan so'zlashuvni qiziqroq qilish maqsadida foydalaniladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, so'zlardagi bunday ma'no o'zgarishlari, chetdan so'z o'zlashtirish so'zlashuvni qiziqroq qilish, muloqot jarayonini tezlatish va o'zaro yaqinlikni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Shuni aytib o'tish joizki, ba'zi o'smirlar orasida so'zlardan faqatgina o'rganib qolganlik uchun foydalanish holati kuzatildi. Ya'ni avvaliga mazkur so'zlardan biror guruh (o'smirlar)ga mansublikni ko'rsatish, muloqotni qiziqroq qilish kabi maqsadlarda foydalanilgan bo'lsa, keyinchalik nutqda ishlatiluvchi asosiy leksik birlik sifatida ishtirok eta boshlagan.

**Xulosa va takliflar.** G.A.Izmaylova yoshlar o'zlari ishlatadigan sleng (nutqiy innovatsiya)ga oid so'zlarning shakllanishi va kelib chiqishi haqida ma'lumotga ega emasliklari, shuningdek, so'zlar har doim ham bir xil ma'noda ishlatilmasligi, shuning uchun ular leksik ma'noning noaniq bo'lishi bilan

tavsiflanishini qayd etadi, [15]. Joriy tadqiqot natijasiga ko'ra ham bir leksik birlik bir necha ma'nolarda ishlatilishi, ko'plab o'smirlar o'z nutqida qo'llayotgan so'zlar aslida qanday ma'no anglatishini bilmasliklari aniqlandi. Masalan, "burga", "muttichcha", "ilib qo'ymoq", "vorzagon", "kachal", "jizmakalla", "bot" kabi o'smirlar nutqida faol qo'llanuvchi so'zlarning asl

kelib chiqishi ko'plab bolalarga tushunarsiz bo'lib, ular mazkur so'zlar qanday vaziyatda ishlatilishiga qarab taxminiy ma'nosini anglab oladilar. Noto'g'ri anglangan ma'no keyinchalik so'zlarning asl mohiyatini bilmadan turib foydalanishga olib keladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Цейтлин С.Н. Детские речевые инновации: опыт анализа. Исследования по языкознанию: К 70-летию члена-корреспондента РАН А.В. Бондарко. - СПб., 2001. - С. 329-336.
2. Qurbonova M. O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. – T.: Fan va texnologiya. 2014.
3. Шило Т.Б. Инновации в языке современных подростков// Филология и лингвистика. 2015. № 1 (1). — С. 9-12. URL: <https://moluch.ru/th/6/archive/11/165/>
4. Nuraeni F., Pahamzah J. An analysis of slang language used in teenager interaction. Litera. Vol. 20. No2. 2021, Pp: 313-322.
5. Arbi A.P. Kalim N. Analysis of slangs used by the students of 9A class of SMP PGRI Wringinanam. Journal Hurriah: Journal Evaluasi Pendidikan dari Penelitian. Vol. 3, No 3. 2022, Pp: 53-63.
6. Vei Z. Analysis of Russian youth slang by native Chinese. ShS Web of Conferences Vol. 134: 00012. 2022.
7. Shahrahi S.H. Check this one out: Analyzing of slang usage among Iranian male and female teenagers. English language teaching. Vol. 4, No. 2, 2011. Pp: 198-205.
8. Oxbury R., Hunt M., Cheshire J. Epistemic phrases and adolescents speech in West London. English Language and Linguistics, Vol. 27, No.4, 2023. Pp: 815–848.
9. Roth-Gordon J. Youth, slang, and pragmatic expressions: Examples from Brazilian Portuguese. Journal of sociolinguistics. Vol. 11, No. 3, 2007, Pp: 322–345.
10. Kuts M.O. Place of youth slang and banter in the lexical system of modern English and Ukrainian languages. Інтеллект. Особистість. Цивілізація. ISSN 2079-4835. № 1 (26) 2023. Pp: 27-40.
11. Ardianto A. Linguistics initiative code – switching and slang: An analysis of language dynamics in the everyday lives of generation Z. Linguistics Initiative Vol:4(1), 2024, Pp: 76-87.
12. Gomaa Y.A. Saudi youth slang innovations: a sociolinguistic approach// International journal of linguistics and communications. Vol. 3, No. 2, 2015. Pp. 98-112.
13. Tambunsaribu G. The use of rude words by Indonesian teenagers: a sociolinguistic case. Advances in Social Science, Education and Humanities Research, vol. 297. Pp: 126-129.
14. Talanov S. Youth slang in students' speech: Role in communication, scale of distribution, causes and peculiarities of usage. Alma mater vestnik Vysshiiy shkoly. No 10. 2023, Pp: 106-116.
15. Izmaylova G.A. Features of youth slang functioning. International journal of humanities and cultural studies ISSN 2356-5926. 2016, Pp: 563-572; [https://www.researchgate.net/publication/325386951\\_Features\\_Of\\_Youth\\_Slang\\_Functioning](https://www.researchgate.net/publication/325386951_Features_Of_Youth_Slang_Functioning)
16. Баранова Е.А., Лаврова К.А., Чебаненко В.В. Американский молодежный сленг в российских медиа. Вестник РУДН. Серия: Литературоведение. Журналистика. Vol. 27, No 4, 2022. Сс: 775–787.
17. Гуц Е.Н. Ненормативная лексика речи современного городского подростка (в свете концепции языковой личности).: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Барнаул, 1995. Стр.23.
18. Магомадова Х.К. Инновации в словарном составе современного русского языка (Конец XX- начало XXI вв.): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2005. Стр.28.
19. Гойдова С. Молодежный жаргон в системе современного русского национального (общеобразовательного) языка.: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2004. Стр.24.
20. Папула Ю.Н. Окказионализмы новейшего времени: структурно-семантический и функционально-прагматические аспекты.: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2005. Стр.28.
21. Матюшенко Е.Е. Современный молодежный сленг: формирование и функционирование.: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2007. Стр.27.
22. Сейфадинова Д.С. Устаревшая и инновационная лексика лезгинского языка.: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Махачкала, 2008. Стр.22.
23. Yuldasheva D. Bola nutqida zoonimlarning etnopsixolingvistik xususiyatlari // Xalq ta'limi. - Toshkent, 2004. - № 5. - B. 73-78.
24. Xudoyberdiyeva L.S. O'zbek tilida nominativ birliklarning darajalanishi: Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. - Toshkent, 2003. - 23 b.
25. Umurqulov B. Yozma va og'zaki nutqda so'z // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2002. - № 2. - B. 64-66.
26. To'xtasinova O. Okkazonalizmlarning nutqiy vazifasi // Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2006. - № 4. - B. 22-26.
27. Baresova I., Zaviszova H. Creativity and Innovation in Word Formation by Japanese Young People. Language Use and Linguistic Structure: Proceedings of the Olomouc Linguistics Colloquium 2013. 157-170. 10.5507/ff.14.24440606.11.



UDK: 808.03(045)

**Nargiza SUYAROVA,**  
*Qarshi davlat universiteti dotsenti*  
E-mail: [suyarovnargiza567@gmail.com](mailto:suyarovnargiza567@gmail.com)

*Qarshi davlat universiteti professori T.Jumayev taqrizi ostida,*

#### ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA METAFORALARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya

Maqolada metaforalar va ularning badiiy matnlardagi roli haqidagi aniq tushunchalar taqdim etilgan. Unda metaforalarning ijodiy samaradorligi, ularning hissiyotlarni va ma'nolarni ifodalashdagi ahamiyati, shuningdek, g'oyalarning chuqurligini va ko'p qirraligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, she'riyatida metaforalar qanday ishlatilgani va ularning ijodiy kontekstidagi o'rni to'g'risida kengaytirilgan tahlil keltirilgan, umuman olganda maqolada metaforalarning estetik ta'siri, ularning tabiat, inson va oilaviy munosabatlar bilan bog'liq obrazlar orqali qanday namoyon bo'lishi, hamda ularning to'g'ri va samarali ishlatilishiga ahamiyat berilgan.

**Kalit so'zlar:** She'riy matn, emotsional ta'sir, kognitiv funksiya, kommunikativ funksiya, mifopoez, badiiy tasvir, tashqi va ichki obrazlar.

#### УПОТРЕБЛЕНИЕ МЕТАФОР В ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА

Аннотация

В статье представлены четкие представления о метафорах и их роли в художественных текстах. Рассматриваются творческая эффективность метафор, их значение в выражении чувств и смыслов, а также глубина и многогранность идей. Также приведен расширенный анализ того, как метафоры используются в поэзии и какова их роль в творческом контексте. В целом, в статье подчеркивается эстетическое воздействие метафор, их проявление через образы, связанные с природой, человеком и семейными отношениями, а также уделяется внимание правильному и эффективному использованию метафор.

**Ключевые слова:** Поэтический текст, эмоциональное воздействие, когнитивная функция, коммуникативная функция, мифопоэз, художественное изображение, внешние и внутренние образы.

#### THE USE OF METAPHORS IN THE POETRY OF ABDULLA ORIPOV

Annotation

The article presents a clear understanding of metaphors and their role in literary texts. It shows the creative effectiveness of metaphors, their importance in expressing feelings and meanings, as well as the depth and versatility of ideas. Also, an extended analysis of how metaphors are used in his poetry and their place in the creative context is presented. In general, the article discusses the aesthetic effect of metaphors, how they are manifested through images related to nature, human and family relationships. importance is given to their correct and effective use.

**Key words:** Poetic text, emotional impact, cognitive function, communicative function, mythopoesis, artistic image, external and internal images.

**Kirish.** She'riy matnlarning kommunikativ xususiyatlari ilmiy va rasmiy matnlarning muloqotga oid xususiyatlaridan axborot va ta'sir qilish unsurlaridan qaysi birining ko'proq ustuvorlikka egaligi bilan farqlanadi. She'riy matnlarda axborot berish vazifasi ma'lum darajada susaygan bo'ladi, ammo buning o'rni ba'diy matnlarda ta'sir qilish imkoniyati kuchliroq bo'ladi. Shu sababdan she'riy matnlarda emotsiyalar, hissiyotlar, badiiy san'atlar juda ko'proq foydalaniladi, ular sirasida ko'chma ma'noga asoslanganlari, ayniqsa, sermahsul bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Metafora muhim rol o'ynaydigan rus tilshunosligida F.I.Tyutchev she'riyatining ruhiy faoliyat mahsuli sifatidagi o'ziga xosligi uning poetik tilidagi asosiy konseptual metaforalarni aniqlash va har tomonlama tahlil qilish natijasida aniq namoyon bo'ladi. F.I.Tyutchev, avvalo, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar haqidagi falsafiy va mifopoetik qarashlarining amalga oshirilishini belgilaydi.

Metafora hodisasining o'zi inson tomonidan dunyoni tajriba asosida tushunish mahsulidir, deb ta'kidlagan edi. Metafora – bu tilda mavjud bo'lgan so'z yoki iborani avvalgi ma'noning bir qismini berish uchun tushunilgan obyektga murojaat qilish uchun ishlatishdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** S. Hojiyev ma'no ko'chishi faqat nominativ vazifa bajaribgina qolmay, balki ma'lum bir ijtimoiy ongda borliqning lisoniy tasvirini berishi vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu borada tadqiqotchi Sh. Maxmaraimovanning teomorf obrazlarning lokal mifologik tizimlar ta'siridagi etnogenezisini tekshirib va uning diniy metaforadan farqini ochib, teomorfik metafora atamasining jahon tilshunosligidagi talqinini

mumtoz Sharq e'tiqodiy falsafasi nuqtai nazaridan tanqidiy ko'rib chiqdi. Ushbu davrning ichki metaforologiyasida N.D.Arutyunova tadqiqotlari ajralib turadi. Uning fikriga ko'ra, til antropomorfikdir va shuning uchun inson til hodisalarini tahlil qilishda mos yozuvlar nuqtasiga aylanadi. N.D.Arutyunova metaforalarning batafsil funksional tasnifini beradi, bunday til birliklarining "qat'iylik" darajasiga e'tibor qaratadi. G.N.Sklyarevskaya, asosan, metaforizatsiya jarayonida ishtirok etadigan bir qator semantik maydonlarni aniqlaydi, va ularning uchasi inson bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Jahonda metaforaga qiziqish insoniyat taraqqiyotida ilmga daxldor hodisalar paydo bo'lishi bilan bog'liq holda shakllana boshlagan. Bejiz bu masala buyuk mutafakkirlar Aristotel, J.J. Russo, V. Hegel va boshqalarning e'tiborini tortmagan. Bizga ma'lum, metafora bilan nafaqat olimlar, balki so'z bilan ish ko'ruvchi barcha soha vakillari qiziqishgan.

Metafora vazifasini bajaradigan eng qiziqarli kontekstlardan biri she'riy nutqdir. Poetik tilning o'ziga xosligi shundaki, u til birliklarining semantik salohiyatini aniq ochib beradi, shuning uchun dunyoning poetik manzarasi mantiqan bir-biridan farq qiladi. Bu yerda metafora dunyoni tushunish va qayta tiklash uchun vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqotga qiziqish muallifning metaforizatsiyasi emas, balki muallifning badiiy merosida umumiy tildagi metaforik modellarning xususiy timsolidir. Metafora insonning bevosita jismoniy tajribasiga yaqinroq bo'lgan sohalar bo'yicha yangi konseptual sohalarni tushunishning bir vositasidir.

Ayniqsa, metaforalar ta'sirchanlikni kuchaytirish, voqelikni bo'rttirish, ifodaviylikni oshirish intensial vazifasini bajaradi. Xususan, quyidagi she'riy matnda metaforalarning turlicha shakllarini uchratish mumkin:

Masalan.

Eh, siz tog'lar, naqadar ko'rkam!

Sizga berar ilk nurin quyosh.

Par bulutlar, marvarid qorlar

Yuksak cho'qqi uzra qo'yg'an bosh.

SHo'x shalola toshar hayqirib,

Ko'ksingizga baxsh etib chiroy.

Qoyalarga bosh urar sapchib,

Suvlar to'lib oqqan toshqin soy.

“Abdulla Oripov she'riyatida qo'llangan lisoniy metaforalar lisoniy asosli metaforik ma'no hosil bo'lishi shakliy o'xshashligi asosida yuz beradi. Bunda so'z semantik strukturasiidagi denotativ semaning o'zgarishi, konnotativ va funksional semaning saqlanishi kuzatiladi. Ayrim holda konnotativ va funksional semada ham o'zgarish kuzatiladi. Bu, albatta, denotativ semadagi o'zgarish natijasidir.

Lisoniy asosli metaforalarni kuzatish natijasida amin bo'ldikki, metaforik ma'no hosil bo'lishi va uning voqelanishida tilning yaxlit tartibga solinganlik qonuniyati namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, ko'chma ma'noni voqelantirishda tilning boshqa ko'lamlari hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Voqealarni izohlashga harakat qilamiz.

Eh, siz tog'lar, naqadar ko'rkam!

Sizga berar ilk nurin quyosh.

Par bulutlar, marvarid qorlar

Yuksak cho'qqi uzra qo'yg'an bosh.

Xuddi shunday holat marvarid so'zining metaforik ma'no ifodalashida ham ko'zga tashlanadi. Yuksak cho'qqi uzra qo'yg'an bosh misrasida metaforik ma'nosining ifodalovchisi sintaktik shaklidir. Aniqrog'i, ma'no birikma vositasida ifodalanagan. Albatta, frazeologik ma'no bilan shakldoshlik mavjudligini ham aytib o'tish lozim. Chunki tegishli iboralar lug'atida shunday ibora varianti borligi qayd etilgan. Bunda ham nomayon etishda denotativ o'xshashlik mavjud. Qorning cho'qqida bo'lishi, bulutlarning unga tegib turishi insonning boshini yerga qo'yishiga shaklan o'xshaydi. Harakatlardagi zohiriy o'xshashlik ikkilamchi metaforik ma'noga asos bo'lgan. Bu metaforik ma'no, albatta, muayyan o'xshashlikka asoslangan bo'lsa-da, faqat obrazli funktsiya bajarmoqda.

Bosh qo'ymoq birikmasi qo'shimcha ifodaviy funktsiya ham ado etadi. Bunda zimdan tog'ning ulug'vorligiga tan berish, unga bosh egish ma'nolari ham tushunilishi mumkin. Demak, baribir she'riy misrada ifoda semasining kuchayishi kuzatiladi. Tog' uchun salobat, ulug'vorlik, buyuklik, go'zallik, kenglik xos. Umuman olganda, tog' ulug'vorlik ramzi. Shu boisdan shoir shalolaga nisbatan sho'x, hayqirmoq so'zlarini bog'laydi. Shalolaning jo'shqinligi insonning sho'xlik holatiga zohiran o'xshaydi. Kichik irmoq ko'rinishidagi jilg'aning sharqirab oqishini bunday qiyoslash lisoniy metaforaning yorqin namunasi:

Sho'x shalola toshar hayqirib,

Ko'ksingizga baxsh etib chiroy.

Ko'rsatilgan misradagi hayqirmoq so'zi esa ma'lum darajada shalolaning holatiga mos tushmagandek. Holbuki, hayqirish daryo shovqiniga nisbatan qo'llansa, to'g'riroq bo'ladi. Sharqirash, shovullash va hayqirish bosqichli o'zgarishlar bilan bog'liq munosabatga kirishib, belgining darajali farqini o'zida

aks ettiradi. Shalola esa daryoning bir parchasiga mos keladi. Ushbu qo'shmisra qisqa matn sifatida olingandagina ko'ks so'zining metaforik ma'nosi anglashiladi. So'z ikkilamchi metaforik mohiyat kasb etgan. Chunki bu denotatni ifodalovchi so'z tilda mavjud. U – yon so'zi, tog'ning old tomoni, cho'qqining yoni kabi. Lekin inson tanasi bilan o'xshashlik ko'ks so'ziga metaforik baholash bergan. Ko'ks so'zining “old tomon” semasi metaforik ma'noda asosiy sema darajasiga ko'tarilgan.

Eh, siz tog'lar, dilrabo tog'lar,

Yosh qalbimni maftun etgansiz.

Abdulla Oripov insoniy go'zallikni ifodalovchi dilrabo sifatini toqqa nisbatan qo'llash bilan unda insoniy ulug'vorlikni ko'radi. Zero, yaratganing eng go'zal kashfiyoti – inson. Boshqa go'zalliklar ham ana shu mavjudlikning go'zalligi bilan o'lchanadi. Bunda ham shoir muayyan obrazli metaforik ma'no ifodalash uchun xizmat qilgan.

Ko'rinadiki, Abdulla Oripov lirik she'rilarida lisoniy metaforaning turli ko'rinishlaridan unumli foydalanib, go'zal obrazlar yaratishda tilning nozik semantik imkoniyatlarini qo'llab o'z badiiy maqsadiga yo'naltiradi.

Abdulla Oripov she'riyatida qo'llangan metaforik ma'noni funksional nuqtai nazardan birlamchi va ikkilamchi nominativ metaforik ma'noga bo'lindi. Ikkilamchi metaforik ko'chma ma'noli so'z kognitiv yoki obrazli badiiy nutq hosil qilishi nuqtai nazaridan farqlanadi. Ikkilamchi metaforik ko'chma ma'noni funksional nuqtai nazardan kognitiv funktsiyali ikkilamchi, obrazli ikkilamchi, obrazli-kognitiv funktsiyali ikkilamchi metaforik ko'chma ma'nolarga ajratildi. Lisoniy metafora ko'p hollarda ijtimoiy shartlangan bo'lib, u denotativ bog'liqlikka ega bo'ladi. Badiiy metafora esa konnotativ ko'chim asosida bo'lib, ko'proq okkazonal xarakterdaligi bilan ajralib turadi.

**Xulosa.** Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, badiiy metafora so'z semantik strukturasiidagi ifoda semalarining kuchayishi, buning evaziga atash semalarining kuchsizlanishiga asoslanadi. Badiiy metaforik ma'no poetik obraz yaratish uchun ham xizmat qiladi. Aslida poetik leksika tarkibida bo'lmagan so'zlar metaforik ma'nosi bilan poetik qiymat kasb etishi mumkin.

Abdulla Oripovning mumtoz janrda yaratilgan she'rilarida qo'llangan badiiy san'atlar ko'proq so'zlarning ifoda semalariga tayangan holda yaratilgan. Abdulla Oripov g'azallarida metaforik ko'chma ma'no asosidagi badiiy san'atlarning aksariyati o'xshatish bo'lib, tashbih va istiora miqdori nisbatan bir-biriga mos. Tashbihning tashbihi sarih, tashbihi kinoyat turi ko'proq uchraydi. Bir metaforik ma'no asosida yaratilgan bir nechta badiiy san'atni birlashtirish ham ko'rish mumkin. Tashbeh, istiora, mubolag'a, tazod va tanosub Abdulla Oripov she'riyatida ko'pincha yaxshi keladi va ularning ifodalovchilari umumiydir.

Metafora voqelikning o'zgarish talqini, falsafiy mushohadalarning o'ziga xos birligi sifatida ruhiyatning ko'rinmas olamini tabiat bilan bog'laydi. Shu yo'l bilan shoir bizni “begona” ko'lamlarga, ularni esa bizga yaqinlashtiradi. Metafora – Abdulla Oripov she'riyatida: murakkab obrazlar uyg'unligi, tegishli syujet va haqiqiy holatlarni o'z holicha bera olish, poetik matnning ichki qurilmasini shakllantira oluvchi, ekspressiv nominatsiyalar hosil qiluvchi, subyektiv modallik ifodachisi, mavhumni aniqlik va aniqlikni mavhumlik negizida ochib beruvchi kognitiv hodisa, olamni idrok etish, biror hodisa yoki voqeaning bir qismi yoki ko'rinishi.

#### ADABIYOTLAR

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent, 2000.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent, 2000.
3. Oripov A. Tanlangan asarlar. 3-jild. – Toshkent, 2001.
4. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4-jild. – Toshkent, 2001.
5. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1991.
6. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Hikoyatlar va hidoyatlar/ O.Davlatov nasriy bayoni. – Toshkent: O'zbekiston. 2015.
7. Nasrullayeva G. Antropotsentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. ... nomz. dis. – Farg'ona, 2019.
8. Maxmaraimova Sh.T. Olamning milliy lisoniy tasvirida teomorfik metaforaning kognitiv aspekti: F. f. f. d. (PhD) dis. avtoref. – Qarshi, 2018.
9. Hojiyev S. So'z ma'nosining ko'chishi bilan bog'liq lingvistik hodisalar: Filol. fan. ... nomz. dis. avtoref. – Toshkent, 2007.

10. Suyarova Nargiza Yuldoshevna. Comparative aspects of metaphorical terms and their translations from English into Uzbek. *NeuroQuantology* 2022; 20(12). Page: 3188-3194
11. Suyarova Nargiza Yuldoshevna. "Belgi" denotativ semali metaforalarning tasnifi, kognitiv strukturasi va leksikografik talqini. *Filol. fan. ... fals. dokt. (PhD) dis. avtoref.* – Qarshi, 2021;
12. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2 tomlik. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. T.
13. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
14. Шодмонова Д.Э. Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоэтик хусусиятлари / Материалы VI Международной научно-практической интернет-конференции «Актуальные научные исследования в современном мире» (26-27 октября 2015 г.) – Украина, Переяслав-Хмельницкий. – С. 132-137.





UDK: 811.512

**Dilafroz TURAKULOVA,**  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktranti*  
E-mail: [dilimturakulova1309@gmail.com](mailto:dilimturakulova1309@gmail.com)

*Renessans ta'lim universiteti professori, filologiya fanlari doktrori, professor Raupova Laylo Raximovna taqrizi asosida*

### TILSHUNOSLIKDA EPISTEMIK MODALLIKNING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada modallik tushunchasi va uning til bilan bog'liq jihatlarini tahlil etiladi. Modallik gapning voqelikka munosabatini yoki so'zlovchining uzatilayotgan axborotga shaxsiy munosabatini ifodalovchi turkum sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda modallikning obyektiv va subyektiv turlari, shuningdek, epistemik modallikning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi batafsil o'rganilgan. Epistemik modallik, ayniqsa, so'zlovchi tomonidan xabar mazmunini baholash hamda uning ehtimolligi, ishonchliligi yoki voqelikka mosligi darajasini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Maqolada tilshunoslarning epistemik modallik haqidagi qarashlari, obyektiv va subyektiv epistemik modallik o'rtasidagi farqlar, shuningdek, uni til vositalari orqali ifodalash usullari, jumladan, modal fe'llar, so'z birikmalari va modus fe'llari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikda modallikning ahamiyatini yoritib, uning til tizimidagi o'rini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** modallik, epistemik modallik, obyektiv modallik, subyektiv modallik, lingvistik kategoriya, ehtimollik, ishonchlilik.

### LINGUISTIC ANALYSIS OF EPISTEMIC MODALITY IN LINGUISTICS

Annotation

This article analyzes the concept of modality and its relation to language. Modality is considered as a category that expresses the relationship of an utterance to reality or the speaker's personal attitude toward the conveyed information. The study examines in detail the objective and subjective types of modality, as well as the theoretical foundations and practical application of epistemic modality. Epistemic modality is particularly important for the speaker's evaluation of the message content and determining its probability, reliability, or correspondence to reality. The article explores linguists' perspectives on epistemic modality, the differences between objective and subjective epistemic modality, and the methods of expressing it through linguistic means, including modal verbs, word combinations, and modus verbs. The findings highlight the importance of modality in linguistics and its role in the linguistic system.

**Key words:** modality, epistemic modality, objective modality, subjective modality, linguistic category, probability, reliability.

### ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭПИСТЕМИЧЕСКОЙ МОДАЛЬНОСТИ В ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В данной статье анализируется понятие модальности и ее связь с языком. Модальность рассматривается как категория, выражающая отношение высказывания к действительности или личное отношение говорящего к передаваемой информации. В исследовании подробно изучены объективные и субъективные виды модальности, а также теоретические основы и практическое применение эпистемической модальности. Эпистемическая модальность имеет важное значение, особенно для оценки говорящим содержания сообщения, а также определения степени его вероятности, достоверности или соответствия реальности. В статье рассмотрены взгляды лингвистов на эпистемическую модальность, различия между объективной и субъективной эпистемической модальностью, а также способы ее выражения средствами языка, включая модальные глаголы, словосочетания и модусные глаголы. Результаты исследования освещают значение модальности в лингвистике и ее роль в языковой системе.

**Ключевые слова:** модальность, эпистемическая модальность, объективная модальность, субъективная модальность, лингвистическая категория, вероятность, достоверность.

**Kirish.** Modallik nazariyalari ikki yondashuvga asoslanadi: tilning modalligi gapning voqelikka munosabati yoki nutq subyektining uzatilayotgan ma'lumotlarga munosabati sifatida talqin qilinadi. Ba'zi tushunchalar nuqtayi nazaridan bu ziddiyat yuqoridagi talqinlarni birlashtirish orqali bartaraf etiladi. Ushbu maqolada modallik gap mazmuniga munosabatni ifodalovchi lingvistik kategoriya sifatida tushuniladi. Bizning fikrimizcha, so'zlovchi modallikni aniqlashda markaziy o'rin egallaydi, chunki aynan so'zlovchi nutqda obyekt va uning bog'liq belgisi o'rtasidagi munosabatni o'rnatadi. Bu tushuncha modallikning gapning asosiy mazmuni va haqiqat o'rtasidagi munosabatni aks ettirishi faktini inkor etmaydi; bunday aks ettirish modallikning muayyan ko'rinishiga aylanadi va modallik kategoriyasining obyektiv va subyektiv turlarga an'anaviy bo'linishini tan olishimizga mos keladi. Shu nuqtayi nazardan biz bunday bo'linishning shartlilikini tan olamiz va obyektivlikning nisbiy tabiatiga e'tiborni qaratamiz. Bu voqelik va mazmun o'rtasidagi haqiqiy munosabatlarda emas, balki so'zlovchining bu munosabatlarni obyektiv yoki subyektiv sifatida qabul qilishida aks etadi. Tilshunoslikda modallik kategoriyasining semantik ko'lamini aniqlash masalasida qarama-qarshi yondashuvlar ishlab chiqilgan. Modallikka keng yondashuv doirasida juda keng

ma'nolar doirasi, jumladan, gapning to'g'ri yoki noto'g'riligi, gapning ishonchlilik nuqtayi nazaridan baholanishi, harakat subyektining harakatga munosabati, shuningdek, kommunikativ maqsad, tasdiqlash yoki inkor etish, ifodalilik va hissiy bo'yoq, uslubiy jihatlar, umumlashtirish, aniqlik, urg'u, vaqt ma'nosi va boshqa munosabatlar qamrab olinadi. Ba'zi tadqiqot konsepsiyalarida modallik ma'nolarining xilma-xilligi deyarli har qanday baholash turini o'z ichiga olishi mumkin. Bu yondashuvda modallik chegaralari noaniq va mazmuni kuchli xilma-xil bo'lgan keng lingvistik kategoriya sifatida qaraladi. Torroq modallik tushunchasi hissiy-ifodali, zamoniy ma'nolar, inkor va maqsadga yo'nalganlik, umumlashtirish va boshqa munosabatlar modallik kategoriyasiga kirmasligi bilan bog'liq. Tilshunoslikda modallik tushunchasi mantiqdan o'zlashtirilganini inobatga olib, lingvistik modal ma'nolarni leksik, epistemik va deontologik imkoniyatlari va zaruriyati nuqtayi nazaridan o'rganish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan tadqiqot ushbu modal ma'nolarning tabiiy lingvistik xususiyatlariga qaratilgan. Bundan tashqari, reallik yoki noreallik, istak, majburlash va asoslash ma'nolari modallik semantik tizimining majburiy elementlari sifatida tan olinishi lozim. Zamonaviy tilshunoslikda modallikning kategorial holati haqida yagona fikr yo'q. U

sintaktik, grammatik, mantiqiy-grammatik, semantik, semantik-pragmatik, funksional-semantik kategoriya sifatida tavsiflanadi. Boshlang'ich nuqta modallikning kategorial mansubligini aniqlash bo'lib, u o'z navbatida modal semantikasi ifodalovchi til vositalarining hajmi va xilma-xilligini belgilaydi.

Biz modallikning kategorial holatini aniqlashda eng maqbul funksional-semantik yondashuvni afzal ko'ramiz; bu yondashuv tadqiqotchilarni struktur-lingvistik vositalarni tanlashda cheklamaydi, balki tilning umumiy asosi - semantik funksiyasi va ushbu vositalarning kontekstual funksiyasi asosida kategorial vakillarni aniqlashga imkon beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Modallik kategoriyasi an'anaviy ravishda ikki turga bo'linadi: kategoriyaning asosini tashkil etuvchi va uzatilayotgan ma'lumotning voqelikka munosabatini ifodalovchi obyektiv modallik hamda so'zlovchining xabar mazmuniga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi, uzatilayotgan faktlarga ishonch darajasini yoki ma'lum bir g'oyaning mosligi ehtimolini belgilaydigan subyektiv modallik. Modallik dunyoning ayrim xususiyatlarini tavsiflamaydi, balki tilning qo'llanilish xususiyatlarini ko'rsatadi; u so'zlovchi va uning nutqi o'rtasidagi aloqani ifodalovchi toifaga mansub bo'ladi.

Epistemik modallik subyektiv modallik turiga mansub bo'lib, subyekt va belgi o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Bu aloqa so'zlovchi tomonidan obyektiv haqiqat sifatida emas, balki subyektiv tafakkur mahsuli sifatida baholanadi. Epistemik modallik, gapiruvchining fikrini ifodalovchi kategoriya bo'lib, taklif etilgan mazmunga nisbatan uning haqiqatga mos kelish nuqtai nazaridan munosabatini aks ettiradi. Ushbu kategoriya torroq ma'noda, ehtimoliy vaziyat sodir bo'lganligi, sodir bo'layotganligi yoki sodir bo'lish ehtimolini baholash sifatida talqin qilinishi mumkin. Epistemik modallik haqida tilshunoslarning qarashlari turlicha. Tilshunoslikda bu kategoriya mantiqiy-modallik tushunchalari ta'siriga uchraydi va epistemik modallikni imkoniyat hamda zaruriyat tushunchalari orqali ta'riflashga urinishlarda namoyon bo'ladi. Uni ehtimollik tushunchasi orqali ta'riflash nutq mazmunining voqelikka moslik ehtimolini miqdoriy baholash bilan bog'liq. Boshqa ta'riflar esa bu kategoriyaning bilim va ishonchlik tushunchalari bilan bog'laydi. Epistemik modallik so'zlovchining uzatilayotgan xabar mazmuniga, uning ishonchligi yoki haqiqiylikni baholash nuqtai nazaridan munosabatini ifodalaydi. Bu o'rinda haqiqat so'zlovchi nuqtayi nazaridan voqelik mazmunining muvofiqlik darajasi sifatida talqin etiladi. Epistemik modallik tushunchasi epistemik majburiyat, ya'ni so'zlovchining uzatilayotgan xabar voqeligi uchun mas'uliyati bilan ham bog'liq. Matniy yondashuv epistemik modallikni tinglovchini xabardor qilish vazifasi yuklatilgan shaxslararo modallikning bir ko'rinishi sifatida ko'rsatadi.

Epistemik modallikning harakati va xususiyatlarini tahlil qilishda M.Ya.Blox va A.V.Averina quyidagi ta'rifi beradilar: "Epistemik modallik modal-grammatik kategoriyalar tizimiga taalluqli bo'lib, so'zlovchining o'tmish, hozirgi yoki kelajakdagi biror-bir fakt ehtimolini baholashini (subyektiv epistemik modallik) yoki vaqt bilan bog'liq bo'lmagan istiqbol nuqtayi nazaridan (obyektiv epistemik modallik) o'z ichiga oladi." Ular epistemik modallik ochiq yoki yashirin ifodalanishi mumkinligini ham ta'kidlaydilar.

Ko'plab tilshunos olimlar subyektiv-modal ma'noni, xususan, baholovchi-tavsifiy va sof baholovchi ma'nolarni tavsiflaydilar. Bu ma'nolar so'zlovchining xabar mazmuniga shaxsiy munosabatini ifodalaydi, masalan: Rozilik yoki norozilik, qabul qilish yoki rad etish, ijobiy yoki salbiy baholash, hayratlanish, chalkashlik yoki tushunmaslik kabi ma'nolar. M.V.Petrushina modallik ma'nolarining tasnifini o'rganib, V.V.Vinogradovning fikrini tahlil qiladi va modallik so'zlovchining xabar mazmuniga nisbatan rostlik/yolg'onlik darajasini baholash bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. U bu mazmunni "subyektiv modallik, ishonch" kategoriyasi orqali ifodalaydi.

Epistemik modallik doirasiga fikr, taxmin, shubha va bashorat kabi ma'nolar kiradi. A.S. Potapenkoning fikricha, epistemik modallikning yana bir funksiyasi uning iboralarda ishonchli ifodaning yumshoq usuli sifatida qo'llanilishidir. Xorijiy tilshunoslarning epistemik modallik haqidagi tushunchalari turlicha bo'lsa-da, ular bir nuqtada birlashadilar: formal mantiq

tamoyillariga asoslanib, modallikni so'zlovchining xabarining ishonchligi uchun mas'uliyati (yoki mas'uliyatsizligi) sifatida talqin qilishadi.

**Tahlil va natijalar.** Epistemik modallikning tor talqiniga ko'ra, bu so'zlovchi xabarining ishonchligini baholashdir. Kengroq talqinlarda modallik nafaqat haqiqatni baholashni, balki xabar mazmuni va uning manbasi haqida ma'lumot berish vazifasini ham o'z ichiga oladi. Bunday yondashuvlar, masalan, T.Givon asarlarida uchraydi. Obyektiv va subyektiv epistemik modallik U bu mazmunni "subyektiv modallik, e'tiqod" kategoriyasi orqali ifodalaydi. J. Layons obyektiv epistemik modallikni ta'riflar ekan, bu shakl ehtimollik yoki haqiqatning obyektiv bahosini ifodalaydi, deydi. Subyektiv epistemik modallik esa so'zlovchining subyektiv taxminlarini aks ettiradi. F.R.Palmerning fikricha, obyektiv modallik mantiqiy xulosalarga asoslanadi, subyektiv modallik esa so'zlovchining xabar mazmuniga bo'lgan ishonch darajasini ko'rsatadi.

Misollar A.S. Potapenkoning fikricha, epistemik modallikning yana bir funksiyasi uning iboralarda ishonchli ifodaning yumshoq usuli sifatida qo'llanilishidir.

"U shu yerda bo'lsa kerak."

"U ertaga kelishi mumkin."

Kengroq talqinlarda modallik nafaqat haqiqatni baholashni, balki xabar mazmuni va uning manbasi haqida ma'lumot berish vazifasini ham o'z ichiga oladi. Bunday yondashuvlar, masalan, T.Givon asarlarida uchraydi. J. Layons obyektiv epistemik modallikni ta'riflar ekan, bu shakl ehtimollik yoki haqiqatning obyektiv bahosini ifodalaydi, deydi. Subyektiv epistemik modallik so'zlovchining subyektiv taxminlarini aks ettiradi. F.R.Palmerning fikricha, obyektiv modallik mantiqiy xulosalarga asoslanadi, subyektiv modallik esa so'zlovchining xabar mazmuniga bo'lgan ishonch darajasini ko'rsatadi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, epistemik modallikni ifodalashda u ko'pincha an'anaviy usullar doirasidan tashqariga chiqadi. Yuqorida sanab o'tilgan belgilardan tashqari, so'zlovchining voqelikka munosabati kontekstual, ya'ni bilvosita, maxsus fe'llar, ravishlar va boshqalardan foydalanmasdan namoyon bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, kontekstni idrok etish va tushunish an'anaviy modal ko'rsatkichlarni tushinishga qaraganda ko'proq vaqt talab etadi. Biroq modallikning bevosita ifodalanishi, ya'ni kontekst orqali ifodalanishi, o'zining ko'p imkoniyatligi bilan qimmatlidir. Masalan: U ko'zlarini yerga tikdi; mening yolg'on gapirayotganimni o'ylash unga og'ir edi.

Bu o'rinda biz A.V.Averinaning fikriga tayanamiz. Unga ko'ra, epistemik modallik so'zlovchining uzatilayotgan faktlarga munosabatini ifodalaydi (Averina, 2010: 24). Gap va matn tarkibida subyektiv modallikni ifodalovchi ko'plab lisoniy vositalar mavjud. Bunday vositalarning batafsil tasnifi M.Ya.Blox, A.V.Averina, M.V.Petrushina va boshqa tilshunoslarning romonidan o'rganilgan. Ular orasida modal fe'llar va bo'laklar, maxsus sintaktik tuzilmalar, takrorlar, so'z tartibi, ohang, kirish so'zlar, kirish so'z birikmalari, kirish gaplar va boshqalar bor.

**Xulosa.** Ushbu maqolada modallik tushunchasining nazariy asoslari, ayniqsa, epistemik modallikning obyektiv va subyektiv shakllari tilshunoslik nuqtayi nazaridan atroflicha o'rganilgan. Tadqiqot davomida modallikning tilning universal kategoriyasi ekanligi va uning so'zlovchi bilan nutq mazmuni o'rtasidagi aloqani ifodalashdagi ahamiyati qayd etildi. Xususan, epistemik modallik so'zlovchiga xabar mazmunining ishonchlik va ehtimollik darajasini aniqlashga imkon beruvchi kategoriya sifatida alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan. Obyektiv epistemik modallik voqelikni mantiqiy tahlil qilish va haqiqatni baholashga asoslansa, subyektiv epistemik modallik so'zlovchining shaxsiy fikrlari va taxminlarini aks ettiradi. Modallikni ifodalashda modal fe'llar, ravishlar, modus fe'llari kabi til vositalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, modallikni ohang, so'z tartibi va kontekstual vositalar orqali bilvosita ifodalash imkoniyati ham mavjud. Modallikning kontekstual ifodalanishi an'anaviy lingvistik belgilar orqali emas, balki bilvosita tarzda amalga oshiriladi, bu esa turli muloqot vaziyatlarida modallikdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Epistemik modallik so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi mazmunni baholashning muhim omili sifatida

tilshunoslikda o'rganilishi zarur bo'lgan murakkab kategoriya hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot til tizimida modallikning o'rnini aniqlash, shuningdek, epistematik modallikning nazariy va amaliy jihatlarini

yoritishga qaratilgan. Mazkur mavzuni yanada chuqurroq o'rganish turli tillarda modallikning ifodalanish xususiyatlarini tadqiq etish orqali tilshunoslikka yangicha yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Akhunzyanova, R.R. (2012). Epistemic modality and means of its expression in English and Tatar languages. Abstract of dissertation for the degree of candidate of philological sciences. Naberezhnye Chelny.
2. Averina, A. V. (2010). Epistemic Modality as a Language Phenomenon: on the Material of the German Language: monograph. Moscow.
3. Belyaeva, E. I. (1985). Functional-Semantic Fields of Modality in the English and Russian Languages. Voronezh.
4. Biber, D., Conrad, S., Reppen, R. (1998). Corpus Linguistics. Cambridge.
5. Blokh, M.Ya., Averina, A.V. (2011). The field of epistemic modality in the space of the text: monograph. Moscow: Moscow State Pedagogical University.
6. Bondarenko, V. N. (1977). Types of Modal Meanings and Their Expression in Language. Abstract of a PhD Dissertation. Moscow.
7. Lyons, J. (1977) Semantics. Cambridge.
8. Palmer, F. R. (1986). Mood and Modality. Cambridge.
9. Petrushina, M.V. (2010). Modality of disapproval: methods and means of implementation in the Russian language: monograph. Moscow: MGUP.
10. Troshina, A. V. (2008). Epistemic Modal Modifiers in the English and Russian Languages. Abstract of a PhD Dissertation. Saint-Petersburg.



Azamat URALOV,

Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi dotsenti, filologiya fanlari doktori

E-mail: azamaturalov06@gmail.com

Mashhura DJABBAROVA,

Sirdaryo viloyat pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

F.f.d F.Sharipov taqrizi asosida

## KENGAYGAN SHAKLLARDA NOMUTANOSIBLIKLAR

Аннотация

Maqolada morfem sath birliklari orasidagi murakkab shakllarning kengaygan qismlari, tarixiy taraqqiyot natijalarida ro'y bergan o'zgarishlar tadqiq etilgan. Murakkab shakllar orasida kengayish holati ko'p uchramasa-da tilda mavjud bo'lgan holat hisoblanadi. Tadqiqotda kengaygan shakllarning ayrimlari tahlilga tortilgan va ularda yuz berayotgan nomutanosibliklar ilmiy asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** nomutanosiblik, murakkab shakllar, kengaygan shakllar, qo'shma affiksalar, ma'no kengayishi, affiks, arxaiklashuv.

## ДИСПРОПОРЦИИ В РАСШИРЕННЫХ ФОРМАХ

Аннотация

В статье рассматриваются расширенные части сложных форм между единицами морфемного уровня и изменения, произошедшие в результате исторического развития. Хотя падеж расширения не является распространённым среди сложных форм, он существует в языке. В ходе исследования были проанализированы некоторые развернутые формы и научно обоснованы имеющиеся в них дисбалансы.

**Ключевые слова:** несоразмерность, сложные формы, развернутые формы, составные аффиксы, расширение значения, аффикс, архаизм.

## DISPROPORTIONS IN EXTENDED SHAPES

Annotation

The article studies the expanded parts of complex forms between morpheme level units, the changes that have occurred as a result of historical development. Although the expansion of complex forms is not common, it is a phenomenon that exists in the language. In the study, some of the expanded forms are analyzed and the discrepancies that occur in them are scientifically substantiated.

**Key words:** disproportion, complex forms, expanded forms, compound affixes, expansion of meaning, affix, archaism.

**Kirish.** Kengaygan shakllar qo'shma affiksalar kabi tilning grammatik sathida muhim o'rin tutadi. Ularni, ayniqsa, tarixiy nuqtayi nazardan atroflicha o'rganish til fanini yangi ma'lumotlar bilan boyitadi. Masalaning shu tomoniga e'tiboran bo'lsa kerak, taniqli turkiyshunos olim A.Zayonchkovskiy bu shakllarning hosil bo'lish usuliga katta e'tibor berib, g'arbiy qaraim tilining affiksatsiyasiga bag'ishlangan ishida "suffiks tashqi ko'rinishining o'zgarishi" sarlavhasi bilan maxsus bo'lim ham ajratadi. V.V.Radlovda bu hodisalar giperagglutinatsiya qonuniyati bilan bog'lanadi. Shu sababli kengaygan shakllarning tabiatini, yondosh hodisalar, ayniqsa, qo'shma affiksalar bilan munosabatini keng qamrovda o'rganish o'zbek tilshunosligini, shuningdek, turkiy tillarni yangi ma'lumotlar bilan boyitadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** A.M.Shcherbak - (a)y, -(a)yin shaklini eski o'zbek tili misollari asosida o'zaro taqqoslab, quyidagi xulosaga keladi: Bu qo'shimchalarning ikki variantlilik ma'noni farqlash uchun qo'llanmaydi. Qisqarmagan to'liq varianti nisbatan qadimgi shakl hisoblanadi. Qisqargan shakl esa nisbatan keyingi hodisa bo'lib, hozirgi o'zbek tilida asosiy shakl sifatida qo'llanadi. Demak, -(a)yin - to'liq shakli qadimgi bo'lib, -(a)y - qisqa shakli keyingi davrlarning mahsulidir. Ana shu xulosaga tayangan Sh.Shukurov tadqiqotlari asosida shunday xulosaga keladi: "Qisqa shaklning til tizimida mustaqil ish ko'ra boshlashi turkiy adabiy tillarning shakllanishi arafasiga to'g'ri keladi"[12].

Sh.Shukurovning ko'rsatishicha, buyruq-istak fe'li I shaxs birlik shakli affiksining O'rxun-Yenisey matnlarida va qadimgi uyg'ur tillarida faqat -ayin shaklida ishlatilgani, XI asr adabiy tili yodgorligi "Qutadg'u bilig"da bu qo'shimchaning qisqa shakllari: -ayi va -ay shakllarining paydo bo'lishi, birinchidan, -ayin qadimiy variant bo'lib, -ayi va -ay keyingi hodisa, degan fikrni tasdiqlaydi. Ikkinchidan, -ayin shaklining -ayi va -y shakliga o'tishi jarayoni O'rta Osiyo turkiy tillarida X-XI asrlardan boshlangan, deb izohlashga asos beradi[11. 9]. Demak,

yuqoridagi izohlardan ko'rinadiki, -(a)yin affiksi kengaygan shakl bo'lib, ikki morfemadan tuzilgan: 1) -(a)y qismi qadimgi kelasi zamon sifatidoshi -gay/-g'ay bilan bog'liq; 2) -(i)n qismi qadimgi vosita-qurol kelishigi shaklidir [8].

Birinchi qism - -(a)y qismining tobora faollashib, mayl paradigmasidan mustahkam o'rin olishi bilan go'yo morfologik qayta bo'linish yuz bergan va -(i)n shakli tobora urg'usiz birlikka aylanib, asosiy qism: -(a)y shaklining ma'no-vazifasini kuchaytiruvchi fakultativ birlikka aylana borgan. Til tarixida to'la shakllarning qisqarishi aytishga qulaylik, tejash tamoyili bilan bog'liqlik, bu holat -(a)yin kengaygan shaklining qisqarishi va ikki birlikka aylanishida ham ko'rinadi. Shuni ham aytish kerakki, -ayin ↔ -ay holatining yuzaga kelishi masalasi bu fikrlar bilan tugamaydi, ya'ni hali to'liq hal etilmagan. Chunki bormayin, bilmayin so'zlari tarkibi chuqur tadqiqotlarni talab qiladi. Uning tarkibidagi -in qismi tarixda alohida so'zning qisqargan yoki o'zgargan shakli bo'lishi ham mumkin. Bugungi kunda -ayin shakli -ay shakligi nisbatan kengaygan shakl hisoblanadi. Shakllarning kengayishi hisobiga shaklga nisbatan nomutanosiblik sodir bo'ladi. Ko'ray - ko'rayin, o'lay - o'layin ko'rinishidagi misollarda shakllar turlicha bo'lsa-da bir mazmunga xizmat qilishi shakliy nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

**Natija va muhokama.** Hozirgi o'zbek tilida ravishdoshning -(i)b shakli keng qo'llanadi. -(i)bon qo'shimchasi, asosan, eski o'zbek tilidagi nazmiy asarlarda ishlatilgan va tobe harakat-holatning ma'no-vazifasini bildirishga xoslangan. A.M.Shcherbak -(i)bon qo'shimchasining manbasini quyidagicha izohlaydi: uning fikricha, "ravishdoshning -ibon shakli qadimgi vosita-qurol kelishigi bo'lib, tarixan fe'l ismlar - harakat nomidan kelib chiqqan. Shuningdek, -(i)b shakli she'riy matnlarda ko'proq tobe harakatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi"[14]. Borib kel - boribon kel kabi.



O'zbek tili tarixiga bag'ishlangan ishda ravishdosh yasovchi -ban/-bən affiksi -b affiksiga -an/-ən qo'shilishi bilan hosil bo'lganligi va qadimgi yodgorlik tilida ko'p qo'llanganligi qayd etiladi. Bu kitobda uning ishlatilish doirasi (vazifasi) haqida ham ma'lumot beriladi: "Eski o'zbek tilida she'riy asarlarda ishlatilgan bo'lib, vazifasi ham chegaralangan"[1].

"Hozirgi zamon o'zbek tili" (Toshkent, 1957, 463-bet) asarida: "bu affiks hozirgi adabiy tilimizda faqat poeziyadagina saqlanib qolgan"ligi ko'rsatiladi. Andijondagi ba'zi qishloq (Yorqishloq) shevalarida boribon, kelibon shakllari o'rinda hozir ham borib+la, kelib+la shakllari qo'llanadi.

Aytilganlar asosida, -(i)bon kengaygan shaklining rivojlanish tarixi haqida shunday deyish mumkin: ikkinchi qism – vosita-qurol kelishigi affiksining kuchaytiruvchi, mustahkamlovchi vazifasi bu qo'shimchani kelishik tizimidan chiqarib borishi, ma'no-vazifasi susayishi bilan bog'liq. -ib ravishdoshining -ibon sifatida kengayishi kuzatiladi. Bu jarayon ikki shaklning bir mazmunga xizmat qilishi orqali nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi: borib qayt - boribon qayt.

-moqlik shakli ikki qismdan iborat bo'lib, -moq fe'lining harakat nomi qo'shimchasi, -lik qismi hozirgi o'zbek adabiy tilida faol ot yasovchi birlik sanaladi. -moqlik (-maqliq) shakli eski o'zbek tilida, xususan, Navoiy va Bobur davrida faol yasovchilardan sanalgan. Hozirgi tilda arxaiklashib, ko'p hollarda, poetik asarlarda uchraydi. Shu asosda quyidagi fikrni bildirish mumkin: -lik affiksi -moqlik tarkibiga yaxlitlana boshlagan dastlabki davrlarda sezilarli semantik vazifa bajarib, fe'ning harakat nomi belgilarini ancha susaytirib, otlashuv pozitsiyalaridagi vaziyatini mustahkamlagan, uni ot tipidagi yasalmalarga yaqinlashtirgan. Keyinchalik -moqning otlashuv holatlaridagi vazifaviy faoliyati cheklana borishi bilan (bunga harakat nomining -ish affiksli shakli ham sababchi bo'lgan) -lik qismi -moqlik tarkibida tobora ortiqcha qismga aylangan. Demak, avvalgi davrlarda -moqlik tarkibidagi qismlarning semantik yaxlitlanishi ancha kuchli bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ularning orasidagi bog'lanish susayadi. Natijada ikki shakl o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Chunki -moq shakli o'z pozitsiyasini saqlagan holda -likni olib kengayadi. Hosil bo'lgan kengaygan shakl -moq shakliga nisbatan shakliy nomutanosib bo'lib qoladi.

A.G'ulomovning ta'kidlashicha, "infinitivning ba'zan -lik affiksini olgan shakli ham uchray qoladi: bormoq-bormoqlik. Prinsipial qaraganda, bu affiks infinitivning ma'nosiga deyarlik ta'sir ko'rsatmaydi" [3], "faqat uning otlik belgilarini kuchaytiradi" [5].

-lik qo'shimchasi hozirgi turkiy tillarda umumiylik-mavhumlik ma'nosidagi ot yasalmalar hosil qiladi. Shu bilan birga, harakatdagi shaxs, ish-harakat quroli, narsa-buyum, hududiy mansublik, kasb-hunar oti, xizmat mavqeyi nomi kabi ma'nolardagi so'z yasaydi: ko'zlik (ozarbayjon tilida: ko'zoynak), otalik –"tarbiyachi", boshliq, cho'ponlik, qishloqlik, mudirlik... "Uning dastlabki, genetik ma'nosi asosdan anglashilgan narsaga egalik ma'nosi bo'lgan. Umumiylik-mavhumlik ma'nosi ayni shu ma'nodan o'sib chiqqan"[15]. Hozirgi tillarda so'z yasovchi -lik qo'shimchasi ko'p ma'noli, ko'p vazifali bo'lib, mavhum ot yasovchilikdan tashqari, ba'zi holatlarda fe'ning ayrim shakllariga ham qo'shilish xususiyatiga ega.

Demak, -moq affiksining kengaygan shakli bo'lgan -moqlik ham o'z paydo bo'lish va qo'llanish tarixiga ega. Bu tarixiy taraqqiyot yo'li til tizimidagi o'zaro ma'no-vazifa jihatidan o'xshash, nisbiy shakllarning o'zaro munosabati, qo'llanilish o'rni, raqobatda bo'lishi, uslub jihatidan farqlanishi kabi omillar bilan bog'liq bo'ladi. -moq shaklining -moqlik shakliga kengayishi mazmuni saqlagan holda shaklga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltiradi. Qiyoslang: aytmoq uchun – aytmoqlik uchun.

-(i)shlik shakli. -(i)sh – otlashgan (substantiv) harakat nomi sifatida O'rxun-Enasoy (Yenisey) yodnomalarida uchraydi. Qoraxoniylar davri matnlari va eski o'zbek tili manbalarida keng qo'llangan. Hozirgi turkiy tillardan o'zbek va uyg'ur tillarida boshqa turkiy tillarga nisbatan ko'p ishlatiladi, egalik, kelishik qo'shimchalari va ba'zi so'z yasovchi qo'shimchalarni olish qobiliyati mavjud, shuningdek, otlashish jarayoni eng ko'p

darajada moslashgan shakldir: yig'ilish (majlis), tanish-bilish, urush, qarash, qurilish, buriilish va boshqalar[15].

A.G'ulomovning ko'rsatishicha "...ba'zan -lik affiksini olib, kengaygan forma yaratish hodisasi uchraydi; aytish-aytishlik kabi (bundagi aytishlik so'zi "aytmoq" ma'nosidadir, bu yerda uning "aytishiga arziydigan, shunga mos" degan ma'nosi ko'zda tutilmaydi)" [3]. Ot yasovchi -lik affiksi harakat nomi yasovchi -(i)sh shakli bilan birga kengaygan shakl yasayotganining guvohi bo'lamiz. Bu hol garchi ko'proq dialektal nutqqa xos bo'lsa ham o'zbek tilida mavjuddir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida -(i)sh harakat nomi shakli keng qo'llanadi, uslubiy betarafligi va leksik-semantik murakkabligi bilan -moq, -(u)v harakat nomi shakllaridan alohida ajralib turadi. A.Hojiyevning ta'kidlashicha, "-(i)sh affiksi bilan yasalgan harakat nomi shaklining -lik affiksi bilan qo'llanish holatlari uchray qoladi: borishlik, qo'rqishlik kabi"[11]. Demak, -(i)sh harakat nomi -(i)shlik kengaygan shakliga nisbatan shaklan nomutanosib bo'lib, bu nomutanosiblik taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan.

Dialektal qatlamda – xalq tili va og'zaki so'zlashuvda -(i)shlik shakliga oxirgi k undoshining tushib qolishi ham uchraydi: borishli-kelishli qilsin; juda yeyishli taom bo'libdi kabi.

-ganlik shakli. Oltoysahunos olim V.Kotvich qadimgi turkiy tilda o'tgan zamon sifatdosh shakllarini hosil qiluvchi -duq (barduq), -mish (kelmish) va -gan (o'qigan) shakllarining o'zaro raqobatda va parallel qo'llanganligini yozsa [9. 109-116], A.N.Kononov bu shakllarni turkiy tillarning turli guruhlarga mansub birliklar sifatida qayd etadi: "-duq va -mish o'g'uz tillari, -gan esa qipchoq-qarluq tillariga mansub shakllardir" [7]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida -gan sifatdosh qo'shimchasi nafaqat belgi (o'qigan bola), balki zamon va modal ma'nolarni ifodalaydigan ko'p ma'noli, ko'p vazifali shakldir. Bu affiks fe'lga xos shakl yasovchi birliklarni qabul qilish bilan bir qatorda, ot yasovchi -lik affiksi bilan murakkablashish xususiyatiga ham ega. Masalan: borganlik, o'qiganlik, aytganlik kabi.

Hozirgi o'zbek tilida -gan va -ganlik, -yotgan va -yotganlik shakllarining yonma-yon, parallel qo'llanishi ham diqqatga sazovor bo'lib, mazmunan mutanosib bo'lib, shaklan nomutanosibdir. "Kengaygan shakllardagi -lik affiksi agentiv ma'nodagi atributiv-predikativ shaklni otlashiruvchi grammatik vosita mavqeyida keladi" [6]. Bu shakllarning (-ganlik, -yotganlik) paydo bo'lishi -gan qo'shimchasidagi agentiv ma'noning predikativ pozitsiyalaridagi taraqqiyoti bilan bog'liq [6] ekanligi ham ma'lum.

-gan va -ganlik shakllarining egalik qo'shimchasi bilan qo'llanishida matn (kontekst) bilan bog'liq yuzaga keladigan ayrim ma'no nozikliklari borligi haqida A.G'ulomov: "U bilganini aytdi. – Bilganligini aytdi. Semirganini ko'rding. Semirganligini ko'rding. Birinchi misollarda substantivatsiya hodisasi amal qiladi. Jonli so'zlashuvda bu ma'no farqi kontekst tufayli amalga oshadi" [4], – deb e'tirof etadi. Shuningdek, til tizimidagi semantik jarayonlarni tahlil etilib, o'qimagandan o'qigan yaxshi qurilmasi asosida o'qimagankdan o'qiganlik yaxshi modeli turishini qayd etishi muhim ahamiyatga ega. Sifatdosh shaklining substantiv pozitsiyalarda, xususan, predikativ pozitsiyalarda kelishi -ganlik, -yotganlik shakllarini qo'shma affikslarga yaqinlashtiradi [2], ammo -lik shaklining bu o'rindagi fakultativligi [10] ularni to'liq shakllangan qo'shma affikslar deyish uchun asos bermaydi. -ganning kengayishidan hosil bo'lgan bunday kengaygan shakllar o'zbek tili imkoniyatlarini yanada oshirib, yangi affiks bilan boyitadi. Bu jarayonda ishtirok etayotgan -gan va -ganlik shakllari o'zaro shakliy nomutanosiblikni ifodalamoqda.

Demak, fe'lga xos harakat nomi shakllari -moq, -(i)sh va otlashgan holatlarda keluvchi -gan, -yotgan sifatdosh shakllarining -lik ot yasovchi birlik bilan murakkablashishi o'xshashlik hodisasi bilan bog'liq. -lik affiksi so'z yasovchilik xususiyatlaridan uzoqlashsa ham, qayd etilgan shakllarning otga o'xshash sintaktik pozitsiyalarda kelishini ta'minlaydi, ularning otlik belgilarini kuchaytiradi. Ayni shu mavqeda -lik affiksi morfologik-sintaktik vazifa bajaradi, o'ziga xos sintaktik birlik maqomini oladi. Ayni so'z yasovchi qo'shimchalarning grammatik vazifa bajarishi ularning keng qo'llanishi, ma'nosining umumlashgan – mavhum xususiyatga egaligidan kelib chiqadi. -



lik affiksi bu o'rinlarda ko'p vazifali birlik xususiyatini namoyon etishi orqali ham nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

-ovlon shakli. Bugungi kunda jamlovchi son shakli hisoblangan -ovlon affiksi kengaygan shakl hisoblanadi. Chunki bu affiksning tarkibi hali zich birikib ketmagan. Shu bilan bir qatorda -ovlon shaklining -lon qismi qo'shimcha mazmun ya'ni jamlikni, shaxsni kuchaytirish uchun qo'shilgan. Aslida beshov, oltov, yettov shaklida qo'llansa ham jamlovchi son shaklini hosil qiladi, shuningdek, beshovlon, oltovlon, ettovlon shaklida ham bu mazmun ifoda etiladi: beshovi keldi – beshovlon keldi. Nisbatan arxaik hisoblangan -ovlon shakli -ov shakli bilan nomutanosibdir.

Shaxs mazmunini kuchaytirishga xizmat qilayotgan -lon morfemasi -ov shakli tarkibiga to'liq singib ketmagan, shu sababli ham -ov shaklining pozitsiyasi -ovlon shakliga nisbatan kuchliroq. Masalaning yana bir tomoni -ov shakli jonli-jonsiz predmetlarga parallel ishlatilsa, -ovlon shaklining shaxslarga nisbatan pozitsiyasi mustahkamdir. Kartoshka va sabzi ikkovini birgalikda torting – Kartoshka va sabzi ikkovlonini birgalikda torting (mazmun chiqmaydi, -ovlon shaklini narsaga nisbatan qo'llab bo'lmaydi). Salim va Mahmud ikkovi birga keldi – Salim va Mahmud ikkovlon birga keldi (mazmun chiqadi). Demak, qo'llanish doirasiga nisbatan -ov va -ovlon shakllari narsalarga nisbatan ishlatilganda mazmun nomutanosibligini ko'rsatsa, shaxslarga nisbatan qo'llanilganda shakl nomutanosibligini yuzaga keltiradi.

-xonim shakli. Affiksoidlar bahsida bu shakl haqida fikrlar berilgan edi. “Xonim” leksemasini so'zlik maqomidan affiksga tortilish jarayoni ma'lum qilingan: Tamaraxonim, Gavharxonim, Gulruhxonim kabi. Bu affiksda -xon va -im shakllari ishtirok etadi. Mazmunan mutanosib holatda erkalash-hurmatlash affiksi bo'lgan -xon shakli egalik va hurmatni kuchaytirish maqsadida -im morfemasini olib kengayadi. Natijada -xonga nisbatan -xonim kengaygan shakli hosil bo'ladi: Tamaraxon – Tamaraxonim, Gavharxon – Gavharxonim, Gulruhxon – Gulruhxonim kabi. Bunday kengayish orqali ikki

shakl shakliy nomutanosib bo'lib, bir mazmunga xizmat qilib qoladi.

-kala shakli. Fe'llarda harakat tarzini ifodalaydigan bu shakl juda ham unumsiz bo'lib, surkala, suykala (ayrim shevalarda) kabi so'zlarda ishlatiladi. Sur fe'l asosiga -ka affiksini qo'shish orqali harakat tarzi shakli hosil bo'ladi. -ka harakat tarzi shakli -la morfemasini olib kengayadi va natijada -kala kengaygan shakli hosil bo'ladi: sur – surka – surkala kabi. Misoldan ko'rinadiki, -ka shakli -la shakli bilan kengaysa-da, mazmunni saqlab qoladi. Bunda shakl o'zgarishi bilan bog'liq nomutanosiblik yuz berib, mazmun mutanosib ravishga ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, affiksalar va ularning tipik ko'rinishlari lingvistik adabiyotlarda birmuncha o'rganilgan bo'lsa-da, unga yondosh turuvchi kengaygan shakllar masalasi hali to'liq tadqiq etilmagan muammolardan biri hisoblanadi. Tilshunoslikda kengaygan shakllarning affiksatsiya tizimiga xos turi haqida maxsus fikr bildirilmagan bo'lsa-da, ayrim yo'l-yo'lakay ta'kidlarni uchratish mumkin. Masalan, -moqlik shaklining “kengaygan infinitiv” (murakkab infinitiv) termini bilan izohlanishi shular jumlasidandir.

Demak, kengaygan shakllar boshqa grammatik hodisalar kabi murakkab tabiatga ega. Bu xil shakllarning tabiatini, yondosh hodisalar bilan munosabatini belgilash so'z tarkibiga doir ko'pgina muammolarning (xususan, diaxroniya va sinxroniya munosabati) mohiyatini aniqlashga xizmat qiladi. O'zbek tili tarixida ayrim sintetik shakllar o'rni analitik shakllar, ayniqsa, ko'makchi fe'llarning faollashganligi qo'shma affikslarga o'xshash, mustaqil til birligi – analitik shakllarni yuzaga keltirgan. Turkiy tillarda, shuningdek, o'zbek tilida analitik shakllar qadimdan keng tarqalgan hodisa bo'lib, ularning tilda o'z mavqeyi va o'rni bor. So'z tarkibida ma'lim tartiblar asosida o'rinishgan analitik shakllar ma'lum bir qolip, model asosida yuzaga keladi: ravishdosh+ko'makchi fe'l, sifatosh+ko'makchi fe'l kabi. Tadqiqotimiz natijasida analitik shakllarning 66 tasi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент, 1973. –Б. 131.
2. Гуломов А. Ўзбек тилида келишиқлар. ФА Ўзбекистон филиалининг асарлари. 2-серия, филология, 1-китоб. –Тошкент, 1941. –Б. 68.
3. Гуломов А.Ф. Фейл. Хозирги замон ўзбек тили (Ф.Камол тахририда). –Тошкент, 1957. –Б. 458.
4. Гулямов А.Г. Об аффиксе -лик в узбекском языке / Научные труды. ТашГУ, 1964. – С. 54.
5. Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка, ч.1., Аффиксация. Автореф. дисс... д-ра. филол. наук. –Ташкент, 1955. –С. 33.
6. Иванов С.Н. Родословное тюрк Абу-л-Газихана. – Л., 1963. –С. 81.
7. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников (VII – IX вв.) –Л.; 1980. –С. 196.
8. Кононов А.Н. Показатели собирательно-множественности в тюркских языках. – Л., 1969. –С. 191.
9. Котвич В. Исследование по алтайским языкам. –М., 1962. –С. 109-116.
10. Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. –Тошкент, 1975. –Б. 368.
11. Хожиев А. Фейл. –Тошкент, 1973. –Б. 185.
12. Шукуров Ш. Наклонения и времена глагола в письменных памятниках узбекского языка в сравнительном освещении. Автореф. дисс... д-ра. филол. наук. –Ташкент, 1974. –С. 71.
13. Шукуров Ш. Фейл тарихидан. –Тошкент, 1970. –Б. 249.
14. Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. –М. – Л., 1963. –С. 373.
15. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (Имя). –М.: Наука, 1977. –Б. 306.



UDK:241

*Шахризода УСМОНАЛИЕВА,*

*Студентка Наманганского государственного института иностранных языков*

*E-mail: shahrizodausmonaliyeva2005@gmail.com*

*Икбола АБДУЛЛАЕВА,*

*Научный руководитель: старший преподаватель Наманганского государственного института иностранных языков*

*Под руководством Замиловны Р.В., профессора, д.ф.н., НамПГИ.*

## ЛИТЕРАТУРНЫЕ ТRENДЫ ПОКОЛЕНИЯ Z: КУЛЬТУРА ЧТЕНИЯ И ВЛИЯНИЕ ИСТОРИЗМОВ И АРХАИЗМОВ НА ВОСПРИЯТИЕ ТЕСТОВ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ

Аннотация

Статья посвящена исследованию литературных трендов поколения Z, с акцентом на культуру чтения и влияние историзмов и архаизмов на восприятие текстов современной молодёжи. В условиях цифровых изменений социальные сети и новые медиа значительно влияют на литературные предпочтения. Авторы анализируют восприятие языка и стиля литературы поколением Z, а также роль исторических и архаичных элементов в современных произведениях. Исследование выявляет особенности восприятия языка, жанров и тематик, а также то, как классика переосмысливается для современной аудитории. Результаты показывают, что, несмотря на доминирование технологий, традиционные литературные элементы остаются актуальными и привлекают внимание молодёжи к литературному наследию.

**Ключевые слова:** поколение Z, культура чтения, историзмы, архаизмы, восприятие текстов, современная молодёжь, литературные тренды, цифровая среда, молодежная аудитория, классическая литература, литературный стиль, языковые особенности.

## Z AVLODINING ADABIY TRENDLARI: O'QISH MADANIYATI VA TARIXIYLIK HAMDA ARXAIZMLARNING ZAMONAVIY YOSHLARNI MATNLARNI IDROK ETISHIGA TA'SIRI

Аннотация

Maqola Z avlodining adabiy tendentsiyalarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda o'qish madaniyati va tarixiylik va arxaizmlarning zamonaviy yoshlar matnlarini idrok etishga ta'siri ta'kidlangan. Raqamli o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy tarmoqlar va yangi ommaviy axborot vositalari adabiy imtiyozlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mualliflar Z avlodining adabiyot tili va uslubi idrok etishini, shuningdek, zamonaviy asarlardagi tarixiy va arxaik elementlarning rolini tahlil qiladilar. Tadqiqot til, janr va mavzularni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, klassikaning zamonaviy auditoriya uchun qanday qayta talqin qilinishini ochib beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, texnologiya ustunligiga qaramay, an'anaviy adabiy elementlar dolzarb bo'lib qolmoqda va yoshlarning e'tiborini adabiy merosga qaratmoqda.

**Kalit so'zlar:** Z avlodi, o'qish madaniyati, tarixiylik, arxaizm, matnlarni idrok etish, zamonaviy yoshlar, adabiy tendentsiyalar, raqamli muhit, yoshlar auditoriyasi, klassik adabiyot, adabiy uslub, til xususiyatlari.

## LITERARY TRENDS OF GENERATION Z: READING CULTURE AND THE INFLUENCE OF HISTORICISMS AND ARCHAISMS ON THE PERCEPTION OF TEXTS BY MODERN YOUTH

Annotation

The article is devoted to the study of literary trends of generation Z, with an emphasis on the culture of reading and the influence of historicisms and archaisms on the perception of texts by modern youth. In the context of digital change, social networks and new media significantly influence literary preferences. The authors analyze the perception of the language and style of literature by generation Z, as well as the role of historical and archaic elements in modern works. The research reveals the peculiarities of perception of language, genres and themes, as well as how classics are reinterpreted for a modern audience. The results show that, despite the dominance of technology, traditional literary elements remain relevant and attract the attention of young people to the literary heritage.

**Key words:** generation Z, reading culture, historicisms, archaisms, text perception, modern youth, literary trends, digital environment, youth audience, classical literature, literary style, linguistic features.

**Введение.** Чтение литературных произведений – деятельность во многом столь же сложная, как творение искусства. Чтение и философский анализ художественных произведений оказываются основным средством развития учащихся при изучении литературы.

Чтение и философский анализ художественного произведения представляют собой последовательные ступени восприятия словесного искусства, связь которых неоднократно подчеркивалась в методической науке.

Чтение по преимуществу объективизирует литературный текст, с помощью художественного переживания переносит образцы и ситуации произведения в план личных ассоциаций читателя. Чтение, как правило, индивидуальное общение читателя и писателя, которое предполагает обогащение индивидуальных впечатлений учащихся опытом других читателей и научным толкованием текста, которое представляет учитель.

Настоящая художественная литература – не просто средство развлечения, а форма выражения мысли. Писатель, используя выразительно-изобразительные средства, живописует мир вокруг себя. Он проникается земными человеческими заботами, тревогами и радостями, а затем, пропустив все это через призму своего сознания, стремится создать целую историческую картину мира, свой взгляд на мир. Самые сокровенные думы и переживания. Сложные судьбы и характеры людей, и драматические отношения между ними подвластны писателям и поэтам, оружие которых – художественные исторические образы [1].

**Материалы и методы.** Чтение литературных произведений представляет собой сложную и многогранную деятельность, в ходе которой происходит не только восприятие текста, но и его осмысление в контексте личного опыта, культурных и философских концепций. Особенно актуально это для молодёжи, для которой литература служит важным инструментом личностного развития и

формирования мировоззрения. Учитывая, что поколение Z выросло в условиях цифровых технологий и мгновенного доступа к информации, традиционные способы взаимодействия с литературой, такие как глубокое чтение и аналитическое осмысление текста, уступают место более поверхностному восприятию. В то же время это поколение обладает уникальной способностью к многозадачности и быстрому переключению внимания, что открывает новые перспективы для интерпретации литературных произведений через призму цифровой культуры. Философский анализ литературы, в свою очередь, помогает молодым читателям осознать не только поверхностные смыслы, но и глубинные идеи, заложенные в тексте, что способствует более комплексному и осознанному восприятию произведений. Это процесс требует от читателя умения вести диалог с текстом, задавать вопросы и искать ответы, а также осознавать тексты в контексте культурных, исторических и философских парадигм.

Современная молодежь, представляющая поколение Z, живет в условиях динамично меняющегося информационного пространства, которое оказывает значительное влияние на их восприятие и потребление текстов. Электронные книги, аудиокниги и различные цифровые платформы для чтения значительно упростили доступ к литературным произведениям, обеспечив возможность погружаться в мир книг практически в любом месте и в любое время. Такие изменения сделали чтение более гибким и удобным, а также открыли новые возможности для распространения знаний и культурных материалов. Однако, несмотря на этот технологический прогресс, культура глубокого и вдумчивого чтения продолжает сталкиваться с серьезными трудностями. Одна из главных причин заключается в растущем объеме информации, который ежедневно поступает в жизнь молодежи через Интернет, социальные сети, мессенджеры и различные онлайн-платформы. Современные пользователи сталкиваются с постоянно меняющимся потоком информации, что неизбежно влияет на их способность сосредотачиваться и углубленно воспринимать тексты. В условиях информационной перегрузки часто возникает дефицит времени, необходимого для полного осмысления произведения, что ведет к сокращению продолжительности чтения и поверхностному восприятию содержания.

Кроме того, стремление к быстрым и ярким впечатлениям, характерное для поколения Z, приводит к предпочтению кратких, эмоционально насыщенных текстов, таких как посты в социальных сетях, мемы, блогерские записи или новости, которые не требуют глубокого анализа и позволяют мгновенно получить информацию. Эта тенденция формирует у молодежи привычку к чтению фрагментарных текстов, что затрудняет погружение в более сложные и многослойные произведения, требующие значительных интеллектуальных усилий. Литература, содержащая сложные идеи и философские размышления, становится менее привлекательной, так как она требует не только времени для прочтения, но и умения анализировать, интерпретировать различные слои смысла. В результате, чтение таких произведений становится менее востребованным, а способность к глубокому анализу и рефлексии ослабевает. Эта ситуация имеет долгосрочные последствия для развития личности молодежи, поскольку чтение сложных текстов способствует не только развитию критического мышления и способности к саморефлексии, но и формированию более глубокой и осознанной картины мира.

Историзмы - это слова и выражения, которые выходят из употребления и часто используются для создания атмосферности или точного изображения прошлого. Архаизмы, в свою очередь, относятся к словам и выражениям, устаревшим по своей форме, но сохранившим актуальность для описания исторического периода. Их присутствие в произведении придает тексту дополнительную глубину и подчеркивает его историческую ценность [10].

Для поколения Z восприятие таких элементов требует не только знания языковой и культурной среды прошлого, но

и способности к интерпретации этих элементов с учетом исторического контекста. Это может привести к определенным трудностям в понимании текста, однако также представляет собой уникальную возможность для развития критического мышления и глубокого анализа.

Примером такого взаимодействия историзма и литературного восприятия является исследование города Ахси, которое было проведено Исхахханом Ибрагимом в начале XX века. В своих трудах Ибрагим рассматривает изменения в восприятии и названии этого древнего города, который в разные исторические периоды именовался по-разному - Ахси, Ахсикат, Ахсикент. Такие исторические перепутанности, как подчеркивает Ибрагим, требуют от читателя особого подхода и внимательного изучения источников, чтобы правильно интерпретировать культурное наследие региона. Выражая свои домыслы и проводя исследования по поводу Ахсикента, Исхаххан Ибрагим говорил, что приводит свои мысли о нынешнем памятнике Старый Ахси. Следует отметить, что в это время ещё не существовало ненаучное понятие «Новый Ахси», появившееся впоследствии в науке. Именно этим и важны сведения Ибрагима сегодня. Ибрагим пишет: «В Ферганской области был большой город Ахси или Ахсикат, который был столицей в древние времена. В наши дни хорошо известны расположение и окрестности этого города». Эти слова, приведённые в газете «Туркистон вилоятининг газети» от 23 июня 1913 года ещё раз подтверждают слова Захириддина Мухаммада Бабура «...Поселения на северной стороне реки Сайхун: единый Ахси. В книгах приводится как Ахсикат... Потому поэта Асириддина называют Асириддин Ахсикатий...» подтверждают, что Ахси, Ахсикент, Ахсикат это одно и тоже место [2].

Также богатым на исследование с этой точки зрения является творчество Александра Сергеевича Пушкина. Художественный язык произведений Пушкина - один из самых сложных при переводе на другой, иностранный язык. Национальный колорит и самобытность его произведений представляют особую трудность для переводчиков. Однако, произведения Пушкина переводились и будут переводиться на многие иностранные языки. В ходе перевода художественных текстов неоднократно возникает необходимость применять различные трансформации. К часто встречающимся следует отнести: перестановку, антонимический перевод, замену частей речи, лексическую замену, замену членов предложения, описательный перевод и целостное преобразование [3].

Одним из важных аспектов восприятия литературы для поколения Z является также перевод произведений с других языков. Перевод, как показывает опыт работы с текстами Александра Пушкина, может включать в себя различные трансформации - от перестановки и замены частей речи до описательных и целостных преобразований. Это особенно важно для произведений, насыщенных национальными и культурными особенностями. Пушкина, чьи произведения в силу их исторической глубины и языковой сложности требуют особого подхода при переводе, можно рассматривать как пример для более глубокого понимания культурных и исторических пластов текста [9].

Особое внимание в переводе уделяется сохранению национального колорита и самобытности, что является особенно сложным при переносе произведений на другие языки. Пушкин, с его ярким использованием архаизмов и историзмов, служит своеобразным "мостом" между поколениями и культурами, что позволяет поколениям читать и воспринимать его творчество по-разному [4].

Потребность поколения Z в многоуровневом восприятии текста и стремление к поиску смысла, который мог бы соединить прошлое и настоящее, является основным двигателем литературных трендов. Историзмы и архаизмы, изначально воспринимаемые как атрибуты старинных произведений, в контексте современных текстов обретают новое значение. Эти элементы становятся своего рода мостом, соединяющим различные исторические эпохи и культурные пласты, а также позволяющим молодежи осмысливать свою идентичность через взаимодействие с

культурным наследием. Вместо того чтобы воспринимать исторические элементы как нечто отжившее или чуждое современности, поколение Z видит в них ключ к пониманию текущих социальных и политических процессов.

Примером этого служат произведения, в которых элементы историзма и архаизма не только способствуют созданию атмосферы исторической правдоподобности, но и служат средством для философских и моральных размышлений. В таких книгах, как «1984» Джорджа Оруэлла или «Меч и молния» Брэндона Сандерсона, использование исторических мотивов и языка древности помогает раскрывать глобальные темы - от власти и манипуляции до индивидуальной свободы и борьбы с тоталитаризмом. Эти произведения становятся более чем просто текстами, они представляют собой пространство для глубоких размышлений, где каждый элемент, включая историзмы и архаизмы, является частью глобальной картины, пытающейся объяснить современные вызовы [6].

**Выводы.** Также следует отметить важную роль историзмов в жанре фэнтези и научной фантастики, которые активно привлекают внимание молодежи. В таких книгах, как «Колесо времени» Роберта Джордана или «Сумерки» Стефани Майер, архаичные элементы оказываются частью мира, где прошлое и будущее переплетаются, создавая пространство для фантазии, в котором обыгрываются вечные вопросы бытия. Важно, что для поколения Z эти произведения становятся своего рода культурными кодами, в которых отражаются не только романтические или фантастические элементы, но и социальные и философские вопросы, связанные с глобальными проблемами современности [7].

Однако влияние историзмов и архаизмов на восприятие текстов современной молодежи не ограничивается только их эстетической функцией. Эти элементы становятся частью культурной практики, в которой

литература выполняет роль инструмента для самопознания и осознания места в мире. Переосмысление прошлого, которое представлено в произведениях с историческими и архаическими элементами, помогает молодым читателям переживания с переживаниями и опытом предыдущих поколений. В этом контексте, литература становится не только зеркалом общества, но и пространством для поиска личной и коллективной идентичности [8].

Важно также отметить, что поколение Z активно участвует в процессе создания литературы. С помощью новых технологий, социальных сетей и платформ для самостоятельной публикации, молодежь может не только потреблять, но и создавать тексты, которые отражают их взгляды, ценности и предпочтения. Этот процесс способствует тому, что элементы историзма и архаизма становятся всё более доступными и адаптируемыми для новых поколений авторов, которые, в свою очередь, дают старым формам новые смыслы. Произведения, написанные с учётом исторических элементов, приобретают новый уровень осмысленности, что способствует их популярности среди молодежи, стремящейся к глубокой рефлексии.

Таким образом, можно сделать вывод, что литературные тренды поколения Z не только демонстрируют стремление к переплетению прошлого и настоящего, но и раскрывают новые формы восприятия и осмысления текста. Историзмы и архаизмы, являясь частью художественного языка современных произведений, помогают молодежи не только ориентироваться в культурной традиции, но и искать ответы на вопросы, которые ставит перед ними современность. Это поколение не просто активно воспринимает литературное наследие, но и находит новые способы его интерпретации, что открывает широкие перспективы для развития литературы и культуры в целом.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Абдуллаева И.М., Умаров А.А. Информационная компетентность учителей иностранных языков при развитии культуры чтения (на примере английского и русского языков) *American journal of education and learning*, 2024 г. (<https://doi.org/10.5281/zenodo.14558592>)
2. I.M Abdullaeva The Role Of Iskhakhan Ibrat In The Linguistic Study Of The Archeological Monument Of Ahsikent Galaxy *International Interdisciplinary Research Journal*, 2021
3. Е.В Чжен, ИМ Абдуллаева «Всечеловеческие» проблемы трагедии АС Пушкина «Борис Годунов» (лингвострановедческий аспект перевода и оригинала) - *Science and Education*, 2021
4. I.M Abdullaeva Study of historisms and archisms of russian literature in the system of lifelong education of the republic of Uzbekistan *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 2021
5. А.С. Пушкин. Сочинения в трех томах. Том 2 Санкт-Петербург: Золотой век, Диамант, 1997
6. Бенжамин, В. (2008). Работы и дни, современный мир: Опыты по истории культуры. - Москва: Прогресс.
7. Гачева, М. П. (2019). Поколение Z: новые тенденции в восприятии культуры. - Санкт-Петербург: Издательство "Невский проспект".
8. Зеленин, М. (2017). Литературные тренды современности и молодежь. - Москва: Издательство "Радуга".





UDK:33c5(c52):8Y3

**Muhayyo USMONOVA,**  
*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*  
E-mail: muhayyousmonova7@gmail.com

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD N.Mansurova taqrizi asosida*

## AYOL YOZUVCHILARNING JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI O'RNI

Аннотация

Ayol yozuvchilarning jahon adabiyotshunosligida o'rni beqiyos. Qadimgi davrlardan hozirga qadar ijod qilgan ayol yozuvchi va shoirlar o'zlarning ovozlari, o'ziga xos ijod na'munalari bilan budun dunyoni lol qoldirib kelmoqda. Ularning soni oxirgi yillarga kelib anchagina o'shganligiga ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Zamonaviy adabiyotshunoslikda ayol yozuvchi va shoirlar boshqa jins vakillari bilan tengma-teng asarlar yaratishmoqda. Bunga o'z navbatida adabiyot sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar feministic jarayonlarni sabab qilib ko'rsatsak bo'ladi. Maqolamizda ayol yozuvchilarning qanday qilib jahon adabiyotshunosligi namoyondalari bo'lib tanilganlari, shu bilan birga, qadimgi davr ayol yozuvchilaridan tortib zamonaviy adabiyotshunoslik vakillari ham o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** jahon adabiyotshunosligi, ayollar adabiyoti, qadimgi davr adabiyotshunosligi, feministic she'riyat, ayol ruhiyati

## РОЛЬ ЖЕНЩИН-ПИСАТЕЛЕЙ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

Роль женщин-писателей в мировой литературе бесподобна. Женщины-писательницы и поэтессы, творившие с древнейших времен до наших дней, удивляют весь мир своими голосами и уникальными примерами творчества. Мы также можем стать свидетелями того, что их число значительно возросло за последние годы. В современной литературе женщины-писатели и поэты создают произведения наравне с представителями других полов. В свою очередь, мы можем показать, что изменения, происходящие в сфере литературы, вызваны феминистскими процессами. В нашей статье рассматривается, как женщины-писательницы признаются представительницами мировой литературы и в то же время от древних писательниц до представительниц современной литературы.

**Ключевые слова:** мировая литература, женская литература, литература древних времен, феминистская поэзия, женская психика

## THE ROLE OF WOMEN WRITERS IN WORLD LITERATURE

Annotation

The role of women writers in world literature is incomparable. Female writers and poets who have created from ancient times to the present have been surprising the whole world with their voices and unique examples of creativity. We can also witness that their number has increased significantly in recent years. In modern literature, women writers and poets are creating works on an equal footing with representatives of other genders. In turn, we can show that the changes taking place in the field of literature are caused by feminist processes. Our article examines how women writers became recognized as representatives of world literature, and at the same time, from ancient women writers to representatives of modern literature.

**Key words:** world literature, women's literature, literature of ancient times, feminist poetry, female psyche

**Kirish.** Jahon adabiyotiga nazar solar ekanmiz, avvalombor bu tushunchaning qanday paydo bo'lganiga e'tibor qaratishimiz lozim. Shundagina unda ayollarning tutgan o'rni haqida so'z yuritsak joizdir. Jahon adabiyoti, bu dunyoning umumiy milliy adabiyotini va asarlarning o'z mamlakatidan tashqarida kengroq dunyoga tarqalishini ifodalash uchun ishlatiladi. O'tmishda u birinchi navbatda G'arbiy Yevropa adabiyoti durdonalariga taalluqli bo'lgan. Biroq, bugungi kunda jahon adabiyoti xalqaro kontekstda ko'proq ko'riladi. Endilikda kitobxonlar turli tarjimalarda keng ko'lamli global asarlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Shu sababli bu tushunchani nafaqat inglizxon asarlar haqida so'z borganda, balki dunyo sevib mutolaa qiladigan barcha yozuvchi va shoirlar ijodiga nisbatan qo'llasak bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ko'pgina olimlarning ta'kidlashicha, asarning kelib chiqishi mamlakatidan tashqarida uning qay darajada keng tarqalishi bilan uning jahon adabiyoti durdonasi ekanligi aniqlanadi. Masalan, Devid Damrosh shunday deydi: "Asar jahon adabiyotiga ikki xil jarayon bilan kiradi: birinchidan, adabiyot sifatida o'qilishi, ikkinchidan, til va madaniy kelib chiqish nuqtasidan tashqarida kengroq dunyoga tarqalishi"[2]. Xuddi shunga o'xshash fikrlar jahon adabiyoti olimi Venkat Mani tomonidan ham aytib o'tilgan bo'lib, uning fikricha "jahon adabiyoti ko'proq asarlarning chop etilishi bilan bog'liq hodisa. Asarlarni mohirlik bilan yaratuvchiva ularnin nashr etuvchi shaxslar, shu bilan bir qatorda milliy kutubxonalarning yaratilishi o'quvchilarning asarlarni ne chog'lik

asonlik bilan mutoalaa qila ilishi "jahon adabiyoti" tushunchasini kengroq bo'y cho'zishiga omil bo'lib xizmat qiladi"[5]. Jahon adabiyotshunosligi yangi tushuncha emasligini aniqroq tushunish uchun uning tarixi nazar solishning o'zi kifoya. Misol qilib aytganda, Iogann Volfgang Gyote XIX asrning boshlarida o'zining bir qancha ijod na'munalari jahon adabiyoti tushunchasidan foydalanib, Yevropada adabiy asarlarning, jumladan, g'arbdan tashqari asarlarning xalqaro muomalasi va qabul qilinishini tasvirlab beradi. Uning shogirdi Iogann Piter Ekkerman 1835-yilda Gyote bilan suhbatlar to'plamini nashr etgandan so'ng, bu kontseptsiya keng tarqala boshlaydi. Gyote Ekkerman bilan xitoy romanlarini, fors va serb she'riyatlarini o'qish hayajonini, shuningdek, o'z asarlarining chet elda, ayniqsa Fransiyada qanday tarjima qilingani va muhokama qilinishini ko'rishdan zavqlanishi haqida gapiradi:

**Tadqiqot metodologiyasi.** "She'riyat insoniyatning umumbashariy mulki ekanligiga, hamma joyda va har zamonda yuzlab, yuzlab odamlarda o'zini namoyon qilishiga tobora amin bo'lyapman. ... Shuning uchun men chet ellarda o'zim haqimda qarashlarni yaxshi ko'raman va hammaga ham shunday qilishni maslahat beraman. Milliy adabiyot endi ma'nosiz atamaga aylandi; jahon adabiyoti davri yaqinlashmoqda va har kim uni tezlashtirishga intilishi kerak[4].

Shu o'rinda asosiy mavzumiz bo'lgan ayollarning jahon adabiyotiga kirib kelishi, ularning adabiyotshunoslikda o'z o'rnini egallashi o'ziga xos qiyinchiliklar bilan yuzga kelganini eslatib o'tish kerak. Chunki barcha davrlarda bo'lagani kabi ayollarning



ijod namunalari jahon adabiyoti minbariga chiqishi va uni qabul qilinishi ayol yozuvchilardan ancha-muncha mehnatni talab qilgan. Ayollar eng qadimgi yozma matnlardan boshlab adabiyotga katta hissa qo'shgan. Ular dastlabki sivilizatsiyalardan beri matnlarning yaratilishi, folklorshunoslik, va adabiyotda o'z o'rinlariga ega bo'lishgan. Birinchi taniqli ayol yozuvchilar orasida Enheduanna ismi tilga olinadi; u, shuningdek, eng qadimgi taniqli shoirdir. U Inanna ma'budasi va oy xudosi Nanna (Sin) ning oliy ruhoniysi bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Bu yozuvchi 4200 yil avval Shumerning Ur shahar-davlatida yashagan [3]. Keying asrlarda ijod qilgan ayol yozuvchilardan biri Sappho ham o'zining davrida mashhur bo'lgan. Sappho musiqa jo'rligida kuylash uchun yozilgan lirik she'riyati bilan mashhur. Bu yozuvchining hayoti haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, bu shoira sermahsul deya e'tirif etiladi, u taxminan 10 000 misralik she'riy asar yozganligi to'g'risida ham ma'lumotlar bor. U antik davrda o'zining sevgi mavzusidagi she'riyati bilan mashhur bo'lgan; bu yozuvchining ijod mahsulidan juda kam qismigina bizgacha yetib kelgan xolos. Shu saqlanib qolgan qismga murojaat qiladigan bo'lsak, unda sevgi mavzusi bilan bir qatorda oila, din mavzularidagi she'rlar ham kuzatilishi aytib o'tiladi[6]. Bu esa bizga qadimgi ayol yozuvchilarning mavzu doirasi qaysidir o'rinda hozirgi zamon ayol yozuvchilarining asarlariga o'xshab ketishidan dalolat beradi. Ya'ni, ayol yozuvchilar uchun ilhom manbai bo'lgan ishq, yokida, oila mavzulari o'sha davrlarda ham keng tarqalgan degan xulosa qilishimiz mumkin. Shu o'rinda sharqda adabiyotning rivojlanish bosqichlari to'g'risida ham biroz mulohazalar keltirishni joiz deb bildik. Sharqda ham dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi ayollarning ijodiga bo'lgan munosabat va ularning soni erkak yozuvchilarga nisbatan faqat bo'lgan. Sharq mamlakatlari adabiyoti, uning istiqboli va taraqqiyotiga Yaqin va Uzoq Osiyo so'z san'ati bevosita o'z ta'sirini ko'rsatgan. Islom dini Movarounnahrda kirib kelgach, ko'plab sohalar singari badiiy so'z qudratida ham o'zini namoyon qila boshladi. Aruz vazni va uning keng imkoniyatlari xalq lirikasiga singib, ijodkor bilan simfonik uyg'unlikni hosil qildi. Didaktik ruhda ta'lim asarlarga singdirildi. Ushbu davrda yaratilgan asarlar xalq ma'naviyatining ko'zgusi bo'lib xizmat qildi.

**Tahlil va natijalar.** Uvaysiy (taxallusi; ismi Jahon) (1779 - Marg'ilon -1845) - shoira, ma'rifatparvar. Uvaysiy oilada xat-savodini chiqarib, avval xalifa, so'ngra onasining yonida maktabdorlik qilgan. Akasi Oxunjon hofizdan she'riyat ilmini o'rgangan, tez orada shoira, otin sifatida tanilgan. U, ayniqsa, aruzni, muammo (she'rda fikrni yashirib ifodalash) san'atini mukammal egallagan.

Shoira adabiyotda taraqqiyparvar namoyandalarning qarashlari asosida maydonga kelgan inson taqdiri, shaxs erki va ma'rifatparvarlik g'oyalarida latif va dilkash asarlar yaratgan, asarlarida insonni e'zozlash, odamlarni tabiat va hayot noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishga undash, do'stlik, vafo va sadoqat haqidagi ulug'vor niyatlarini Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy talqinlar bilan asoslagan holda ijodiy barkamollikka erishgan. Uning she'rlarida tariqatning talab va qoidalariga taallukli bo'lgan talqinlar ko'p uchraydi:

Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo'q ogoh,

Qabih guftor mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Uvaysiy asarlari o'zining latif mazmuni va dilkash badiiyligi bilan xalq ommasi orasida keng yoyilgan, hofizlar, xonandalar tomonidan maqom va xalq ohanglari yo'lda kuylanib kelinadi.

Nodira (taxallusi; ismi Mohlaroyim) (1792, Andijon - 1842, Qo'qon) - shoira, ma'rifatparvar va davlat arbobi. «Komila» va «Maknuna» taxalluslari bilan ham she'rlar yozgan.

Nodira she'riyatining asosini lirika tashkil etadi. Nodira muhabbat, sadoqat va vafo kuychisidir. U go'zallik va sadoqatni, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, ohu fig'onlarini kuyladi. Shoira o'zini ishq oynasi deb atar ekan, bu oynada insonning

hayotga umid bilan qarashi, ezgu istaklari va orzusi aks etgan. U muhabbat Alloh tomonidan insonlar qalbiga solingan mangu yog'du ekanligini kuyladi.

Mustaqillik davri o'zbek she'riyatiga nazar solar ekanmiz, yangicha ruh, yangicha yondashuvlar, erkin va hur fikrlar oqimi, hayotdan zavqlanib yashash, vatanga bo'lgan muhabbat, insoniy tuyg'ular tarannumi, muhabbat va sadoqat tuyg'ularining rangin satrlar ila qalamga olinganiga guvoh bo'lamiz. Bugungi kunda o'zbek she'riyati gulshanida qalam tebratayotgan iste'dodli shoirlarimiz Zebo Mirzo va Halima Ahmedovalarning ijodi o'zining rangin bo'yqodorigi, serqirraligi hamda badiiy konsepsion jihatdan nihoyatda puxtaligi bilan ajralib turadi[9.74-76].

Amerika she'riyatida o'chmas iz qoldirgan, Nobel mukofoti sovrindori Luiza Glyuk ijodi ham feministik ruhdagi she'rlardan holi emas. Uning bir necha asarlari aynan ayol ruhiyati, farzandlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Glyuk o'zining she'rlarida badiiy so'zni o'rinni qo'llaydi. Shoir Kreyg Morgan Teyxer uni "so'zlari naqadar noyob, qiyinchilik bilan qo'lga kiritilgan va behuda sarflanmaydigan" ijodkor sifatida ta'riflagan. Olima Laura Quinney so'zlarni ehtiyojkorlik bilan ishlatishi Glyukni Emili Dikkinsondan Yelizaveta Bishopgacha bo'lgan "o'ziga xos tasviri qadrlaydigan amerikalik shoirlar qatoriga" kiritganini ta'kidlaydi. Glyuk she'rlari butun faoliyati davomida o'z shaklini o'zgartirib bordi, u qisqa satrlardan tashkil topgan qisqa matnlardan boshlanib, kitoblar uzunligidagi to'plamlarga jamlangan asarlar yaratish bilan davom etmoqda. U hamisha ham she'r texnikasiga e'tibor beravermaydi. Shoir Robert Xan uning ijodiga baho berar ekan: "birdan ko'zga tashlanmaydigan" yoki "uslubning deyarli yo'qligi", suhbat uslubi bilan "portativ intonatsiyalar" ni birlashtirgan ovozza tayanish orqali yaratilgan asarlar, deya ta'riflaydi.

L.Glyuk she'riyatida ayol ruhiyati, qalb og'riqlari tasvir etilganligi uchun ham, ularni avtopsihologik lirikaga mansub deyish mumkin. Chunki u butun hayoti davomida o'lim, yo'qotish, azob-uqubatlar, muvaffaqiyatsizliklarga ro'baro' bo'lgan. Daniel Morrisning ta'kidlashicha, hatto Glyuk she'rlari "muallifning o'lim, aybsizlik yo'qolishlar to'g'risida xabardorligidan dalolat beradi". Olim Joanne Feit Diehl bu his-kechinmalar "Glyuk she'rlarini retrospektiv kuch bilan to'ldiradi" deydi. U bolaligida ruhiy xastalikka chalingan, yolg'iz qolgan vaqtlar ko'p bo'lgan. Shu jihatlar ham she'rlariga mahzunlik, tushkunlik ruhini olib kirgan va uni konfessional shoira deyishga asos bo'lgan[7].

Zamonaviy Angliya adabiyotida Alis Osvaldning alohida o'rni bor. Uning mashhur asarlaridan biri "Memorial" mavzu jihatdan feministik ruhda yozilgan. Adibaning "Dart" deb nomlangan asarida esa qishloq ayollarining hayoti aks etgan. Bundan tashqari, unda "ona tabiat" atamasining ishlatilganligi ham feministik mavzuda ekanligini ko'rsatib turadi. Yozuvchi uch yil davomida daryo bo'yida yashaydigan va ishlaydigan odamlar bilan suhbatlashadi; Uning so'zlariga ko'ra, daryoda: "qo'rqituvchi ayol timsoli bor ... Men gaplashgan odamlarning suhbatlariga qaraganda, daryo ayolga o'xshardi. I work in the weather all day, here comes hail, what a racket of pearls!"[8].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, jahon adabiyotshunosligini ayol yozuvchilarning ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Nega deganda, ayol yozuvchi va shoirlarning asarlari adabiyotshunoslikning o'ziga xos durdonalaridir. Ayol yozuvchilar ijodida turli xil mavzular yetakchilik qiladi, shu jumladan ular muhabbat, sadoqat, oilaviy rishtalar kabilarni juda keng talqin qiladi. Zamonaviy adabiyotshunoslikka murojaat qilar ekanmiz, bu o'rinda Nobel mukofoti sovrindori, amerikalik yozuvchi Luiza Glyuk, ingliz zamonaviy adabiyotshunosligida o'z o'rniga ega bo'lgan Alis Osvald, shu bilan bir qatorda o'zbek adabiyoti namoyondalari, Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva kabilarni eslamasdan ilojimiz yo'q. Bu yozuvchilar ayol ijodkorlarning mavqeyini jahon adabiyotshunosligida bir pog'onaga yuksaltirdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T., 1980
2. Damrosch, David (2003). What Is World Literature?. Princeton University Press. p. 6. ISBN 978-0-691-04986-1.
3. Gods, Demons, and Symbols of Ancient Mesopotamia: An Illustrated Dictionary by Jeremy Black and Anthony Green (1992, ISBN 0-292-70794-0), p. 134 (entry "Nanna-Suen").

4. Johann Peter Eckermann, Gespräche mit Goethe in den letzten Jahren seines Lebens, trans. John Oxenford as J. W. von Goethe, Conversations with Eckermann, repr. North Point Press, 1994. p.126
5. Mani, B. Venkat (2012). "Chapter 29. Bibliomigrancy". In D'haen, Theo; Damrosch, David; Kadir, Djelal (eds.). The Routledge Companion to World Literature. Routledge. p. 284. ISBN 978-0-415-57022-0.
6. Rayor, Diane; Lardinois, André (2014). Sappho: A New Translation of the Complete Works. Cambridge: Cambridge University Press. ISBN 978-1-107-02359-8. P.94-95
7. Usmonova Muhayyo Akramovna (2023). Luiza glyuk ijodi va uning adabiyotshunoslikdagi o'rni. [https://buxdu.uz/media/jurnallar/ayniy/ayniy\\_vorislari\\_3\\_4\\_2023,p.93-94](https://buxdu.uz/media/jurnallar/ayniy/ayniy_vorislari_3_4_2023,p.93-94)
8. Mukhayyo Usmonova. The role of literature in esl classes. Scientific reports of Bukhara State University. 2021. P.287-295
9. Muhayyo Usmonova. Topic similarities in the works of Uzbek modern women writers. Multidisciplinary Journal of Science and Technology. 2024/12/12. P.74-76
10. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/jahonotin-uvaysiy-1779-1845>
11. <https://tafakkur.net/nodirabegim.haqida>



UDK:82-311.1

**Sitora XAYRULLOYEVA,**  
*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: sitorabonu34@gmail.com*

*BuxDU dotsenti, PhD O.G'aniyeva taqrizi asosida*

## THE DEPICTION OF MENTAL TRAUMA IN D.DELILLO'S "THE BODY ARTIST"

Annotation

At the beginning of Don DeLillo's short novel *The Body Artist* (2001), Lauren Hartke and her husband, Ray Robles, are sitting at the breakfast table of their rented seaside house in an unnamed beach town, a typical scene on an ordinary day. They would mix coffee, read the newspaper, pour orange juice or milk from a carton, wait for toast, and exchange short, confused conversations, as if performing a familiar ritual. But it will not be an ordinary day.

**Key words:** foreign body, voice, poetic comprehension of language, I, voice and body

## ВЫРАЖЕНИЕ ДУШЕВНОЙ ТРАВМЫ ГЕРОЯ В "THE BODY ARTIST" Д. ДЕЛЛЛЛО

Аннотация

В начале короткого романа Дона ДеЛилло "The Body Artist" (2001) Лорен Хартке и ее муж Рэй Роблес сидят за завтраком в арендованном приморском доме в безымянном пляжном городке - типичная сцена обычного дня. Они смешивали кофе, читали газету, наливали апельсиновый сок или молоко из коробки, ждали тостов и обменивались короткими, сбивчивыми разговорами, словно выполняя знакомый ритуал. Но это будет не обычный день.

**Ключевые слова:** инородное тело, голос, поэтическое постижение языка, я, голос и тело

## D.DELILLONING "THE BODY ARTIST" ASARIDA QAHRAMON RUHIY JAROHATINING IFODASI

Annotatsiya

Don DeLilloning "The Body Artist" (2001) qisqa romani boshlanishida, Lauren Hartke va uning eri Rey Robles nomsiz sohil shaharchasida ijaraga olingan dengiz bo'yidagi uylarining nonushta stoliga o'tirishgan, bu oddiy kundagi odatiy manzara edi. Ular qahva aralashtirib, gazeta o'qib, kartondan apelsin sharbati yoki sut quyib, tost kutib va qisqa, parishon gaplar almashinib, go'yo tanish marosimni bajarishardi. Biroq bu oddiy kun bo'lmaydi.

**Kalit so'zlar:** foreign body, ovoz, poetic comprehension of language, men, ovoz va tana

**Kirish.** Oltmish to'rt yoshli kino rejissyori Rey Nyu-Yorkka jo'nab ketadi va birinchi xotinining kvartirasida o'zini otib o'ldiradi. Lauren, sarlavhadagi tana san'atkori, o'zining og'ir yo'qotishiga aza tutish uchun dengiz bo'yidagi yolg'iz kottejga qaytadi. U uchinchi qavatdagi bo'sh xonada g'alati, beqaror, ehtimol aqli zaif bir odamni uchratadi, u balki eri bilan yashagan butun davr mobaynida shu yerda bo'lgandir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "The Body Artist" asari "madman in the attic," [3] xayoliy obrazi orqali travmatik yo'qotish va qaytish senariysini aks ettiruvchi hikoya sifatida ruhiy bosqinchilik (o'zlashtirilmaydigan mavjudlik) va o'zaro bog'liqlik dinamikasini travmatik tajriba oqibati sifatida o'rganadi. Toni Morrisonning "Beloved" (1987) asariga o'xshab, DeLilloning hikoyasi travmani "foreign body"[3] ning paydo bo'lishi bilan bog'liq deb tasvirlaydi, bu travmatik xotiraning ishini ko'rsatadigan go'shtdor sharpa shaklidagi obraz. Muallifning qiziqishlari va tadqiqot sohalariga muvofiq, asar asosan tasvirlash cheklovlariga qaramay, motam tilining imkoniyatlarini o'rganadi. Shunday qilib, DeLillo uchun yaqin kishisining tushunarsiz yo'qolishi kabi travmatik inqirozni hikoya qilish, avvalo teri ostida kechgan tajribaning haqiqatini ifodalay oladigan yangi aks-sadolar, nozikliklar va ritmlarni til ichidan izlashni anglatadi. DeLilloning yozuvi an'anaviy tilni parchalab yuboradigan buzilgan vaqt va fazo o'lchoviga sho'ng'ir ekan, uning loyihasi trauma tajribasini shakllantiruvchi asosiy tushunchalar: "men", ovoz va tana o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashning murakkab vazifasini bajaradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** "The Body Artist" asarida DeLillo shunday savol qo'yadi: trauma haqidagi hikoyani qanday so'zlab berish mumkin, agar unda ma'lum va noma'lum narsa bir-biriga chuqur bog'langan bo'lsa? DeLilloning javobi "ovoz" tushunchasiga asoslanadi. Bu tushuncha tilning an'anaviy chegaralaridan tashqariga chiqib, og'zaki bo'lmagan, jismoniy idroklarga e'tibor qaratadi. Shuningdek, u "tana" tushunchasiga ham tegishli bo'lib, bu tana til bilan bog'liq va ongimiz

bilmaydigan narsalarga tegib, aytilmagan haqiqatni ovoz orqali ifodalaydi. Shunday qilib, ovoz va tana birgalikda ishlaydi: ular travmani tasvirga aylantiradi, uni o'zining ifoda chegaralarini tan olish orqali tushunarli qiladi va uni yengib o'tishning samarali usullarini o'rganadi. Loren g'alati kichkina odamni janob Tattl deb ataydi. "Smallish and fine bodied," - deb o'ylaydi u birinchi uchrashuvda, - "a kid, sandy-haired and roused from deep sleep, or medicated maybe"[3]. Yoshi noma'lum, aqliy va ruhiy jihatdan zaif, odatiy tilda gapira olmaydigan janob Tattl haqiqatan ham jumboqli shaxs. Uning g'alatiligi va noaniqligiga duch kelgan o'quvchi bunday obrazni to'liq tushuntirishga urinib, albatta muvaffaqiyatsizlikka uchrashi tayin. Biroq, bu yetarli bo'lmagan tahlilda men shuni taklif qilmoqchiman: bir vaqtning o'zida gavalangan ovoz va gapiruvchi tana sifatida janob Tattl DeLilloning travmatik voqealarni qayta jonlantirishga qaratilgan katta loyihasining markazida turadi. Og'izdagi begona soch kabi (matnda takrorlanuvchi obraz), janob Tattlning "begona tanasi" yoki "arvoh tanasi" to'satdan sahnada paydo bo'ladi, xuddi yutilmagan yoki o'zlashtirilmagan holda ruhiyatni egallagan travmatik xotiralar majburiy ravishda qaytib kelgani kabi. Janob Tattlning hozir bo'lishi nafaqat uning jismining sirli paydo bo'lishi, balki tinimsiz yangrayotgan ovozi bilan ham ajralib turadi.

Simulyatsiya qilingan, takrorlangan, yozib olingan va ikki barobar ko'paytirilgan janob Tattlning ovozi, omon qolish uchun kurashayotgan Lorenga qat'iyat bilan murojaat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Nikolas Abraham ovoz (tovush, so'zlar, til kabi) va travmatik tajriba o'rtasidagi bog'liqlikni ushbu muozara uchun foydali bo'ladigan tarzda nazariyalashtirgan. U "meant to objectify, even under the guise of individual or collective hallucinations, the gap produced in us by the concealment of some part of a love object's life," [2] metapsixologik tushuncha sifatida ta'riflagan "arvoh" g'oyasi orqali, insondagi boshqalarning sirlari, sukutlari va jarohatlarining ko'milgan hodisasiga e'tibor qaratadi (172). Arvoh aynan

sukunatning shaxslararo oqibatlariga ishora qiladi, chunki subyekt beixtiyor o'ziga boshqalar tomonidan aytilmagan narsalarni qabul qiladi. Bu jim qilingan jarohatlarning mazmuni muqarrar va majburiy ravishda tiriklarni ta'qib qilishga qaytadi.

Tilning yo'qolishi shunchaki so'zlarning yo'qolishi emas. Bu sukunat ham emas. Sukunat bo'lganda unda chidab bo'lmay bo'lardi. Qolaversa, roman qanchalik qisqa bo'lmasin, u shunchaki so'zlar to'plami emas edi. Delillo bu asarda fojia oldida sukut saqlashni yoqlamaydi.

"The Body Artist" asari til orqali tilning yo'qolishini taqdim etadi. Bu yo'qotish dastlab autistik daydi nutqida namoyon bo'ladi. Yangi turmush qurgan, ammo yosh bo'lmagan Loren va Rey Nyu-Ingland qirg'oqlarida qayerdadir eski yozgi uyni ijaraga olishadi. Bir kuni ertalab nonushtadan so'ng Rey Nyu-York shahriga yo'l oladi va eng so'nggi sobiq xotinining kvartirasida to'pponcha bilan o'zini o'ldiradi. Tabiiy, Loren ruhan jarohatlangan. Bu o'quvchining taxmini. U jarohatlangan bo'lishi kerak, lekin buni ko'rsatmaydi. Yig'i-sig'i, ko'z yosh, g'azab yoki tushkunlik yo'q. Rey haqidagi ta'ziya xabarini o'qiyamiz, ammo dafn marosimini ko'rmaymiz. Loren shunchaki ijaraga olingan uyga qaytadi - bu uy atigi to'rt oylik xotiralarni saqlab turadi. U kundalik rejalar tuzadi, yuzalarni tozalaydi va Finlyandiyaning Kotka shahri yaqinidagi avtomagistralning veb-kamerasini kuzatishga mukkasidan ketadi. Unga yo'lning bo'm-bo'sh paytlari eng yoqadi. U uyga yolg'iz qaytish nosog'lom ekanligini aytgan do'stlarining maslahatlarini e'tiborsiz qoldiradi va o'zining bu hissiy azoblanishiga hech qanday tushuntirish bermaydi. Go'yo uning boradigan boshqa joyi yo'qdek.

Ammo, u yolg'iz emasligini angladi. Taqillash va g'ichirlash tovushlarini kuzatib, u tashlandiq uchinchi qavatdagi yotoqxonada faqat ichki kiyimda bo'lgan, deyarli hech qanday xususiyatga ega bo'lmagan qariyani topdi. O'tgan haftalarda payqagan g'alati belgilarni - ovqatdagi tanib bo'lmay sochni, devordagi shovqinlarni tasdiqlagan bu notanish odam hech qanday xavf tug'dirmadi. U o'zining topilganini deyarli sezmad, Lauren esa na qo'rquv, na hayrat bildirdi. U bu mehmonning uyga qanday kirib qolganini va qancha vaqtdan beri bu yerda ekanligini tushunolmadi. Biroq, undan ham g'alatiroq narsa uning aytgan so'zlari edi. Notanish kishi aniq, ravshan ingliz tilida gapirardi, ammo uning gaplari ma'nosiz edi:

"It is not able (43) . . . The trees are some of them (44) . . . Talk to me. I am talking (46)." [3]

Uning nutqida mantiq yo'q edi va u Laurenning borligini deyarli sezmayotganga o'xshardi. U qizning savollariga to'g'ridan-to'g'ri javob bera olmagan uchun, Lauren uni o'rta maktabdagi biologiya o'qituvchisi sharafiga janob Tattl deb atadi. Lauren tezda janob Tattlning nutqida g'aroyib narsa borligini tushundi. Uning nutqi shunchaki bema'ni emas edi. Aksincha, bu faqat hozirgi zamonga yopishib qolgan ongning belgisi edi. Janob Tattl o'tmish yoki kelajak haqida hech qanday tasavvurga ega emas edi. U butunlay hozirgi zamonda yashardi. Unda shaxsiyatni shakllantiradigan grammatik tuzilmalar yo'q edi:

"Maybe this man experiences another kind of reality where he is here and there, before and after, and he moves from one to the other shatteringly, in a state of collapse, minus an identity, a language, a way to enjoy the savor of the honey-coated toast she watches him eat. She thought maybe he lived in a kind of time that had no narrative quality . . . His future is unnamed. It is simultaneous somehow with the present . . . This is a man who remembers the future." (64-5, 77, 100)[3]

Keyinchalik, Loren janob Tattlning ongi haqidagi fikrlarini "continuum" so'zi ustida mulohaza yuritib kengaytiradi:

Nice word. What does it mean? She thought it meant a continuous thing, a continuous whole, and the only way to distinguish one part from another, this from that, now from then, is by making arbitrary divisions.

This is exactly what [Mr. Tuttle] doesn't know how to do . . . But it can't be true that he drifts from one reality to another, independent of the logic of time. This is not possible. You are made out of time. This is the force who tells you who you are. Close your eyes and feel it. It is time that defines your existence.. (91-92)[3]

Janob Tattlning nutqi metafizik jihatdan g'alati bo'lishi bilan birga, Loren uchun yanada chuqurroq ma'noga ega: uning

marhum eri Rey bu notanish odamning gaplarida qandaydir tarzda hozir. Janob Tattl Rey Lorenga aytgan gaplarni takrorlaydi va buni Reyning xuddi o'z ovozi bilan aytadi, go'yo u Reyni kuzatib yurgan magnitofon yoki hatto o'liklar bilan emas, balki tirik o'tmish bilan aloqada bo'lgan mediumdek:

"[I]t was Rey's voice she was hearing. The representation was close, the accent and dragged vowels, the intimate differences, the articulations produced in one vocal apparatus and not another, things she'd known in Rey's voice, and only Rey's . . . She followed what he said, word for word, but had to search for the context. The speech rambled and spun. He was talking about cigarette brands, Players and Gitanes, I'd walk a mile for a Camel, and then she heard Rey's, the bell-clap report of Rey's laughter, clear and spaced, and this did not come from a tape recorder . . . This was not some communication with the dead. It was Rey alive in the course of a talk he'd had with her, in this room, not long after they'd come here. She was sure of this . . . Rey is alive now in this man's mind, in his mouth and body . . ." (61, 87) [3]

Lorenning motami til shaklida namoyon bo'ladi, janob Tattlning tilini o'ziga xos bog'lanish sifatida qabul qiladi, bu til o'zi esa deyarli har qanday kontekstdan ajralib turadi. Go'yo u o'ziga qarshi motam tutayotganday, boshqa olamdan kelgan, hech qanday zamonni bilmaydigan tilda so'zlashadigan, ammo marhum erini xotirasida jonlantiradigan darbadarga duch keladi. Loren janob Tattl bilan magnitofon seanslari o'tkazadi, unda uni "Do Rey" deyishga undaydi, go'yo u nafas olayotgan xotira yaratmoqchiday. Loren o'z motamini kashf qilishi kerak. Janob Tattl singari, uning motami ham topilma xususiyatiga ega. Darhaqiqat, aynan shu begona odamning nutqi uning qayg'usini yuzaga chiqaradi:

"[S]he could not miss Rey, could not consider his absence, the loss of Rey, without thinking along the margins of Mr. Tuttle." (82) [3] Biroq uning tili xotira va esdalik tili emas. Uning gaplari be'manilik bo'lib, tasodifan Lorenning og'rig'iga qo'shilib ketadi. Janob Tattlning nutqi Loren uchun yo'qotishni anglashni boshlab beradi, lekin o'zi ham yo'qotishdir:

I am doing. This yes that. Say some words . . . (62)

Talk to me. I am talking . . . (46)

I know him where he was . . . (62)

Somehow. What is somehow . . . (63)

It is not able . . . (65)

But you know. I am living . . . (69)

Leaving has come to me . . . (74)

Leave into leaving . . . (81)

In when it comes . . . (81)

Then when it comes to me . . . (80)

I will leave the moment from the moment . . . (74)

The word for moonlight is moonlight . . . (82)[3]

**Xulosa.** To'xtovsiz davom etayotgan til she'ri kabi, notanish odamning gaplari ma'nosizdir, biz ularni oqlash uchun jon-jahdimiz bilan izlaydigan so'z ortidagi mohiyatdan mahrum. Zamon va voqealiklar orasida suzib yurgan uning so'zlari hech qanday kontekst yoki maqsadga bog'lanmagan. Uning nutqi bo'sh, ammo Loren o'zi his qila olmaydigan yo'qotishni aks ettiradi. Qandaydir tarzda ("Somehow. What is somehow?"), [3] janob Tattlning so'zlari til ichida sodir bo'ladigan tilning yo'qolishidir. Uning so'zlarida biz ko'pincha muhim deb hisoblaydigan kommunikativ ma'no yo'q. Biroq bu Loren uchun ahamiyatsiz.

Gilles Deleuze tilning bunday yo'qolishini duduqlanish deb ta'riflaydi. Uning fikricha, yozuvchi "stutterer in language"dir:

U tilni o'zini duduqlanadigan qiladi: "an affective and intensive language, and no longer the affectation of one who speaks"[2]. (107)

Deleuze uchun duduqlanish yoki to'tilash "poetic comprehension of language" usuli (109), tilni shunchaki so'zlovchi (o'zlik) xabar yetkazish vositasi sifatida ko'rishdan ko'ra kengroq anglash yo'lidir. Til duduqlana boshlaganda, "trembles from head to toe" (109), u moddiy, deyarli jismoniy bo'lib qoladi va shu bilan o'z-o'zini inkor etishga yaqinlashadi. Boshqacha aytganda, duduqlanayotgan til paradoksal tarzda sukunat yaratadi. Sukunat tilning boshqa bir ko'rinishi bo'lishi mumkin, lekin u tilning ziddi emas. Til va sukunat bir-birini

taqozo qiladi, ammo o'z duduqlanishi va tebranishlari orqali harakatlanadigan tilda bu ikkalasi o'rtasidagi yaqin aloqa yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni, sukunat - bu so'zlarning yo'qligi emas. So'zlar ongning choparlariga aylanishdan bosh tortganda sukunat "paydo bo'ladi". Faylasufning o'z so'zlari bilan aytganda:

“When a language is so strained that it starts to stutter, or to murmur or stammer . . . then language in its entirety reaches the limit that marks its outside and makes it confront silence. When language is strained in this way, language in its entirety is submitted to a pressure that makes it fall silent.” (113)[3]

#### ADABIYOTLAR

1. Abraham, Nicolas. “Notes on the Phantom: A Complement to Freud’s Metapsychology.” *The Shell and the Kernel*. Ed. and trans. Nicholas Rand. Chicago: U of Chicago P, 1994. 171–76.
2. Deleuze, Gilles. *Essays Critical and Clinical*. Trans. Daniel W. Smith and Michael A. Greco. Minneapolis: U of Minnesota Press, 1997.
3. DeLillo, Don. *The Body Artist*. New York: Scribner, 2001.





**Shaxnoza XAKIMOVA,**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xitoy filologiyasi kafedra mudiri, PhD*

*E-mail: sharona84@mail.ru*

**Azamat JABBOROV,**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Xitoy filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi*

*E-mail: azamatjabborov18@gmail.com*

*Filologiya fanlari nomzodi, Oriental universiteti dotsenti M.Boboyeva taqrizi asosida*

## MAVHUM OTLARNING SEMANTIK TALQINI: XITOIY, O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola xitoy, o'zbek va ingliz tillarida mavhum otlarning semantik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Mavhum otlar tilning muhim qismidir, chunki ular abstrakt tushunchalar va ma'naviy holatlarni ifodalaydi. Maqolada xitoy tilidagi mavhum otlarning qisqa va ko'p ma'noli bo'lishi, o'zbek tilidagi mavhum otlarning madaniy qadriyatlar bilan bog'liqligi, shuningdek, ingliz tilidagi aniqlik va spetsifiklik xususiyatlari tahlil qilingan. Tillar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni o'rganish orqali mavhum otlarning semantik tahlili madaniy va lingvistik boyliklarni aniqlashga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Mavhum otlar, xitoy tili, o'zbek tili, ingliz tili, semantika, madaniy xususiyatlar, lingvistik tahlil.

## СЕМАНТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ АБСТРАКТНЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ: НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО, УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

Данная статья посвящена изучению семантических особенностей абстрактных существительных в китайском, узбекском и английском языках. Абстрактные существительные являются важной частью языка, так как они выражают абстрактные понятия и духовные состояния. В статье анализируются краткость и многозначность абстрактных существительных в китайском языке, связь абстрактных существительных узбекского языка с культурными ценностями, а также точность и специфика абстрактных существительных в английском языке. Изучение сходств и различий между языками способствует выявлению культурного и лингвистического богатства.

**Ключевые слова:** абстрактные существительные, китайский язык, узбекский язык, английский язык, семантика, культурные особенности, лингвистический анализ.

## SEMANTIC INTERPRETATION OF ABSTRACT NOUNS: ON THE MATERIALS OF CHINESE, UZBEK, AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation

This article focuses on studying the semantic features of abstract nouns in Chinese, Uzbek, and English languages. Abstract nouns are an essential part of language as they express abstract concepts and spiritual states. The article analyzes the brevity and polysemy of abstract nouns in Chinese, the connection of abstract nouns in Uzbek with cultural values, and the precision and specificity of abstract nouns in English. Examining similarities and differences between languages helps uncover the cultural and linguistic richness of abstract nouns.

**Key words:** abstract nouns, Chinese language, Uzbek language, English language, semantics, cultural features, linguistic analysis.

**Kirish.** "Mavhum otlarning semantik talqini: Xitoy, o'zbek va ingliz tillari misolida" mavzusi, tilshunoslikda, ayniqsa semantika va leksikologiya sohalarida muhim bo'lgan bir mavzu hisoblanadi.

Mavhum otlar tilshunoslikda nisbatan muhim va murakkab tushuncha hisoblanadi. Ular aniq va o'lchovli bo'lmagan, balki kontseptual, ma'naviy yoki umumiy xususiyatlarni ifodalaydi. Mavhum otlar, odatda, aniq belgilangan va o'lchab bo'lmaydigan ob'ektlar, tushunchalar yoki hodisalarni ifodalovchi so'zlar sifatida ta'riflanadi.

Mavhum otlar ko'pincha biror voqea, hodisa yoki holatni emas, balki ularning umumiy yoki abstrakt tomonlarini tasvirlaydi. Bu maqolada xitoy, o'zbek va ingliz tillarida mavhum otlarning semantikasi o'rganiladi, ularning strukturalaridagi o'xshashliklar va farqlar tahlil qilinadi.

Mavhum otlar: Ta'rif va xususiyatlar

Mavhum otlar (abstrakt substantives) bu tilda mohiyatan o'lchovli yoki konkret bo'lmagan narsalarni ifodalovchi so'zlar bo'lib, ular umumiy tushunchalarni, g'oyalarni, his-tuyg'ularni yoki holatlarni tasvirlaydi. Misollar: "adolat", "sevgi", "freedom" (ozodlik), "harmony" (hamjihatlik).

Mavhum otlarning semantikasi ular orqali tasvirlanayotgan g'oya yoki holatlarning tabiati bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Xitoy, o'zbek va ingliz tillarida bunday otlarning ifodalash usullari o'xshash bo'lishi mumkin, ammo har bir tilning o'ziga xos semantik xususiyatlari mavjud.

2. Mavhum otlarning tilda o'rni va funktsiyalari:

Mavhum otlar tilda turli funktsiyalarni bajaradi. Ular ko'pincha tilning abstrakt va yuqori darajadagi ifodalari sifatida ishlatiladi. Mavhum otlar tushunchalar, g'oyalar, his-tuyg'ular va boshqa muayyan shaklda o'lchanmaydigan hodisalarni ifodalashda keng qo'llaniladi. Bu turdagi otlar tilda ma'lum bir umumiylikni anglatadi, bu esa ularni aniq va tasviriy tasvirlashga imkon bermaydi.

3. Xitoy tilidagi mavhum otlar:

Xitoy tilida mavhum otlar an'anaviy va falsafiy tushunchalarni ifodalash uchun keng qo'llaniladi. Masalan, "Dao" (道) so'zi "yo'l", "jarayon", "tarixiy jarayon" kabi mavhum tushunchalarni anglatadi. Bu so'z, ayniqsa, Daoizm falsafasida ko'plab ma'nolarda ishlatiladi. Xitoy tilida mavhum otlar ko'pincha o'zlarining umumiy ma'nosini saqlab qolgan holda, madaniy va falsafiy kontekstda kuchli semantik zaxiraga ega.

Shuningdek, Xitoy tilida "ren" (人) (inson) so'zi ham mavhum ot sifatida ishlatiladi, bu so'z insoniyat yoki odamlar jamiyatini bildiradi, lekin uning ma'nosi va talqini o'zgarishi mumkin. Xitoy tili, odatda, qisqalikka va soddalikka moyil bo'lib, ko'plab mavhum otlar ko'plab turli kontekstlarda o'zgaruvchan ma'nolarga ega bo'lishi mumkin.

4. O'zbek tilidagi mavhum otlar:

O'zbek tilida ham mavhum otlar turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda keng tarqalgan. Misol uchun, "huzur" (tinchlik, rohat), "niyat" (niyat, niyat qilish), "dard" (og'riq, qayg'u) kabi

so'zlar umumiy mavhum tushunchalarni ifodalaydi. O'zbek tilidagi mavhum otlar ko'pincha milliy va ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, tilning ifodalovchi quvvatini kuchaytiradi. Bu tilda ham so'zlarning semantik tafsilotlari kontekstga qarab o'zgarishi mumkin.

#### 5. Ingliz tilidagi mavhum otlar:

Ingliz tilida mavhum otlar ko'proq shaxsiy va umumiy ijtimoiy tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Misol uchun, "freedom" (erkinlik), "justice" (adolat), "truth" (haqiqat) kabi so'zlar, hamda "happiness" (baxt) va "love" (sevgi) kabi so'zlar ko'plab subyektiv talqinlarga ega. Bu so'zlarning har biri madaniy va shaxsiy kontekstlarga qarab farq qilishi mumkin.

Ingliz tilidagi mavhum otlar ko'pincha yirik falsafiy va ijtimoiy g'oyalar bilan bog'liq. Ular insonlarning o'zaro aloqalari, shaxsiy huquqlar, ijtimoiy tenglik kabi tushunchalarni ifodalashda ishlatiladi. Ingliz tilidagi mavhum otlar, shuningdek, literaturada va psixologiya sohasida ham keng qo'llaniladi.

#### 6. Mavhum otlarning semantik farqlari:

Xitoy, o'zbek va ingliz tillaridagi mavhum otlar o'rtasidagi semantik farqlarni ko'rib chiqsak, birinchi navbatda, har bir til o'zining madaniy va ijtimoiy tuzilishiga mos ravishda mavhum otlarni tushunadi. Masalan:

Xitoy tilida mavhum otlar ko'proq falsafiy va ijtimoiy tizimlar bilan bog'liq bo'lib, ular madaniyatdagi qadriyatlar va an'analar bilan to'liq uyg'unlashgan.

O'zbek tilida mavhum otlar ko'proq milliy va ijtimoiy qadriyatlarini, o'ziga xos mantiq va axloqiy tushunchalarni ifodalaydi.

Ingliz tilida mavhum otlar ko'proq shaxsiy erkinlik va individualizmga asoslangan tushunchalarni ifodalaydi, bu esa ularni ko'proq subyektiv talqinlarga imkon beradi.

#### 7. Mavhum otlarning tarjimasini va madaniy tafovutlar:

Mavhum otlarning tarjimasini ham madaniy farqlarni ko'rsatadi. Masalan, "justice" (adolat) so'zi ingliz tilida ko'proq huquqiy va shaxsiy erkinliklarga asoslangan tushuncha sifatida ishlatiladi, lekin bu tushuncha xitoy va o'zbek tillarida boshqa semantik kontekstda bo'lishi mumkin. Tarjima jarayonida mavhum otlarning semantik yirik farqlari kelib chiqishi mumkin, chunki har bir til o'ziga xos madaniy nuqtai nazardan mavhum tushunchalarni ta'riflaydi.

#### 8. Mavhum otlarning turli sohalarida ishlatilishi:

Mavhum otlar tilning turli sohalarida, jumladan adabiyot, falsafa, siyosat va ijtimoiy fanlarda keng qo'llaniladi. Har bir soha o'zining semantik talqinlarini yaratadi. Misol uchun:

Adabiyotda: Mavhum otlar, ko'pincha personajlarning ichki dunyosini ifodalash, dramalarda hissiyotlarni anglatish yoki syujetning abstrakt jihatlarini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Xitoy

adabiyotida "qing" (情) (his-tuyg'u), O'zbek adabiyotida esa "izzat" (ulug'lik, ehtirom) kabi so'zlar zamonaviy va klassik asarlarda mavhum shaklda qo'llaniladi.

Falsafada: Falsafiy ta'limotlarda mavhum otlar ko'pincha umumiy g'oyalarni, axloqiy qadriyatlarini yoki mavjudlik va hayot haqida chuqur mulohazalarni ifodalaydi. Xitoy falsafasida "wu wei" (無為) (harakatsizlik, tabiiy holat) so'zi mavhum tushuncha sifatida ishlatiladi. Ingliz falsafasida esa "ethics" (axloq), "truth" (haqiqat) kabi tushunchalar ham mavhum otlar sifatida ishlatiladi.

#### 9. Taqqoslash va tahlil

Xitoy, o'zbek va ingliz tillarida mavhum otlarning semantikasida ba'zi umumiy xususiyatlar mavjud, ammo har bir tilning o'ziga xosligiga ham e'tibor qaratish kerak. Masalan:

Kontekstga moslashuv: Xitoy va o'zbek tillarida ko'plab mavhum otlar biror aniq holatni ifodalashdan ko'ra, umumiy tushunchalar sifatida ishlatiladi. Ingliz tilida esa, bu so'zlar ko'proq aniq va spetsifik ma'nolarni anglatadi.

Tuzilishi: Xitoy tilida ko'p hollarda ikkita harfli yoki qisqa iboralar orqali mavhum otlar yaratiladi. O'zbek tilida esa mavhum otlar odatda fe'l va sifatlar bilan boyitilgan bo'ladi. Ingliz tilida mavhum otlar ko'pincha umumiy tushunchalar sifatida o'zining to'liq shaklini olishadi.

Madaniy xususiyatlar: Har bir tilning o'z madaniy konteksti mavhum otlarning semantik ma'nolariga ta'sir ko'rsatadi. Xitoy tilidagi "harmony" (和諧) tushunchasi, masalan, ijtimoiy tartib va birlashishni anglatadi, bu esa an'anaviy xitoy falsafasiga asoslanadi. O'zbek tilida esa "mehr-muhabbat" (sevgi) atamasi ko'pincha oilaviy qadriyatlar va milliy urf-odatlar bilan bog'liqdir.

**Xulosa.** Xitoy, o'zbek va ingliz tillarida mavhum otlar semantikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega, lekin ularning umumiy maqsadi bir xil: dunyo va insoniyat haqidagi abstrakt tushunchalarni ifodalash.

Mavhum otlarning semantik talqini, Xitoy, O'zbek va Ingliz tillari misolida, tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Har bir til o'zining madaniy va tarixiy shart-sharoitlariga mos ravishda mavhum otlarni qo'llaydi, bu esa semantik farqlarni keltirib chiqaradi. Tilshunoslikda bu til o'zgarishlari va farqlarni o'rganish, tillar orasidagi aloqalar va madaniyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Bu turdagi tahlillar tilda o'zaro aloqalar va madaniyatlararo tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.

Mavhum otlar tilda umumiy kontseptlarni ifodalash uchun zarur vositalar bo'lib, ularning semantik tahlili ko'plab sohalarida, jumladan, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va falsafada muhim ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Ли Синь. "Китайский язык: Основы грамматики и семантики". – Пекин: Народное издательство, 2015.
2. Uzbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediya nashriyoti, 2006.
3. Crystal, David. "The Cambridge Encyclopedia of the English Language". – Cambridge University Press, 2003.
4. Halliday, M.A.K. and Matthiessen, C. "Introduction to Functional Grammar". – Routledge, 2014.
5. Kövecses, Zoltán. "Metaphor: A Practical Introduction". – Oxford University Press, 2010.
6. Хасанова, М. "O'zbek tilining semantik qurilmasi". – Toshkent: Fan, 2004.
7. Bloomfield, Leonard. "Language". – University of Chicago Press, 1984.
8. Ting, Pang-yuan and Rose, David. "Chinese Lexical Semantics". – Springer, 2010.
9. Jabborov Azamat Ashirqul o'g'li - Topishmoqlarning asosiy tuzilishi va ularning turlari. Innovative developments and research in education International scientific-online conference Part 6, 23.05.2022
10. Sapir, Edward. "Language: An Introduction to the Study of Speech". – Harcourt, Brace & World, 1921.
11. Каримов, А.И. "Тilshunoslik asoslari". – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018.



UDK: 81'362: 81'367.625

**Maxzuna XAMRAYEVA,**  
Samarqand davlat chet tillari instituti doktoranti, PhD  
E-mail: makhzuna.khamraeva@gmail.com

*Falsafa fanlari nomzodi, dotsent I. Danilenkoning taqrizi asosida*

## ABOUT THE CATEGORIES OF LINGUISTIC EVIDENTIALITY AND MODALITY

Annotation

In the article, the category of evidentiality and epistemic modality has been clarified with the similar and distinctive features by the viewpoints of different scholars of the world. These two categories have been empirically analyzed on the example of fiction within two languages, the same features have been identified. Moreover, it has been proven that the evidentiality occurs not only in the structure of action verbs or perceptual verbs, but also in the structure of introductory words, adverbs and nouns. Evidentiality serves at the level of trust and obligation of epistemic modality, and it is determined that it expresses the judgement of the speaker according to the factual situation. Furthermore, in the article, the category of evidentiality and epistemic modality is established a synergetic relationship between meanings and epistemological position and legal strategies as related terms that can be encountered in discourse were also discussed.

**Key words:** Evidentiality, epistemic modality, doubtful, valid, source of information, epistemological position, sentence structure, adverbiality.

## О КАТЕГОРИЯХ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭВИДЕНЦИАЛЬНОСТИ И МОДАЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье уточнены категории эвиденциальности и эпистемической модальности, имеющие сходные и отличительные черты с точки зрения разных учёных мира. Эти две категории эмпирически проанализированы на примере художественной литературы двух языков, выявлены одинаковые особенности. Кроме того, доказано что эвиденциальность возникает не только в структуре глаголов действия или глаголов восприятия, но и в структуре вводных слов, наречий и существительных. Эвиденциальность выступает на уровне доверия и обязательности эпистемической модальности и определяется тем, что она выражает суждение говорящего согласно фактической ситуации. А также, в статье в категории эвиденциальности и эпистемической модальности устанавливается синергетическая связь между значениями и эпистемологической позицией, а также обсуждаются правовые стратегии как родственные термины, которые могут встретиться в дискурсе.

**Ключевые слова:** Эвиденциальность, эпистемическая модальность, сомнительное, доверное, источник информации, гносеологическая позиция, структура предложения, наречие.

## LINGVISTIK EVIDENSIALLIK VA MODALLIK KATEGORIYALARI XUSUSIDA

Annotatsiya

Makur maqolada evidensiallik kategoriyasi hamda epistemik modallik kategoriyalari bilan o'zaro o'xshash hamda tafovutli xususiyatlari dunyoning turli xil olimlari nuqtai nazaridan ochib berilgan. Mazkur ikki kategoriya ikki til doirasida badiiy adabiyotlar misolida evidensial jihatdan tahlilga olinib, ulardagi o'xshash xususiyatlar tahlilga olingan. Shuningdek, maqolada evidensiallik nafaqat fe'llar yohud sezgi fe'llari tarkibida balki kirish so'zlar, ravishlar hamda otlar tarkibida kelishi isbotlangan. Evidensiallik epistemik modallikning ishoncha va majburiyat darajasida xizmat qilib, so'zlovchining factual holatga ko'ra mulohazasini ifodalashi aniqlangan. Maqolada evidensiallik hamda epistemik modallik ma'nolar orasida sinergetik aloqa o'rnatishi va bir-biriga bog'langan tegishli atamalar sifatida epistemologik pozitsiya va qonuniy strategiyalar sifatida diskursda uchrashi mumkinligi keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Evidensiallik, epistemik modallik, shubhali, yaroqli, ma'lumot manbasi, epistemologik pozitsiya, gap strukturasi, ravishlilik.

**Kirish.** So'nggi 10 yillikda evidensiallik hamda epistemik modallik grammatikalashgan va grammatikalashmagan til tizimlari miqyosida keng o'rganilgan. Bugungi kunga qadar, aksariyat olimlar (De Khan 2001; Mukhin 2001; Nuyts 2005) evidensiallik hamda epistemik modallikning umumiy xususiyati sifatida har ikkisida ham so'zlovchining faktga doir ma'lumoti yoki ma'lumot manbasi grammatik jihatdan belgilash uchun xizmat qiladi degan fikrni ilgari suradilar. Boshqa bir guruh olimlar (Chafe va Nichols 1986; Willet 1988; Aikhenvald 2003; Kamio 1991; Squartini 2008; Parafraougou 2000) epistemik modallik evidensiallikning bir qismi bo'lib, nutqda katta ahamiyatga egalini ta'kidlaydilar.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** F. Palmer "Evidensiallik ma'lumot manbasi sifatida, so'zlovchining nutqida epistemik ishonch yoki munosabatida majburiyat darajasi sifatida xizmat qiladi, biz tez-tez mulohaza qilamiz hamda mulohazalarimiz jarayonida kammi ko'pmi faktga ishora qilamiz. Epistemik modallik hamda evidensial modallik haqiqat qadri yoki fikrning faktual statusi sifatida oldingi planga chiqib, so'zlovchining faktual holatga ko'ra mulohazasini ifodalaydi," deydi [Palmer 2001; 24].

Aslida epistemik modallik ham, evidensial modallik ham so'zlovchining haqiqat qadri yoki faktual holat propositsiyaga munosabatini ifodalaydi va bu fanda propositsion modallik deb ham yuritiladi. Epistemik modallik hamda evidensial modallik orasidagi tafovut sifatida epistemik modallik propositsiyaning faktik holatiga doir xulosaga ishora qilsa, evidensial modallik so'zlovchida fikrini ifodalash uchun qanday isbotlar borligini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Misol uchun, o'z ko'zimiz yoki boshqa sezgilarimiz orqali qabul qilgan ma'lumotimiz bevosita guvohlikni keltirib chiqargani bois aniq, ravon va ishonarli bo'ladi, agar aksincha bilvosita bo'lsa, ya'ni boshqalar tomonida aytilgan mish-mish, yoki ma'lum voqea-hodisadan kelib chiqib mulohazasi yoki fikri ishonarsiz yoki shubhali hisoblanadi.

Ayrim olimlar xususan Ferdinand de Haanning ta'kidlashicha evidensiallik epistemik modallikning subkategoriyasi bo'lib, ma'lumot manbasini ko'rsatuvchi g'oya gapning taklif mazmuniga so'zsiz qo'shilganimizda, yoki aksincha so'zlovchining ma'lum voqega doir ishonchi yoki munosabati ma'lumot manbasidagi axborot rostligiga ishora qilmasa yuzaga chiqadi. Evidensiallik faktini tasdiqlaydi, epistemik modallik faktini baholaydi [de Haan 2005; 379].

Evidensiallik taklifni tasdiqlovchi manbaning sifatini aniqlasa, epistemik modallik so'zlovchining taklifidagi haqiqiy ishonchni aniqlaydi [Pietrandrea 2005; 33].

Mazkur ikki kategoriya bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lib, evidensial va epistemik ma'nolar orasida sinergetik aloqa o'rnatadi bir-biri bilan o'zaro bog'langan va bir-biriga tegishli atamalar, ya'ni epistemik sharoit, epistemologik pozitsiya, qonuniylashtirish strategiyalari sifatida diskursda uchrashi mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tanqidiy diskursiv tahlilda evidensiallikni madaniy hamda interaktiv nuqtai nazardan bir qator olimlar [Biber va Finegan 1989, Hill va Irvine 1993, White 2003, Du Bois 2007, Englebreton 2007, Hasler 2010, Cornillie 2016] keng o'rganishgan va epistemik modallikda bilim dinamik holda qayta qurilishi yoki ijtimoiy atama sifatida qabul qilinishi mumkin deyishgan. Asosiy g'oya esa so'zlovchi va yozuvchilarning evidensial va epistemik shakllarni o'z ishonchi yoki fikri sifatida baholab, so'zlarni ishonchlilik va ayrim yagona darajasida ifodalash orqali namoyon etadilar. Misol uchun, epistemik modallikni ishonchlilik, qat'iy ishonch, xulosa, hukm, yaroqlilik, kutilganlik kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Bunda so'zlovchi ma'lumot manasini aniq bilmasa-da, uni ma'lumot sifatida boshqaga muvaffaqiyatli almashinuv sifatida boshqa shaxsga yetkazaveradi.

Kornilli evidensiallikning interfaol hamda interpersonal funksiyalarini so'zlovchining niyati bilan bog'liq hissasini bajarilgan ish, olingan tajriba yoki fikrga qatnashuvchi sifatida ma'lumot almashadi [Cornillie 2016; 13].

Ta'kidlash joizki, evidensiallik epistemik modallik tizimining bir bo'lagi sanaladi, bu masala doirasida qator Yevropalik olimlar (Chafe va Nichols, 1986; Givon, 1982; Willet, 1988) ko'plab tortishuvlar olib borishgan, biroq boshqa bir qator olimlar (Aikhenvald, 2004; De Haan, 1999; Plungian, 2001; Boye 2010) evidensiallik mustaqil grammatik kategoriya ekanini xususiyashtirib isbotlab berdilar. Misol uchun evidensial shakllar so'zlovchining epistemik munosabati orqali belgilanishi mumkin (Dendale va Tamowski, 2001; Plungian 2001; Fitneva, 2001).

Ritorik strategiya sifatida Hoyer modallashgan fikr hamda evidensial tasvirlar orasida so'zlovchi ta'kidlashi jarayonida o'z maqsadiga yetadi hamda epistemologik pozitsiyasida ishtirok etib o'zini himoya qiladi. Shunda so'zlovchi o'zi beradigan ta'rifni tanlab, o'z niyatidan tahlil qilinadigan mavzu, undagi janr, vaziyatdagi kontekst, o'zaro ta'sir kuchi, turli xil belgilangan kommunikatsiya dinamikasi orqali ruhlanadi va fikrini bayon etadi [Hoyer 2008; 158]. Leksik, iboraviy hamda gap strukturalari ham evidensial belgilar orqali ingliz tilida quyidagicha holda uchrashi mumkin:

**Tahlil va natijalar.** I think that...it is very probable that... based on... I affirm this based on the experience of people that I know and that we have had it, and apparently they are making progress. It doesn't work perhaps for very serious illnesses, but it lessens the pain, apparently it also helps you breathe better.

Keltirilgan misoldagi I think, probable, I know, I affirm, apparently, perhaps birliklari ham evidensiallik ham epistemik modalikka ishora qilmoqda.

Bizningcha esa mazkur ikki kategoriya umuman turlicha ikki xil fundamental grammatik kategoriyalardir. Evidensiallik ravishlar, kirish so'zlar, sezgi fe'llari va hatto ot so'z turkumi orqali ham ifodalanishi mumkinligi haqida aytayotmiz. Misol uchun, ingliz tilida allegedly, reportedly, probably, yesterday, today, tomorrow kabi ravishlar they say, I think, I heard, if I am not mistaken kabi kirish so'zlar eshitmoq, qaramoq, hidlamoq, ta'm bilmoq, sezmoq kabi sezgi fe'llari orqali ifodalanishi mumkin.

O'zbek tilida esa evidensiallik go'yoki, xabar berishlaricha, ehtimol, kecha, bugun, ertaga kabi ravishlar adashmasam, aytishlaricha, menimcha, eshitishimcha kabi kirish so'zlar, hear, look, smell, taste, feel kabi sezgi fe'llari orqali namoyon bo'ladi.

Evidensiallik aniq sodir bo'lgan ma'lumotni ko'rsatish uchun xizmat qilsa, epistemik modallikda so'zlovchining nutqidagi ishonchning darajasi yoki tahmini ehtimollikni ko'rsatadi. Misol uchun,

I see that he is coming – Men uning kelayotganini ko'rayapman (evidensiallik)

May be he is coming – Balki u kelayotgandir (epistemik modallik)

Ko'plab tadqiqotlarga ko'ra evidensiallik borasida turlicha qarashlarni kuzatish mumkin. Chunonchi, ayrim olimlar evidensiallik va epistemik modallik o'rtasida bog'liqlik bor desalar, boshqalari ularni ayro tushunchalar deya ta'kidlaydilar. Evidensiallik tushunchasi ko'pincha epistemik modallikning quyi qismi sifatida tushuniladi va bu ikki tushuncha bir-biriga o'xshagani bois, ko'pchilik tadqiqotchilar ularni adashtiradilar. Jumladan, Palmer (1986) hamda Kiefer (1994) evidensiallik bilan epistemik modallik orasidagi bog'liqlikni quyidagicha farqlaganlar.

Evidensiallik aynan sodir bo'lgan voqea-hodisa sifatida haqiqatni anglatasa, epistemik modallik esa o'sha holatdagi ishonchning qat'iylik darajasini belgilaydi,

I see that Lily is eating. (evidential) – Lili yeyayotganini ko'rayapman.

I know that Lily is eating. (epistemik) – Lili yeyayotganini bilaman.

Ma'lumot sifatida aytish joizki, epistemik modallik ikki guruhga ajratiladi:

Kuchli (bunda must yoki should kabi modal fe'llarni kiritish mumkin).

Kuchsiz (bunda can, could, may, might kabi modal fe'llarni kiritish mumkin).

Aslida epistemik modallik lingvistik modallik bo'lib, u bilmoq, ishonmoq, iymon keltirmoq, deb o'ylamoq, hisoblamoq kabi harakat fe'llarining modal fe'llar orqali ifodalangan variantidir. Shuning uchun, u ko'pincha ingliz tilidagi kontekstlarda can, may, might, must, should kabi modal fe'llar ko'rinishlarida uchraydi hamda qobiliyat, ruhsat yoki maslahatni ifodalaydi. Masalan,

He can play chess (U futbol o'ynay oladi).

You may come in (Kirishingiz mumkin).

He might go to the circus (U sirkka borishi mumkin).

Jill should go to dentist (Jil tish shifokoriga boriga kerak).

Lily must go to university (Lili universitetga borishi shart).

O'zbek tilida esa epistemik modallik ko'pincha ruhsat berish orqali ifodalanadi.

U futbol o'ynashi mumkin.

Konsertga borishingiz mumkin.

Sen do'xtirga borishing shart.

Menga maslahating zarur.

Mazkur modal iboralar kvintessensial modallar deyilib, ularga mumkin, kerak, zarur kabi modal ko'makchilar kiradi; ehtimol yoki zarur kabi modal qo'shimchalar va modal sifatlar, masalan o'ylab topilgan yoki ehtimol kabilar. Shu bilan birga, son-sanoqsiz tabiiy til iboralarining ma'nolarida modal komponentlar aniqlangan, ular orasida qarama-qarshiliklar, taklif munosabati, dalillar, odatiyliklar va generiklar mavjud.

Kechga borib qor yog'sa kerak.

Nasiba Marjonaning uyini bilmasligi mumkin.

Ehtimol insoniyat 100 yildan keyin qirilib ketar.

Tadqiqotlarga ko'ra, epistemik holat modal ifodalar hisoblanmish ishonchlilik, ehtimollik, muhimlik hamda ishonch orqali aniqlanadi. Epistemik modallik ingliz tilida modal fe'llar hamda ravishlar orqali ifodalanishi mumkin. Bunga misol qilib,

Probably it might/may/will rain tomorrow afternoon [.

Mazkur gapda leksik ravish bo'lmish probably hamda grammatik modal fe'llar might va may hamda affiksalar qo'llangan. Epistemik modal ifodalar epistemik modallik bilan ramkalanagan bo'lib, unda so'zlovchi ma'lum hodisa yo holatni o'rganib chiqib, o'sha hodisaning sodir bo'lishi yoki bo'lgani borasida ehtimollikka doir munosabatini bildirganida yuzaga keladi [Nyuts 2001; 387].

Evidensiallikni barcha tillarda ham uchratib bo'lmaydi, chunki hamma tilda ham grammatikalizatsiyalash kuzatilmaligi mumkin. Masalan, ingliz tilida epistemik holat gapning jarayonlashishiga qarab, gapda ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Buni Clifton hamda Frazierning 'Epistemik holat gipotezasi' asaridan o'rganish mumkin. Mazkur holat tinglovchilar so'zlovchining



epistemik holatdagi nutqiga ta'sirchanligini ko'rsatadi. Bu ikki olim turlicha offlayn so'rovnoma o'tkazganlarni o'qish ko'nikmasi davomida ko'z izi tajribasini o'tkazganlaridan keyin ingliz tilida so'zlovchilarning bog'lovchilarga nisbatan ta'sirchanligini aniqladilar. Jumladan,

John or Bill left. Sam did too (Jon yoki Bil ketti. Sam ham ketti)

John and Bill left. Sam did too Jon bilan Bil ketti. Sam ham ketti)

Mazkur gaplarda qo'llangan bog'lovchi materiallar bo'lmish 'or' notabiyy hamda 'and' ga nisbatan nutqda qiyinchilik tug'dirganini, 'and' esa ancha ishonchli chiqqanini aniqlash mumkin.

O'zbek tilida ham bu ikki termini ajratib olish mumkin. Misol uchun,

Bayramga Laylo bilan Dilbar birga kelishdi, o'zim ko'rdim – evidensiallik.

Bayramga yo Laylo yo Dilbar keldi. – epistemik modallik

Evidensiallik aksariyat hollarda so'zlovchining o'z bayonotida nazarda tutilgan voqeadagi axborot turlarining lingvistik belgilariga ishora qiladi. Bunda birinchi shaxs yetkazayotgan ma'lumotdagi xabar uning o'z guvohligida bo'lishi kerak yohud agar ikkinchi shaxs guvohligidagi ma'lumot boshqalar tomonidan yetkazilishi kerak. Epistemik modallikda esa birinchi shaxs yetkazayotgan ma'lumotdagi xabar uning o'z guvohligida bo'lmagani ishonchsiz va gumonlar orqali ifodalanadi. Yuqorida keltirilgan gaplardan kelib chiqib epistemik modallik yo, yoki, yohud, yoki bo'lmasa kabi gumon olmoshlari bilan hamda evidensiallik esa va, ila, bilan, birga, hamda kabi bog'lovchilar bilan ham ajratilishi mumkin.

O'zbek tilida ikki turdagi evidensial til mavjud, ya'ni ma'lumot manbasiga ishora qiluvchi evidensiallikning ikki xil shakli mavjud. O'tgan zamonni ifodalash uchun so'zlovchi bevosita hamda bilvosita evidensiallikdan birini tanlashi kerak bo'ladi. Bevosita evidensiallikda -di, -ti, morfemalari so'zlovchining morfemalarni bevosita guvohligi orqali aniqlaganiga ishora qiladi, bilvositada esa, -mish, -emish, ekan, -ibdi, -ganmish, -kanmish kabi morfelar orqali ifodalanadi. Misol uchun,

Nurhayot juda chiroyli bir ashula kuyladi – guvohiy evidensiallik

Nurhayot rosayam chiroyli ashula kuylaganmish – mish-mish evidensialligi

Nurhayot avvallari juda chiroyli ashulalar kuylardi – tarixiy evidensiallik

Yaaa qara, Nurhayot biram chiroyli ashula kuyalayapdi! - mirativlik

Nurhayot bugun chiroyli ashula kuylasa kerak – epistemik modallik

Ayhenvald evidensiallikni grammatik kategoriya ekanini qat'iy ta'kidlaydi. "Evidensiallikning funksional sohasi aksariyat tillarda mavjud ekan, til universal hisoblanaveradi. Evidensiallik har ikkala tildagi majburiy grammatik evidensial sistema hamda evidensiallikni lingvistik kategoriya sifatida tanlovi bor bo'lgan tillarga tegishli sistema ekan"ini aytadi. Milliy Amerika hamda Yevro-Osiyo tillari orasida evidensialliklar grammatikalashgan misol uchun Roman va German tillarini olaylik, evidensial xususiyatni yoki leksik element hisoblanmish ravishlar yoki sezgi fe'llari orqali ifodalanishi mumkin. Misol uchun,

The author is allegedly a member of a comedy troupe and presumably was trying to be witty (muallif go'yoki komediya truppasini a'zosi hamda aqli bo'lishga harakat qilayotgandek ehtimol).

It seems to be a good movie (Film yaxshidek tuyulayapdi).

Keltirilgan gaplardagi allegedly (go'yoki) hamda presumably (ehtimol) epistemik modallikka hamda seems (tuyulayapdi) visual evidensiallikka ishora qilmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida shuni aytish joizki, evidensiallik tilda ikki usulda uchraydi: bir tomondan ma'lumot manbasiga murojaat qilish va boshqa tomondan so'zlovchining epistemik holati. Bunda evidensiallikni deytik hodisa sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq, chunki evidensiallik belgilari lingvistik kontekstdan tashqaridagi elementlarga, ya'ni ma'lumot manbasiga va unga kirish huquqiga ega bo'lgan so'zlovchiga ishora qiladi. Deyksis tushunchasi ostida biz ma'lum so'z kontekstiga ishora qiluvchi va ego munosabatlarini o'rnatuvchi murojaat qilishning o'ziga xos mexanizmini tushunamiz hamda bu haqida keying maqolalarimizda batafsil o'talib o'tamiz.

#### ADABIYOTLAR

1. F de Haan. Evidentiality and epistemic modality: Setting boundaries. South-West journal of linguistics, 1999. PP 83-101.
2. Willet T. A Cross-Linguistic Survey of the Grammaticization of Evidentiality. Thomas Willett | State University of New York at Buffalo and Summer Institute 1988. PP 51-97.
3. Palmer F. Mood and modality. Cambridge university Press 2001. PP 21-42.
4. Pietrandrea P. Epistemic Modality. Functional Properties and the Italian System. Benjamins publishing company. Philadelphia 2005. PP 66-74.
5. Cornillie B. Evidentiality and the semantics-pragmatics interface: An introduction. Journal of Linguistics 29. 2016. PP 1-18
6. Hoye L. Evidentiality in discourse: A pragmatic and empirical account. 2008. PP 155-211
7. Sechkin A. Epistemic uncertainty influences evidentiality processing in Turkish. 2020. P 2.
8. Nuyts, J. Subjectivity as an evidential dimension in epistemic modal expressions. Journal of Pragmatics 33. 2001. PP 383-400.
9. Aikhenvald A. Evidentiality. Oxford: Oxford University Press. 2004. PP 24-25.





UDK:811.111(045)(575.1)

**Yulduz KHUJAMOVA,**  
Uzbekistan state world languages university, senior teacher  
E-mail: yulduzkhanim@gmail.com  
Based on the review of Associate Professor M. Shamsitdinova, TSLU

### DYSPHEMISMS IN ENGLISH AS EXPRESSIVE SPEECH ACTS

Annotation

This article delves into the linguistic phenomenon of dysphemisms in the English language, highlighting their role as expressive speech acts. Dysphemisms, as opposed to euphemisms, are expressions used to convey negative or harsh connotations, often intended to offend or shock. By exploring their theoretical underpinnings, practical applications, and cultural significance, this article sheds light on their place within contemporary English usage. Various linguistic studies and examples are referenced to illustrate the concepts and provide a comprehensive understanding of dysphemisms.

**Keywords:** Dysphemisms, expressive speech acts, English language, pragmatics, linguistic studies, cultural significance.

### ДИСФЕМИЗМЫ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ КАК ЭКСПРЕССИВНЫЕ РЕЧЕВЫЕ АКТЫ

Аннотация

В данной статье рассматривается лингвистическое явление дисфемизмов в английском языке, подчеркивается их роль как экспрессивных речевых актов. Дисфемизмы, в отличие от эвфемизмов, представляют собой выражения, используемые для передачи негативных или резких коннотаций, часто с целью оскорбить или шокировать. Исследуя их теоретические основы, практическое применение и культурное значение, эта статья проливает свет на их место в современном английском языке. Для иллюстрации концепций и всестороннего понимания дисфемизмов приводятся ссылки на различные лингвистические исследования и примеры.

**Ключевые слова:** Дисфемизмы, экспрессивные речевые акты, английский язык, прагматика, лингвистические исследования, культурная значимость.

### INGLIZ TILIDAGI DISFEMIZMLAR EKSPRESSIV NUTQ AKTLARI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilidagi disfemizmlarning lingvistik hodisasi ko'rib chiqiladi, ularning ekspressiv nutq aklari sifatidagi roli ta'kidlanadi. Disfemizmlar, evfemizmlardan farqli o'laroq, ko'pincha haqorat qilish yoki zarba berish maqsadida salbiy yoki keskin ma'nolarni yetkazish uchun ishlatiladigan iboralardir. Ularning nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi va madaniy ahamiyatini o'rganib chiqib, ushbu maqola ularning zamonaviy ingliz tilidagi o'rini yoritib beradi. Tushunchalarni tasvirlash va disfemizmlarni har tomonlama tushunish uchun turli lingvistik tadqiqotlar va misollarga havolalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Disfemizmlar, ekspressiv nutq aklari, ingliz tili, pragmatika, lingvistik tadqiqotlar, madaniy ahamiyati.

**Introduction.** Language serves as a versatile instrument, capable of not only conveying information but also expressing emotions and shaping social dynamics. Among the vast array of linguistic devices present in daily discourse, dysphemisms occupy a unique and impactful niche. These expressions are employed to articulate offense, aggression, or distaste, often with the intent to shock or provoke. This article focuses on the role of dysphemisms in the English language, exploring their function as expressive speech acts and assessing their influence on communication. Unlike euphemisms, which are designed to soften or mitigate harsh realities, dysphemisms are blunt and often derogatory, reflecting societal attitudes and emphasizing subjective perceptions. They serve as linguistic tools for expressing disapproval and conveying strong emotions, whether in a personal conversation or a broader socio-political context. By examining the nature and usage of dysphemisms, we can gain a deeper understanding of how language mirrors our thoughts, beliefs, and cultural norms.

**Theoretical Part.** The study of dysphemisms is grounded in the broader theoretical framework of pragmatics, particularly the theories of speech acts and politeness. As per John Searle's speech act theory, language is composed of acts that perform functions rather than merely transmit information. Within this paradigm, expressive speech acts are those that reveal the speaker's psychological state. Dysphemisms, thereby, function as expressive acts, embodying emotions such as anger, frustration, or disgust, and manifesting these sentiments in interaction [1].

Geoffrey Leech's Politeness Principle offers further insight into dysphemisms by highlighting how they intentionally breach conventional politeness norms to produce a specific communicative outcome. Whereas politeness seeks to minimize

face-threatening acts and maintain social harmony, dysphemisms do the opposite—they intentionally threaten or challenge social norms. This defiance generates a heightened emotive response and enhances the listener's engagement by foregrounding intensity and immediacy in communication [2].

Moreover, the dual role of dysphemisms—both as markers of in-group identity and as tools of exclusion—can be understood through social identity theory. Dysphemisms often solidify group boundaries by signaling a shared understanding or attitude, thereby strengthening in-group solidarity while simultaneously alienating or disparaging out-group members. In this context, dysphemisms can be analyzed as strategic choices in the social construction of identity, serving functions that range from humor and camaraderie to aggression and disparagement.

Through the lens of these theoretical constructs, dysphemisms reveal the intricate balance between linguistic expression and social psychological dynamics, illustrating how communication extends beyond the transmission of mere content to the negotiation of social relationships and personal identities.

Cognitive Linguistics Perspective

From a cognitive linguistics standpoint, dysphemisms can be examined in relation to conceptual metaphor theory, developed by George Lakoff and Mark Johnson. This theory posits that our understanding and interpretation of language are deeply rooted in metaphorical thought processes. Dysphemisms often rely on metaphorical mappings, where negative conceptual domains are applied to the subject, intensifying the negative perception. For example, referring to someone as a "snake" invokes not just a literal creature but the negative traits culturally associated with snakes, such as deceit or treachery.

Sociolinguistic Elements

Sociolinguistics provides another layer of analysis by exploring how dysphemisms function as social markers. These expressions can indicate power dynamics, social hierarchies, and cultural contexts. Dysphemisms are often used strategically in discourse to assert dominance or challenge authority, serving as tools for subversion or resistance. They may be prevalent in contexts where social norms are contested or where speakers seek to redefine the boundaries of acceptable speech.

#### Emotional and Psychological Impact

The emotional valence of dysphemisms is noteworthy, as they often aim to elicit strong emotional reactions. This impact can be understood through the framework of affective pragmatics, which examines how emotional states are conveyed and manipulated through language. Dysphemisms can function as emotional amplifiers, conveying stronger feelings than neutral or euphemistic alternatives. By doing so, they not only express the speaker's emotional state but also influence the listener's emotional response, potentially leading to heightened tension or conflict.

#### Cultural and Contextual Variability

The use and perception of dysphemisms can vary significantly across cultures and contexts. Cultural norms heavily influence what constitutes a dysphemism, as certain expressions may be dysphemistic in one culture yet neutral or even euphemistic in another. Additionally, context matters—a term could be considered a dysphemism in a formal setting but deemed acceptable in casual, in-group conversations. This variability underscores the importance of understanding dysphemisms as fluid constructs that adapt to shifting cultural and situational dynamics.

Integrating these theoretical perspectives provides a richer understanding of dysphemisms as complex linguistic phenomena. By examining their cognitive, sociolinguistic, emotional, and cultural dimensions, we gain insight into their multifaceted role in communication. Dysphemisms demonstrate the power of language to not only reflect but actively shape human interactions and relationships, highlighting the importance of context and cultural awareness in interpreting their use and implications.

#### Methods

The study of dysphemisms benefits from a comprehensive methodological approach, leveraging both qualitative and quantitative techniques to explore their usage, perception, and impact across different contexts and populations. Here, we outline several key methods employed in the investigation of dysphemistic language:

##### Corpus Linguistics

Corpus linguistics provides a robust framework for systematically identifying and analyzing dysphemisms within large text databases. By compiling corpora—collections of written or spoken material—researchers can examine the frequency and distribution of dysphemistic expressions across various genres, registers, and contexts. This quantitative approach allows for the detection of patterns and trends, such as identifying which dysphemisms are most prevalent in certain types of discourse or tracking changes in usage over time.

##### Discourse Analysis

Discourse analysis offers a qualitative lens through which the pragmatic functions and implications of dysphemistic language can be explored. This method involves a close examination of the context and manner in which dysphemisms are used, considering factors such as speaker intention, audience reaction, and the socio-cultural environment. Through discourse analysis, researchers can uncover the roles dysphemisms play in constructing identities, negotiating power relations, or challenging social norms within specific interactions.

##### Surveys

Surveys are instrumental in capturing how dysphemisms are perceived and interpreted by different demographic groups. By designing questionnaires that probe attitudes towards specific dysphemistic terms or assessing the perceived offensiveness and acceptability of these expressions, researchers can gather data on public sentiment. Surveys can reveal demographic variations in the recognition and evaluation of dysphemisms, highlighting factors such as age, gender, cultural background, and social status.

#### Experimental Methods

Experimental approaches can be utilized to investigate the psychological and emotional effects of dysphemisms on speakers and listeners. By manipulating variables such as context, speaker identity, or the explicitness of dysphemisms within controlled settings, researchers can observe the impact on participant responses. Experiments can measure outcomes such as emotional arousal, comprehension accuracy, or subsequent behavior, providing insights into the cognitive and affective dimensions of dysphemistic language.

#### Ethnographic Studies

Ethnographic methods involve immersive observation and interaction within communities to understand the situational and cultural nuances of dysphemism use. By engaging directly with users of dysphemistic language, researchers can gain a deeper appreciation of the motivations behind such speech acts, their social functions, and their role in cultural identity and group dynamics.

By employing a combination of these methods, researchers can obtain a holistic view of dysphemisms and their multifaceted roles in communication. The integration of quantitative data from corpus analysis with qualitative insights from discourse analysis, surveys, experiments, and ethnographic studies enables a comprehensive exploration of how dysphemisms function within and across different social contexts. This multifaceted approach not only enriches our understanding of language and its impact but also informs strategies for addressing issues related to language offensiveness and social harmony.

#### Practical Application

The study of dysphemisms offers valuable insights across various fields, enhancing our understanding of language's role in shaping human experience and interaction. Here, we explore the practical applications of these insights in linguistics, communication, media, culture, education, and policy-making.

#### Linguistics and Communication

In the fields of linguistics and communication, understanding dysphemisms aids in dissecting the strategic elements of speech and text. By analyzing how dysphemisms work to elicit emotions, assert power, or create distance, linguists and communication specialists can better comprehend language use in diverse settings. This knowledge can inform the development of more nuanced communication models and enhance the interpretation and translation of texts between languages and cultures.

#### Media and Literature

Dysphemisms are potent tools for writers and creators in media and literature. They can infuse dialogue with realism, providing characters with distinct voices or attitudes. Dysphemisms help establish tone, conveying underlying emotions or tensions and enriching narrative dynamics. Authors and screenwriters can use dysphemisms to explore themes of conflict, prejudice, or solidarity, making their stories more compelling and relatable to audiences by tapping into authentic expressions of human sentiment.

#### Social Interactions and Group Identity

In social interactions, dysphemisms are key to understanding group dynamics and identity formation. They often serve to delineate in-group and out-group boundaries, reinforcing solidarity among members through shared language practices. Conversely, these expressions can escalate conflicts or reinforce stereotypes by perpetuating negative perceptions of others. By analyzing dysphemism use, sociologists and psychologists can develop strategies to mitigate hostility and foster more inclusive dialogue.

#### Education

For educators, an awareness of dysphemisms can enhance language teaching by highlighting the importance of context and cultural sensitivity in communication. Teaching about dysphemisms and their effects can encourage critical thinking in students, helping them understand how language choices impact relationships and attitudes. This awareness can empower students to navigate social interactions more thoughtfully and effectively, recognizing the potential consequences of their linguistic choices.

#### Policy-making

Policymakers and language regulators can use insights from dysphemism studies to inform public discourse strategies and promote respectful communication. By understanding how dysphemisms contribute to social polarization or conflict, policies can be crafted to encourage positive language practices and address issues related to hate speech or linguistic discrimination. Promoting language awareness can ultimately help shape public policies that aim to bridge divides and build more cohesive communities.

The practical applications of dysphemism studies are multifaceted, offering valuable tools for enhancing communication, understanding social dynamics, and informing creative expression. By integrating these insights into various fields, practitioners can harness the power of language to influence attitudes, foster inclusivity, and promote effective communication strategies. This understanding underscores the importance of ongoing research into language use and its profound impact on human interactions.

**Conclusions.** The study of dysphemisms offers a window into the intricate dynamics of language as a tool for expression, identity, and cultural reflection. As potent components of expressive speech acts, dysphemisms illuminate aspects of the speaker's psychological state and the broader societal values at play. This exploration not only deepens our understanding of the English language but also highlights the complex interplay between language, culture, and emotion.

#### Key Insights

**Expression of Emotions and Attitudes:** Dysphemisms provide a mechanism for expressing strong emotions and attitudes, often conveying disapproval, disdain, or contempt. They serve as linguistic tools that allow speakers to navigate emotionally charged or contentious topics, revealing underlying sentiments that may not be immediately apparent.

**Cultural and Social Reflection:** The use of dysphemisms is often reflective of cultural norms and societal values. They are

embedded within the cultural context, providing insights into what is considered taboo, offensive, or humorous. As such, dysphemisms can both challenge and reinforce social norms, making them key markers in the study of language as a cultural artifact.

**Dynamics of Power and Identity:** Dysphemisms play a significant role in the dynamics of power and group identity formation. They can be used to establish in-group solidarity or to assert superiority over others. By analyzing dysphemistic language, researchers can better understand how language is employed to navigate social hierarchies and construct collective identities.

**Language Evolution:** As the English language evolves, dysphemisms continue to adapt, reflecting changes in societal attitudes and technological advancements. New forms of media and communication catalyze the development and dissemination of dysphemisms, ensuring their ongoing relevance in both traditional and digital arenas.

#### Continuing Impact

The enduring presence of dysphemisms underscores their significance as instruments of expression, capturing the nuances of individual and collective experiences. As linguistic artifacts, they offer a unique lens through which to examine the evolution of language in response to shifting cultural landscapes.

#### Future Directions

Continued research into dysphemisms will enhance our understanding of their role in communication across diverse contexts. Investigating the impact of globalization, social media, and technological change on dysphemistic language will provide further insights into how these expressions shape and are shaped by contemporary discourse. By fostering a deeper understanding of dysphemisms, scholars and practitioners can contribute to more inclusive and effective communication frameworks, promoting awareness and sensitivity in language use across varied settings.

## REFERENCES

1. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge University Press.
2. Leech, G. (1983). *Principles of Pragmatics*. Longman.
3. Allan, K., & Burridge, K. (1991). *Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon*. Oxford University Press.
4. Jay, T. (1992). *Cursing in America: A Psycholinguistic Study of Dirty Language in the Courts, in the Movies, in the Schoolyards, and on the Streets*. John Benjamins Publishing Company.
5. Pinker, S. (2007). *The Stuff of Thought: Language as a Window into Human Nature*. Viking.
6. S. Khaydarova, Y. Khujamova (2024). The Vital Role of Libraries in Enriching Tourism Experiences. *IJISS Vol.14 No.2 April-June 2024*.
7. Y. Xodjamova (2024). Different and similar aspects of dysphemism in English and Uzbek. *Foreign Linguistics and Linguodidactics. Special Issue – 1 (2024) / ISSN 2181-3701*



UDK:811.521

**Jasurbek EGAMBERDIYEV,**  
*Andijon davlat chet tillar instituti dotsenti, PhD*  
E-mail: [jasurbek\\_egamberdiyev@mail.ru](mailto:jasurbek_egamberdiyev@mail.ru)

*ADCHTI dotsenti, PhD D.Qozoqboyeva taqrizi ostida*

#### ILMIY-TEXNIK TERMINLARNING TARJIMA MUAMMOLARI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA

Annotation

Mazkur maqola ilmiy-texnik terminlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni o'rganishga bag'ishlangan. O'zbek va ingliz tillari misolida ushbu masalaning dolzarbligi, terminologiyaning o'ziga xosligi va uning tarjima jarayonidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqola ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan tilshunolar, tarjimonlar va terminologiya bo'yicha mutaxassislar uchun mo'ljallangan. **Kalit so'zlar:** Globalizatsiya va texnologik rivojlanish, ilmiy-texnik terminlar, sinonimlik va ko'pma'nolilik, texnologik yangiliklar, ijtimoiy va madaniy farqlar.

#### PROBLEMS OF TRANSLATION OF SCIENTIFIC AND TECHNICAL TERMS: AS AN EXAMPLE OF UZBEKI AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation

This article is devoted to the study of the problems that arise in the process of translating scientific and technical terms. On the example of Uzbek and English languages, the relevance of this issue, the specificity of terminology and its role in the translation process are considered. The article is intended for linguists, translators and terminologists engaged in scientific research.

**Key words:** Globalization and technological development, scientific and technical terms, synonymy and ambiguity, technological innovations, social and cultural differences.

#### ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию проблем, возникающих в процессе перевода научно-технических терминов. На примере узбекского и английского языков рассматривается актуальность данного вопроса, специфика терминологии и ее роль в процессе перевода. Статья предназначена для лингвистов, переводчиков и терминоведов, занимающихся научными исследованиями.

**Ключевые слова:** Глобализация и технологическое развитие, научно-технические термины, синонимия и двусмысленность, технологические инновации, социальные и культурные различия.

**Kirish.** Globalizatsiya va texnologik rivojlanish sharoitida ilmiy-texnik terminlarni turli tillarga tarjima qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ingliz tili xalqaro ilmiy-texnik muloqotning asosiy vositasiga aylangani sababli, ushbu tildan boshqa tillarga, xususan, o'zbek tiliga terminlarni to'g'ri va aniqlik bilan tarjima qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida lingvistik va madaniy xususiyatlarning termin tarjimasiga ta'siri, xalqaro standartlarga muvofiqlik muammolari hamda terminlarni milliy tilga moslashtirishning asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. Mualliflar tomonidan tarjimonlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, ushbu tavsiyalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib beriladi.

Zamonaviy davrda fan, texnologiya va ijtimoiy hayotning tezkor rivojlanishi natijasida yangi tushunchalar va hodisalar paydo bo'lmoqda. Ushbu yangiliklarni ifodalash uchun yangi atamalarining shakllanishi zaruriyatga aylangan. Terminlar ilmiy, texnik, madaniy va boshqa sohalar o'rtasidagi muloqotning ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbek tilida yangi terminlarni shakllantirish masalasi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy jihatlarini ham qamrab oluvchi dolzarb masaladir. Mazkur maqolada o'zbek tilida yangi terminlarning shakllanishi jarayoni, bu boradagi asosiy muammolar va istiqbollarni ko'rib chiqamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ilmiy-texnik terminlarning xususiyatlari - ilmiy-texnik terminlar maxsus ma'lumotlarni ifodalashga mo'ljallangan va mazmunan aniq, qisqa hamda bir ma'noli bo'lishi kerak. Ingliz tilida qo'llaniladigan ko'plab terminlar o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri o'girilganda, ularning semantik yuki yoki madaniy konnotatsiyasi o'zgartirilishi ehtimoli mavjud. Shu sababli, terminlarni milliy madaniyatga moslashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Tarjima

jarayonidagi muammolar sifatida quyidagilarni qayd etishimiz mumkin:

Sinonimlik va ko'pma'nolilik: Ingliz tilida bir necha sinonim shaklda mavjud bo'lgan terminlarning o'zbek tilida yagona ekvivalentini topish qiyin. Bu esa ilmiy-texnik adabiyotlarni o'qishda tushunmovchilikka olib kelishi mumkin.

Xalqaro standartlarga moslik: Ko'plab ilmiy-texnik terminlar xalqaro standartlarga asoslanadi, biroq ularni mahalliy tilga moslashtirishda muvofiqlikni ta'minlash muammosi mavjud.

Yangi terminlar yaratish: Texnologik yangiliklar bilan birga yangi tushunchalar ham paydo bo'ladi. Ularni tarjima qilishda lingvistik va madaniy omillarni hisobga olish lozim.

Amaliy tavsiyalarlar sifatida quyidagilarni maslahat beramiz:

Terminlarni tarjima qilishda xalqaro standartlar va normativ hujjatlariga tayangan holda ishlash.

Har bir termin uchun uning ma'nosini aniqlovchi lug'atlar va izohli qo'llanmalardan foydalanish.

Yangi terminlarni yaratishda o'zbek tilining morfologik va semantik xususiyatlarini inobatga olish.

O'zbek tilida yangi terminlarni shakllantirishning asosiy usullarini ko'rib chiqsak:

O'zbek tilida yangi terminlarni shakllantirishda quyidagi asosiy usullar qo'llaniladi:

1. Xalqaro terminlarni o'zlashtirish:

a) Bunda xalqaro ilmiy-texnik atamalar bevosita qabul qilinadi (masalan, kompyuter, internet).

b) O'zlashgan terminlar milliy o'zbek tili fonetikasi va morfologiyasiga moslashtiriladi (masalan, "telephon" so'zi - "telefon"ga aylanishi).

2. O'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanish:



a) So'z yasash orqali yangi termin yaratish (masalan, matn muharriri).

b) Eskirgan so'zlarni yangi ma'noda qo'llash (dastur so'zining kompyuter kontekstida ishlatilishi).

3. Tarjima qilish:

a) Xorijiy tillardagi terminlarni o'zbek tiliga bevosita tarjima qilish ("software" so'zini "dasturiy ta'minot" tarzida tarjima qilish).

b) Murakkab atamalarni izohli tarjima usulida milliyalashtirish ("artificial intelligence" iborasini "sun'iy tafakkur" tarzida ishlatish).

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy texnologiya va ilm-fan rivojlanishi davomida yangi terminlar shakllanishi tabiiy jarayon bo'lib, u bir nechta omillarga asoslanadi. Ushbu jarayonning asosiy sabablari va mexanizmlari quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

1. Innovatsiyalar, yangi texnologiyalar, kashfiyotlar yoki ilmiy yutuqlar yangi tushunchalarni talab qiladi.

a) internet rivojlanishi bilan "onlayn", "veb-sayt", "elektron pochta" kabi terminlar paydo bo'ldi.

b) sun'iy intellektning rivojlanishi "chatbot", "neyron tarmoq", "algoritm" kabi atamalarni ommalashtirdi.

2. Xalqaro terminlarning moslashuvi - ilmiy va texnologik atamalar ko'pincha xalqaro miqyosda ingliz tilidan kelib chiqadi. Bu atamalar o'zbek tiliga o'zgartirilgan yoki to'g'ridan-to'g'ri qabul qilingan shaklda kirib keladi. Masalan: "smartfon", "kompyuter", "virus" kabi so'zlar xalqaro atamalarning bevosita qabul qilingan shakllaridir.

3. Texnologik ehtiyojlar tufayli yangi so'zlar yaratilishi - mahalliy tillarda yangi tushunchalarni ifodalash uchun mos so'zlar yaratiladi. Masalan: "dasturiy ta'minot" (software), "elektron hujjat" (e-document).

4. Omma orasida mashhur bo'lishi va tez tarqalishi - yangi texnologiyalar bilan bog'liq so'zlar ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va reklama vositasida tez ommalashadi. Natijada, bu so'zlar kundalik hayotda ham qo'llanila boshlaydi.

5. Tilshunoslik va standartlashtirish faoliyati - yangi terminlarning tilda to'g'ri va bir xil ishlatilishini ta'minlash uchun tilshunolar, olimlar hamda lug'atshunolar tomonidan ularni standartlashtirish ishlari olib boriladi. Masalan, o'zbek tilida terminologiyani rivojlantirish bo'yicha turli markazlar bu borada muhim rol o'ynaydi (misol uchun, Andijon davlat chet tillari institutida joylashgan Andijon Lug'atshunoslik Tarjimashunoslik Amaliy Ilmiy Innovatsion Markazi).

6. Texnologik madaniyatning ta'siri - har bir jamiyat o'z texnologik rivojlanish darajasiga qarab yangi terminlarni qabul qiladi yoki o'zlashtiradi. O'zbek tilida "mobil aloqa", "raqamli transformatsiya", "sun'iy intellekt" kabi terminlar texnologik madaniyat natijasi sifatida kirib kelgan. Yangi terminlar shakllanishi nafaqat ilmiy-texnologik sohalarini rivojlantirish, balki milliy tilni boyitish va zamonaviylashtirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon tilning rivojlanishi va global jarayonlarga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Olib borgan ilmiy tadqiqotlarimiz davomida terminlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda quyidagi murakkabliklar uchrashi aniqlandi:

1. Bir so'zning ko'p ma'noli bo'lishi - Ingliz tilidagi ko'p so'zlar bir nechta ma'noga ega bo'lib, kontekstga qarab ularning ma'nosini aniqlash talab etiladi. Masalan, "cell" so'zi biologiyada "hujayra", texnologiyada "batareya" yoki "uyali aloqa qismi" ma'nosini anglatadi.

2. So'zlarning o'zbek tilida muqobilining yo'qligi - Ba'zi terminlar o'zbek tilida hali to'liq shakllanmagan yoki umumiy foydalanilmaydi. Masalan, "interface" uchun bir xil ma'noda ishlatiladigan o'zbekcha so'z yo'q, ko'pincha transliteratsiya qilinib "interfeys" deb yuritiladi.

3. Fonetika va morfologiyadagi farqlar - Inglizcha terminlarning o'zbek tiliga moslashuvi fonetik va morfologik farqlar sababli qiyinchilik tug'diradi. Masalan, "strategy" so'zi "strategiya" shaklida moslashtiriladi, lekin talaffuzda qiyinchilik bo'lishi mumkin.

4. Sintaktik tuzilishdagi farqlar - Ingliz tili terminlari ko'pincha qisman so'z birikmalari sifatida tarjima qilinadi.

Masalan, "cloud computing" — "bulutli hisoblash" yoki "bulutli texnologiya" deb tarjima qilinadi. O'zbek tilida bu kabi iboralarning qisqa shaklda ishlatilishi murakkab bo'lishi mumkin.

5. Ijtimoiy va madaniy farqlar - Ba'zi terminlar o'zbek jamiyati uchun begona yoki yangilik bo'lib, ularning o'zlashuvi vaqt talab etadi. Masalan, "startup" so'zi ilgari notanish bo'lib, hozirgi kunda "startup" shaklida moslashmoqda.

6. Terminlarning xalqaro standartlashuvi - Ba'zi terminlarni xalqaro standartlarga moslashtirish kerak bo'ladi, lekin bu jarayon o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlariga moslashuvi bilan ziddiyatga kirishi mumkin. Masalan, "blockchain" so'zi ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri o'zlashgan holda ishlatiladi. Ushbu muammolarni hal qilishda quyidagilar tavsiya qilinadi:

a) konseptual yondashuv: kontekstni hisobga olib, terminning aniq va lo'nda tarjimasi ustida ishlash.

b) transliteratsiya va adaptatsiya: o'zbek tilida ishlatilmaydigan so'zlarni moslashtirish (masalan, interfeys, blokcheyn).

c) izohli lug'atlar yaratish: inglizcha-o'zbekcha terminologik lug'atlar ishlab chiqish.

d) mutaxassislarining hamkorligi: tarjima jarayonida sohaning mutaxassislari bilan maslahatlashish.

**Tahlil va natijalar.** Yangi terminlarni shakllantirishda uchraydigan muammolarga quyidagilarni kiritish mumkin deb o'ylaymiz:

Ekvivalentlik muammosi: ayrim xorijiy terminlarga o'zbek tilida aniq ekvivalent topishning qiyinligi. Bu holat ilmiy va texnik sohalaridagi murakkab tushunchalar bilan bog'liq bo'ladi.

Til birligi va standartlashuv muammosi: bir xil terminning turli variantlarda qo'llanilishi (masalan, kompyuter, komputer). Terminlarni standartlashtirish bo'yicha yagona tizimning yo'qligi.

Xalqaro atamalarni moslashtirishdagi qiyinchiliklar:

a) ba'zi xalqaro terminlar milliy til fonetikasi va grammatikasiga mos kelmasligi.

b) o'zlashgan terminlarning noto'g'ri talqin qilinishi yoki noto'g'ri yozilishi.

Jamiyatdagi qarshilik:

a) ba'zi yangi terminlarning qabul qilinishi va ommalashishi uzoq davom etadi.

b) yangi terminlar aholi tomonidan tushunarsiz qabul qilinishi mumkin.

Yangi terminlarni shakllantirishning istiqbollari sifatida quyidagi jihatlarni muhim deb hisoblaymiz:

Standartlashuv jarayonini takomillashtirish:

a) milliy terminologiya bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar hamda terminshunolar faoliyatini kuchaytirish.

b) terminlarni standartlashtirishga qaratilgan qonunchilik va hujjatlarni ishlab chiqish.

Ilmiy-tadqiqot ishlari:

a) terminologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish.

b) fan va texnologiya sohalarida o'zbek tiliga mos yangi terminlarni ishlab chiqish.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish:

a) terminologik lug'atlarni raqamli shaklda yaratish va ulardan foydalanishni osonlashtirish.

b) sun'iy intellekt yordamida yangi terminlarni ishlab chiqish jarayonini tezlashtirish.

Jamiyatdagi savodxonlikni oshirish:

a) o'quv muassasalarida terminologiya masalalarini chuqur o'rganish.

b) yangi terminlarning ommaviy axborot vositalarida to'g'ri qo'llanilishini targ'ib qiluvchi ko'rsatuvlar va radioeshittirishlar tayyorlash.

**Xulosa.** Ilmiy-texnik terminlarni tarjima qilish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniy va texnik bilimlarni ham talab qiladi. Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar va tavsiyalar tarjimonlarga ilmiy-texnik matnlar bilan ishlashda yordam beradi. Shuningdek, ushbu tadqiqot ilmiy-texnik terminologiya sohasidagi kelgusi izlanishlar uchun zamin yaratadi. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidan o'zbek tiliga terminlarni tarjima qilish



murakkab jarayon bo'lib, yuksak lingvistik va madaniy bilimlarni talab qiladi. Tarjima jarayonida ilmiy yondashuv va metodologiyaga tayangan holda, muammolarni hal etish va to'g'ri natijalarga erishish mumkin. Tarjimaning sifatini oshirish uchun mutaxassislarning hamkorligi va ilmiy resurslardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tilida yangi terminlarni shakllantirish jarayoni zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Bu jarayon tilning boyishi va fan-texnika sohasida rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Muammolarni hal qilish uchun standartlashuv, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va jamiyatni yangi terminlarni qabul qilishga tayyorlash zarur. Yangi terminlarni shakllantirishdagi muvaffaqiyatlar o'zbek tilining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abduazizov, A.A. (2009). Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Nazarov, Q.N. (2021). Terminologiya va tarjima masalalari. Toshkent: Fan.
3. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Usmonov, S. (2020). Inglizcha terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilishdagi semantik murakkabliklar. Filologiya masalalari jurnali, 3(2), 45-52.
5. Jo'rayev, N. "O'zbek terminologiyasi: shakllanishi va rivojlanishi." Toshkent: Fan, 2006.
6. Sodiqov, M. "Terminologiya asoslari." Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010.



**Shaxlo YAKUBOVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*  
E-mail: yokubovashahlo@gmail.com

*F.f.d., prof. N.Rahmonov taqrizi asosida*

## THE SIGNIFICANCE OF FOLKLORISM IN CREATIVE PROCESSES AND ITS APPLICATION

### Аннотация

This article is dedicated to the significance of folklorism in creative processes and its application in the creation of literary works. Folklorism serves as an important means of reflecting national culture and traditions in literature. The article analyzes the role of folklorism not only in the creation of literary works but also in enhancing their artistic and aesthetic value. It also examines the reinterpretation of national heritage in modern literary creativity and its reflection in new forms. Folklorism is studied as a powerful tool for preserving traditional culture and transmitting it to the next generation.

**Key words:** folklorism, national culture, creative process, literary work, artistic and aesthetic value, traditions, modern literature, national heritage, cultural integration, folklore motifs.

## ЗНАЧЕНИЕ ФOLKLORИЗМА В ТВОРЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ И ЕГО ПРИМЕНЕНИЕ

### Аннотация

Данная статья посвящена значению фольклоризма в творческих процессах и его использованию при создании литературных произведений. Фольклоризм выступает как важное средство отражения национальной культуры и традиций в литературе. В статье анализируется роль фольклоризма не только в создании литературных произведений, но и в повышении их художественно-эстетической ценности. Также рассматривается переосмысление национального наследия в современном литературном творчестве и его отражение в новом облике. Фольклоризм исследуется как мощное средство сохранения традиционной культуры и передачи ее новым поколениям.

**Ключевые слова:** фольклоризм, национальная культура, творческий процесс, литературное произведение, художественно-эстетическая ценность, традиции, современная литература, национальное наследие, культурная интеграция, фольклорные мотивы.

## FOLKLORIZMNING IJODIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI VA UNING QO'LLANILISHI

### Аннотация

Ushbu maqola folklorizmning ijodiy jarayonlardagi ahamiyati va uning adabiy asarlar yaratilishida qo'llanilishiga bag'ishlangan. Folklorizm milliy madaniyat va an'analarni adabiyotda aks ettirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada folklorizmning nafaqat adabiy asarlar yaratilishidagi, balki ularning badiiy-estetik qiymatini oshirishdagi o'rni ham tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy merosning zamonaviy adabiy ijodda qayta talqini va yangicha qiyofada aks etishi ko'rib chiqiladi. Folklorizm an'anaviy madaniyatni saqlash va uni yangi avlodga yetkazish uchun qudratli vosita sifatida tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** folklorizm, milliy madaniyat, ijodiy jarayon, adabiy asar, badiiy-estetik qiymat, an'analar, zamonaviy adabiyot, milliy meros, madaniy integratsiya, folklor motivlari.

**Kirish.** Folklorizm adabiyot va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganishda muhim nazariy konsepsiya sifatida qaraladi. Bu tushuncha xalq og'zaki ijodi elementlarini adabiyotga, ijodiy jarayonlarga integratsiya qilish jarayonini anglatadi. Folklorizm milliy an'analar, tarixiy xotira va madaniy merosni saqlash bilan bir qatorda, ularni zamonaviy badiiy asarlarda qayta talqin qilish imkonini beradi [2]. Ushbu jarayon adabiyotning faqat milliy emas, balki xalqaro miqyosdagi estetik qadr-qimmatini oshiradi.

Folklorizm orqali adabiyot xalqning tarixiy-madaniy tajribasini aks ettiradi va shu bilan birga, bu an'analarni yangi shakllarda ifodalashga xizmat qiladi. Xususan, xalq ertaklari, qo'shiqlari va dostonlari zamonaviy adabiyotda keng qo'llanilib, ularning mavzu va obrazlari yangi badiiy qiyofada namoyon bo'ladi [5]. Shu bilan birga, folklorizm nafaqat adabiy ijod uchun manba, balki o'ziga xos badiiy va axloqiy-estetik mezon sifatida ham xizmat qiladi.

Mazkur maqola folklorizmning adabiy jarayondagi ahamiyatini, uning badiiy asarlarda qanday qo'llanilishini va milliy madaniyatni rivojlantirishdagi rolini yoritishga qaratilgan. Shuningdek, maqolada folklorizmning ijodiy jarayonlarda qanday yangi qirralar ochib berishi tahlil qilinadi. Bu mavzu milliy madaniy merosning davomiyligini ta'minlash va uni kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Folklorizmga oid ilmiy adabiyotlar xalq og'zaki ijodi va uning adabiy jarayondagi ahamiyatini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi. A.G'afurovning

“O'zbek adabiyotida xalq og'zaki ijodi an'analari” [1] kitobi milliy adabiyotimizda folklorizmning shakllanishi va rivojlanish jarayonini yoritadi. T.Mirzaevning “Folklor va adabiyot” [3] asari esa folklor elementlarining badiiy ijodda o'z ifodasini topishini o'rganishga bag'ishlangan. O.Qayumovning “Folklorizm va uning adabiy jarayondagi o'rni” [4] kitobi folklorizmning adabiy obrazlar yaratishdagi rolini va milliy an'analarni saqlashdagi ahamiyatini ochib beradi.

Rus tilidagi asarlar ham folklorizm nazariyasi va uning qo'llanilishini o'rganishda muhim o'rin tutadi. V.Y.Proppning “Морфология сказки” [8] asari ertaklar strukturasi tahliliga asoslangan bo'lib, bu sohada fundamental tadqiqot hisoblanadi. M.M.Baxtinning “Вопросы литературы и эстетики” [6] asarida adabiyot va folklor o'rtasidagi bog'liqlik keng tahlil qilingan. Shuningdek, A.I.Novikovning “Фольклор и литература” [7] asari folklor motivlarining adabiyotda qayta ishlanish jarayonini o'rganishga qaratilgan. Ushbu adabiyotlar folklorizmning nazariy va amaliy qirralarini ochib berib, uning ijodiy jarayondagi ahamiyatini tushunishga katta hissa qo'shadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda folklorizmning adabiy jarayonlardagi ahamiyatini o'rganish uchun kompleks ilmiy usullar qo'llanildi [10].

Birinchidan, nazariy tahlil usuli asosida folklorizm tushunchasi, uning shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq mavjud adabiyotlar o'rganildi. Bu usul yordamida xalq og'zaki ijodining adabiyotga integratsiyasi hamda badiiy asarlarning mazmun va strukturaviy xususiyatlari tahlil qilindi.

Ikkinchidan, taqqoslash usuli orqali folklor elementlarining o'zbek va rus adabiyotidagi ifodasi o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlandi. Bu usul milliy va xalqaro adabiyotlarda folklorizmning o'rni va ko'rinishlarini qiyosiy o'rganish imkonini berdi.

Shuningdek, tarixiy-uslubiy tahlil usuli yordamida folklorizmning adabiyotdagi evolyutsiyasi, uning zamonaviy ijodda qo'llanilish qirralari o'rganildi. Folklor elementlarining milliy madaniyatni saqlash va yangi estetik qiyofalarda namoyon bo'lishidagi roli tadqiq etildi [9].

Bundan tashqari, matnshunoslik tahlili yordamida o'zbek adabiyotidagi muayyan badiiy asarlar tahlil qilinib, ularda

folklorizmning qo'llanilish usullari o'rganildi. Ushbu metodlar integratsiyasi tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlab, folklorizmning adabiy ijodidagi o'rni haqida aniq xulosalar chiqarishga imkon berdi.

**Tahlil va natijalar.** Mazkur tadqiqotda folklorizmning adabiy jarayonlardagi o'rni va ahamiyati chuqur o'rganildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: folklorizm milliy madaniyat va badiiy ijodning uzviy qismi bo'lib, xalq og'zaki ijodi an'analari zamonaviy adabiyotga tatbiq qilishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, folklor elementlari o'zbek adabiyotida mavzu, obraz va badiiy tasvir vositalarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval.

Folklor elementlarining adabiy asarlarda ifodalanishi


| Asar turi      | Folklor elementi turi          | Qo'llanilish usuli                          | Natijalar                                        |
|----------------|--------------------------------|---------------------------------------------|--------------------------------------------------|
| Lirik she'rlar | Maqollar, xalq qo'shiqlari     | Obrazlarning estetik ta'sirini kuchaytirish | Asarning hissiy jihatini oshirish                |
| Nasriy asarlar | Afsonalar, ertak syujetlari    | Mavzuni xalqona ruhda ochib berish          | Milliy madaniyatni aks ettirish                  |
| Dramaturgiya   | Marosim va urf-odat tasvirlari | Voqealarni jonli va tabiiy qilib ifodalash  | Tomoshabin bilan emotsional bog'lanish o'rnatish |
| Epik asarlar   | Dostonlardan olingan motivlar  | Milliylik ruhini asarda namoyish etish      | Madaniy merosni saqlash va avlodlarga yetkazish  |

Tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, folklorizmning asosiy vazifalaridan biri xalq an'analari va qadriyatlarini badiiy tasvir vositasida saqlash hamda adabiyot orqali zamonaviy madaniyatga tatbiq etishdir. Folklor elementlarining qo'llanilishi adabiy asarlarni nafaqat milliy mazmun bilan boyitadi, balki ularning xalqaro miqyosdagi badiiy qadriyatini ham oshiradi.

Natijalarga ko'ra, folklorizm orqali xalqning tarixiy-madaniy xotirasi saqlanib, bu an'analari yangi avlodlar uchun ma'naviy manba sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, xalq ijodining zamonaviy adabiyotda qayta talqini milliy madaniyatni jahon adabiyoti kontekstida yangi qirralarda ko'rsatish imkonini beradi. Folklorizmning adabiy jarayonlardagi ahamiyatini o'rganish davomida aniqlanishicha, folklor elementlarining adabiy asarlarda qo'llanilishi nafaqat badiiy-estetik qiymatni oshiradi, balki madaniy xotirani mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Xalq og'zaki ijodi asosida yaratilgan mavzu va obrazlar adabiyotni o'ziga xos milliylik ruhi bilan boyitib, uning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Folklor elementlari adabiy janrlarning turli ko'rinishlarida qo'llanilganligi kuzatildi. Xususan, o'zbek lirik she'riyatida maqol va xalq qo'shiqlaridan foydalanish orqali asarlarning hissiy samimiyligi kuchaytirilgan. Nasriy asarlarda afsona va ertak syujetlarining ishlatilishi mavzuni xalqona ruhda ifodalashga imkon bergan. Dramaturgiya janrida esa marosim va urf-odat tasvirlari voqealar dinamikasini jonlantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, folklorizm orqali milliy merosning zamonaviy kontekstda qayta talqin qilinishi milliy madaniyatni rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qilayotgani aniqlandi. Adabiy asarlarda xalq ijodiga xos obraz va motivlardan foydalanish orqali, milliylikning jahon adabiyotidagi mavqeini oshirish imkoniyati mavjud ekanligi ta'kidlandi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, folklorizm adabiy ijodda nafaqat milliy madaniyatni aks ettiradi, balki uni yangi qirralarda yoritish va kelajak avlodga yetkazishda ham samarali vosita hisoblanadi. Shu tariqa, folklorizm ijodkorlar uchun ijodiy ilhom va madaniy xotirani boyitishning muhim manbai sifatida ahamiyatlidir.



1-rasm. Folklor elementlarining adabiy asarlarga ta'siri.

Yuqoridagi diagramma folklor elementlarining turli adabiy asar turlariga ta'sirini ko'rsatadi. "Madaniy qiymat" va "Estetik ta'sir" kategoriyalari bo'yicha ta'sir darajalari lirik she'rlar, nasriy asarlar, dramaturgiya va epik asarlar bo'yicha qiyosiy tahlil qilingan. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, folklor elementlari barcha janrlarda yuqori samara beradi, ayniqsa, estetik ta'sir jihatidan epik asarlar yetakchilik qiladi.

Folklorizm adabiyotda milliy madaniyat va badiiy-estetik qadriyatlarni boyitishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, folklor elementlari asarlarning mazmuni va hissiy ta'sirini oshirib, milliy merosni zamonaviy kontekstda yoritishga imkon beradi. Bu ijodkorlar uchun ilhom manbaidir.

**Xulosa va takliflar.** Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, folklorizm adabiyot va milliy madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash muhim omil hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining elementlari badiiy asarlarni boyitib, ularning estetik va ma'naviy ta'sirini oshirishga xizmat qiladi.

Folklorizmning adabiyotga tatbiq qilinishi milliy merosni zamonaviy kontekstda talqin etish hamda yangi qirralarda ko'rsatishga imkon beradi. Bu jarayon xalq an'analari va qadriyatlarini asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Folklor elementlari o'zbek adabiyotida keng qo'llanilib, mavzu, obraz va tasvir vositalarining boyitilishiga hissa qo'shgan. Xususan, maqol, ertak va xalq dostonlarining mavzu va syujetlarda qo'llanilishi milliylik ruhi va madaniy xotiraning uzviyligini ta'minlagan. Folklorizmning dramaturgiya va nasriy asarlarda jonli ifodalanishi voqealarning tabiiyligi va badiiy ta'sirchanligini kuchaytirgan. Shu bilan birga, milliy madaniyatning zamonaviy adabiyotda o'z aksini topishi xalq ijodining boy imkoniyatlarini ochib beradi.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, folklorizmni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va zamonaviy adabiyotda uning qo'llanilish qirralarini chuqur tahlil qilish zarur. Ikkinchidan,

o'zbek va xalqaro adabiyotda folklor elementlarining uyg'unligini o'rganib, qiyosiy tadqiqotlar olib borish foydali bo'ladi. Uchinchidan, folklorizm asosida yaratilgan asarlarni tahlil qilish uchun ilmiy va amaliy seminarlar tashkil qilish muhim. To'rtinchidan, yosh ijodkorlarni xalq og'zaki ijodining boy merosidan ilhom olishga rag'batlantirish va ularning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash lozim. Beshinchidan,

folklorizmning zamonaviy adabiyotda yangi badiiy shakllarda ifodalanishini qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish katta ahamiyatga ega. Mazkur takliflar folklorizmning adabiy jarayonlardagi ahamiyatini yanada oshirish va milliy madaniy merosni rivojlantirishga xizmat qiladi. Folklorizm orqali milliylik va zamonaviylik uyg'unligini saqlash imkoniyati mavjud.

#### ADABIYOTLAR

1. G'afurov A. O'zbek adabiyotida xalq og'zaki ijodi an'analari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 220 b.
2. Karimov I. O'zbek she'riyatida folklorizmning ahamiyati. – Toshkent: Adabiyot, 2012. – 156 b.
3. Mirzaev T. Folklor va adabiyot. – Toshkent: Fan, 1985. – 198 b.
4. Qayumov O. Folklorizm va uning adabiy jarayondagi o'rni. – Toshkent: Fan, 1990. – 180 b.
5. Usmonov S. O'zbek folklorining nazariy asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 240 b.
6. Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература, 1975. – 502 с.
7. Новиков А.И. Фольклор и литература. – Ленинград: ЛГУ, 1983. – 275 с.
8. Пропп В.Я. Морфология сказки. – Москва: Издательство Московского университета, 1928. – 158 с.
9. Толстой Н.И. Очерки славянского язычества. – Москва: Индрик, 1995. – 400 с.
10. Фрейденберг О.М. Поэтика сюжета и жанра. – Москва: Академия наук СССР, 1936. – 319 с.